

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 7, 2024

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 7, 2024

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 7(11) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 7-son Buxoro - 2024. - 328 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 7. Бухара - 2024. - 338 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 26.11.2024 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 20,5 Buyurtma № 351. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Azamov Abubakir Ne’matjon o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi,
Abdullajonova Sitora Xusan qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

BOLALAR PSIXOLOGIYASI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY-MUHITNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqola bolalar psixologiyasi rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni mavzusida bo‘lib, asosan maktabgacha yosh davrdagi bolalarning psixikasi rivojlanishiga tashqi omillarning ta’sirini ko‘rib chiqadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarga qanday omillar salbiy va qanday omillar ijobiy ta’sir qilishi, qanday oqibatlarga olib kelishi yoritilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha kichik tadqiqot ko‘rib chiqiladi. Psixika rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladigan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yetuk insonlarni voyaga yetkazishimizda katta ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar. *Psixika,kongnitiv jarayonlar, agressiya, ijtimoiylashuv, empatiya, intellektual salohiyat, internetga qaramlik, metodikalar, konformlik, ehtiyoj, ontogenez, miyya tuzilishi, e’tibor, xotira, nutq, til muammolarni hal qilish ko‘nikmasi.*

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ОКРУЖЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПСИХОЛОГИИ ДЕТЕЙ

Аннотация. *Данная статья посвящена теме роли социальной среды в развитии детской психики и рассматривает в основном влияние внешних факторов на развитие психики детей дошкольного возраста. Освещается, какие факторы оказывают негативное и позитивное влияние на детей дошкольного возраста, каковы последствия. Будет рассмотрено небольшое исследование по этой теме. Выявление и устранение факторов, негативно влияющих на развитие психики, приобретает большое значение в нашем взрослении зрелых людей.*

Ключевые слова*. Психика, познавательные процессы, агрессия, социализация, эмпатия, интеллектуальный потенциал, интернет-зависимость, методики, конформизм, потребность, онтогенез, структура мозга, внимание, память, речь, язык, навыки решения проблем.*

THE ROLE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN’S PSYCHOLOGY

Abstract. *This article is on the topic of the role of the social environment in the development of the psyche of children and largely considers the influence of external factors on the development of the psyche of children of preschool age. What factors are negative and what factors positively affect children in preschool age, what are the consequences. A small study on this topic will be considered. The identification and elimination of factors that negatively affect the development of the psyche is of great importance in the maturation of mature people.*

Keywords. *Psychics, cognitive processes, aggression, socialization, empathy, intellectual capacity, internet addiction, methodoclogies, conformity, need, ontogenesis, attention, memory, speech, language, problem halting skills.*

Maktabgacha yosh davri o‘yin yoshi deb ataladi va unga 3-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg‘usi, qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi xohish-istakni ro‘yobga chiqarish yo‘li to‘sib qo‘yilsa, buning uchun u o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda, ya’ni guruh o‘yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola turli ro‘llar bajarib ko‘rishiga, uning xayoloti o‘sishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi. Bunday davrda bola ijtimoiy muhitga qarab o‘zgara boshlaydi. Bunday yoshdagi bolalar asosan bog‘chalarda tarbiyalanadi. Bu davrda o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu davda bolalar xuddi ko‘zguga o‘xshaydi, sababi, atrofidagi odamlar nimani qilsa shuni takrorlashga harakat qiladi. Bu

davr kongnitiv jarayonlar rivojlanadigan eng asosiy davr hisoblanadi. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha insonning bog‘cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalar xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek bola ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Bu davrda bolalarda ham jismoniy, ham aqliy o‘sish bo‘ladi. 3 yoshda o‘zini o‘zi anglash va yangi muhitga o‘rganish, ijtimoiylashuv(bog‘chaga boradigan bolalarda) bo‘ladi. Bu paytda agressiya kelib chiqishi ta’biiy hol.

Bolalar agressiyasi - bu ularning xatti-harakatlari boshqalarga zarar yetkazishga yoki ularni xafa qilishga qaratilgan bo‘lsa, yuzaga keladi. Bu turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, jumladan jismoniy, og‘zaki, verbal, ijtimoiy va passiv-agressiyalar.

Bolalarning agressiyasi nima sababdan yuzaga keladi?

* Genetika: Ba’zi bolalar genetik jihatdan agressiv bo‘lishga moyil bo‘lishlari mumkin.

* Atrof-muhit: Agressiya oilaviy muhit, zo‘ravonlik, giyohvandlik yoki ruhiy kasalliklar bolalarning agressiv xatti-harakatlariga olib kelishi mumkin.

* Ijtimoiy ta’sirlar: Agressiv tengdoshlar yoki ommaviy axborot vositalari orqali ko‘rilgan zo‘ravonlik bolalarga agressiv xatti-harakatlarni o‘rgatishi mumkin.

* Shaxsiyat xususiyatlari: Ba’zi bolalar impulslarini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari yoki o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda etishni bilmasliklari mumkin.

* Ruhiy kasalliklar: Ba’zi ruhiy kasalliklar, masalan, ADHD yoki autizm, bolalarda agressiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Agressiv bolalarga qanday munosabatda bo‘lish kerak?[1]

* Tushunish: Agressiv xatti-harakatning sababini tushunish juda muhim.

* Cheklash: Agressiv xatti-harakatlarni to‘xtatish uchun aniq va qat’iy chegaralar belgilash kerak.

* Muloqot: Bola bilan ochiq va halol muloqot qilish kerak, uning his-tuyg‘ularini tushunish va unga ularni sog‘lom usullar bilan ifoda etishga yordam berish kerak.

* O‘rganish: Bolalarga xotirjam va haqorat qilmaydigan tarzda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga va muammolarni hal qilishga yordam berish kerak.

* Professional yordam: Agar agressiv xatti-harakat davom etsa yoki jiddiy bo‘lsa, professional yordamga murojaat qilish kerak.

Agressiv xatti-harakatning oldini olish:

* Ota-onalarning ta’siri: Ota-onalar bolalarga xotirjam va haqorat qilmaydigan tarzda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rgatishga yordam berishlari mumkin.

* Ijtimoiy ta’sirlar: Bolalarga zo‘ravonlikni ko‘rsatmaslik va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni nazorat qilish kerak.

* Ta’lim: Maktablar va jamiyatda bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, muammolarni hal qilish va boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish kerak. Hozirgi kunda bolalarni haqoratlash, kaltaklash va ijtimoiy tarmoqlardan bemalol foydalanishga ruxsat berish holatlari ko‘payib ketmoqda. Universitet tomonidan maktabgacha ta’lim muassasasiga amaliyotga jo‘natishdi va u yerda umuman kutilmagan hodisalarga guvoh bo‘ldim. Bog‘cha bolalarining ko‘pi asabiy, gapga kirmaydi va bog‘chaga yig‘lagan holatda keladi. Avvaliga bu xolatni tabiiy deb o‘yladim va kuzatishni boshladim. Bolalar tabiiyki juda ham sho‘x va o‘yinqaroq edilar. Kuzatishni davom ettirdim, kuzatuvlarim shuni ko‘rsatdiki, bolalarning agressivligi qayerdan kelib chiqqani va agressivlik qay darajada ta’sir qilayotgani meni e’tiborimni tortdi. Bolalarni kongnitiv jarayonlarini tekshirish uchun har xil metodikalar “Gemakules”, “quvnoq odamchalar” kabi metodikalar qo‘lladim. Natijalar, albatta, kutilganidan past. Bilim olishida ham, she’r yodlashda ham muammolarga duch kelishadi. Yod olgan she’rlarini ertasi kuni so‘rasangiz, aytib bera olishmaydi. Zo‘rlik bilan berilgan bilim xuddi dengiz sohiliga yozilgan so‘zga o‘xshaydi. Oqim kuchayib

1.Грейс Крайг, Дон Бокум. Психология развитияю 2005.68-98- бетлар

2.Под редакцией В.И, Лубовского учебное пособие. Специальное психология. 2005 76-114 бетлар

sohildagi so‘zni kelib yuvadi ketadi.Yangi zamonaviy bolalar e’tiborini tortadigan metodikalarni har kuni bolalarga o‘rgatishni boshladim. Bolalar deyarli televizor ko‘rmay qo‘yishdi. O‘yinchoqlarga muhabbatni uyg‘otish uchun turli o‘yin va metodikalar o‘ylab topishga harakat qildim va uch kunda o‘zim kutgan natijaga erishdim. Bolalardan televizor ko‘ramizmi yoki o‘yinchoq o‘ynaymizmi deb savol berganimda o‘yinchoq o‘ynashni xohlashdi. Biz e’tibor bermaydigan shu o‘yinchoqlar bolalar uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Buning natijasida bolalarda atrofga va yaqinlariga nisbatan empatiya shakllandi. Empatiya -bu boshqalarning his tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini va fikrlashini tushunish va his qilish qobiliyatidir. Bu odamning o‘zini tajribasidan tashqari, boshqa odamning nuqtayi nazaridan dunyoga qarashni anglatadi. Empatiya insonlarga boshqa insonlarga nisbatan mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik va tushunish bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Bolalarda empatiya rivojlanishi bir necha bosqichda va turli omillar ta’sirida sodir bo‘ladi.

Tug‘ilishdan ikki yoshgacha: Bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ulariga e’tibor qarata boshlaydilar va boshqalarning his-tuyg‘ularini aks ettira olishadi, lekin bu ularning o‘zlarining ehtiyojlariga bog‘liq. Masalan, agar bola yig‘layotgan bo‘lsa, u ota-onasidan ham yig‘lashni talab qilishi mumkin.

2-4 yosh: Bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini aniqlash va ularga nisbatan javob berishni boshlaydilar. Ular "meni xafa qilding" kabi iboralarni ishlatishlari mumkin. Biroq, ular hali ham o‘zlarining ehtiyojlariga ko‘proq e’tibor qaratishadi.

4-6 yosh: Bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishda yaxshilanishadi va ularga nisbatan mehr-muhabbatli munosabatda bo‘lishlari mumkin. Ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini ifoda etishda ham yaxshiroq bo‘lishadi.

6-8 yosh: Bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishda ancha yaxshiroq bo‘lishadi va ularga nisbatan o‘zlarini qo‘yishga harakat qilishlari mumkin. Ular o‘zlarining xatti-harakatlarining boshqalarga qanday ta’sir qilishini tushunishni boshlaydilar.

8 yosh va undan keyin: Empatiya rivojlanishi davom etadi va kattalikda yuqori darajaga etadi. Bolalar boshqalarning murakkab his-tuyg‘ularini tushunish va ularga nisbatan javob berishda yaxshiroq bo‘lishadi.

Empatiya shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar:

Ota-onalarning ta’siri: Ota-onalarning bolalar bilan empatiya bilan munosabatda bo‘lishi, ularning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilishlari, empatiya rivojlanishiga katta ta’sir qiladi.

Oilaviy muhit: Iste’dodli, mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi oila muhiti bolalarda empatiya rivojlanishiga yordam beradi.

Do‘stlar va tengdoshlar: Bolalar tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda empatiya rivojlanishiga o‘rganadilar.[1]

Madaniyat: Har bir madaniyatda empatiya ko‘rsatishning o‘ziga xos usullari mavjud

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish: Bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasi empatiya rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Empatik bolalar boshqalar bilan yaxshiroq aloqa o‘rnatishadi, do‘stona munosabatlarni rivojlantirishadi va jamiyatga foydali a’zolar bo‘lishadi.Hattoki, kongnitiv jarayonlarga ham ta’siri bor. Kaltaklashning bolalarning kongnitiv jarayoniga ta’siri juda jiddiy va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Kaltaklash bolalarning miya rivojlanishiga, xotirasiga, e’tiboriga, tilga, muammolarni hal qilish qobiliyatiga va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kaltaklanish bolalarning miya hajmining kamayishiga olib kelishi mumkun. Bu,ayniqsa, profrontal korteksga ta’sir qiladi, bu qism rajalashtirish, xotira, e’tibor va ijtimoiy-hissiy xatti-harakatlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Miya tuzilishi: Kaltaklanish miyaning turli qismlari o‘rtasidagi ulanishlarni buzishi mumkin, bu kognitiv jarayonlarning samaradorligini pasaytiradi.

Nevrokimyo: Kaltaklanish stress gormonlarining darajasini oshirishi mumkin, bu miya funktsiyasini buzadi va neyronlarning o‘sishiga ta’sir qiladi.

[1] L.R. Mominova, SH.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya.Toshkent-2013-86-94-betlar

Kognitiv funktsiyalar:

E'tibor: Kaltaklanish bolalarning e'tiborini jamlash, yangi ma'lumotlarni qabul qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Xotira: Kaltaklanish bolalarning xotirasiga salbiy ta'sir qiladi. Ular yangi ma'lumotlarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishlari va oldingi xotiralarini eslashda muammolarga duch kelishlari mumkin.

Til: Kaltaklanish bolalarning til rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Ular so'z boyligiga ega bo'lishda va jumlalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Muammolarni hal qilish: Kaltaklanish bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ular mantiqiy fikrlashda va muammolarni samarali echishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish:

Empatiya: Kaltaklanish bolalarning empatiya qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Ular boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari va ularga nisbatan mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishda qiynalishlari mumkin.

Ijtimoiy ko'nikmalar: Kaltaklanish bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Ular boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishda qiynalishlari va do'stlar orttirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

O'zini boshqarish: Kaltaklanish bolalarning o'zini boshqarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ular g'azabni boshqarishda qiynalishlari va tajovuzkor xatti-harakatlarda bo'lishlari mumkin.

Inson xayotida 3 asosiy davr bo'ladi. O'yin, o'qish, ishlash. Xamma davr o'z o'rnida bo'lishi bu judayam muhim va shart. Bizni kelajagimiz bo'lgan bolalarni qanday tarbiya qilish bu o'zimizning qo'limizda. Agar bolalarga ta'lim va tarbiyada xatolarga yo'l qoyib tarbiyalansa tasavvur qiling qanday holatta ulg'ayishdi. Eng kamida kuchli konformlikka ega bo'lgan bolalarni tarbiyalaymiz.

Konformlik- bu odamning atrof muhitdagi boshqa odamlarning fikrlariga, qarashlariga va hatti-harakatlariga moslashish tendensiyasidir. Eng kuchsiz odam bu ,albatta ,o'z fikriga ega bo'lmagan odam hisoblanadi. Uni qaysi yo'lga boshlasangiz o'sha yo'lga qarab ketadi. Juda ham achinarli tog'rimi? Inson qanchalik o'z fikriga, o'z qarashlariga ega bo'lsa yangiliklar yaratish ko'nikmalari ham shunchalik yuqori bo'ladi. Rivojlanish bosqichidagi davlat uchun o'z fikriga, o'z qarashlariga ega yangilikka intiluvchi insonlar juda ham muhim.

Xulosa: bolalar qancha sog'lom muhitda katta bo'lsa, ruhan sog'lom insonlar qo'lida tarbiyalansa, shuncha yetuk inson bo'lib yetishadi.Notog'ri berilgan ta'lim va tarbiya bolalar kongnitiv jarayoniga juda jiddiy ta'sir qiladi. Bu miyya rivojlanishiga, xotirasiga, e'tiboriga, nutqiga, muammolarni xal qilish qobiliyatiga va ijtimoiy hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Kaltaklanishning uzoq muddatli ta'siri ham jiddiy bo'lib, kattalar hayotida ruiy va ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumku. Shuni unitmaslik kerakki, biz bugun tarbiyalab voyaga yetkazayotgan bolalar mamlakatimizning ertasi qo'lida bolgan bolalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Грейс Крайг, Дон Бокум. Психология развитияю 2005. 68-98- бетлар
2. Под редакцией В.И, Лубовского учебное пособие. Специальное психология. 2005-76-114 бетлар
3. L.R. Mominova, SH.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya.Toshkent-2013--86-94-betlar
4. E.G'.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. 98-112-betlar

G‘iyosova Vasilaxon Shukurulla qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti

TA’LIM MUHITIDA TURLI SINF O‘QUVCHILARIDA AGRESSIVLIKNING NAMOYON BO‘LISHI BULLINGLI VAZIYAT YUZAGA KELISHI OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim muhitida turli sinf o‘quvchilarida agressivlikning namoyon bo‘lishi bullingli vaziyat yuzaga kelishi omillaridan biri sifatida o‘rganilganligi hamda tegishli metodikalar yordamida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Bulling, agressivlik, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, bilvosita tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik, aybdorlik hissi*

ПРОЯВЛЕНИЕ АГРЕССИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ РАЗНЫХ КЛАССОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ КАК ОДИН ИЗ ФАКТОРОВ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СИТУАЦИИ БУЛЛИНГГА

Аннотация. *В данной статье изложен анализ результатов исследования, проведенного с использованием соответствующих методик, а также изучено проявление агрессивности у учащихся разных классов в образовательной среде как один из факторов возникновения ситуации с выпивкой.*

Ключевые слова: *Буллинг, агрессивность, физическая агрессия, словесная агрессия, косвенная агрессия, негативизм, агрессия, подозрительность, обида, чувство вины*

THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVENESS IN STUDENTS OF DIFFERENT CLASSES IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT AS ONE OF THE FACTORS OF THE OCCURRENCE OF A BULLING SITUATION

Annotation. *This article describes the fact that the manifestation of aggressiveness in students of different classes in an educational environment is studied as one of the factors of the occurrence of a bulling situation, as well as the analysis of the results of the study using the appropriate methodologies.*

Keywords: *Bulling, aggressiveness, physical aggression, verbal aggression, indirect aggression, negativism, tact, skepticism, resentment, guilt*

Zamonaviy ta’lim murakkab jamoat amaliyoti bo‘lib, uning mazkur tarixiy roli nihoyatda ajoyib va takrorlanmasdir. Bugungi kunda ta’lim eng keng ko‘lamli bo‘lib, o‘zbek jamiyatining asosiy qadriyat va maqsadlarini o‘z ichiga oluvchi va tarqalishini amalga oshirish uchun tabiiy va ijtimoiy institut bo‘lib xizmat qiladi. Ideologik (g‘oyaviy) qarashlar, ijtimoiy tasavvurlarning keskin o‘zgarishga uchrab borayotgan bir sharoitda aynan ta’lim ijtimoiy tajribani amalga oshirish jarayonini qo‘llab quvvatlash, yangi hayot tarzining o‘zigarib borishiga moslashishni amalga oishirish imkonini beradi. Ta’lim sohasining Markaziy komponenti bo‘lib ta’lim muhiti sanaladi. ta’lim mumuhitida zo‘ravonlikni ochib berishda "ta’lim muhiti" degan tushunchaning o‘zida biroz to‘xtalib o‘tish joizdir.

Hozirgi paytda bizning maktablarimizdagi zo‘ravonlik va tajovuzkorlik miqdorining ortib borishidan tashvishga tushish holatlari ortib bormoqda. Maktab muhitidagi agressiya hamda viktimizasiya juda katta jismoniy hamda ruhiy jarohat yetkazuvchi holatlar sifatida tadqiqodchilarning ko‘plab qiziqishlariga sabab bo‘lib bormoqda. Maktablardagi zo‘ravonlik va tajovuzkorlik holatlari butun dunyodagi ko‘plab mamlakatlarning muammosiga aylanib bormoqda.zo‘ravonlik va tajovuz ta’lim muhitida bulling ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Maktablardagi bulling hamda viktimizasiya (ig‘vo) bolalarning psixologik, ijtimoiy va hatto jismoniy rivojlanishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida tan olingan.

Bolalar o‘zlarini xavfsiz his etadigan sharoitlarda yaxshi ta’lim oladilar. Bulling bolalarni qadrsizlantirib, yakkalab va shu darajada qo‘rquvga soladiki, ular o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchlarini butunlay yo‘qotishlari mumkin. Har bir o‘quvchi har kuni ham sinfda, ham sinfdan tashqarida bulling holatiga tushmaslik huquqiga ega. Butun maktab jamiyatining majburiyati – bolaning maktabdagi xavfsizlik hissini ta’minlab berishdan iboratdir.

Ta’lim muhiti fenomenini o‘rganib chiqish ta’limni ijtimoiy hayotning muhim sohasi, muhitni esa – ta’limning muhim omili sifatida tushunish bilan bog‘liq pozitsiyalar nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Ta’lim muhitining asosiy belgilari, turi va darajasi hamda tuzilishi mazkur psixologik hamda pedagogik reallikni har tomonlama teran ifodalab berish hamda uni tasvirlab berish imkonini beruvchi bir ta’rifni shakllantirish imkonini beradi deya ta’kidlaydilar.

Ta’lim muhitida bullingni oldini olish, o‘quvchilarga sifatli ta’lim sharoitini yaratish, sinfdoshlar o‘rtasida ahil muhitni shakllantirish juda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sinfda bullingga sabab bo‘luvchi agressivlik darajasini aniqlash va uni oldini olish maqsadida Bass-Darki metodikasidan foydalanish o‘rinlidir. Quyida turli sinf o‘quvchilarida agressivlik namoyon bo‘lishini tahlil qilib chiqamiz.

Turli sinf o‘quvchilarida agressivlik namoyon bo‘lishini o‘rganish (Kruskal-Uollis H mezoni)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar						H	p
	5-sinf (n=26)	7-sinf (n=85)	8-sinf (n=259)	9-sinf (n=540)	10-sinf (n=301)	11-sinf (n=18)		
Jismoniy tajovuz	268,7	598,4	648,3	610,3	635,0	520,8	30,93	0,000**
Verbal tajovuz	514,0	608,4	615,4	590,4	667,3	648,3	11,63	0,040*
Bilvosita tajovuz	385,1	590,1	644,8	596,9	653,8	529,1	19,96	0,001**
Negativizm	439,6	599,8	606,8	615,6	643,6	564,0	9,46	0,092
Tajanglik	465,5	618,7	643,0	590,0	654,7	496,6	15,06	0,010*
Shubhalanuvchanlik	501,6	606,6	567,4	605,7	683,6	634,5	19,66	0,001**
Xafagarchilik	487,9	642,0	620,9	599,0	649,4	492,8	10,23	0,069
Aybdorlik hissi	249,7	694,7	556,9	626,7	654,6	588,6	44,26	0,000**

Izoh: * - $p<0.05$; ** - $p<0.01$

Turli sinf o‘quvchilarida agressivlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari tahlil qilinganda jismoniy tajovuzkorlik 8-sinf o‘quvchilarida yuqoriroq ko‘rinish olgani ma’lum bo‘ladi. Ulardagi o‘smirlik davrining katta o‘smirlik bosqichiga o‘tish sikli hisoblangani bois tezda asabiylashish, alamini jismoniy kuch ishlatgan holda olish motivatsiyasi baland bo‘ladi ($H=34,18$; $p<0,01$). 5-sinf o‘quvchilarida jismoniy tajovuzning pastroq ko‘rinish olgani ulardagi o‘zaro hazillar, jismoniy o‘yinlar asosan kuch ishlatmasdan faqat faol harakat qilish tarzida ifodalangani bilan tushuntirilishi joiz. Verbal tajovuz, ya’ni og‘zaki so‘zlashish orqali qarama-qarshidagi shaxsga ozor berish ko‘proq 10-sinf o‘quvchilarida yuzaga chiqib, o‘zidan kichkinalarga og‘zaki tahdid, so‘kinish orqali zug‘um o‘tkazish ehtimolini oshiradi ($H=11,83$; $p<0,05$). 5-sinf o‘quvchilarida og‘zaki agressiyaning nisbatan kam namoyon bo‘lishi ularda hanuz so‘zlar orqali ozor berish, kamsitish ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan ham tushuntirilishi mumkin.

Bilvosita tajovuz ko‘rsatkichi 10-sinf o‘quvchilarida kuzatilib, o‘zidan kichkina sinf o‘quvchilarini kamsitishda sinfdagi “hamfikrlari”, yaqin “ukalari”ni ishga solgan holda o‘z maqsadlarini amalga oshirishda namoyon bo‘lishi bilan xarakterlidir. Bunda ular asosan instiator hamda kuzatuvchi pozitsiyasidan ish ko‘rishadi. Shu bois, muammoli vaziyatlar sodir bo‘lganda “suvdan quruq chiqish” ehtimoli ortadi ($H=19,96$; $p<0,01$). Negativizm shkalasi bo‘yicha ishonchli farqlarning qayd etilmagani sinf omilidan qat’iy nazar o‘quvchilarda bir-biriga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish, achchiq qilish, jahl ustida fikr bildirish holatlari sodir bo‘lishini anglatadi ($H=9,46$; $p>0,05$). Tajanglik ko‘rsatkichida 10-sinf o‘quvchilarida ustunliklar kuzatilib, o‘z fikrini

ma'qullash, "ikki oyog'ini bir etikka tiqib olgan" holda munosabatlarga kirish yuqori namoyish olganidan darak beradi (H=15,06; p<0,01). 5-sinf o'quvchilarida tajanglikning kamroq ifodalanishi o'zidan kattalarning gapiga quloq tutish ehtimolini oshirib, ularning bulling holatida yordamchi pozitsiyasini egallashini tezlashtirishi mumkin.

Shubhalanuvchanlik jihatidan ham 10-sinf o'quvchilarida yuqori natijalar qayd etilib, har bir harakatga, gap-so'zga nisbatan shubha bilan qarash, tanqidiy munosabatning kuchli ifodalanishi bulling ishtirokchisi bo'lmagan shaxsni ham kamsitishga urinishga olib kelishi bilan ahamiyatga egadir (H=19,66; p<0,01). Xuddi yuqoridagi kabi 5-sinf o'quvchilarida shubhalanuvchanlikning past darajada ifodalanishi ulardagi hayotiy ko'nikmalarning kamligi, shuningdek, sinfdagi tengdoshlari bilan munosabatlarni to'liq shaklda o'zlashtirmaganliklari sababidan deb aytish mumkin. Xafagarchilik bo'yicha sinaluvchilarning natijalari o'rtasida ishonchli farqlar qayd etilmagani holda (H=10,23; p>0,05), quyi yoki yuqori sinfda tahsil olishidan qat'iy nazar o'quvchilar xafa bo'lishga ham, xafa qilishga ham birdek moyil bo'ladi deb xulosalashga imkon beradi. Aybdorlik hissining yuqori darajada sinflar kesimi bo'yicha namoyon bo'lishi 7-sinf o'quvchilarida kuzatilar ekan. O'smirlik davrining inqirozi tufayli xarakter aksentuatsiyasi yuz bergan bir pallada nafaqat sinfdoshini xafa qilish, balki uni xafa qilishlariga ham jim qarab turganlik uchun o'zini ayblash, harakatlar realizatsiyada disfunksionallik yuzaga kelganidan jirkanish interiorizativ tarzda kechishi mumkin (H=44,26; p<0,01). 5-sinf o'quvchilarida o'quv va munosabatlar jarayoniga kirushuv pallasi bo'lgani bois, bilib-bilmay, hazil-mutoyiba tarzida tengdoshiga ozor yetkazgan taqdirda ham uni yengil qabul qilish sodir bo'ladi. Shu bois, ularda aybdorlik hissi nisbatan kam darajada ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Баева И.А., Семикин В.В. Безопасность образовательной среды, психологическая культура и психическое здоровье школьников // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. 2005. Т.5. №12. С. 7-19.

2. Газман О. С. Педагогическая поддержка детей в образовании как инновационная проблема / О. С. Газман // Новые ценности образования: десять концепций и эссе. Москва, 1995. Вып. 3. С. 58–64.

3. Лэйн Д.А. Школьная травля (буллинг) // Детская и подростковая психотерапия / под ред. Д. Лэйна и Э. Миллера. СПб., 2001

4. Макарова Ю.Л. Гендерные особенности поведения участников подростковой буллинг-структуры // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2017. Т. 6. № 5А. С. 181-192.

Ibrogimov Muhammadrasul Abdimumin o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

TALABALAR SOTSIAL IQTIDOR KOMPONENTLARINING EMPIRIK TAHLILI

Annotatsiya. *Iqtidor shaxs shakllanishida eng muhim omil hisoblanadi. Sotsial iqtidor shaxsning jamiyatning o‘rnini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning sotsial iqtidorlik sifatlarini baholash natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *iqtidor, sotsial iqtidor, talabalar, xarakter sifatlari, iqtidor komponentlari, ijtimoiy so‘rovnoma, empirik tahlil, yetakchilik sifatlari.*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОМПОНЕНТОВ СОЦИАЛЬНОЙ ОДАРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Одаренность – важнейший фактор формирования личности. Социальная одаренность является важным инструментом определения места человека в обществе. В данной статье анализируются результаты оценки каечеств социального одаренности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *одаренность, социальная одаренность, студенты, черты характера, компоненты одаренности, социальный опросник, эмпирический анализ, лидерские качества.*

EMPIRICAL ANALYSIS OF STUDENTS’ SOCIAL GIFTEDNESS COMPONENTS

Abstract. *Giftedness is the most important factor in personality formation. Social giftedness is an important tool for determining a person’s place in society. This article analyzes the results of assessing qualities of the giftedness of students studying in higher educational institutions.*

Key words: *giftedness, social giftedness, students, character traits, components of giftedness, social questionnaire, empirical analysis, leadership qualities.*

Ma’lumki, iqtidor ahamiyat jihatdan muhim bo‘lgani sababli ham psixologiyada doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Iqtidor – insonning boshqa insonlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishishida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladigan psixik sifatdir.

Iqtidor, iqtidorning strukturasi, uning namoyon bo‘lishi va turlari masalasida ko‘plab olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Shulardan biri L.I.Larinova iqtidor tushunchasini quyidagi uch komponentdan iborat ekanligini ta’kidlagan: intellekt, ijodkorlik, ma’naviyat. V.I.Panov bo‘yicha iqtidor namoyon bo‘lish alomatlari bevosita shaxsning motivatsion, emotsional, irodaviy, psixofiziologik sohalari bilan bog‘liq holda shakllanadi [2].

1920-yillar oxiri 1930-yillarning boshlarida iqtidorlilik muammosini o‘rganishga doir ishlar birmuncha jonlanganligi kuzatiladi. Jumladan, katta hajmdagi psixologik diagnostik metodikalar, iqtidorlilikni aniqlovchi testlar ishlab chiqildi va amalga tadbiq qilindi. Bularning barchasi Yevropa, Amerika tadqiqotlari asosida amalga oshirildi[1]. XX asrga kelib Amerika, Angliya, Germaniyada bu muammo chuqurroq o‘rganilgan. Pedagog va psixologlar orasida iqtidorlilikni tuzilish komponentlarini o‘rganish kuchaydi. Germaniyada psixikaga ko‘nikish va moslashishning eng yuqori shakli sifatida qaralib, aqliy iqtidorning muhim tarkibi sifatida qaraladi[3].

Iqtidorning turlarini ham aynan XX asrning boshlaridan dolzarb ilmiy masalalar sifatida amalga oshirila boshlandi. Umumiy intellektual va akademik iqtidor, ijodiy iqtidor, sotsial iqtidor kabi iqtidor shakllarini o‘rganish hamda tahlil qilishda bir qancha ilmiy ahamiyatga ega ishlar amalga oshirilgan. Xususan, sotsial iqtidorning dastlabki nazariy o‘rganish bo‘yicha E.Torndayk, Dj.Gilford, G.Gardnerlarning ishlari muhim ahamiyatga ega[4].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tendensiyalarni inobatga olgan holda tadqiqotimiz sotsial iqtidorning yetakchilik sifat va xususiyatlari shaklidagi tarkibiy komponentlari tahlil etilgan.

Tadqiqotimizda “Yetakchilik sifatlarini qayd etish” va “Yetakchi xususiyatlari” so‘rovnomalaridan foydalanilib, O‘zMU, NPDI, Qarshi DU OTMlarida tahsil oluvchilardan saralab olingan guruh sardorlarining sotsial iqtidorining asosiy komponenti – yetakchilik sifatlari o‘rganildi.

Tadqiqotda ishtirok etayotgan talabalarning yetakchilik sifatlari o‘rganilgan bo‘lib, to‘rt bosqichda tahsil oluvchi talabalarning yetakchilik sifatlardagi munosabatlari o‘rganildi.

O‘tkazilgan tadqiqotda 1-4 kurs sardorlari saralanib olininb ularning kurslar kesimidagi yetakchilik sifatlariga bo‘lgan munosabatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra talabalar tomonidan tanlagan sifatlar o‘rtasida tafovutlarni kuzatish mumkin. Turli bosqichda tahsil oluvchi talabalarda yetakchilik sifatlariga munosabatlar ularning kurs va yosh, guruhdagi mavqei ta’sir qilishi mumkinligi natijada aniqlash mumkin. Talabalarning yetakchi sifatlar munosabatlarni bildirishda kurslar o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatish mumkin(1-jadval).

1-jadval

Guruh sardorlarining kurslar kesimidagi ishtiroki

Kurs	1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs
Respondentlar miqdori (%)	29	43	20	8

Yetakchilik sifatlarini aniqlashda ishtirok etgan talabalarning asosiy qismi 2-kurs talabalari bo‘lib(43%), mazkur ko‘rsatkich 2-kurs talabalarida sotsial iqtidorga xos yetakchilik sifatlariga munosabatlari boshqa kurs talabalariga nisbatan farq qilishini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotda 2-kurs talabalarning faolligini ularning yangi muhitga moslashuv jarayonini yakuniy bosqiiga kelgani va guruh ichidagi o‘zaro munosabatlarda birlamchi shartlari belgilab olingani bilan izohlash mumkin. Ma’lumki, ikkinchi bosqichda talabalarda adaptatsion jarayon yakunlanib, guruhdagi ijtimoiy mavqelar va umumiy qiziqishlar asosida munosabatlar guruh a’zolari bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatiladi.

Tadqiqotda sotsial iqtidorning komponenti sifatida 20 ta shaxsiy sifatlar ajratib olingan. Ilmiy tadqiqot ishtirokchilaridan ushbu sifatlardan o‘zlari uchun xos bo‘lgan sifatlarni ajratib ko‘rsatishlari so‘ralgan. Yetakchilik sifatlarini belgilashda ham kurslar o‘rtasida o‘ziga xos natijalar qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

Yetakchilik sifatlarining kurslar kesimidagi ko‘rsatkichlari

	Xarakter xususiyatlari	Shaxs xarakter sifatlarining kurslar bo‘yicha taqsimoti(%)				
		Kurslar				
		1	2	3	4	Jami
Yetakchilik sifatlari	Atrofdagilarni yaxshi tushunadigan	60	90	50	40	70
	Boshqalar manfaati uchun xizmat qiladigan	30	37	43	20	22
	Axloq-odob doirasida mulohazalaydigan	40	90	50	60	70
	Yetakchi(lider)	50	47	43	40	49
	Aql-zakovat me’yorida	50	57	64	60	57
	Qaror qabul qilishga uquvli	42	53	54	40	51
	Maqsadli, istiqbolni ko‘ra oladigan	40	57	59	60	55
	Moslashuvchan	52	52	43	20	44
	Mas’uliyat	44	49	50	60	54
	O‘ziga ishonadi va o‘zini yaxshi biladi	74	46	40	60	63
	Qat’iyatli	42	56	58	40	52
	Ishtiyoqi yuqori	56	52	50	60	54
	Tengdoshlari bilan munosabatda tashabbuskor	50	54	42	40	48

	Odamlarni xulq-atvori Xatti-harakatiga ko‘ra kimligini farqlay oladi	52	44	42	40	42
	Har xil tadbirlarda yetakchilik qilishga moyil	70	64	50	40	66
	Ko‘pchilikka yuklatilgan vazifalarda javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.	51	55	46	40	54
	Ko‘p hollarda tengdoshlari unga suyanadilar	62	54	51	40	56
	Ishontirish qobiliyatiga ega	44	36	47	40	44
	O‘z g‘oyalari bilan boshqalarni ilhomlantira oladi	52	54	55	40	53
	O‘z fikrini aniq bayon eta oladi	54	52	56	60	55

Sotsial iqtidorning asosiy tarkibiy komponenti sifatida yetakchilik muhim ahamiyatga ega. Yetakchilikni belgilab beruvchi sifatlar sotsial iqtidorning asosiy xususiyati sifatida tadqiqotda mazkur sifatlar o‘rganib tahlil qilindi. Dastlabki natijalarga ko‘ra barcha bosqichlarning guruh sardorlari uchun atrofdagilarni yaxshi tushunish(70%) hamda odob-axloq doirasida mulohazalash (70%) yetakchilikka xos sifatlar deb qayd etilgan. Mazkur ikkala sifat ham guruh sardolarining o‘zlariga yuklangan vazifa va yuklamalardan kelib chiqqan holda qayd etilganini xulosa qilish mumkin. Sababi guruh sardorlari o‘quv jarayonidan tashqarida ham guruhdoshlari hamda o‘qituvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lishganligi sababli ham ular uchun atrofdagilar bilan muloqotda sezgilik hamda axloq qoidalariga qat’iy amal qilish majburiyatini olishadi. Bu esa ularning o‘z tanlovlarida ham aks etgan.

Tadqiqotda keltirib o‘tilgan natijalarning alohida kurslar kesimda ham o‘ziga xoslik namoyon bo‘ldi. 1-kurs talabalari tanlovlarida o‘z-o‘ziga ishonch(74%) va tadbirlarda yetakchilik qilish, tashkilotchilik(70%) muhim sifat ekanligi natijalarda namoyon bo‘ldi. Bu natijalarni 1-kurs talabalarida o‘zlariga ishonch nisbatan boshqa kurs talabalariga nisbatan yuqori bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

2-kurs sardorlari uchun atrofdagilarni yaxshi tushunish(90%) va odob-axloq doirasida mulohazalash (90%) boshqa yetakchilik sifatlaridan ajralib turibdi. Mazkur natijalarni 2-kurs talabalarda o‘quv faoliyatidagi adapatsiya jarayoni yaxshilangani, o‘zaro muloqot hamda munosabatlarda boshqa motivlar shakllangani bilan izohlash mumkin. Mazksur bosqichda talabalar o‘zlariga xarakteriologik yaqin do‘stlar tanlashadi. Qolganlar bilan muloqotda esa axloq qoidalari muhim o‘ringa chiqadi.

Tadqiqot ishida ishtirok etgan 4-kurs talaba-sardorlarining natijalarida katta farqlar kuzatilmadi. Faqat boshqalar manfaati uchun xizmat qilish (20%) eng past ko‘rsatkich sifatida qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichni mazkur bosqichda ta’lim oluvchi talabalarning maqsadlari aniqlashgani hamda ularning shaxsiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan izohlash mumkin. Shuningdek bitiruvchi kurs taabalarida yetakchilik sifatlaridan moslashuvchnalik(20%) sifatidan ko‘ra aql-zakovatga tayanishlari(60%) kuchliroq ekanligini ko‘rish mumkin. Ushbu natijani bitiruvchi kurs talabalarida ratsional qaror qabul qilish shakllanishi bilan tavsiflash mumkin.

Shaxs yetakchilik sifatlarining qayd etilishida ham talabalar har bir shaxs sifatiga alohida o‘zlarining munosabatlarini bildirishgan(3-jadval).

3-jadval

Shaxs sifatlarining tanlov ko‘rsatkichlari

Xarakter xususiyatlari	Tanlovlar soni(n)	Tanlovlarning miqdoriy tavovuti(%)
Atrofdagilarni yaxshi tushunadigan	47	68.1
Boshqalar manfaati uchun xizmat qiladigan	28	40.6
Axloq-odob doirasida mulohazalaydigan	37	53.6
Yetakchi(lidayer)	36	52.2
Aql-zakovat me’yorida	38	55.1

Qaror qabul qilishga uquvli	37	53.6
Maqsadli, istiqbolni ko‘ra oladigan	36	52.2
Moslashuvchan	43	62.3
Mas’uliyat	47	68.1
O‘ziga ishonadi va o‘zini yaxshi biladi	38	55.1
Qat’iyatli	33	47.8
Ishtiyoqi yuqori	26	37.7
Tengdoshlari bilan munosabatda tashabbuskor	39	56.5
Odamlarni xulq-atvori Xatti-harakatiga ko‘ra kimligini farqlay oladi	37	53.6
Har xil tadbirlarda yetakchilik qilishga moyil	27	39.1
Ko‘pchilikka yuklatilgan vazifalarda javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.	30	43.5
Ko‘p hollarda tengdoshlari unga suyanadilar	31	44.9
Ishontirish qobiliyatiga ega	40	51
O‘z g‘oyalari bilan boshqalarni ilhomlantira oladi	28	40.6
O‘z fikrini aniq bayon eta oladi	41	59.4

Yuqoridagi natijalardan kuzatish mumkinki Atrofdagilarni yaxshi tushunish(n=47; 68.1%), Mas’uliyat(n=47; 68.1%), Moslashuvchanlik(n=43; 62.3%) kabi sifatlar talabalar uchun sotsial iqtidorning muhim komponenti sifatida qayd etilgan. Bu natija talabalar uchun shaxsiy yetakchilik sifatlaridan ko‘ra jamoaviy munosabatlarga yo‘nalgan sifatlar muhim ekanligidan darak beradi.

Tadqiqotdan olingan dastlabki natijalar sotsial iqtidorni namoyon bo‘lishida shaxsning ontogenetik xususiyatlari va tashqi muhitning ta’siri bo‘lmasligiga xulosa qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur natijalar sotsial iqtidor masalasining dolzarbligini belgilab beradi va doimiy tadqiqotlar yordamida uni o‘rganish vazifasini oldimizga qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Айзенк Г.Ю. Интеллект: Новый взгляд // Вопросы психологии.. — 1995. — № 1. — С. 111-131.

2. Панов, В.И. Одаренность как проблема современного образования / В.И. Панов. – Самара, 2007. – С. 477.

3. Gagné, F. (in press). Transforming Gifts into Talents: The DMGT as a Developmental Theory. In N. Colangelo & G. A. Davis (Eds.), *Handbook of gifted education* (3rd ed.). Boston: Allyn and Bacon.

4. Thorndike E.L. Intelligence and its uses // Harper’s Magazine. — 1920. — № 140. — P. 227—235; Gardner H. Frames of mind: The theory of multiple intelligence. N. Y.: Basic Books, 1983.; Guilford J. P. The nature of human intelligence. N. Y.: Mc. Graw-Hill,1967.

Ibroximova Ma'muraxon Alijon qizi
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish
va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti
E-mail: alijons167@gmail.com

YOSH RAHBARLARNING BOSHQARUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada, rahbar kadrlarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda hamda boshqaruv psixologiyasi doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida keng qo`llanilib kelinayotgan ijtimoiy-psixologik diagnostika usullaridan foydalanish imkoniyatlari tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy-psixologik diagnostika metodlari, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, rahbarlarning samaradorligini oshirish, jamoa bilan samarali aloqada bo'lish, motivatsiyani kuchaytirish.*

POSSIBILITIES OF USING SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTIC METHODS IN DEVELOPING MANAGEMENT SKILLS OF YOUNG LEADERS

Annotation. *This article presents the analysis of the possibilities of using socio-psychological diagnostic methods, which are widely used in the development of management skills of management personnel and scientific research conducted within the framework of management psychology.*

Keywords: *socio-psychological diagnostic methods, development of management skills, increasing the effectiveness of leaders, effective communication with the team, strengthening motivation.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В РАЗВИТИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ МОЛОДЫХ ЛИДЕРОВ

Аннотация. *В данной статье представлен анализ возможностей использования методов социально-психологической диагностики, которые широко используются в развитии управленческих навыков управленческого персонала, а также научных исследований, проводимых в рамках психологии управления.*

Ключевые слова: *методы социально-психологической диагностики, развитие управленческих навыков, повышение эффективности руководителей, эффективное общение с коллективом, усиление мотивации.*

Kirish. Yosh rahbarlarga (liderlarga) e'tibor – sifatli boshqaruv va mustahkam kelajak asosi ekanligi, yurtboshimizning sa'y-harakatlari va ilgari surayotgan islohotlaridan ham ko`rishimiz mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash uchun yosh yetakchilarni tarbiyalash muhimligini ta'kidlar ekan, o'zining "Yangi O'zbekiston" to'g'risidagi tasavvurida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning hal qiluvchi elementi sifatida, ayniqsa, yosh mutaxassislarda yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishni ta'kidladi. Uning ma'muriyati moslashuvchan, innovatsion va boshqaruv, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan liderlar avlodini tarbiyalashga e'tibor qaratadi [2].

Yosh rahbarlar ko'pincha o'zlarining boshqaruv qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik muhitda harakat qilishar ekan, shu o`rinda, ijtimoiy-psixologik diagnostika metodlari ularning shaxsiy sifatlari, boshqaruv uslublari hamda o`zlarning ijtimoiy muhitdagi munosabatlarini aniqlashga va o`zini shaxsiy rivojlantirib borishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Yurtboshimiz, O'zbekistonni kelajakka yetaklay oladigan iqtidorli yoshlarni yetishtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish tarafdori bo`lib, bu uning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini

mustahkamlash, shuningdek, demokratik boshqaruvni rivojlantirish va turmush darajasini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar strategiyasiga mos keladi va o`z navbatida, yosh rahbarlarni (liderlarni) rivojlantirish bu islohotlarni uzoq muddatda davom ettirish uchun strategik qadam sifatida qaraladi[1].

- **Metodlar.** Yosh rahbarlarning boshqaruv koʻnikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ijtimoiy-psixologik diagnostika metodlaridan foydalanish juda muhim rol o`ynaydi. Bu usullar rahbarlar oʻz xulq-atvorlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, oʻzlarini yaxshilash va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda va jamoaviy munosabatlarini yaxshilashda yordam beradi. Quyida ushbu metodlarga oid aniq ma'lumotlar keltirilgan:

1. Psixologik testlar

Maqsad: Rahbarlarning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyalari, va rahbarlik uslublarini oʻrganish.

- Myer-Briggs Type Indicator (MBTI): Katharine Cook Briggs va uning qizi Isabel Briggs Myers tomonidan ishlab chiqilgan. U 1940-yillarda taklif etilgan va shaxsiy xususiyatlarni baholash uchun keng qoʻllaniladi;
- Big Five (Oʻziga xosliklar) testlari: Ushbu model 1980-yillarda Robert McCrae va Paul Costa tomonidan rivojlantirilgan. U shaxsiyatning beshta asosiy oʻlchovini baholaydi: ochiqlik, samaradorlik, ijtimoiylik, hissiy barqarorlik, va moslashuvchanlik.

Ushbu testlar umumiy olganda, rahbarning xulq-atvorini va boshqaruv uslubini aniqlashda yordam beradi.

2. Koʻnikmalarni baholash metodlari

Maqsad: Rahbarlarning boshqaruv koʻnikmalarini aniqlash va rivojlantirish.

- 360 daraja baholash: Bu metod ilk marta 1990-yillarda Oksford universiteti va boshqa tadqiqot institutlari tomonidan rivojlantirilgan.

Ushbu metodda rahbar oʻzining ishlash uslubini va boshqaruv koʻnikmalarini hamkasblar, yuqori rahbarlar va xodimlar tomonidan baholaydi. Bu metod oʻzaro fikr almashinish va oʻzgarishlarni kuzatish uchun qulay.

3. Simulyatsiyalar va rol oʻynash

Maqsad: Rahbarlar oʻz koʻnikmalarini amalda sinab koʻrish.

- Simulyatsiya metodlari: Bu metodlarning tarixi 1970-yillarga borib taqaladi, oʻsha paytda Peter Senge va boshqa tadqiqotchilar tizimiy oʻqitish metodlarini kiritgan.

Bunday simulyatsiyalardan rahbarlik qobiliyatlarini sinovdan oʻtkazish va rivojlantirish uchun foydalanilib, rahbarlar uchun tayyorlangan amaliy mashgʻulotlar orqali muammolarni hal qilish, jamoani boshqarish, va qaror qabul qilish jarayonlarini simulyatsiya qilishni nazarda tutadi. Bu tajriba rahbarlarga real sharoitlarda xulq-atvorini yaxshilash imkonini beradi.

4. Tadqiqotlar va soʻrovnomalar

Maqsad: Yosh rahbarlarning ehtiyojlari va ularning oʻz-oʻzini rivojlantirish ustida ishlashlari uchun ma'lumot toʻplash.

- Tadqiqotlar: Zamonaviy soʻrovnoma metodlari koʻplab psixologlar va ijtimoiy tadqiqotchilar, masalan, Philip Zimbardo va Daniel Kahneman kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodlar orqali rahbarlarning fikr va tajribalarini tahlil qilish mumkin.

Ular asosan, anketalar va soʻrovnomalar yordamida rahbarlarning fikrlarini, tajribalarini va oʻz koʻnikmalarini qanday baholayotganini oʻrganishni nazarda tutadi.

5. Mentorlik va kuzatuv

Maqsad: Tajribali rahbarlardan maslahat olish va ularning tajribasidan foydalanish.

- Mentorlik dasturlari: Mentorlik tushunchasi qadim zamonlardan beri mavjud, ammo zamonaviy oʻquv dasturlari, masalan, Linda Hill tomonidan taklif etilgan "Mentoring for the Future" modeli orqali koʻproq rivojlanmoqda. Hill Harvard biznes maktabining professoridir.

Yosh rahbarlar oʻz ustozlari yoki mentorlar bilan ishlash orqali boshqaruv koʻnikmalarini rivojlantirishi mumkin.

6. Guruh muhokamalari va treninglar

Maqsad: Rahbarlar oʻrtasida oʻzaro fikr almashinish va tajriba almashish.

- Trening metodlari: Ushbu metodlar, masalan, Peter Block va R. Bruce Avolio tomonidan taklif etilgan "Tashkilotning samaradorligini oshirish" dasturlari orqali rivojlanadi. Ular rahbarlar uchun trening va muhokama dasturlarini ishlab chiqqan.

Bugungi kunda, boshqaruv treninglari, seminarlar, va guruh muhokamalari orqali yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va rivojlantirish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ushbu metodlar har biri ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar asosida rivojlangan va ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va tajribalar natijasida aniq samarali yondashuvlar sifatida tasdiqlangan. Har bir metodning o‘ziga xos afzalliklari va qo‘llanilish joylari mavjud, bu esa rahbarlarning rivojlanishi va boshqaruv ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

- **Mulohaza va natijalar.** Yosh rahbarlarning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy va eng yangi ijtimoiy-psixologik metodlar va nazariyalar rahbarlarning samaradorligini oshirish, jamoa bilan samarali aloqada bo‘lish, motivatsiyani kuchaytirish va stressga qarshi kurashish uchun ishlab chiqilgan bo`lib, quyida bu metodikalar, ularning tarixi, mualliflari va qo‘llanilish joylari haqida batafsil taxliliy ma’lumot keltirilgan:

1. Guruh dinamikasi va jamoani boshqarish (Kurt Lewin)

Metodika maqsadi: Guruh dinamikasi jamoa ichidagi munosabatlarni, aloqalarni va guruh a’zolarining bir-biriga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bu yondashuv liderlarga jamoaviy qaror qabul qilish va ishonchni oshirishda yordam beradi.

- Guruh dinamikasi nazariyasining asoschisi nemis-amerikalik ijtimoiy psixolog Kurt Lewin hisoblanadi. 1940-yillarda Lewin guruhning ishlashi va rahbarlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan. Uning ishlari jamoa ichidagi aloqalar va yetakchilik uslublarini yaxshilashga qaratilgan[8].

Guruh dinamikasi nazariyasi kompaniyalar, ta’lim muassasalari va notijorat tashkilotlarda keng qo‘llaniladi. Bu metodika jamoani boshqarish, muammolarni hal qilish va o‘zaro munosabatlarni yaxshilash uchun ishlatiladi.

2. Sotsial ta’lim nazariyasi (Albert Bandura)

Metodika maqsadi: Sotsial ta’lim nazariyasi (Social Learning Theory) odamlarda ko‘rgan yoki boshqalar bilan muloqot orqali o‘rganish jarayonini o‘rganadi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, rahbarlar boshqalar bilan o‘zaro aloqalar orqali ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi va rivojlantiradi.

- Bu nazariya 1960-yillarda kanadalik psixolog Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan. Bandura insonlar o‘zlariga yaqin bo‘lgan shaxslarning xatti-harakatlariga qarab o‘rganishini ko‘rsatdi[3].

Sotsial ta’lim nazariyasi rahbarlar va murabbiylar tomonidan qo‘llanilib, rahbarlarning o‘z xatti-harakatlarini namuna sifatida ko‘rsatish orqali jamoani boshqarish qobiliyatini oshiradi. U kompaniya ichidagi murabbiylik va ko‘p darajali rahbarlik tizimlarida keng qo‘llaniladi.

3. Servant Leadership yoki Xizmatkor Liderlik (Robert Greenleaf)

Metodika maqsadi: Xizmatkor liderlik rahbarlikning g‘oyat insoniy yondashuvi bo‘lib, bu metodika liderning maqsadi, avvalo, o‘z jamoasi uchun xizmat qilish ekanligini ta’kidlaydi. Rahbarlar o‘zlarining hokimiyatidan ko‘ra, jamoa a’zolarining ehtiyojlarini qondirishga ko‘proq e’tibor qaratadi.

- Bu kontseptsiya amerikalik olim Robert K. Greenleaf tomonidan 1970-yillarda taklif qilingan. U "The Servant as Leader" (1970) asarida rahbarning vazifasi jamoa a’zolariga xizmat qilish orqali jamoani boshqarish ekanligini aytgan[5].

Xizmatkor liderlik modeli ijtimoiy ta’sirga ega tashkilotlar, notijorat sektor va inson resurslarini boshqarish tizimlarida keng qo‘llaniladi. Bu yondashuv tashkilotdagi madaniyat va rahbarlik uslubini o‘zgartirishga xizmat qiladi.

4. Ta’sirchan rahbarlik (John French va Bertram Raven)

Metodika maqsadi: Ta’sirchan rahbarlik nazariyasi rahbarlarning o‘z jamoasiga qanday qilib ta’sir o‘tkazishi va hokimiyat manbalari orqali jamoani boshqarishini tushuntiradi. Rahbarlar o‘zlarining ta’sir usullarini kuchaytirish orqali jamoani boshqarishi mumkin.

- 1959-yilda John French va Bertram Raven hokimiyat va ta’sirchanlikning besh manbasi – qonuniy hokimiyat, ekspert hokimiyati, mukofotlash hokimiyati, majburiy hokimiyat va referent

hokimiyatni tavsiflashdi. Ularning ishlari rahbarlar qanday qilib hokimiyat manbalarini o‘z foydalariga ishlatishi mumkinligini o‘rgatadi[4].

Ta’sirchan rahbarlik ko‘p hollarda menejment va tashkilotlarni boshqarish kurslarida qo‘llaniladi. Bu yondashuv ayniqsa korporativ rahbarlik va strategik boshqaruvda jamoani ilhomlantirish va qaror qabul qilishda samarali.

5. Ko‘p bosqichli rahbarlik nazariyasi (Paul Hersey va Ken Blanchard)

Metodika maqsadi: Ko‘p bosqichli rahbarlik (Situational Leadership Theory) har bir vaziyatda rahbarlik uslubi o‘zgarishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu modelga ko‘ra, rahbar vaziyatga qarab o‘z yondashuvini moslashtiradi.

- Bu nazariya 1970-yillarda Paul Hersey va Ken Blanchard tomonidan ishlab chiqilgan. Ular rahbarlar jamoaning tayyorligi va qobiliyatlariga qarab o‘z uslubini o‘zgartirishi kerakligini tavsiya etishgan[6].

Ko‘p bosqichli rahbarlik modeli biznes boshqaruvi, ta’lim va murabbiylik dasturlarida keng qo‘llaniladi. Rahbarlar ushbu yondashuv orqali har xil sharoitlarda samarali qaror qabul qilish va jamoani boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

6. Xalqaro madaniyatlararo boshqaruv (Geert Hofstede)

Metodika maqsadi: Hofstede madaniyatlararo farqlarni boshqarish va turli madaniyatdagi jamoalarni boshqarish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy-psixologik yondashuvni ishlab chiqdi. Bu nazariya rahbarlarga xalqaro jamoalarda ishlashda muhim bo‘lgan madaniyatlararo boshqaruv qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

- Geert Hofstede 1970-yillarda IBM kompaniyasida xalqaro xodimlarning madaniyatini o‘rgangan va madaniy o‘lchovlar nazariyasini ishlab chiqdi. U turli mamlakatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi madaniy farqlarni boshqarish bo‘yicha keng tadqiqot olib bordi[7].

Hofstede nazariyasi xalqaro kompaniyalarda rahbarlarni tayyorlash va turli millat vakillaridan tashkil topgan jamoalarni boshqarishda keng qo‘llaniladi. Bu yondashuv ayniqsa xalqaro korporatsiyalar va global bozorlar bilan ishlaydigan tashkilotlarda ahamiyatlidir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, yosh rahbarlarning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ijtimoiy-psixologik metodikalar nafaqat yosh rahbarlarning shaxsiy qobiliyatlarini oshiradi, balki jamoaviy aloqalarni rivojlantiradi va rahbarlik samaradorligini kuchaytiradi. Ushbu metodikalar rahbarlarni murakkab sharoitlarda qaror qabul qilish, turli madaniyatlar bilan ishlash va jamoani ilhomlantirishga qaratilgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. O`z o`rnida, ushbu ijtimoiy-psixologik diagnostika metodlari imkoniyatlari kengroq o`rganilib, yosh rahbarlarning tayyorlov o`quv kurslari hamda rahbarlarda malaka oshirish yo`nalishlarida foydalanish, samarali boshqaruvni tashkil etishda muhim omillardan biri bo`lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. Albert
2. French, J. R. P., & Raven, B. (1959). The Bases of Social Power. In D. Cartwright (Ed.), Studies in Social Power (pp. 150-167). Ann Arbor, MI: Institute for Social Research.
3. Greenleaf, R. K. (1970). The Servant as Leader. Indianapolis: The Robert K. Greenleaf Center.
4. Hersey, P., & Blanchard, K. H. (1969). Life Cycle Theory of Leadership. Training and Development Journal, 23(5), 26-34.
5. Hofstede, G. (1980). Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. Beverly Hills, CA: Sage.
6. Lewin, K. (1947). Frontiers in Group Dynamics: Concept, Method, and Reality in Social Science; Social Equilibria and Social Change. Human Relations, 1(1), 5-41.

Odilova Naira Gulyamovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘SMIRLAR AXLOQIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHINING MAZMUNIY-FUNKTSIONAL TAVSIFI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlar axloqiy o‘zini o‘zi anglashining mazmuniy-funktsional tavsifi haqida so‘z yuritiladi. Axloqiy o‘zini o‘zi anglash tegishli mazmuniy-funktsional xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkinligi, bu shaxs tuzilishida axloqiy ahamiyatga ega maqsadga erishish uchun umuminsoniy axloqiy imperativlarning individual sifatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash funksiyasi ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir, axloqiy o‘zini o‘zi anglash, axloqiy o‘zini o‘zi anglashining mazmuniy tavsifi, Men-axloqiy, axloqiy identifikatsiya, empatiya, intuitsiya, axloqiy detsentratsiya.*

СОДЕРЖАТЕЛЬНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НРАВСТВЕННОГО САМОСОЗНАНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье рассматривается содержательно-функциональная характеристика нравственного самосознания подростков. Подчеркивается, что нравственное самосознание можно охарактеризовать соответствующими содержательно-функциональными характеристиками, которые являются функцией обеспечения взаимосвязи общечеловеческих моральных императивов с индивидуальными качествами для достижения морально значимой цели в структуре личности.*

Ключевые слова: *подросток, нравственное самосознание, содержательная характеристика нравственного самосознания, Я-нравственное, моральная идентификация, эмпатия, интуиция, моральная децентрация.*

CONTENT-FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS’ MORAL SELF-AWARENESS

Annotation. *The article examines the content and functional characteristics of the moral self-awareness of adolescents. It is emphasized that moral self-awareness can be characterized by appropriate content and functional characteristics, which are a function of ensuring the interrelation of universal moral imperatives with individual qualities in order to achieve a morally significant goal in the personality structure.*

Key words: *adolescent, moral self-awareness, a meaningful characteristic of moral self-awareness, I-moral, moral identification, empathy, intuition, moral decentralization.*

Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlar davlat va jamiyat diqqat markazida bo‘lganligi sababli mustahkam huquqiy asosga ega ijtimoiy faol yoshlar siyosati olib borilmoqda. Shaxsning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga, axloqiy xulq-atvorning oqilona shakllanishiga ta’sir qiladigan psixologik omillarning differensial jihatlarini aniqlashga qaratilgan yangi nazariy yechimlarni ilmiy asoslash yo‘nalishidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida e’tiborga egadir.

Shu munosabat bilan axloqiy o‘zini o‘zi anglashni tadqiq qilish uning o‘smirlik davriga xos bo‘lgan mazmuniy tavsifini ko‘rib chiqishni dolzarblashtiradi. Bu jihatdan, N.A.Tarasyanning fikricha, o‘smirlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglash genezisi ushbu ta’limning shaxsiy o‘sishdagi eng muhim tarkibiy omillari bilan belgilanadi:

real Men;
normativ Men;
ideal Men.

Shu bilan birga, normativ Men tushunchasining funktsional-mazmuniy to‘laligini o‘smirlarning u yoki bu muhitda qanday bo‘lish kerakligi, shuningdek, tevarak-atrofdagilar ulardan

nima kutishlari haqidagi tasavvurlaridan tashkil topgan. Axloqiy ong tarkibida birinchi rejaga yangi modallik – o‘z-o‘ziga ustanovka berish, normativ-qadriyatga ega inson tajribasi chiqadi va tasdiqlanadi. Bundan tashqari, o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi anglash tarkibida normativ Men quyidagilar bilan asoslanadi:

birinchidan, normativ Men obrazi u shu yoshdagi shaxs tomonidan o‘z pozitsiyalari, xatti-harakatlari, munosabatlari orqali amalga oshirilganda, ya’ni bu obraz hissiy jihatdan boy bo‘lganda, erkin harakatlar orqali boshqa insonning qadriyati tushunilganda va shu orqali o‘z qadriyati yuzaga kelganda, u o‘zgaradi va yangi qadriyat darajalariga yetadi;

ikkinchidan, ushbu dinamik emotsional obraz shaxs refleksiyasi tufayli rag‘batlantiruvchi kuchga ega bo‘ladi - bu shaxsiy fazilatlarning ma’lum bir to‘plamining umumlashtirilgan tasavvuri, ularni umumlashtirish natijasida o‘smir normativ Menining mazmuniy maydonini tashkil qiladi [16].

N.B.Krilova pozitsiyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrida axloqiy o‘zini o‘zi anglash bu o‘smir axloqiy ongining psixologik markazi tomonidan ularda yoshga bog‘liq egotendensiyaning paydo bo‘lishi tufayli ma’lum bir boshqa shaxs obrazining ma’lum bir izolyatsiyasi bilan tavsiflanadi, ya’ni, o‘z ichki dunyosiga yo‘nalganlik (kattalik hissi, o‘zini o‘zi tasdiqlash ehtiyoji, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va h.k.) va boshqalarning, ham kattalar, ham tengdoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlarini kamroq hisobga olish. O‘smirni boshqasiga bunday yo‘naltirish axloqiy o‘zini o‘zi anglashni shakllantirishning asosiy shartiga aylanadi. Bunday yo‘naltirishsiz, o‘smirlik davrida shaxsning individualistik yo‘nalishi shakllanadi. O‘smirlarga tarbiya berish jarayonida pedagoglar va ota-onalar tomonidan bu holatni hisobga olmaslik, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning past darajada shakllanishiga olib keladi. Bunda boshqa inson (katta, kichik yoshdagi odam, tengdosh, notanish) o‘smir tomonidan yaxshilikni xohlaydigan kishi sifatida qabul qilinishi kerak. Boshqasini qo‘llab-quvvatlash va tushunishga, muvaffaqiyat va quvonchga, baxtga yo‘naltirish axloqiy xulq-atvorning asosiy rag‘batlantiruvchi kuchi bo‘lishi kerak. Bu o‘smirning ichki dunyosida boshqaning doimiy mavjudligi sharti bilan sodir bo‘ladi. Shubhasiz, axloq, har doim boshqalarga tegishli bo‘lib, uning kelib chiqishida boshqa insonga, tevarak-atrofdagilarga anglangan muhabbatni nazarda tutadi [11].

L.Y.Romanova olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, axloqiy shaxs ijtimoiy faolligining (o‘z faolligi) o‘ziga xos xususiyati - bu boshqa insonlarning o‘xshash ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan motivlar bilan o‘z Menini anglash zarurligini konkretlashtiradigan motivlarning uyg‘un kombinatsiyasidir, degan xulosaga keldi. Altruistik yo‘naltirilgan shaxs uchun motivlarning ikkala guruhi ham bir xil rag‘batlantiruvchi kuchga ega, chunki ular shaxsning axloqiy o‘zini o‘zi anglashda ekzistensial ma’noga teng qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zini o‘zi anglashning egoistik yo‘nalishiga ega bo‘lgan o‘smir o‘z obro‘si haqida doimiy tashvish, uning boshqalardan ajralib turishini ta’kidlash, atrof-muhitdan, hatto boshqa odamlarning qadr-qimmatini kamsitish va hokazo hisobidan ham ajralib turishga urinishlar bilan bog‘liq muvaffaqiyat uchun chidab bo‘lmas tashnalik bilan ajralib turadi. Uning ichki dunyosida boshqa shaxsiy maqsadlariga erishish uchun vosita yoki to‘siq sifatida salbiy belgi bilan mavjud. Bunday buzilgan axloqiy o‘zini o‘zi anglash mavjud o‘smirlarga gipertrofiyalangan shuhratparastlik, o‘zlarining ustunligiga qat’iy da’volar, o‘z fikrlari, baholarining mutlaq haqiqati, mulohazalari, baholari, xatti-harakatlarining adolatliligi va to‘g‘riligi xosdir. Va aksincha, rahm-shafqat, insonparvarlik, boshqasiga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyoji, har bir kishining o‘ziga xos individualligiga tolerantlik, o‘ziga talabchanlik, sabr-toqatlilik o‘smir shaxsining axloqiy o‘zini o‘zi anglashi rivojlanganligidan dalolat beradi [14].

R.G.Gurova fikricha, shaxs axloqiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirish axloqiy Men qadriyatlar tizimiga boshqaning obrazini kiritish kabi funksiyani o‘zlashtirishda ifodalanadi. Bu jihatdan, o‘smirda boshqa birov xulq-atvorining axloqiy masalalarini baholash va boshdan kechirish bunday xulq-atvorga shaxsiy munosabat bilan birlashadi. Shu munosabat bilan Men-boshqa o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining funktsional-mazmuniy omili sifatida yuzaga kelib, u uchun chuqur qadriyatli mazmunga ega. Shu bilan birga, hayotiy axloqiy ma’nolarni qayta ko‘rib chiqish, asosan, o‘smirlik davrida inson shaxsiy makonida boshqa kishi qadriyatlarining ustunligini belgilaydi, bu

ularning qadriyatlari bilan bog‘liq. Aynan shunday ma’naviy yutuqlar o‘smir shaxsini uning Men-axloqiy rivojlanishining yuqori darajasiga ko‘taradi [7].

V.P.Koxanovskiy fikricha, axloqiy vijdon o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining muhim mazmuniy tavsifidir. U integral shaxsiy ta’lim sifatida halollik, mas’uliyat, mehribonlik, rahm-shafqat, adolat, o‘zgaga muhabbat, tolerantlik kabi insoniy fazilatlar, shuningdek, uyat, aybdorlik, or-nomus va qadr-qimmat kabi tuyg‘ular bilan bog‘liq. O‘z mohiyatiga ko‘ra, vijdon insonning o‘z hayot faoliyati va uning ichki yashirin qobiliyatini axloqiy o‘zini o‘zi baholash nuqtai nazaridan ma’naviy tushunishni anglatadi. Vijdon ovozi inson qalbining siri sifatida namoyon bo‘ladi, u ovozli chiqarishga tobe bo‘lmaydi, u tabiiy holda paydo bo‘lib, o‘smir shaxsining xatti-harakatlarini yo‘naltiradi. Sof psixologik nuqtai nazardan, vijdon o‘smir axloqiy xulq-atvorini o‘z determinatsiyasining eng yuqori darajasidir. U axloq talabning birlamchi interiorizatsiyasi xulosasi sifatida yuzaga keluvchi axloqiy burchning ikkilamchi interiorizatsiyasi natijasidir. Vijdon nafaqat anglanganlik, balki anglanmagan va psixik faoliyat sub’ekti uchun hisobga olinmaydigan darajadagi o‘ziga xos kechinma sifatida ham namoyon bo‘ladi. Vijdonning vazifasi bu dunyoda yashayotgan insonga "nima zarurligini", uning burchini ochib berishdir. Bundan tashqari, vijdon shaxch axloqining eng yuqori ma’naviy instansiyasi bo‘lib, uning ildizlari axloqiy o‘zini o‘zi anglashda va shunga mos ravishda ularning energiya kuchi uning axloqiy pozitsiyasining mazmuni haqida xabardor qilish bilan bog‘liq. Unda emotsional va kognitiv tarkibni ajratish mumkin. Vijdonning birinchi, emotsional komponenti jamiyat, hamdardlik, rahm-shafqat hissi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi axloqiy me’yorlarni tushunish, o‘z harakatini ongli ravishda baholash bilan chambarchas bog‘liqdir [10].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, E.S.Arishinaning fikriga ko‘ra, vijdon o‘zini o‘zi anglash mazmunida o‘smir shaxsiy xulq-atvorining barqaror motivlari sifatida axloqiy o‘z refleksiyasi, o‘zini baholash va axloqiy me’yorlar ustun bo‘lganda o‘zini namoyon qiladi. Katta bo‘lish davrida vijdonni his qilish allaqachon rivojlangan shakllarga yetib boradi, ya’ni emotsional kechinma avval anglanilgan, keyinchalik esa irodaviy shaklga aylanadi. Bu shuni anglatadiki, o‘smir o‘zini majburlamasdan axloqiy me’yorlarga rioya qila oladi, o‘zi tomonidan qabul qilingan ixtiyoriy qarorlarni erkin amalga oshiradi. O‘zini boshqarishning bu darajasi vijdonlilik o‘smir axloqiy o‘zini o‘zi anglashining muhim xususiyatiga aylanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sof psixologik nuqtai nazardan, vijdon yo‘nalganlik va tegishli axloqiy faollik, sub’ektning dunyoga va o‘ziga mazmunli munosabati, qiyin hayotiy vaziyatlarda o‘z xulq-atvorining axloqiy tomonini boshqarish, nazorat qilish va modellashtirish qobiliyati bilan shakllanadi. Bunda axloqiy rivojlanuvchi ijtimoiylashuv qadriyat-predmetlar shaxsning o‘z qadriyatlariga aylanishiga asoslanadi, ular nafaqat ma’lum maqsadlarga erishish vositasi, balki axloqiy mas’uliyat asosida maqsadlarning o‘zi sifatida amalga oshiriladi [1].

Y.O.Smirnova insonning balog‘at yoshidagi axloqiy o‘zini o‘zi anglashining axloqiy pozitsiyada ifodalangan yana bir muhim mazmunli xususiyatini ta’kidlaydi. Ushbu hodisa shaxsning axloqiy yo‘nalishini va axloqiy rivojlanish darajasini axloqiy me’yorlarga rioya qilish sifati, umuman jamiyatga, insonlarga, mehnatga, o‘ziga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarning anglangan yig‘indi orqali aniqlanib, uni axloqiy faoliyatida va o‘ziga xos shaxsiy axloqiy xususiyatlarida boshqaradigan ustanovka va motivlar, maqsadlar va qadriyatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Axloqiy pozitsiya o‘smir shaxsining axloqiy tamoyillari, e’tiqodlari, ideallari va me’yorlari bilan axloqiy munosabatlar, pozitsiyalar, xatti-harakatlar amalga oshiriladigan shaxsiy o‘ziga xoslik sifatida axloqiy identiklikdan ajralmasdir. Ularning integral xususiyatlari Men-boshqa tizimda amalga oshiriladigan axloqiy ideallar, qiziqishlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, me’yorlar, bilimlardir. O‘z navbatida, noaniq axloqiy pozitsiya axloqiy o‘zini o‘zi anglashning asosiy tarkibiy qismlari shakllanishining o‘rtacha va past darajasini, ularning uyg‘un bo‘lmagan o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Axloqsiz pozitsiya axloqiy o‘zini o‘zi anglash asosiy tarkibiy qismlarining past rivojlanish darajasini ko‘rsatadi va ba’zi hollarda bu deviant, axloqsiz xulq-atvorning jiddiy ko‘rsatkichiga aylanadi [15].

N.V.Dmitriyeva xulosalariga ko‘ra, o‘smirlarning axloqiy o‘zini o‘zi anglashida taqlid mexanizmini ajratish muhim ahamiyatga ega, bu ham o‘rganilayotgan hodisaning mazmunli tavsifi sifatida qaralishi mumkin. Taqlid mexanizmining o‘zi axloqiy me’yorlarni qabul qilishni aks ettiradi va sub’ekt tomonidan ma’lum tashqi xususiyatlar, xulq-atvor namunalari, xatti-harakatlari, pozitsiyalari, qarashlari, boshqa odamlarning fikrlarini ko‘proq yoki kamroq o‘zgartirilgan shaklda takrorlashdan iborat. Bu, shuningdek, yaqin atrofdagi kishilarning xarakter xususiyatlarini, ideallarini, ijodkorligini qayta tiklashning mumkin bo‘lgan usuli. Nafaqat bola, balki o‘smir, o‘spirin, kattalarni dunyodagi ko‘p narsalar tashvishga soladi, qiziqtiradi, qo‘rqitadi, ularnini tegishli shaxsiy tajriba asosida emas, balki boshqa odamlar tomonidan shunday qabul qilinganligi sababli yo‘l tutadi. Taqlid qiluvchi kishida, taqlid ob’ektiga xos bo‘lgan yangi motivatsion shakllanishlar yuzaga keladi. Biroq, bola o‘zi uchun mazmunli, jozibali, tushunarli va qulay bo‘lgan narsaga taqlid qiladi. U kattalar harakatlarining tashqi protsessual tomonini tushunishi mumkin, chunki u ilk yoshda sodir bo‘ladi, o‘z mazmunini va unda bo‘lgan odamlarning munosabatlarini qabul qilishi mumkin. O‘z tabiatiga ko‘ra, taqlidning psixologik tuzilishi ancha murakkab, unda kognitiv, hissiy-irodaviy va xulq-atvor komponentlari ajralib turadi. Ularning nisbati turli yosh davrlarida bir xil emas. Shunday qilib, agar ilk yoshda taqlidni yuqtirish mexanizmiga yaqinlashtiradigan hissiy komponent muhim bo‘lsa, keyinchalik kognitiv, irodaviy va ayniqsa xulq-atvor komponentlarining ahamiyati ortadi. Axloqiy taqlid – bu birinchi navbatda, bu hissiy munosabatlar va boshqa odamlarning, ayniqsa ularga yaqin kishilarning kechinmalari, ma’no-mohiyati, qadriyatlariga befarq emaslikni va shaxsning ularni qabul qilishga, baham ko‘rishga, o‘z ehtiyojlari, imkoniyatlari va istiqbollariga ko‘ra ularni yuqtirishga tayyorligini nazarda tutuvchi psixologik fenomen. Motivatsion taqlid psixologik sharoitlar, taqlid ob’ektining xususiyatlari bilan oldindan belgilanadi va sub’ekt faolligining tabiatiga, uning individual xususiyatlariga bog‘liq. Xulq-atvorning ham ijobiy, ham salbiy belgilari amalga oshirilishi mumkin. Taqlid ongsiz, ixtiyorsiz va ongli, maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Shaxs uchun tashqi, taqlidning rag‘batlantiruvchi omili, masalan, g‘ayrioddiy sharoitlarda boshqa insonning xulq-avori hisoblanadi [8].

O.P.Poluxina fikricha, empatiya axloqiy o‘zini o‘zi anglash faoliyatining o‘ziga xos mexanizmiga aylanadi. Umumiy psixologik ta’rifda u boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini his qilish, ko‘rish, ajratish, yuzaga chiqarish va ularga munosabat bildirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu fenomen kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga olgan murakkab tuzilishga ega. Kognitiv hodisa sifatida empatiya boshqa odamni tushunish usuli bo‘lib, shaxsni tahlil qilishga, boshqasining ichki dunyosi tasavvurida intellektual qayta qurishga qaratilgan. Bu nafaqat mazmunan anglash, balki hissiy kechinmalarni intuitiv bilishdir. Sof hissiy hodisa sifatida empatiya boshqa odamning affektiv yo‘nalishlariga kirib borish qobiliyati bilan birga keladi, bu uning kechinmalariga sezgirlik, uning hissiy hayotiga qo‘shilish, hissiy holatlarni baham ko‘rish, hissiy qulaylik yoki noqulaylikni boshdan kechirish qobiliyatidir. Xulq-atvor komponenti qo‘llab-quvvatlovchi harakatlarda namoyon bo‘ladi. Identifikatsiya mexanizmining o‘ziga xos xususiyati ma’lum fazoviy, vaqtinchalik va ma’no koordinatalar bilan uning ichki dunyosiga chuqurlashish, singib borish, o‘tish orqali o‘zini boshqa odamning o‘rniga qo‘yishdir. Bu hissiy aloqalarga ega bo‘lgan inson ongli ravishda yoki qisman yoki to‘liq ongsiz ravishda o‘zini xuddi shu aloqa mavjud bo‘lgan shaxs kabi tutadigan jarayondir. Individ o‘zini boshqa birov bilan tenglashtiradi. Bunday o‘xshatish identifikatsiya ob’ekti bilan ma’lum darajada shaxsiy birlikni bevosita boshdan kechirish bilan birga keladi, buning natijasi individning ob’ektni kuzatish orqali o‘rganishdir. Shu bilan birga, sub’ekt shaxsning nafaqat xulq-atvor va xatti-harakatlari tashqi shakllarini, balki uning ichki kechinmalarini, shaxsiy mazmun-mohiyatini ham nusxalaydi. Bu jarayonda boshqa shaxsning qadriyatlari, me’yorlari, ideallari, irodasi va axloqiy sifatlari o‘zlashtiriladi [13].

E.R.Gizatullina tadqiqotlarida shaxsiy refleksiya katta bo‘lish davrida axloqiy o‘zini o‘zi anglashning juda muhim tarkibiy va funktsional mexanizmi ekanligi tasdiqlangan. Bu axloqiy bilimlar, axloqiy o‘zini o‘zi baholash, axloqiy farovonlik va axloqiy o‘zini o‘zi boshqarishning

ichki ishini muvozanatlashtiradi, uning mazmuni axloqiy xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish, tartibga solish, boshqarish, nazorat qilish, faollashtirish funksiyalarini bajarishdan iborat. Bundan tashqari, o‘smirlik davrida, insonda o‘zini o‘zi anglashning psixologik tuzilishida tegishli qayta qurish yuz berganda, lingvistik-fikriy funksiyalar sezilarli darajada o‘zgaradi. Ichki nutq, ichki fikrlash monologlari va dialoglar o‘smir shaxsining axloqiy o‘zini o‘zi anglashining o‘ziga xos tarkibiy-funktsional mexanizmiga aylanadi va shu bilan asosiy refleksiv operatsiyalarni shakllantiradi. Ichki nutq va uning ahamiyati refleksiya amalga oshishi uchun o‘smir shaxsining barcha psixik jarayonlari (tafakkur, nutq, his-tuyg‘u, iroda) rivojlanishining ikkinchi (eng yuqori) siklini belgilaydi [6].

R.V.Ovcharova fikricha, refeksiyaning tarkibiy qismi sifatida axloqiy refleksiya - axloqiy xulq-atvor sub’ekti sifatida o‘zi haqidagi yangi bilimlarni aks ettiruvchi shaxsiy ma’nolarni tushunish va qayta ko‘rib chiqishdan iborat. Refleksiv tahlil o‘smirning shaxsi tomonidan o‘zining axloqiy xususiyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi va tushunish yo‘nalishiga qarab, Men-axloqiy shaxsning o‘tmishdagi qiyofasi (retrospektiv refleksiya), Men-axloqiy shaxsning hozirgi qiyofasi (vaziyatli refleksiya) yoki Men-axloqiy shaxsning kelajakdagi qiyofasi (perspektiv refleksiya) dolzarblashishi mumkin. Axloqiy refleksiyaning predmeti axloqiy o‘zini o‘zi anglashning mazmunli parametrlarini, asosan Men-me’yor haqida ijobiy, o‘zi haqidagi tasavvurlarni va juda kam darajada Men-ideal axloqiyni anglash va qayta ko‘rib chiqishdir. O‘smirning o‘zi haqidagi faqatgina refleksiyalangan, emotsional-qadriyatli Men obrazi, masalan, o‘z or-nomusi, g‘ururi haqidagi tasavvurlari axloqiy o‘zini o‘zi anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Xatolar, qoidabuzarliklar, noadekvat harakatlar yoki affektiv reaksiyalar bilan bog‘liq holda, o‘z harakatlarini qayta ko‘rib chiqish jarayoni vijdon tubidan shaxsiy Men qadriyatning javobini kuchaytiradi. O‘smir axloqiy o‘zini o‘zi refleksiyasi, muayyan ijtimoiy sharoitlar tufayli u muammoli axloqiy vaziyatga tushib qolgan hollarda vijdonlilik, uyatchanlik, hamdardlik va boshqa axloqiy tuyg‘ularning xususiyatlari bilan bog‘liq [12].

O.Y.Velichko ta’kidlashicha, axloqiy ong sohasida refleksiya muayyan o‘ziga xos urg‘u berishni saqlab qolishi kerak, xususan, uning asosi axloqning ekzistensiyasi (keraklilik – me’yor kategoriyasi, qadriyat - yaxshilik kategoriyasi). Shuning uchun axloqiy refleksiyani shaxs tomonidan o‘zaro ta’sirlarni (faoliyat, munosabatlar, muloqot) tegishli va qadriyat pozitsiyasidan tushunish va qayta ko‘rib chiqish jarayoni sifatida aniqlash mumkin, bu esa uni axloqiy makonni tushunishning yangi darajasiga ko‘taradi. Axloqiy refleksiya tuzilmalari axloqiy o‘zini o‘zi anglashning fenomenal maydoni, tegishli qadriyatni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, axloqiy refleksiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zi haqidagi yangi bebaho bilimlarni aks ettiruvchi, to‘g‘ri va qimmatli shaxsiy ma’nolar nuqtai nazaridan tushunish va qayta ko‘rib chiqish mexanizmidir. Axloqiy refleksiya tufayli o‘smir Men-axloqiyni anglash tomon harakat qiladi va chuqur refleksiv o‘zini o‘zi tahlil qilish (Men-o‘tmishda, Men-hozir, Men-kelajakda) o‘smirga uning nomukammalligining ba’zi jihatlarini ochib beradi, bu esa Men-axloqiy inqirozini oldindan belgilab berib, natijada Men-axloqiyning mazmunini qayta anglash, o‘z hissiyotlari, qadriyatlari va ma’nolari sohasini boyitish amalga oshiriladi [5].

L.P.Brazgovka tadqiqotiga asoslanib, axloqiy o‘zini o‘zi anglashni quyidagicha o‘rganish mumkin:

psixologik fenomen, o‘z shaxsini yaratish manbai;

axloqiy jihatdan hayot faoliyatni uyg‘unlashtirish vositasi;

shaxsiy munosabatlarni insonparvarlashtirish mexanizmi va boshqalar bilan identifikatsiya qilish vositasi;

axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish va amalga oshirish mexanizmi.

Axloqiy o‘zini o‘zi anglash mexanizmining mohiyati ma’lum shaxsiy shakllanishlarni o‘z xatti-harakatlari va umuman xulq-atvorini tuzilma, o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayoniga kiritishdir. Bunda axloqiy o‘zini o‘zi boshqarish, o‘ziga ta’sir qilish jarayoni takomillashadi, chunki har bir yangi axloqiy xatti-harakat yangi axloqiy shakllanish – o‘smir shaxsining axloqiy o‘zini o‘zi qadrlash ekvivalenti sifatida yuzaga keladi [2].

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning eng muhim funksiyalaridan biri bu shaxs tuzilishida axloqiy ahamiyatga ega maqsadga erishish uchun umuminsoniy axloqiy imperativlarning individual sifatlar bilan o‘zaro bog‘liqlik sinergiyasini ta’minlash funksiyasidir. Mazmuniy-funktsional kontekstda axloqiy o‘zini o‘zi anglash o‘smirning erkin harakatlar sub’ekti sifatida Men-me’yorni yaratish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Bu shuni anglatadiki, axloqiy o‘zini o‘zi anglash ixtiyoriy ravishda, ichki motivlarga ko‘ra, o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me’yorlarga muvofiq boshqarish qobiliyati sifatida aks etadi. Axloqiy o‘zini o‘zi anglashning yuqori darajasiga erishganlar uchun erkin axloqiy xatti-harakatlar xarakterli bo‘lib qoladi. Axloqiy o‘zini o‘zi anglash yetarli darajada rivojlangan o‘smirlar erkin xatti-harakatlarni qayta-qayta dolzarblashtirilgan axloqiy o‘zini o‘zi boshqarish asosida yangi axloqiy shakllanishlarni o‘zlashtiradilar, ularda boshqasining ijobiy obrazi, axloqiy vijdon va axloqiy pozitsiya paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, axloqiy o‘zini o‘zi boshqarish axloqiy refleksiya bilan ajralmas birlikda faoliyat yuritadi. O‘smir shaxsi o‘zini o‘zi anglashining ushbu psixologik mexanizmlari nafaqat uning tuzilishida normativ Menni shakllantirishga, uning haqiqiy imkoniyatlarini va ularni amalga oshirish samaradorligi darajasini aks ettirishga, shaxsning axloqiy o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini tushunishga, balki boshqalar bilan o‘zaro ta’sirning axloqiy ma’nosini anglash, boshqasining axloqiy pozitsiyasini ko‘rish qobiliyati, axloqiy mezonlarga ko‘ra o‘z shaxsining boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini tushunish imkoniyatini beradi [3, 4, 9].

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, axloqiy o‘zini o‘zi anglash, odatda, tegishli mazmuniy-funktsional xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu ko‘p sonli olimlarning fikriga ko‘ra, ular yaxshilik, axloqiy vijdon va axloqiy pozitsiyani istagan boshqa kishining ijobiy obrazini qamrab oladi. Shu bilan birga, axloqiy o‘zini o‘zi anglashning eng muhim funksiyalaridan biri bu shaxs tuzilishida shu asosda axloqiy ahamiyatga ega maqsadga erishish uchun umuminsoniy axloqiy imperativlarning individual sifatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash funktsiyasidir. Insonning ulg‘ayish davridagi harakatlarida qayta-qayta ro‘yobga chiqadigan axloqiy yangiliklar Men-axloqiy shaxsining yanada barqaror shakllanishiga aylanadi. Ammo o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayonlari o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi, balki o‘smirning axloqiy o‘zini o‘zi boshqarish, axloqiy identifikatsiya, empatiya va intuitsiya kabi me’yoriy-qadriyatli o‘zini o‘zi anglash mexanizmi bilan bog‘liq. Bundan tashqari o‘smirlik davrida egotsentrizm bilan bir qatorda, axloqiy detsentratsiyaning paydo bo‘lishi shaxsning axloqiy fikr-mulohazalari, kechinmalari va yo‘nalganligidagi boshlang‘ich nuqtaning o‘zgarishi, harakatning tashqi me’yoriy to‘g‘riligi mezonidan muayyan shaxs uchun harakatning ichki ahamiyati (axloqiy aniqligi) mezoniga o‘tish bilan bog‘liq. Men-axloqiy sohasini bunday qayta qurish bu me’yorning haqiqiy qiymatini anglash imkoniyatidan boshqa narsa emas, ya’ni ushbu me’yor chegarasidan chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аришина Э.С. Об особенностях формирования ценностного отношения студентов технического вуза к профессиональной деятельности. // Воспитание в XXI веке: новые подходы, преемственность традиций, перспективы: Сборник статей междунар. науч.-практ. конф., Оренбург, 26-27 мая 2004 г. - Оренбург: Изд-во ОГПУ, 2004. - С. 12-16.

2. Бразговка Л.П. Значение нравственной установки в процессе морального становления младшего подростка. // Этическое воспитание. - 2007. - №3. - С. 35-40.

3. Ваниева С.Г. Система нравственно-эстетического воспитания учащейся молодежи. Владикавказ, 2000. - 342с.

4. Ведин И.Ф. Теория, личности: дороги и тупики самосознания. М.: Мол. Гвардия, 2001. - 238 с

5. Величко О.Ю. Методы стимулирования нравственного развития младших школьников / О.Ю. Величко // Начальная школа + практика: (вкладка к четным номерам). - 2010. - №7. - С. 97-100.

6. Гизатуллина Э.Р. Развитие нравственной сферы личности подростка: Монография. - Курган: Изд-во Курганского государственного университета, 2011. - 147 с.

7. Гурова Р.Г. Современная молодежь: социальные ценности и нравственные ориентиры. // Педагогика. 2000. - №10. - С. 38-45.

8. Дмитриева Н.В. Механизм подражания в структуре нравственного самосознания подростков. // Проблем культур и искусств мировоззрени современно молодежи: преемственность и новаторство: сб. науч. ст. - Саратов, 2005. - Вып.3. - С. 145-151.

9. Кон И.С. В поисках себя: личность и ее самосознание. М.: Политиздат, 2004. - 335 с.

10. Кохановский В.П. Нравственные и эстетические ценности и их роль в человеческой жизни. // Философия. Ростов н/Д: «Феникс». - 2002. - С. 344-353.

11. Крылова Н.Б. Характеристики нравственного самосознания в подростковый период. // Классный руководитель. 2000. - №3. - С. 22-31.

12. Овчарова Р.В. Нравственное самосознание и внутренняя позиция личности подростка в состоянии социально-педагогической запущенности. // Фундаментальные исследования. - 2015. - № 2 - С. 2970-2974

13. Полухина О.П. Роль нравственного самосознания в формировании профессионально-личностной позиции студента-психолога. // Территория науки. - №1. - 2017. - С.74-79.

14. Романова Л.Ю. Особенности профессионально-нравственного саморазвития будущего учителя в условиях вуза. // Научное обозрение. - Москва: Наука, 2009. - №2. - С. 145-151.

15. Смирнова Е.О. Нравственное самосознание в современных условиях: научно-педагогический ракурс. // Вестник развития науки и образования. - Москва: Наука, 2009. - №2. - С. 98-104.

16. Тарасьян Н.А. Генезис нравственного самосознания подростков. // Вестник Московского университета МВД России. - 2012. - №4. - С. 69-72.

Gaziyeva Fotima Ergashovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitati
Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti
Gaziyeva Zuxra Ergashovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitati
Ijtimoiy psixologiya kafedrasi dotsenti

KIMOYOVIY BOG‘LIQLIK MAVJUD BEMORLARDA SHAXS MOSLASHUV SALOHIYATI TASHXISI MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola kimoyoviy tobelik mavjud bemorlarning shaxs moslashuv salohiyatiga bag‘ishlangan. Unda turli mualliflarning tadqiqotlardagi o‘ziga xos tashxis yondashuvi muhokama qilinadi.*

Tayanch so‘zlar. *Moslashuv, reabilitatsiya, remissiya, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi boshqarish, koping-strategiyalar, egiluvchanlik, korrektsiya, ustanovka, determinantlar.*

ПРОБЛЕМЫ ДИАГНОСТИКИ ЛИЧНОСТНОГО АДАПТАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА У БОЛЬНЫХ С ХИМИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТЬЮ

Аннотация. *Данная статья посвящена личностному адаптационному потенциалу больных с химической зависимостью. В ней представлены диагностические подходы разных исследователей.*

Ключевые слова. *Адаптация, реабилитация, ремиссия, самооценка, самоконтроль, копинг-стратегии, флексибильность, коррекция, установка, детерминанты.*

PROBLEMS OF DIAGNOSIS OF PERSONAL ADAPTIVE POTENTIAL IN PATIENTS WITH CHEMICAL DEPENDENCE

Annotation. *This article is devoted to the personal adaptive potential of patients with chemical dependence. It presents the diagnostic approaches of different researchers.*

Keywords. *Adaptation, rehabilitation, remission, self-esteem, self-control, coping strategies, flexibility, correction, attitude, determinants.*

Zamonaviy psixologiyada keng tarqalgan muammolar qatoriga shaxs moslashuv salohiyatini kiritish mumkin. Ushbu muammo turli burchaklar ostidan hamda har xil sharoitlarda tahlil etilgan. Eng ko‘p hollarda mazkur tushuncha shaxs kasbiy rivojlanishida, ekstremal vaziyatlarda o‘zini boshqara olishi, madaniyatlararo moslashuvida, turli hayot faoliyatlarida, iste’dodli bolalardagi shaxs moslashuv salohiyati tuzilmasi, o‘quvchi va talabalar o‘quv jarayonida shaxs moslashuv salohiyatining rivojlanishi kabi vaziyatlarda tatbiq etiladi. Biroq shuni afsus bilan qayd etish lozimki, kimyoviy tobelik mavjud bemorlarda shaxs moslashuv salohiyati ruhiy salomatlik mutaxassislari tomonidan tizmiy va batafsil tahlil qilinmagan. Psixoaktiv moddalarga tobe bemorlarning shaxs moslashuv salohiyati tashxisi nihoyatda farqlanadi. Quyida ayrim mualliflarning yondashuvini keltiramiz.

Shaxs moslashuv salohiyati bu davolanishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi, remissiyaning davomiyligini ta’minlovchi, koping-strategiyalar ishlab chiqichga va resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi, o‘zini o‘zi faollashtirish, tarkib toptirish samarasini oshiruvchi muhim ko‘rsatkichdir. Ayniqsa moslashuv salohiyati psixosktiv moddalarga moyil shaxslarda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda kimyoviy tobelik va boshqa addiktsiyalar borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida asosiy e’tiborni retsediv, remissiya, davolanish motivatsiyasi, o‘zgarish motivatsiyasi va kabilar bilan shartlangan prediktorlarga qaratadilar. So‘nggi yillardagi ilmiy ishlarning qisqacha nazariy tahlili muammoga qiziqish kuchayganidan dalolat beradi.

Reabilitatsiyaning muvaffaqiyatini, muvaffaqiyatsizligini ta’minlovchi ijtimoiy omillar sifatida farovon, ishonchli oilaviy munosabatlarni [Шумова А.И., 2017; Миронова Н.В., 2015],

disfunktsional oilaviy munosabatlar, [Локтева А.В., 2013], oilada ota yoki onaning alkogol iste'moli [Москаленко Г.В., 2012], tarbiya usuli alkogol iste'mol qilishda tahdid omili tariqasida [Христофорова М.И., 2004; Лозовая Т.В., 2010] tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Turli remissiya muddatlarida alkogolga tobe bemorlarning psixologik moslashuv omillari [Миронова Н.В., 2015], psixoaktiv moddalarga tobe bemorlarning reabilitatsiyasida remissiyaning psixologik, shaxsiy va ijtimoiy-psixologik prediktorlar [Шарыгина К.С., 2014], alkogolizmning turli bosqichlarida remissiyalarning o'ziga xos jihatlari [Худик В. А. 1984] kabi muammolar psixologlarning diqqatiga sazovor bo'lgan.

Qayta retsedivlarning hissiy omillari [Клочкова Л.В., 1993], retsedivlarning kognitiv-bixevioral omillari [Петрова Н.А., 2009], retsedivlarning shaxsiy, ijtimoiy-psixologik prediktorlari [Шарыгина К.С., 2014], retsedivlarning turli alkogolizm bosqichlarida o'ziga xos namoyon bo'lishi [Худик В. А. 1984] singari jihatlar ko'p tomonlama o'rganilgan. Emotsional holatning stabillashuvi ko'p olimlar tomonidan psixoaktiv moddalarga tobe bemorlarning muvaffaqiyatli reabilitatsiyasi omili deb tan olingan [Шумова А.И., 2017], hayotga optimistik yondashuv, quyi yoki o'rta darajada hissiy zo'riqish muvaffaqiyatli davolanish belgisi sifatida [Миронова Н.В., 2015], hissiy nostabillik, o'zini o'zi anglashning emotsional komponenti buzilishlari alkogol iste'molining asosiy omili sanaladi [Клочкова Л.В. 1993; Клубова Е. Б., 1995; Ерофеева М.Г., 2006; Григорьев Г.И., 2009; Кузнецов А.Г., 2010; Локтева А.В., 2013; Будников М.Ю., 2014; Шарыгина К.С., 2014], alkogolizatsiya indikatorlari tariqasida aybdorlik hissining oson yuzaga kelishi, yuqori shaxsiy xavotirlik, impulsivlik, senzitivliklar e'tirof etiladi [Трусова А.В., 2005], narkotik moddalarga tobe bemorlarning psixoaktiv moddalardan voz kechishida yuzaga keladigan psixogen reaktsiyalar [Белоколодов В.В., 2016] nisbatan kengroq o'rganilgan.

Terapevtik motivatsiya [Поляк О.Б., 2009; Колпаков Я.В., 2010], davolanishga tayyorlik [Декало Е.Э., 2014], narkotik moddalarga tobelarning yashirin motivatsiyalari [Проценко С.А., 2003], влияние интернальности на лечение [Яровинская А.В., 2011], reabilitatsiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi koping-resurslar, koping-xulq, koping-strategiyalar asosiy shaxs salohiyati [Видерман Н. С., 2002; Мазурова Л. В., 2009; Лозовая В.В., 2010; Неверова Г. Ю., 2012; Миронова Н.В., 2015 Шумова А.И., 2017] sifatida tan olinadi.

Xarakter aktsentuatsiyasi hamda motivatsiya aloqasi [Григорьев Г.И., 2009; Кузнецов А.Г., 2010], narkotikka tobe bemorlarning himoya mexanizmlari [Ерофеева М.Г., 2006], alkogolni suiste'mol qiluvchi o'smir-qizlar psixologik himoya mexanizmlari [Ветюгов В.В., 2008] narkotik moddalarga moyil bemorlarning vaqt idroki [Блохин К.Н., 2006], alkogolga tobe bemorlar qadriyatlarining o'xshashlik va farqlari [Грязнов А.Н., 2002] kabi kamyob muammolar ham ba'zi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'z tadqiqotlarida A.I.Shumova narkotik moddalarga tobe bemorlarning shaxs moslashuv salohiyati determinantlari sifatida hissiy stabillik, o'zini o'zi boshqaruv, o'zini o'zi faollashtirish, shaxs rivojlanish qadriyatlari, konstruktiv koping-strategiyalar, davolanish motivatsiyasi ekanligini aniqlagan.

N.V. Mironova esa tashqi moslashuv resurslari (farovon shaxslararo munosabatlar), kutilmalar (hayotga optimistik ruh bilan qarash), "qochish-rad etish" koping-strategiyasidan "ijtimoiy madad izlash"ga o'tish, o'zini o'zi faollashtirish, o'zini o'zi tarkib toptirishning nozik jihatlari: ijtimoiy ma'qullangan xulq namunalariga murojaat etish, hissiy sezgirlik va refleksiya qobiliyati kabi determinantlar alkogolga tobe bemorlar muvaffaqiyatli davolanish jarayonini belgilab berishini ta'kidlaydi.

O.B. Polyak opioid narkotik tobeligi bor bemorlarda kasallikka tanqid va terapevtik motivatsiyaning kasalikka munosabat tuzilmasida ahamiatini tadqiq etib, empatiya hissi, aybdorlik hissi, o'zi va atrofdagilarni tanqidiy baholash qobiliyati, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilganlik, o'z hissiyotlari va xulqini boshqarishga intilish, muvaffaqiyatlarga intilish opiodga tobe bemorlarda o'zgarishga tayyorlikning asosiy belgilari ekanligini tasdiqladi.

G.I. Grigoryev o'z izlanishlarida remissiya muddatini oshiruvchi omillar qatoriga o'z shaxsiy salomatligi haqida qayg'urish, davolanishga qadar narkotik moddalardan mustaqil tiyina olish darajasi, narkotikni rad eta olish muddati kabilarni kiritadi.

G.Yu. Neverova bemorlarning shaxs moslashuv salohiyatiga fleksibillik, anozognoziya, adekvat o‘zini o‘zi baholash, mas’uliyat hissi, irratsional ustanovkalar, ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradigan psixologik himoya mexanizmlar korrektsiyasi, me’yoriy xulq shakllarini shakllantirish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, agressivlikni pasaytirish singari sifatlarni taalluqli deb hisoblaydi.

A.V. Yarovinskaya alkogolizm bilan xastalanganlarni tadqiq etib, kasallikka adekvat munosabat shakllanishi hamda anozognoziyani yengishda internallik yetakchi omilligini qayd etadi.

M.V. Burdin kognitiv-bixevioral psixoterapiya samaradorligi prediktorlarini alkogolga tobe bemorlarda o‘rganib, assertiv xulq-atvor, xushyorlik (mastsizlik) paytida ijobiy tajriba, stressni yengishning strategiyalarini rivojlantirish, refleksiya, moslashuv salohiyatini rejalashtirish ko‘nikmalari ekanligini aniqlagan.

K.S. Sharygina psixoaktiv moddalarga tobe bemorlar reabilitatsiyasida remissiya prediktorlari muammosini tadqiq etib, psixoaktiv moddalardan voz kechish ichki motivatsiyasining mavjudligi, sog‘ayish maqsadlari, statsionar reabilitatsiyadan so‘ng davolanishni davom ettirish tilagi, o‘zidan qoniqmaslik, stressli vaziyatlarda faol xatti-harakatlar hamda yangi tajribaga tayyorlik hissi moslashuv salohiyatiligini ta’kidlaydi.

Y.V. Kolpakov alkogolga moyil ayollarning davolanish motivatsiyasi darajalari va tuzilmasini o‘rganib, davolanishga ijobiy ustanovkalar o‘zini o‘zi boshqarish, mustaqillik, hayotni anglanilganligi, yuqori shaxsiy xavotirlik, situativ xavotirlikning “Fobik komponenti” va “Istiqbolni baholash”dagi yuqori ko‘rsatkichlar, kasallikni tan olish kuchayishi, yaqin kelajakda alkogoldan tiyinish o‘z samaradorligini oshishi, kasallikni yengishda “Ijtimoiy ko‘mak izlash”, “Ijobiy baholash”, “O‘zini o‘zi nazorat qilish” kabi strategiyalarni tatbiq etish, “Mas’uliyatni o‘ziga olish” strategiyasining oshishi, davolanish maqsadiga erishishda qat’iyatning ortishida ifodalanishini uqtiradi.

Y.E. Dekalo opiyga tobe bemorlarning davolanishga tayyorlik darajasini tadqiq etib, davolanishga tayyorlik uch darajali tuzilmadan tashkil topganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Me’yoriy daraja – “davolanishga tayyorlik” – davolanishga anglanilgan munosabat, maqsad va ehtiyojlarni aniq tushunish, ijobiy ustanovkalar va hayot tarzini o‘zgartirish istagi, davolanishga qarshilikning yo‘qligi, shaxs ichki nizolarining mavjudmasligi hamda alkogolga patologik moyillikning pastligi bilan tavsiflanadi.

Maqola xotimasi sifatida ta’kidlash mumkinki, kimyoviy tobelikka duchor bo‘lgan bemorlarning shaxs moslashuv salohiyati sifatida olimlar turli determinant va prediktorlarni ajratib ko‘rsatadilar, biroq ularni mohiyatan shaxsiy (motivatsion, emotsional, kommunikativ), ijtimoiy (shaxslararo ta’sirlashuv va ta’sir o‘tkazish) va kognitiv (bilish jarayonlari, egiluvchanlik, dunyoqarash) darajalarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Газиева Ф.Э. Краткий теоретический анализ работ адаптационного потенциала личности больных химической аддикцией в процессе реабилитации// “Psixologiya” ilmiy jurnal, maxsus son, 2023. – B. 48-51.

2. Газиева Ф.Э. Психологические детерминанты благоприятно влияющих на реабилитацию больных с химической зависимостью у разных авторов // Вестник интегративной психологии, 2023 Выпуск 30 часть 1. – стр 64-69.

Salomova Guli Shodimurodovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Umumiy Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
E-mail: guli.salomova@mail.ru

MADANIYATLARARO VA SUN’IY YARATILGAN NOANIQ VAZIYATLARDA QAROR QABUL QILISHNING KOGNITIV KO‘RINISHLARNI ANIQLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniyatlararo vaziyatlarda va tajriba guruhlari uchun maxsus tadqiqot tomonidan belgilangan vaziyatlarda sinaluvchilarning kognitiv jarayonlari namoyon bo‘lishining tanqidiy tafakkur va kognitiv moslashuvchanlik hodisalarini jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning mahsuli va natijalari sifatida ko‘rib chiqish va bundan tashqari, talabalarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatini ta’kidlash; talabalarning tanqidiy tafakkuri va kognitiv moslashuvchanligiga madaniyatlararo tajriba va madaniyatlararo ta’sirchanlikning roli ahamiyatli ta’sir qilishi kontent tahlilda aniqlanganligi maqolada o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv moslashuvchanlik (KM), tanqidiy tafakkur (TT), tanqidiy tafakkur testlari (TTT), qaror qabul qilish (QQQ), meta-kognitiv idrok, refleksiya, introspectsiya.*

ВЫЯВЛЕНИЕ КОГНИТИВНЫХ АСПЕКТОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В МЕЖКУЛЬТУРНЫХ И ИСКУССТВЕННО СОЗДАННЫХ НЕОПРЕДЕЛЁННЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются феномены критического мышления и когнитивной гибкости когнитивных процессов испытуемых в межкультурных ситуациях и в ситуациях, определенных данным исследованием для экспериментальных групп как результатов социальных отношений в обществе, помимо того, в контент-анализе отражено, что роль межкультурного опыта и межкультурной чувствительности оказывает существенное влияние на критическое мышление и когнитивную гибкость студентов, значение которой выявлено в социальных отношениях учащихся.*

Ключевые слова: *когнитивная гибкость, критическое мышление, тесты критического мышления, принятие решений, метакогнитивное восприятие, рефлексия, самоанализ.*

IDENTIFYING COGNITIVE ASPECTS OF DECISION-MAKING IN INTERCULTURAL AND ARTIFICIALLY CREATED UNCERTAIN SITUATIONS

Abstract*. In this state, the phenomena of critical thinking and cognitive flexibility of cognitive processes are tested in intercultural situations and in situations, determined by data research for experimental groups, as a result of social relations in society, in addition to content analysis, which shows the role of intercultural experience and intercultural sensitivity critical influence and critical thinking and cognitive flexibility of students, the meaning of which is revealed in social relations.*

Key words: *cognitive flexibility, critical thinking, critical thinking tests, decision-making, meta-cognitive perception, reflection, introspection.*

Kirish. Madaniyatlararo muhitda qaror qabul qilishning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi bir nechta asosiy xususiyatlarga egaligi aniqlangan va uning ahamiyati belgilangan bo‘lib, bugungi kunda yechimini kutayotgan asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Jumladan, madaniy farqlardan xabardorlik, muammoni anglash, masalalarni hal qilishda bilimlardagi madaniy farqlarni hisobga olish, qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy normalar, qadriyatlar va kutilmalarni tushunishni o‘z ichiga olgan kontekst tahlili, qaror qabul qilish jarayonida turli madaniy istiqbollarni hisobga olish va birlashtirish qobiliyati, madaniy stereotiplar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan taxminlar va noto‘g‘ri qarashlarni tekshirish, boshqa madaniyat vakillari bilan faol va konstruktiv muloqot o‘rnatish, yangi madaniy voqeliklarga va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati yanada to‘g‘ri va samarali echimlarni topishga yordam beradi.

Tanqidiy tafakkur alohida harakatlarda amalga oshirilmaydi, u ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlardan iborat bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonida, tez-tez paydo bo‘ladigan boshqa shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

TT boshqalar bilan hamkorlik va faol muloqotni talab qiladi. TT yordamida qarorlarning samaradorligini ta’kidlash mumkin, ammo tadqiqotning ushbu bosqichida tanqidiy tahlilning past ko‘rsatkichlari asosida qaror qabul qilish sabablarini tahlil qilamiz:

- muammoni puxta o‘rganishga imkon bermagan tezkor qaror qabul qilish talabi;

- qaror qabul qiluvchiga yuqori ijtimoiy bosim. QQQ jarayoniga kuchli bosim orqali tanqidiy tafakkurning amaliy qo‘llash imkoniyati qo‘ldan boy beriladi va u o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Xususan, doimiy amaliyot ushbu fikrlash turini rivojlantiradi, bu muammolarni hal qilishda qoniqarli xulosa chiqarish uchun asosiy omil hisoblanadi;

- kognitiv stereotiplarning ta’siri. Bu yerda hukmdagi ba’zi xatolarni, shu jumladan hodisalar va ma’lumotlar o‘rtasidagi mantiqiy va oqilona bog‘liqlikdagi noaniqliklarni kuzatish mumkin. Saxs, har bir vaziyatda, allaqachon o‘rnatilgan qarashlarini tasdiqlovchi ma’lumot va talqinlarni qidiradi. U o‘z e’tiqodlariga mos kelmaydigan dalillarni e’tiborsiz qoldiradi, boshqa manbalarni rad etadi va ularni odilona baholaydigan boshqa ma’lumotlarni tanlaydi. Tahlil natijalariga murojaat qilib, joriy muammoni to‘liq tahlil qilishga chaqiradi. Shuningdek, QQQ sub’ektlari refleksiya jarayonida o‘zlarini tanqidiy fikrlovchi deb hisoblashadi. Bu holda kognitiv, tahlil jarayoni bo‘lmagan deb ta’kidlash mushkul. Bu jarayon bir yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘z ifodasini samarali qarorda topadi. Ushbu amaliyot optimal yechimga to‘sqinlik qiladi;

- muammoni qayta ko‘rib chiqishda aniqlik yetishmasligi. Ba’zan shaxs o‘z qarorlaridan qoniqmaydi va o‘z harakatlarini qayta ko‘rib chiqqanda, hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoni yetarlicha o‘rganmaganligini aniqlaydi. U duch kelgan muammoning har bir tafsiloti tanish ekanligiga amin bo‘ladi. Shunday qilib, shaxs to‘liq rivojlanmagan muammoga duch kelsa, shoshilinch qarorlar qabul qiladi. Tanqidiy fikrlash muammoni hozirgi oqibatlari bilan aniq ko‘rish imkonini beradi. Bu keraksiz tavakkaldan qochish imkonidir;

- o‘ziga ishonch. Muammolarni hal qilishda va qaror qabul qilishda kishilar to‘g‘ri ish qilayotganiga amin bo‘lishadi, lekin vaqt o‘tganidan keyin o‘zlarining xatosini tushunishdi.

Qiyin yoki noaniq vaziyatlarda bu xatoga yo‘l qo‘ygan ishtirokchilar o‘zlarining xulosalarida mutlaqo haq ekanligiga ishonishdi yoki to‘g‘riligiga ishonch hosil qilgan dalillarga tayanishdi. Tanqidiy fikrlashning ahamiyati shundaki, xulosa chiqaradiganlar doimo o‘z e’tiqodlari va ularning to‘g‘riligiga shubha qilishadi. TT ni qo‘llagan shaxs bir vaqtning o‘zida ko‘plab taxminlarni ko‘rib chiqadi va ularning g‘oyalarini tekshiradi;

- bu jarayonda kollektiv tahlilning yetarli emasligiga qo‘yidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin.

Kollektiv tahlil, boshqacha qilib aytganda, guruh ichidagi tahlil, fikrlashdagi bo‘shliqlarni boshqa guruh a’zolarining g‘oyalari va qarashlari bilan to‘ldirishga imkon beradi. Bu – psixologik hodisadir. Agar ishtirokchilar vaziyatni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lsa, jamoaviy tahlil barcha ishtirokchilar uchun eng yaxshi tarzda yakunlanadi, ammo aksincha, konformizm kabi tushuncha ularga TT mahoratini ko‘rsatishga va muammoni chuqur o‘rganishga to‘sqinlik qiladi. Bunday holda, har xil fikr guruh yoki uning eng kuchli a’zolari tomonidan e’tiborga olinmaydi va tanqid qilinadi. Guruh tomonidan ishlab chiqarilgan yechim mustahkam va samarali bo‘lib chiqmaydi;

- boshqa variantlarning yetishmasligi:

Bunda muammoni batafsil tahlil qilish qobiliyatini e’tiborsiz qoldirib, qaror qabul qilish sub’ekti, faqat bitta muqobil yechimga ega bo‘ladi. Va bu yechim har doim oddiy va bashorat qilinadigan bo‘lib chiqadi. Ba’zida ishtirokchilar mustaqil qaror qabul qila olmagan holda, qanday qilib, o‘tgan tajribaga murojaat qilganliklarini yoki qarorlarning oldingi holatlaridan andaza olib, ularni o‘zgartirganliklarini tasvirlab berishdi.

Har bir ishtirokchi, noaniq vaziyatlarda yoki madaniyatlararo munosabatlarda, mavjud materialni ehtiyotkorlik bilan qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga extiyoj sezadi.

Sinaluvchilarning individual fazilatlaridan tashqari, ularning qadriyatlari, fikrlash usullari va turli madaniyatlarning uzoq muddatli ta’siri ostida shakllanadigan xulq-atvor tushunchalari ham

sezilarli darajada farqlanadi. Boshqa muhitda bo‘lish, odatdagi imidjini o‘zgartirish jarayoni, ulardan yangi muammoni yangi sharoitlar tartibida o‘rganishni talab qiladi. Bunday moslashish xulq-atvor va fikrlashning o‘zgarishi bilan sodir bo‘lishi mumkin. Akademik muvaffaqiyat va yuqori ko‘rsatkichlarga, sun’iy ravishda yaratilgan madaniyatlararo sharoitlarda erishib bo‘lmaydigan yutuqlarga madaniyatlararo moslashtirish orqali erishiladi. Sun’iy ravishda yaratilgan sharoitlarda sinovdan o‘tgan eksperiment ishtirokchisi bilan tabiiy madaniyatlararo muhitda bo‘lgan ishtirokchining qaror qabul qilishdagi muvaffaqiyati yoki muvaffaqitsizligi natijalari bir-biridan farq qiladi.

Tajriba sinaluvchilarining ijtimoiy va kognitiv sifatlarida ham, qarorlardan qoniqish tushunchasida ham farqlar kuzatiladi. Albatta, quyidagi aniq farqlarni sezmaslik mumkin emas:

-tillarni mukammal bilish;

-turli xil kognitiv uslublardan foydalanish;

-turli madaniy va ijtimoiy resurslardan foydalanish qobiliyati;

-ko‘p sonli muammolarni hal qilish tajribasiga ega bo‘lish;

-faqat o‘z qobiliyati va kuchiga tayanish.

Ko‘rsatilgan xususiyatlar majmui ularning namoyon bo‘lishi va qayd etilishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ikki guruhga bo‘lingan.

1-jadval.

Tajriba guruhlarida qaror qabul qilish jarayonida aniqlangan xususiyatlar reytingi


Tahlil elementi: xususiyatlar	**Guruh bo‘yicha reyting xususiyatlari**	
	Ekspert guruh (n=45).	**Nazorat guruh (n=47).**
Vaziyatni tahlil qilish	7.5	18.5
Muqobil variant	11.5	26.5
Harakatsizlik	17	10
Tashvish	24	28
Minnatdorchilik	23	11.5
Xarajatli qarorlar	29	4
Bo‘ysunish	30	8
Tavakkal qilmaslik	26.5	11.5
Vaziyatni boshqarish	7.5	14.5
Maqsad sari ishlash	5.5	14.5
Xavfli vaziyat	26.5	16.5
Vaziyatni kuzatish	2.5	16.5
Vaziyatni qabul qilmaslik	28	1
Beparvolik	31	5
Odamlarni boshqarish	11.5	18.5
Mumkin bo‘lgan xavflarni taxmin qilish	2.5	29
Qobiliyatlarni qayta baholash	21	2
Rejalashtirish	18.5	30
Yo‘qotish	22	6
Qiyinchiliklarni yengish	18.5	13
Ratsionallik	9.5	24.5
Refleksiya	9.5	23
O‘z-o‘zini tanqid qilish	14.5	8
O‘zini anglash	2.5	26.5
Ishontirish qobiliyati	20	24.5
Shubha	14.5	3
Qo‘rquv	25	8
Intilish	5.5	21.5
Puxtalik	2.5	21.5
Qoniqish darajasi	16	31
Vaqtni boshqarish	13	20
Jami:	496	496

Ushbu hodisalar ularning takrorlanish chastotasi bo‘yicha oshib borish tendentsiyasi asosida tartiblandi.

Shunday qilib, noaniq vaziyatlarda yoki madaniyatlararo aloqada chog‘ida o‘tkazilgan eksperimental va nazorat guruhlari uchun qarorlarni qabul qilish tahlili shuni ko‘rsatdiki, birinchi (madaniyatlararo tajribaga ega ishtirokchilar) guruhida vaziyatni nazorat qilish, puxtalik, o‘zini anglash va mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan bilish kabi hodisalarning chastotasi ko‘paygan. Shu bilan birga, nazorat guruhida (madaniyatlararo tajribaga ega bo‘lmagan) bunday hodisalarning pay-do bo‘lishi ancha kam uchraydi. Shuningdek, madaniyatlararo aloqalar tabiiy ravishda o‘rnatiladigan guruhlarda, ya’ni eksperimental guruhda maqsadga intilish ikkinchi o‘rinda, nazorat guruhida shunga o‘xshash xususiyatlardan foydalanish deyarli oxirgi o‘rinda.

Tajriba boshida nazorat guruhi ishtirokchilari uchun sun’iy ravishda yaratilgan, noaniq sharoitlarda qaror qabul qilinishi murakkabligi kuzatildi, chunki ular madaniyatlararo tajribaga ega bo‘lmay, zudlik bilan qaror qabul qilish, zarur bo‘lgan vaziyatlarni qabul qilmaslik ushbu guruh uchun birinchi o‘rinda edi. Shunga ko‘ra, ushbu hodisa bilan bog‘liq “qo‘rquv”, “shubha”, “tavak-kaldan qo‘rqish”, “ehtiyotsizlik” kabi xususiyatlarning chastotasi oshdi. Biroq, nazorat guruhida “qobiliyatlarni ortiqcha baholash” hodisasi eng keng tarqalgani ma’lum bo‘ldi. Ushbu hodisa shuni ko‘rsatadiki, noaniq vaziyatlarda ishtirokchilar o‘zlarining kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini yuqori baholagan bo‘lishi mumkin, bu shaxsning o‘z imkoniyatlarini tushunmaslik oqibatida sodir bo‘ladi. Ushbu hodisa notanish vaziyatni yuqori darajada rad etish jarayonida aniqlandi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot davomida tajriba ishtirokchilari tashkillashtirilgan ssenariylarga ikki yo‘qlama munosabatda bo‘lishgan. Eksperimental muhit va tadqiqotchining mavjudligi natijaga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Ishtirokchilar idrokining ambivalentligi “o‘z-o‘zini tanqid qilish” kabi sifatning yuqori darajada yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Ushbu sifat eksperimental guruhda o‘rtacha chastotada ekanligi aniqlandi. “Ratsionallik” va “Refleksiya” eksperimental guruhda birinchi o‘rinda, nazorat guruhida esa oxirgi o‘rinda turadi.

Tajriba guruhlarida olib borilgan korrektsion va rivojlantiruvchi dastur metodlarining ahamiyatliligi va sinaluvchilarda qiziqarliligi bilan ular tomonidan ranjirovka asosida baholandi.



1- rasm. Metodlar ahamiyati va foydaliligi bo‘yicha reytingining XV o‘qida joylashuvi

Berilgan baholarga ko‘ra, shuni aytish lozimki, eng ahamiyatli va qiziqarli metod sifatida meta-kognitiv metodlar o‘rin olgan bo‘lib, mazkur metodikalar shaxsning o‘z qiziqishlari va imkoniyatlarini baholadilar,binobarin ular reprospektsiya va “meta-idrok” usullari yordamida o‘tmishdagi qilingan qarorlar va ularning oqibatlarini tahlil qilish jarayonida tafakkur tarzini qayta baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. “Meta-idrok” ning yana boshqacha ko‘rinishi o‘z-o‘zini nazo-rat qilish deb ham yuritilib, bunda “topshiriqni qay tarzda uddaladim?” va “asosiy vazifalarni

bajarayotib nimalarda ahamiyat bermadim" kabi tadqiqot tomonidan qo'yilgan savollarga javob berdilar va o'xshash vaziyatlarda o'z imkoniyatlarini qayta baholadilar. Olingan natijalar asosida QQQ ning asosiy komponentlari aniqlandi. Ammo tasvirlangan metodlar faqat retrospektiv holatlarda qo'llanildi.

Intellektual misollar va tanqidiy tafakkur testlarini bajarish va anglanganlik mos ravishda ahamiyat va qiziqarlilik reytingida keying o'rinlarni egalladi. Qaydnomalar yuritish juda qiziqarli bo'lgan bo'lsa-da, unchalik ahamiyatli deb topilmadi.

QQQ hodisalarining chastotasi ikki guruhda farq qildi, bu yerda madaniyatlararo aloqaning ijtimoiy sharoitlari tabiiy ravishda yuzaga keldi va bu shartlar tadqiqot tomonidan o'rnatilib, nazorat qilindi.

Ishlab chiqilgan meta-idrok va o'z-o'zini nazorat nazorat qilish metodlari orqali talabalarning turli xil sharoitlarda qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan kechinmalari, xulq-atvoriy sifatlari, madaniy idrok xususiyatlari tahlil qilinishi va tartiblanishi mazkur metodlarning metakognitiv ahamiyatini oshiradi va qarorlarning samarali, muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdurahmonova Z.X. "Yoshlarda milliy birlik tuyg'usini shakllantirish" nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2006, - 140 b.

2. Аминова Д.Х. Глобаллашув шароитида маданиятлараро интеграция ва сиёсий маданиятни такомиллаштириш муаммолари. Сиёсий фанлар номзоди Дисс. – Тошкент -2010 -160.

3. Садохин А.П. Межкультурная компетентность: Сущность и механизмы формирования. Автореферат дисс-и на получение докторской степени по культурологии. – М., 2009 – 43с.

4. Фабрика И.Г. Развитие готовности студентов к межкультурной коммуникации в образовательном процессе вуза физической культуры. Автореферат дис-и на получение кандидатской степени по педагогики. – Ч., 2010 – 27 с.

5. Swartz, R. J. (1991). Structured teaching for critical thinking and reasoning in standard subject area instruction. In J. F. Voss, D. N. Perkins, & J. W. Segal (Eds.), Informal reasoning and education (415-450). Hillsdale, N.J.: Erlbaum.

6. Underbakke, M., Borg, J. M., & Peterson, D. (1993). Researching and developing the knowledge base for teaching higher order thinking. Theory into Practice, 32 (3), 138-146.

7. Woodman, G. F., Vecera, S. P.,& Luck, S. J. (2003). Perceptual organization influences visual working memory. Psychonomic Bulletin & Review, 10, 1, 80–87.CrossRef | Google Scholar | PubMed

Xasanova Nozimaxon Abdugafur qizi
Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi o`qituvchisi

QANDLI DIABET VA REVMOTOLOGIK KASALLIKLARDA SHAXSDA DAVOLANISHGA MUNOSABATNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQOT METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Shifokor tavsiyasiga ko`ra davolanishda bemorning kognitiv, emotsional va xulq–atvor darajasining mos kelishi, davolanish jarayonining ijobiy kechishiga sabab bo`ladi. Ko‘plab olimlar tomonidan davolanishga munosabat tushunchasi o‘rganilgan bo‘lib, bu tushuncha zamonaviy psixologik adabiyotlarda komplayentlik iborasi bilan qo‘llaniladi. Ushbu maqolada qandli diabet va revmatologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarning davolanishda komplayentligining sotsial-demografik omillari bilan tanishasiz.*

Kalit so`zlar. *Davolanishga munosabat, komplayentlik, kasallik, qandlli diabet, revmatologik kasallik, sotsial-demografik omil.*

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОТНОШЕНИЯ К ЛЕЧЕНИЮ У ЛЮДЕЙ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ И РЕВМАТОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Аннотация. *Соответствие когнитивного, эмоционального и поведенческого компонента пациента лечению по рекомендации врача является причиной положительного течения процесса лечения. Концепция отношения к лечению изучалась многими учеными, и это понятие выражается в современной психологической литературе термином «комплаентность». В этой статье вы узнаете о социально-демографических факторах комплаентости пациентов с диабетом и ревматологическими заболеваниями в лечении.*

Ключевые слова. *Отношение к лечению, комплаентность, болезнь, сахарный диабет, ревматологические заболевания, социально-демографический фактор.*

RESEARCH METHODOLOGY FOR STUDYING THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATTITUDES TOWARD TREATMENT IN INDIVIDUALS WITH DIABETES AND RHEUMATOLOGICAL DISEASES

Abstract. *Compliance of the patient’s cognitive, emotional and behavioral component with the treatment as recommended by the doctor is the reason for the positive course of the treatment process. The concept of attitude to treatment has been studied by many scientists, and this concept is expressed in modern psychological literature by the term "compliance". In this article you will learn about socio-demographic factors of compliance of patients with diabetes and rheumatologic diseases in treatment.*

Keywords. *Treatment attitudes, compliance, illness, diabetes mellitus, rheumatologic diseases, socio-demographic factor.*

Kirish. Tibbiyot amaliyotidagi o‘zgarishlar va chuqur islohotlarga qaramasdan, hozirgi davrda ham shifokor tavsiyalariga komplayentlik muammosi dolzarbligicha qolmoqda, so‘nggi o‘n yil ichida ushbu yo‘nalish nafaqat tibbiyot amaliyotida balki, klinik psixologiyada mustaqil ilmiy tadqiqotlar predmetiga aylandi.

Tibbiyot adabiyotida «komplayens» iborasi o‘rnashib qolgan, biroq bir qancha ma’nolarni anglatadi[1]. «Komplayens» iborasining eng ko‘p tarqalgan ma’nosi davolanishga rozilik berish, shifokor bilan hamkorlik va terapiyaning barcha talablarini bajarishni anglatadi. «Komplayens» iborasining boshqa ma’nosi davolanish davrida shifokor tavsiyalariga aniq va ongli ravishda rioya

[1] Коц Я.И., Митрофанова, И.С. Комплаентность как фактор повышения эффективности лечения больных с хронической сердечной недостаточностью // Российский медицинский журнал. 2007. № 4. С. 4–7.

qilishdir, va bu ma'nodagi iborani xorijda va Rossiyada amaliyot shifokorlari klinik terapiyani muhokama qilayotgan jarayonda juda keng qo'llashadi.

Tibbiyot nuqtai nazaridan yondoshilganda aksariyat hollarda komplayentlik muammosi tor doirada bir tomonlama o'rganiladi. Shifokor ko'rsatmalarining shaxs tomonidan bajarilishini ilmiy jihatdan asoslab tizimga solish ancha murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki komplayentlik muammosi ancha "yosh" va ilmiy jihatdan fikrlab talqin qilishdan ancha yiroq.

V. Mendelevich, komplayentlikni murakkab tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi va u uchta funksional blokdan iborat:

- hissiy-ruhiy blok zudlik bilan paydo bo'ladigan taassurotlar, davolash holati;
- mantiqiy baho va qarorlar tizimini ifodalab davolashga bo'lgan ehtiyoj va uning oqibatlarini tushuntirish;
- davolanishni amalga oshirish uchun xatti-harakatlarning shakllanishi, harakatlar va harakatlar dasturini va yuzaga kelgan tajribalarni o'z ichiga oladi[1].

Psixologik yondashuvga rioya qilish orqali komplayentlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Inson aqliy faoliyatining tuzilishini hisobga olgan holda, albatta, bu shaxsning davolanishga bo'lgan munosabatini, uni shifokor ko'rsatmalariga rioya qilishini va tavsiyalarni bajarishdan iborat.

Bu haqda faktlar shunday obyektiv guvohlik beradiki, asosan komplayentlik muammosiga taalluqli nazariyalar va tamoyillar mavjud, biroq ular to'g'ridan to'g'ri ushbu muammoni yechimiga qaratilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Qandli diabet va revmatologik kasalliklarda davolanishga bo'lgan komplayentlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ko`rib chiqamiz. Odamning surunkali kasalliklar davrida davolanishda komplayentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ajratib olish maqsadida ushbu tahlilllar o'tkazilgan.

Y.V.Grishenko, Ye.A.Naumova, Yu.G.Shvars (2009) uzoq vaqt mobaynida pirlindol preparati bilan yurak kasalliklari bor depressiyadagi bemorlarni davolanishga bo'lgan komplayentliklariga ta'sirini o'rganishgan. Tadqiqotchilar antidepressantlarga nisbatan komplayentlik kam bo'lgani tufayli izlanuvchilar pirlindol preparati bilan antidepressiv davolash bemorlarning uzoq davolanishiga va kardiologik kasalliklari bo'lgan bemorlar preparatlarni muntazam qabul qilish davolanishga komplayentka ta'sir qilmasligini ta'kidlashgan[2].

L.P.Yevstigneyeva va boshqalar (2012) osteoporoz bo'lgan bemorlar uchun ma'lumotlar berish dasturini taklif etib, dasturning davolashga komplayentka ta'sirini ma'lum qilishgan. Izlanishlarning natijalaridan biri qayta konsultatsiya olishgacha bo'lgan davrda komplayent yaxshi ko'rsatkichlarni namoyon qilgan: bemorlar qayta tekshiruvga chaqirilmaganda davolanishga komplayent yomon bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqotlarda davolanishga komplayentni qo'llab-quvvatlashda davolashni monitoring qilish roli ochib berilgan. Bunda iqtisodiy ahvol davolanish komplayentligiga hech qanday ta'sir qilmasligi ko'rsatib berilgan: ishlaydiganlar ishlamaydiganlardan ko'ra davolanishga u qadar komplayent emasliklari ayon bo'lgan[3].

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, RA bilan og'rigan bemorlarni davolash revmatologlar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lsa-da, terapevtning ushbu og'ir, potentsial nogiron kasallikning bevosita va uzoq muddatli natijalarini yaxshilashdagi roli aniq. Revmatoid artrit bilan og'rigan odamlar, boshqa surunkali kasalliklarga chalinganlar kabi, ko'pincha davolanish rejimlariga yomon rioya qilishadi. Muvofiqlikka ta'sir qiluvchi ko'plab omillar, jumladan,

[1] Менделевич В.Д. Клиническая и медицинская психология: Учебное пособие / В.Д.Менделевич. 6-е изд. М.: МЕДпресс-информ, 2008. 432 с.

[2] Грищенко Е. В., Наумова Е. А., Шварц Ю. Г. Влияние терапии депрессии препаратом пирлиндол на приверженность кардиологических больных к длительному лечению//Международный медицинский журнал. 2009. Том 15. № 2 (58). С. 47-54.

[3] Евстигнеева Л. П., Лесняк О. М., Кузнецова Н. М., Сафонова Ю. А., Булгакова С.В., Кирпикова М. Н., Струнина М. В., Телющенко М. В., Некрасова М. Р., Несмеянова О. Б., Воробьева А. А. Образовательная программа для пациентов с остеопорозом и ее влияние на приверженность к лечению: результаты многоцентрового рандомизированного исследования // В помощь практическому врачу. 2012. №2. С.33-37.

kasalliklar va terapevtik rejimlarning turli xususiyatlari, bemorlarning demografik va ijtimoiy-xulq-atvor xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxsning davolanishga bo‘lgan munosabatini ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganishda uni har tomonlama va ko‘p qirrali tahlil qilishga amal qilinadi.

Birinchidan, tadqiqot o‘tkazish jarayonida surunkali kasalliklar (qandli diabet 1-, 2- tur va revmotologik kasallilar) bilan og‘rigan bemorlarda davolanishga bo‘lgan munosabatning kognitiv, emotsional va komplayentning xulq komponentlarini o‘z ichiga olgan xususiyatlari aniqlandi. Ikkinchidan, tadqiqotda surunkali kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarda davolanishga komplayentning ijtimoiy kognitiv xususiyatlari aniqlandi. Uchinchidan, bemorlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari davolanishga komplayentning omili sifatida o‘rganildi.

Shu sababdan empirik tadqiqotning metodologik asoslari sifatida ***Dj.Endjel***ning tizimli biopsixosotsial yondashuvi, V.N.Myasishevning munosabat nazariyasi va komplayentning kommunikativ, kognitiv va o‘z-o‘zini boshqarish modellari tanlangan.

Ushbu tadqiqot uchun yuqorida keltirilgan zamonaviy tadqiqotlar, yondoshuvlar va nazariyalarga asos sifatida qaraymiz.

1. Dj. Endjelning tizimli biopsixosotsial yondashuviga asoslanib, aytish mumkinki, odamning salomatligi va bemorligiga biologik, psixologik va sotsiologik omillar katta ta’sir o‘tkazadi.

Kasalliklar nafaqat biologik omillar ta’sirida paydo bo‘ladi, balki inson faoliyati tizimi natijasida, biologik elementlardan tashqari psixosotsial tizim xam bunga daxldor bo‘ladi (shaxsiy, diadik, oilaviy va sotsial munosabat). Dj. Endjel shuni ta’kidlaydi: salomatlik va kasallik ko‘plab bir-biriga ta’sir etuvchi omillar tufayli aniqlanadi[1]. Boshqa so‘z bilan aytganda Dj.Endjelning qarashlariga asoslanib, salomatlik va kasallikning tibbiy konsepsiyasi ko‘pincha shaxsning diqqat e’tibori, qayg‘urishi va motivatsiyasini chetda qoldiradi[2].

Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz doirasida, davolanishga bo‘lgan munosabat va yuqori darajadagi komplayentlikni nafaqat biologik va sotsial (sotsio-iqtisodiy) omillar bilan, balki butun qator psixologik omillar bilan ham belgilash mumkin.

Salomatlik va kasallikning biopsixosotsial modelini biz tadqiqotning metodologik asosi sifatida tanlaganmiz, chunki bu quyidagilarni inobatga olishi bilan bog‘liq:

- birinchidan, salomatlik va kasallikni ko‘rishda psixosotsial kontekst;
- ikkinchidan, odam salomatligini baholashda uning emotsional, motivatsion va shaxsiy sifatlarining roli.

Boshqacha aytganda, ushbu tadqiqotda qandli diabetda davolanishga komplayentni tushunish uchun sotsiodemografik (jins, yosh, ma’lumot darajasi), tibbiy (qandli diabet turi, kasallik staji) va psixologik omillar qamrab olindi. Shaxsning hayot mazmuni qadriyatlari, inson xayoti mazmunini anglashi va xayotda o‘z o‘rniga ega ekanligi u yoki bu kasallikda kerakli tavsiyalarga rioya qilishida ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. sotsial-demografik **omillar** asosida guruhlarga taqsimlangan ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotda umumiy 400 ta respondent ishtirok etgan. Ulardan jami erkaklar 205 ta, ayollar 195 ta. QD 1-tur bemorlardan 78 ta erkak, 73 ta ayol, QD 2-tur bemorlardan 72 ta erkak, 77 ta ayol, revmatologik kasalliklar bilan og`rigan bemorlardan 55 ta erkak, va 45 ta ayollar ishtirok etishgan

1-jadval.

Tadqiqot ishtirokchilarining jinsiga oid tavsifi

Yoshga oid tavsiflar	QD 1-tur		QD 2-tur		Revmatologik kasalliklar	
	N	%	N	%	N	%

[1] Лифинцев Д. В., Анцута А. Н. Социальная реабилитация в контексте биопсихосоциальной модели здоровья// Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология. 2013. Вып. 4 (31). С. 50-60.

[2] Борелл-Каррио Ф., Сачмен Э. Л., Эпстайн Р. М. Биопсихосоциальная модель 25 лет спустя//Отечественные записки. 2006. № 2(29). С. 133-145.

Erkaklar	78	51,7	72	48,3	55	55,0
Ayollar	73	48,3	77	51,7	45	45,0
Jami	151	100,0	149	100,0	100	100,0

1-jadvalda tadqiqot ishtirokchilarini foizlarda ko`rib chiqamiz. QD 1-tur bemorlarning 51,7 % ni erkaklar, 48,3 % ni ayollar, QD 2- tur bemorlarning 48,3% ni erkaklar, 51,7% ni ayollar, Revmatologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarning 55,0% ni erkaklar, 45,0% ni ayollar tashkil etgan.

2 - jadval.

Yoshga oid tavsiflar	**QD 1-tur**		**QD 2-tur**		**Revmatologik kasalliklar**	
	N	**%**	**N**	**%**	**N**	**%**
Yetuklikning birinchi davri (21–35 yosh)	37	24,5	9	6,0	38	38,0
Yetuklikning ikkinchi davri (36–60 yosh)	79	52,3	80	53,7	55	55,0
Keksalik davri (60–75 yosh)	35	23,2	60	40,3	7	7,0
Jami	151	100,0	149	100,0	100	100,0

Tadqiqot ishtirokchilarining yoshiga oid tavsifi kassalik turi bo`yicha

Tadqiqotda QD 1-tur bemorlarini yetuklikning birinchi davri 24,5 % foizni, yetuklikning ikkinchi davri 52,3 % foizni, keksalik davri 23,2 % foizni tashkil etgan.

QD 2-tur bemorlarini yetuklikning birinchi davri 6 % foizni, yetuklikning ikkinchi davri 52,7 % foizni, keksalik davri 40,3 % foizni tashkil etgan.

Revmatologik kasal bemorlarini yetuklikning birinchi davri 38,0 % foizini, yetuklikning ikkinchi davri 55,0 % foizni, keksalik davri 7 % foizni tashkil etgan.

3 - jadval.

Tadqiqot ishtirokchilarining ma'lumot darajasi

	Kasallik turi					
	QD 1-tur		**QD 2-tur**		**Revmatologik kasalliklar**	
Ma'lumoti	**N**	**%**	**N**	**%**	**N**	**%**
O'rta	22	14,6	22	14,8	5	5,0
O'rta maxsus	86	57,0	86	57,7	47	47,0
Oliy	43	28,5	41	27,5	48	48,0
Jami	151	100,0	149	100,0	100	100,0

Tadqiqod ishtirokchilarining ma'lumot darajasiga ko'ra ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. QD 1-tur bemorlarini o`rta 14,6 % foizni, o`rta maxsus 57,0 % foizni, oliy 28,5 % foizni tashkil etgan. QD 2-tur bemorlarini o`rta 14,8 % foizni, o`rta maxsus 57,7 foizni, oliy 27,5 % foizni tashkil etgan. Revmatologik kasal bemorlarini o`rta 5 % foizni, o`rta maxsus 47 % foizni, oliy 48 % foizni tashkil etgan.

Xulosa. Shunday qilib, kasallik va salomatlik tushunchasiga biopsixosotsial yondoshuvlar, davolanishga komplayentlikning kommunikativ, kognitiv va o'z-o'zini boshqarish modellari, V.N.Myasishevning munosabatlar nazariyasida surunkali (qandli diabet1-,2-tur, revmotologik kasalliklar) kasalliklarda davolanishga bo'lgan komplayentni ijtimoiy psixologik xususiyatlarini kompleks tekshirib ko'rishga yordam berdi. Bu nazariy-metodologik yondashuvlarning asosiy

faktorlarni – sotsiodemografik (jinsi, yoshi, ma'lumot darajasi), tibbiy (qandli diabet turi, kasallik davomiyligi), motivatsion (o'z samaradorligi, kasallik kuzatuv lokusi, O'z-o'zini boshqarish) va qiymat (hayot mazmuni, ijtimoiy qo`llab quvvatlash) faktorlarini ajratib olishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Кадыров Р.В. Опросник «Уровень комплаентности» [Текст]: монография / Р. В. Кадыров, О. Б. Асриян, С. А. Ковальчук. Владивосток: Мор. гос.ун-т, 2014. 74 с.

2. Коц Я.И., Митрофанова, И.С. Комплаентность как фактор повышения эффективности лечения больных с хронической сердечной недостаточностью // Российский медицинский журнал. 2007. № 4. С. 4–7.

3. Менделевич В.Д. Клиническая и медицинская психология: Учебное пособие / В.Д.Менделевич. 6-е изд. М.: МЕДпресс-информ, 2008. 432 с.

4. Adherence to long-term therapies, evidence for action. World Health Organisation, 2003. URL: http://apps.who.int/medicinedocs/pdf/s4883e/s4883e.pdf (дата обращения: 12.11.2018).

5. Кабанова Т.Н., Булыгина В.Г. Роль субъективных оценок психически больных в формировании приверженности лечению и профилактике повторных ООД [Электронный ресурс] // Психология и право. 2012. №

URL: http://psyjournals.ru/psyandlaw/2012/n1/50332.shtml (дата обращения: 07.05.2019).

6. Казаковцев Б.А., Кабанова Т.Н. Связь субъективных оценок пациентов, находящихся на принудительном лечении с выраженностью негативной симптоматики и уровнем когнитивного функционирования [Электронный ресурс] // Психология и право. 2014. № 3. С. 32–40. URL: http://psyjournals.ru/psyandlaw/2014/n3/72713.shtml (дата обращения: 07.05.2019).

7. Любаева Е.В., Ениколопов С.Н. Роль индивидуальных психологических характеристик пациентов в формировании приверженности терапии туберкулеза и ВИЧ // Консультативная психология и психотерапия. 2011. № 2. С. 111–127.

8. Сухова Е.В. Поведенческий ответ больных на «клеймо» туберкулеза // Социальная психология и общество. 2015. Том 6. № 1. С. 127

9. Nozimakhon Khasanova "Psychological features of personal attitude to diabetes disease" the american journal of social science and education innovations sjif impact factor (2023: 7. 223) december 22, 2023 |volume 05 issue 12 pages: 104-112

https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/4686

10. Nozimakhon Khasanova "Compliance research results and study prospects in different diseases" Western European Journal of Medicine and Medical Science Volume 2, Issue 3, March, 2024 https://westerneuropeanstudies.com/index.php/3

11. Nozimakhon Khasanova "Diabetes compliance research results and prospects for study" Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing Volume 2, Issue 3, March2024 ISSN (E): 2938-3765

12. Nozimakhon Khasanova "Results and prospects for research on compliance studies in rheumatic diseases" galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ)ISSN (E): 2347-6915Vol. 12, Issue 3, March(2024)

13. Khasanova N.A., Dekhkonboeva Z.D. Motivational determinants of youth involvement in fitness practices.Узбекистан. Ташкент. "Узбекистан - 2030: наука, образование и экономика в развитии" 15.10.2023 81–85

https://inlibrary.uz/index.php/uzbekistan-science-education/article/view/27253

14. Nozimakhon Khasanova, Marietta Karamyan, Nodira Mamatova, Dilfuza Ilkhamova Research methodology and its organization of motivational valuable characteristics of the relationship with treatment of patients with diabetes International journal of pharmaceutical research. Jul - Dec 2020. Vol 12. Supplementary Issue 2.P.1074-1077. DOI:https://doi.org/10.31838/ijpr/2020.SP2.115 November 2021 DOI:10.31838/ijpr/2020.SP2.115

Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna
O`zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilnavozxodjayeva027@gmail.com

O‘QUVCHILAR O‘QUV MOTIVATSIYASI XUSUSIYATLARINI TA’LIM JARAYONIDAGII O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan motiv va motivatsiyaning ilmiy o‘rganilganligi tavsiflangan. Bundan tashqari psixologlarning o‘quv motivining ahamiyati va klassifikatsiyasi yoritib berilgan. Psixolog olimlar tomonidan o‘tkazilgan o‘quv motivi bo‘yicha tadqiqotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Motivatsiya, o‘quv motivi, mexanizm, ta`lim, faoliyat, xulq-atvor, ustanovka, bilim, rivojlantirish.*

РОЛЬ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. *В статье описаны научные исследования мотива и мотивации зарубежными и отечественными учеными. Кроме того, выделено значение и классификация учебной мотивации психологов. Упоминаются исследования по учебной мотивации, проведенные психологами.*

Ключевые слова: *Мотивация, мотив обучения, механизм, обучение, деятельность, поведение, установка.*

THE ROLE OF STUDENTS’ LEARNING MOTIVATION CHARACTERISTICS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. *The article describes the scientific study of motive and motivation by foreign and domestic scientists. In addition, the importance and classification of the educational motivation of psychologists is highlighted. Studies on educational motivation conducted by psychologists are mentioned.*

Key words: *Motivation, learning motive, mechanism, education, activity, behavior, setting.*

Inson hayoti davomida qandaydir faoliyatni amalga oshirar ekan, faoliyatni samarali bo‘lishi insonning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, xohish yoki istaklariga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko‘p darajali tizimi bo‘lib, u o‘zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo‘lib, u o‘zida mayillar, ideallar ko‘rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi ma’lum savol psixologlar tomonidan ifodalab berilgan. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e’tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar [1, 39-b].

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtayi nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o‘ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularning nazarida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashgan. Rus psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushiniskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazuriskiy, V.N.Myasishev,

A.A.Uxtomiskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, L.I.Bojovich va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar.

O‘quv motivatsiyasi - bu bolani ta’lim muassasasiga borishga undaydigan, shuningdek, uning istaklari, maqsadlari va ta’lim faoliyatidagi motivlarini belgilaydigan narsadir. Uning rudimentlari bolalikdan topiladi: go‘daklik va erta bolalik davrida ota-onalar bolani hamma narsani o‘rganishga undaydilar, bu bolaning asosiy motivatsiyasi kattalarning ma’qullashi va qo‘llab-quvvatlashidir. Maktabgacha yoshdagi davrda ta’lim motivatsiyasi kattalar tomonidan ham shakllanadi: tarbiyachilar, ota-onalar, o‘qituvchilar. Yuqori maktabda o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi ko‘p jihatdan ota-onalar va o‘qituvchilarga bog‘liq. O‘qishning butun davri davomida o‘quvchilarning o‘rganish motivlari juda tez-tez o‘zgarishi mumkin.

I.A.Zimnyaya [3] o‘quv motivatsiyasi ko‘plab omillar bilan belgilanadi: birinchidan, ta’lim muassasasi va undagi ta’lim faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari; ikkinchidan, ta’lim jarayonining o‘zini tashkil etish; uchinchidan, o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari; to‘rtinchidan, o‘qituvchining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘quvchiga munosabati; beshinchidan, o‘quv pred-metining xususiyatlariga bog‘liq. Yuqori maktab yoshida o‘quvchilarning qiymat-semantik sohasi, shuningdek, o‘ziga va boshqa odamlarga nisbatan ichki pozitsiyasi shakllanadi. Ta’lim olish uchun o‘z motivlarini rivojlantirish va anglash mavjud. O‘qishning asosiy motivlari kasbiy o‘zini o‘zi belgilash ta’siri ostida shakllanadi.

Dastlab, usul N.V.Matyuxina tomonidan ishlab chiqilgan[4].

Ta’limning 9 motivi:

- burch va mas’uliyat;
- o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘z-o‘zini takomillashtirish;
- farovonlik;
- birlashmalar;
- obro‘;
- muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik;
- ta’lim va kognitiv (ta’lim mazmuni);
- ta’lim va kognitiv (o‘quv jarayoni);
- muvaffaqiyatga erishish.

Keyin N.T.Badmayeva 2 ta qo‘shimcha o‘qitish motivlarini qo‘shib, metodikani o‘zgartirdi: kommunikativ va ijodiy o‘zini o‘zi anglash. O‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘quv moti-vatsiyasini shakllantirish zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biridir. Ta’lim faoliyati subyektining motivatsion sohasi yoki uning motivatsiyasi nafaqat ko‘p komponentli, balki tashvish va ko‘p darajali bo‘lib, bu nafaqat uni shakllantirish va hisobga olish, balki yetarli darajada tahlil qilishning o‘ta murakkabligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Maktab o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasini o‘rganish uning o‘z-o‘zidan shakllanishining yetarli darajada emasligini, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, faoliyat usullariga asosiy e`tiborni qaratgan holda, uni maqsadli bosqichma-bosqich rivojlantirishning fundamental imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

O‘quv motivatsiyasini shakllantirish muammosi ta’lim va tarbiya kesishmasida joylashgan bo‘lib, zamonaviy ta’limning eng muhim jihati hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, bu yerda o‘qituvchining e’tibori nafaqat o‘quvchi tomonidan olib boriladigan ta’limga, balki ta’lim jarayon-ida yuzaga keladigan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga ham qaratilgan. Motivatsiyani shakllantirish - bu maktab o‘quvchilarida jamiyatimizda qabul qilingan ideallar, dunyoqarash qadri-yatlarini tarbiyalash, o‘quvchining faol xulq-atvori bilan uyg‘unlikda, ongli va amalda harakat qilu-vchi motivlarning o‘zaro bog‘liqligini, so‘z va ishning birligini anglatadi. Muammoning dolzarbligi ta’lim mazmunini yangilash, maktab o‘quvchilari o‘rtasida bilim va kognitiv qiziqishlarni mustaqil egallash usullarini shakllantirish bo‘yicha vazifalarni belgilash bilan bog‘liq.

O‘quv motivatsiyasi tashqi yoki ichki bo‘lishi mumkin. Agar bola qiziqsa, u o‘zi bilimga inti-ladi, agar yo‘q bo‘lsa, u mukofot va jazolarni o‘ylab topishi kerak. Tashqi motivatsiya odatda o‘smirlik davrigacha ishlaydi.

Bolalar va o‘smirlarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun o‘rganilayotgan material quyidagilar bo‘lishi kerak:

– Yangi, ammo "taniqli". Darslar hayratlanarli va ayni paytda oldingi mavzularga havolalar bo‘lishi kerak.

– Har safar avvalgisidan biroz qiyinroq. Agar bola oson bo‘lsa, u zerikishni boshlaydi. Uning tajribasiga asoslanib, vazifalarni asta-sekin murakkablashtiring.

– Turli xil. Darsliklar, vebinarlar, ekskursiyalar, tajribalar - qanchalik ko‘p formatlar bo‘lsa, o‘rganish shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

1965-yilda amerikalik maktab o‘qituvchisi Barbara Shiel qiziqarli tajriba o‘tkazdi. Uning sinfi qiyin edi - 36 kishi, ularning aksariyati o‘qishni xohlamadi. Kunlarning birida o‘qituvchi har bir o‘quvchi kun davomida o‘zi xohlagan narsani qila olishini e’lon qildi. Ba’zi bolalar o‘qidi, boshqalari chizdi, boshqalari yozdi. Kun oxirida o‘qituvchi natijalarni sarhisob qildi: tajriba deyarli hammaga yoqdi, bolalar uni davom ettirishni xohlashdi.

Keyingi bosqichda bolalar ham harakat erkinligiga ega edilar, ammo Barbara ularga kun uchun reja tuzishga yordam berdi va ularga o‘qituvchining kitobini berdi, u yerda bolalar o‘z ishlarining natijalarini baholashlari mumkin edi. Keyinchalik, u dastur borligini va siz bir hafta ichida ma’lum materiallardan o‘tishingiz kerakligini tushuntirdi. Tajriba natijasida deyarli har bir kishi ichki ta’lim motivatsiyasini rivojlantirdi. Bolalar avtonomiyadan zavqlanib, natijalarga erishdilar.

1960-yillarda amerikalik psixolog Martin Seligman itlar bilan bir qator tajribalar o‘tkazdi va o‘rganilgan nochorlik fenomenini aniqladi. Hayvonlarga sog‘liq uchun zararli bo‘lmagan, ammo og‘riqli elektr zarbalari berildi. Bir guruh itlar qo‘lni bosish orqali buning oldini olishlari mumkin edi. Boshqasi yo‘q. Keyin ikkala guruh ham oqim o‘chirilishi mumkin bo‘lgan vaziyatga joylashtirildi. Itlarning birinchi guruhi buni muvaffaqiyatli amalga oshirdi, ikkinchisi buni qilmadi. Shundan so‘ng, tajribalar odamlarda ko‘p marta takrorlangan va natijalar bir xil bo‘lgan. O‘rganilgan nochorlik, bolalar ko‘pincha hech narsa qila olmaydigan vaziyatga tushib qolishganda paydo bo‘ladi. Vaziyatni nazorat qila olmaslik tajribasi xotirada muhrlanadi, keyin biror narsa qilish mumkin bo‘lganda, bola vazifani yengishga harakat qilmaydi. Agar biror kishiga hech narsa qila olmasligini aytishsa, uning motivatsiyasi nolga tushadi. O‘quvchi doimo o‘zi hal qila olmaydigan vazifaga duch kelsa, keyin amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan topshiriq berilsa, u hatto uni bajarishga harakat qilmaydi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlarga ajratgan. 1. O‘quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog‘liq bilish motivlari. 2. O‘quvchilarning boshqa kishilar bilan o‘zaro ijtimoiy (sosial) motivlari. Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o‘rganilgan [3, 27-b] Psixologlar tomonidan o‘quv motivatsiyasining salbiy va ijobiy tomonlari mavjudligi ta’kidlab o‘tilgan. Salbiy motivlar o‘quvchi tomonidan agar u o‘qimasa, ko‘ngilsizlik, noqulaylik va noaniqlikni vujudga kelishi bilan bog‘liq holda anglangan undovchilardir. Ijobiy motivlar o‘qish bilan bog‘liq ijtimoiy ahamiyatga ega burchni bajarish, muvaffaqiyat qozonish, bilim egallashning yangi usullarini o‘zlashtirib olish, atrofdagilar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishda o‘z aksini topadi. Bu xususiyat o‘quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o‘quv faoliyati bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi [1], [2]. O‘qituvchining diqqat markazida o‘quv motivlarining namoyon bo‘lish shakllari turishi kerak.Bu asosda o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatining motivlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladi.Shundan so‘ng motivlarning ichki xususiyatlari salbiy modallikka ega bo‘lgan ko‘ngilsizlikdan qochish kabi barqaror motivlarga e’tibor berishimiz lozim. Motivlarning yana bir muhim xususiyati uning vujudga kelish tezligida ifodalanish va kuchida o‘z aksini topadi.Bu xususiyat o‘quvchi qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o‘quv faoliyati bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Demak, ta’lim jarayonida ta’lim motivatsiyasining o‘rni butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o‘rganilgan. O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda o‘quv motivatsiyasining roli benihoya kattadir. Nega deganda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini motivatsion soha orqali rivojlantirilsa, samarali natijalarga ega bo‘lish mumkinligini olimlar o‘z tadqiqotlarida isbotlab o‘tganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Jo‘rayev N.S. “O‘quv jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish va o‘rganishning psixologik xususiyatlari” Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2006. 107 b.
2. Jo‘rayev N.S. “O‘quv motivlarini shakllantirish” - Toshkent: TDPU.2008.-62 b.
3. Xaydarov F., Halilova N.“Umumiy psixologiya ” Toshkent 2010. – 330b.
4. Гамезо *M.B.* Возрастная и педагогическая психология / М.В. Гамезо, Е.А. Петрова, Л.М. Орлова. М.: Педагогическое общество России, 200
5. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. М., 1988.
6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения / А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. М.: Просвещение, 1990.
7. Орлов Ю.М. Потребности и мотивы учебной деятельности студентов мед. вуза / Ю.М. Орлов, Н.Д. Творогова, В.И. Шкуркин. М., 1976.

Yusuvaliyeva Adiba Yadgarovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: Adiba1804@gmil.com

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga jaxonda, shuningdek O‘zbekistonda ham katta e’tibor qaratilib, tibbit, pedagogic, psixologik, moddiy tomondan ko‘maklashib, e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni[1], “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni kabi farmon va qonunlar alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan e’tiborning kattaligini ko‘rsatadi. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi ularning jamiyatga integratsiyasi har tomonlama muhim sanalib, ularning nogironlik nuqtai nazaridan kelib chiqib alohida yondoshilinadi. Ijtimoiylashuv har bir yosh davrida muhim omil bo‘lib, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishida, hayot tarzini to‘g‘ri tashkil eta olishda muhim ahamiyat kasb etadi Zaif eshituvchi o‘quvchilarning eshituvchilar bilan muloqotga kirishish imkoniyati kam bo‘lganligi sababli ham ijtimoiylashuvi qiyinroq kechadi. Zaif eshituvchi o‘quvchilardagi ijtimoiylashuvida psixologik xususiyatlariga emotsional intellekt va xavotirlanuvchanlik darajasi va turini kiritishimiz mumkin. Maqolada ijtimoiylashuvning ahamiyatlilik darajasi va emotsional intellekt bilan ijtimoiylashuv moslashuvning aloqadorligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar. *Zaif eshituvchi o‘quvchilar, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy faollik, ijtimoiy norma, emotsional intellekt, emotsional bilimdonlik, o‘z emotsiyasini boshqarish, o‘ziga motivatsiya, empatiya, o‘zgalar emotsiyasini tushunish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Muvaffaqiyatda internallik past bo‘lgan sinaluvchilarda bullingni his qilish yuqori bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Muvaffaqiyatdagi internal qiz (r=-0,097; p<0,01) va o‘g‘il bolalar (r=0,134; p<0,01) mas’uliyatni o‘zlarining bo‘ynilariga olganliklari sababli ularda bullingni his qilish darajasi past bo‘lishi mumkin ekan. O‘z muvaffaqiyasizliklarida internal bo‘lgan sinaluvchilarda ham bullingni his qilish darajasini past bo‘lishini kuzatishimiz mumkin ekan. Ishlab chiqarish munosabatlaridagi internal bo‘lgan yigitlar (r=-0,088; p<0,01) va qizlarda (r=-0,092; p<0,01) bullingni his qilish darajasini past bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Salomatlik bo‘yicha internal bo‘lgan qizlarda (r=-0,093; p<0,01) bullingni his qilish darajasi past bo‘lishi kuzatildi. Yigitlarda esa bu bullingni his qilish darajasiga ta’sir ko‘rsatmas ekan. Internallik yuqori bo‘lgan qizlarda (r=-0,131; p<0,01) va o‘g‘il bolalarda (r=-0,146; p<0,01) bullingni his qilish darajasi past bo‘lishini kuzatdik. Mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olgan sinaluvchilar ,albatta, bullingni yetarli darajada his qilishmas ekan.

Keyingi bosqichda qiz va o‘g‘il bolalarda bullingni his qilish darajasi hamda Fillipsning «Maktabdagi qo‘rquvlarni aniqlash» metodikasi shkalalari ko‘rsatgichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar o‘rganishga qilishga harakat qilindi.

7-jadval

Qiz va o‘g‘il bolalarda bullingni his qilish darajasi hamda Fillipsning «Maktabdagi qo‘rquvlarni aniqlash» metodikasi shkalalari ko‘rsatgichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar (Spirman mezoni)

Ko‘rsatgichlar	Bullingni his qilish	
	Qiz bolalar (N=1491)	O‘g‘il bolalar (N=1205)
Maktabdagi umumiy xavotirlanish	0,151(**)	0,133(**)
Ijtimoiy stressni boshidan o‘tkazish	0,153(**)	0,201(**)
Muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiyasi	0,161(**)	0,141(**)
O‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquv	0,061(*)	0,058(*)
Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv	0,130(**)	0,115(**)
Atrofdagilarning talablariga to‘g‘ri kelmaslik qo‘rquvi	0,127(**)	0,143(**)
Stressga fiziologik qarshilik ko‘rsatishning past darajasi	0,133(**)	0,115(**)
O‘qituvchilar bilan munosabatdagi qo‘rquv	0,073(**)	0,044

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Maktabdagi umumiy xavotirlikning yuqori bo‘lishi qizlarda (r=0,151; p<0,01) va o‘g‘il bolalarda (r=0,133; p<0,01) bullingni his qilish darajasini ortishiga sabab bo‘lar ekan, ya’ni xavotirlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda bullingni his qilishlari kuzatilar ekan. Ijtimoiy stressni boshidan o‘tkazish qizlarda (r=0,153; p<0,01) va o‘g‘il bolalarda (r=0,201; p<0,01) yuqori bo‘lishi bullingni his qilish darajasining oshishiga sabab bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Muvaffaqiyatga erishishiga bo‘lgan ehtiyoj frustratsiyasining ortishi qizlarda (r=0,161; p<0,01) va o‘g‘il bolalarda (r=0,141; p<0,01) bullingni his qilishning ortishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘zini namoyon qilishdagi qo‘rquvning yuqori bo‘lishi qizlarda (r=0,061; p<0,05) va o‘g‘il bolalarda (r=0,058; p<0,05) bullingni his qilish darajasining ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan. Bilimlarni tekshirish vaziyatidagi qo‘rquv o‘g‘il bolalarda ham (r=0,115; p<0,01) qiz bolalarda ham (r=0,130; p<0,01) bullingni his qilishning ortishiga sabab bo‘lishi mumkinligini kuzatish mumkin. Maktabdagi xavotirlikni yuqori bo‘lishi bullingni his qilish darajasining oshishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Aynan xavotirlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli bullingni his qilish holatlari yuqori bo‘lishi, ya’ni o‘ta og‘ir darajadagi bullingni his qilish jihatlari oshishi kuzatildi.

Qiz va o‘g‘il bolalarda bullingni his qilish darajasi hamda Rodjers-Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik» metodikasi shkalalari ko‘rsatgichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar tahlil qilinganda quyidagi bog‘liqlik qonuniyatlari o‘rganildi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinib turganidek, yangi ishlab chiqilgan «Bullingni his qilish darajasi» shkalasi ishonchli va samarali maktab o‘quvchilarini tashxislash imkoniyatini beradi. Natijalar tahliliga ko‘ra bullingni his qilish darajasi o‘g‘il bolalar va qiz bolalarda turlicha ifodalanadi. Bitta sinfda o‘qish davomiyligiga ko‘ra bullingni his qilish darajasi yuqori yoki past bo‘lishi mumkin. Bullingni his qilish darajasi o‘quvchining nechanchi sinfda o‘qiyotganligiga qarab o‘zgaradi. Bullingni his qilish darajasi va kognitiv, emotsional hamda shaxs xususiyatlari o‘rtasida musbat va manfiy bog‘liqliklar mavjud ekanligi kuzatildi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андронникова О.О. Онтогенетическая концепция виктимности личности: Дисс. … д-ра психол. наук / О.О. Андронникова. – Новосибирск, 2018. – 566 с
2. Буданов А.В. Педагогика личной профессиональной безопасности сотрудников органов внутренних дел / А.В. Буданов. – М.: Академия МВД России, 1997. – 39 с
3. Бочавер А.А. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий / А.А. Бо-чавер, К.Д, Хломов // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2014. – Т. 11. – № 3. – С. 177–191
4. Mullabayeva N.M. Bullingni his qilish darajalari va natijalarining tahlili / "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi"-2024 №3 45-50b.
5. Mullabaeva N.M., Kadirov K.B, Abdullajonova D.S., Babadjanova S.A, Arapbaeva D. A Mobbing Questionnaire in School and an Analysis of the Results Obtained Journal of Higher Education Theory and Practice Vol. 23(4) 2023

Сафаев Нуриддин Салихович
Доктор психологических наук, профессор кафедры Психология Национального университета Узбекистана
Мухамедова Дилбар Гафурджановна
доктор психологических наук, профессор, заведующая кафедрой Психология Национального университета Узбекистана
orcid: 0009-0005-4451-5895

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН

Аннотация. *В данной публикации рассмотрена роль женщины руководителя в развитии общества и обозначены психологические проблемы с которыми сталкивается женщина в управленческой деятельности. Преодоление психологических барьеров женщин в управленческой деятельности требует комплексных и скоординированных усилий на нескольких уровнях: индивидуальном, организационном и социально-психологическом.*

Ключевые понятия*: гендерное равенство, управленческая деятельность, психологические барьеры.*

AYOLLARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGIK TO‘SIQLAR

Annotatsiya. *Ushbu nashrda ayol yetakchi bo`lgan jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqilib, boshqaruv faoliyatida ayollar duch keladigan psixologik muammolar aniqlangan. Boshqaruvdagi ayollarning psixologik to‘siqlarini bartaraf etish bir necha darajalarda murakkab va muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi: individual, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik.*

Asosiy tushunchalar*: gender tengligi, boshqaruv faoliyati, psixologik to‘siqlar.*

PSYCHOLOGICAL BARRIERS IN WOMEN’S MANAGEMENT ACTIVITIES

Abstract. *This publication examines the role of a woman leader in the development of society and identifies the psychological problems that women face in management activities. Overcoming women’s psychological barriers in management activities requires complex and coordinated efforts at several levels: individual, organizational and socio-psychological.*

Key concepts: *gender equality, management activities, psychological barriers.*

Введение.

Полноценное развитие современного общества на принципах справедливости и демократии возможно лишь на основе объективного учета гендерного вопроса относительно места и роли личности женщины и мужчины как равных в правах, свободах, обязанностях, возможностях и ответственности. Относительно недавно в 2023 году 3 октября Европарламент принял резолюцию по Узбекистану, где перечислены достижения и проблемы страны. В данном отчете упоминается развитие гендерного равенства в стране а также существующие до сих пор сложности данного вопроса. Хотелось бы также отметить что в 2023 году Нобелевскую премию по экономике присудили профессору Гарвардского университета К.Голдин специалисту по гендерным вопросам «за улучшение понимания роли женщин на рынке труда».

В современном мире гендерное равенство в профессиональной сфере продолжает быть одной из актуальных тем. Несмотря на достигнутый прогресс в отношении прав женщин и их возможностей, существует ряд психологических барьеров, с которыми женщины сталкиваются на пути к успеху в управленческой деятельности. Эти барьеры часто оказываются внутренними препятствиями, влияющими на уверенность в себе, принятие решений и общение с коллегами.

Методология.

Проведённый анализ научной литературы по исследуемой проблемы показывает, что важность научной разработки в Республики Узбекистан гендерной проблематики, в том числе в социально-психологическом аспекте, во многом актуализируют факторы, связанные с появлением и интенсивном развитии в современном лексиконе науки целого ряда относительно новых понятий, таких, как гендер, гендерная идентичность, гендерное образование, гендерная ответственность, гендерные исследования, гендерная культура, гендерное равенство и т.п. В связи с этим гендерная подготовка нового поколения специалистов всех отраслей экономики, особенно в сфере образовательных услуг, должно играть решающую роль в преодолении имеющегося неравенства гендерных ролей и, прежде всего, гендерных предрассудков в педагогических системах [1,2,3]. Современные подходы к подготовке кадров должны предусматривать в обязательном порядке решение и важнейших гендерных проблем, способствуя повышению в ней социальной роли женщин в жизни общества и профессиональной деятельности в целом. Анализируя проблемную ситуацию, которая сложилась в обществе на постсоветском пространстве относительно явлений гендерного неравенства в различных сферах общественного производства и социальной жизни, автор приходит к выводам о том, что она проявляется как устойчивая дискриминация на рынке труда, в сфере профессионального и высшего образования. Причины сложившийся ситуации во многом обусловлены гендерными ролями и стереотипами, которые развились в историческом прошлом. При этом, устаревшие гендерные стереотипы, являясь опасными как для каждой личности, так и для общества, на уровне массового сознания жестко закрепляются в установках людей, какие профессии являются мужскими, а какие женскими. При таком подходе эффективность самореализации личности профессионала на современном рынке труда, в политике, семье и т.п., определяется не объективными критериями (уровень способностей, подготовленности и пр.), а традиционными взглядами на роль мужчины и женщины в общественной системе в зависимости от гендерных различий и социокультурных ограничений.[1,3] Однако, полная замена устаревших стереотипов на современные-гендерные, не подвластна административным мирам с помощью только законодательства, поскольку это доля сферы культуры, в частности подсистемы гендерной социализации и гендерного образования личности.[2] При этом практическая реализация идеи гендерного равенства в этих подсистемах социокультурного воспроизводства личности демократического типа как нового социального заказа постсоветского общества, вызывает необходимость целенаправленного усиления, в первую очередь, подготовки будущих специалистов с учётом понимания гендерной проблемы, развития гендерной культуры, ответственности [Загайнов И.А.].

По мнению А.И. Мруг, в современном обществе наблюдаются изменения касаемые процесса усвоения определенной гендерной роли, соответствовать установившимся гендерным стереотипам.[4] Это весьма актуализует внедрение в образовательный процесс подрастающего поколения целенаправленного развития гендерной культуры молодежи, формирования её ответственности, компетентности в данных важных вопросов. Сам процесс усвоения определенной гендерной роли, как правило, происходит через известный социальный механизм, т.е. нормативное и информативное влияние. Первое, в большинстве случаев проявляется из-за неприятия и осуждения социумом, группой тех его членов, поведение которых не соответствует устоявшимся нормам относительно мужского и женского или принятым новым нормам относительного гендера.[2,4]

В статье рассмотрим, какие психологические барьеры присутствуют в управленческой деятельности женщин, причины их возникновения и возможные пути преодоления.

1. Социальные ожидания и стереотипы

Одна из ключевых психологических преград, с которыми сталкиваются женщины-руководители, связана с социальными ожиданиями и гендерными стереотипами. Несмотря на то, что общество становится все более толерантным, стереотипные роли мужчин и женщин продолжают влиять на восприятие женщин как руководителей.

Социальные ожидания часто наделяют мужчин характеристиками, ассоциирующимися с лидерством, такими как решительность, агрессивность и уверенность, в то время как жен-

щины воспринимаются как более эмоциональные, заботливые и уступчивые. Эти стереотипы могут приводить к тому, что женщины чувствуют давление соответствовать традиционным ролям или сталкиваются с сопротивлением со стороны коллег, сомневающихся в их компетентности.

2. Низкая самооценка и "синдром самозванца"

Многие женщины на руководящих должностях испытывают так называемый "синдром самозванца" — ощущение, что их успех не заслужен, что они оказались на своем месте случайно и не соответствуют должности. Это состояние тесно связано с низкой самооценкой и недооценкой собственных достижений. Женщины склонны сомневаться в своих способностях, несмотря на явные успехи и профессиональные навыки.

Такие психологические барьеры могут приводить к страху неудачи, избеганию новых возможностей или даже к отказу от карьерного роста. Женщины могут чувствовать себя недостойными похвалы или высоких оценок своих заслуг, что, в свою очередь, ограничивает их профессиональный потенциал.

3. Страх конфликта и отказ от властных решений

Управленческая деятельность требует принятия сложных решений, которые иногда могут быть непопулярными или вести к конфликтам с коллегами. Для многих женщин-руководителей это становится серьезным психологическим барьером. Страх быть воспринятой как "жесткая" или "авторитарная" заставляет их избегать принятия трудных решений или идти на уступки, чтобы сохранить хорошие отношения с коллегами.

Этот барьер связан с тем, что в обществе часто ожидается, что женщины будут проявлять "мягкость" и избегать конфронтаций. Страх осуждения или негативного восприятия может сдерживать женщин, препятствуя эффективному управлению.

4. Баланс между карьерой и личной жизнью

Еще один важный аспект психологических барьеров в управленческой деятельности женщин — это сложность совмещения работы и личной жизни. Хотя мужчины-руководители также сталкиваются с задачами по поддержанию баланса, женщины часто чувствуют на себе большее давление, связанное с традиционной ролью хранительницы семейного очага. Это может приводить к чувству вины за то, что они не могут уделять достаточное внимание семье или детям.

Такие внутренние конфликты могут вызывать стресс и снижать уверенность в себе. Некоторые женщины предпочитают ограничивать свои карьерные амбиции, считая, что успешное руководство и гармония в семье — это взаимоисключающие понятия.

5. Отсутствие ролевых моделей и наставников

Наличие ролевых моделей и наставников — важный фактор для успешного карьерного роста, особенно для женщин в управленческой деятельности. Однако на многих руководящих должностях до сих пор преобладают мужчины, и женщинам часто не хватает примеров успешных женщин-лидеров, на которых можно было бы ориентироваться.

Отсутствие ролевых моделей может усиливать чувство изоляции и неопределенности. Без поддержки и вдохновения от других женщин, достигших успеха в той же сфере, многим женщинам-руководителям труднее верить в собственные силы и преодолевать барьеры.

6. Гендерная дискриминация и предвзятость

Нельзя игнорировать влияние гендерной дискриминации и предвзятости на психологические барьеры женщин в управленческой деятельности. Хотя юридические и общественные нормы изменяются в пользу гендерного равенства, женщины по-прежнему сталкиваются с дискриминацией при найме, продвижении по службе и оценке их работы.

Эти внешние барьеры могут становиться внутренними, усиливая сомнения женщин в своих способностях. Столкнувшись с несправедливым отношением, многие женщины начинают принимать внешние оценки за истину и адаптировать свое поведение, чтобы соответствовать "ожиданиям", что в итоге еще больше ограничивает их возможности.

Пути преодоления психологических барьеров

- Поддержка со стороны коллег и наставников. Создание сети профессиональной поддержки и наличие наставников может помочь женщинам-руководителям чувствовать себя увереннее и справляться с сомнениями в себе.

- Повышение самооценки и уверенности. Специальные тренинги и программы по развитию лидерских качеств, а также работа с коучем или психологом могут помочь женщинам преодолеть "синдром самозванца" и повысить самооценку.

- Развитие навыков управления конфликтами. Обучение эффективному управлению конфликтами и принятию сложных решений поможет женщинам чувствовать себя более комфортно в роли руководителей.

-Гендерное просвещение. Важно работать над устранением гендерных стереотипов и предвзятости как на уровне организаций, так и на уровне общества в целом. Повышение осведомленности о гендерной дискриминации может снизить ее влияние на профессиональную деятельность женщин.

-Поиск баланса между карьерой и личной жизнью. Поддержка организаций в предоставлении гибких условий работы и осознание необходимости баланса помогут женщинам сочетать успешную карьеру и семейные обязанности.

В заключении хотелось бы отметить. Психологические барьеры, с которыми сталкиваются женщины в управленческой деятельности, являются многослойной и сложной проблемой, затрагивающей как внутренние личные аспекты, так и внешние общественные факторы. Важность этой темы обусловлена тем, что роль женщин в руководящих должностях в современном обществе продолжает расти, и в то же время сохраняются значительные вызовы, сдерживающие их потенциал. Разрешение этих барьеров требует комплексного подхода, включающего как личностную работу над собой, так и системные изменения в корпоративной и социальной среде.

Во-первых, необходимо осознать, что психологические барьеры женщин, такие как синдром самозванца, страх конфликта или низкая самооценка, зачастую носят культурно обусловленный характер. Гендерные стереотипы, закрепившиеся в обществе, формируют у женщин определенные ожидания относительно их роли в личной и профессиональной жизни. Эти стереотипы глубоко укоренены в коллективном сознании и проявляются не только в том, как общество видит женщин, но и в том, как они воспринимают самих себя.

Женщинам-руководителям приходится ежедневно справляться с внутренними сомнениями, которые могут препятствовать их профессиональному росту и способствовать тому, что они будут избегать амбициозных целей или сложных решений. Такие внутренние барьеры можно преодолеть через осознание собственных ресурсов, повышение уровня уверенности и развитие лидерских навыков. Успешные женщины-лидеры, которые смогут стать ролевыми моделями, играют важную роль в этом процессе, показывая на своем примере, что возможно преодолеть внутренние сомнения и внешнее давление.

Во-вторых, ключевую роль в преодолении психологических барьеров играет поддержка со стороны окружения: коллег, наставников и организаций в целом. Менторство и создание профессиональных сообществ женщин-руководителей позволяют обмениваться опытом, получать поддержку и вдохновение, что значительно снижает чувство изоляции и усиливает мотивацию к развитию.

Кроме того, важным элементом борьбы с психологическими барьерами является корпоративная культура. Организации должны быть заинтересованы в создании среды, свободной от предвзятости и дискриминации, где у всех сотрудников, вне зависимости от пола, есть равные возможности для карьерного роста. Это включает в себя не только устранение гендерных стереотипов, но и внедрение политики гибкого рабочего графика и других условий, позволяющих женщинам успешно совмещать карьеру с личной жизнью.

Баланс между карьерой и семьей является еще одной сложной задачей, с которой сталкиваются многие женщины на руководящих позициях. Важно осознать, что успешное управление и гармоничная личная жизнь не являются взаимоисключающими понятиями. Предоставление женщинам возможности гибкой работы, дистанционного участия или поддержки в

сфере родительских обязанностей может значительно снизить стресс и внутренние конфликты, способствуя их более активному участию в управленческой деятельности.

Гендерные стереотипы и социальные ожидания также играют значимую роль в формировании психологических барьеров для женщин. Их преодоление требует активной работы не только на уровне отдельных личностей, но и на уровне общества. Образование, медиа и корпоративные программы, направленные на изменение устоявшихся представлений о "женских" и "мужских" ролях, могут помочь сломать барьеры, которые ставят женщин в менее выгодное положение в управленческой сфере.

Таким образом, преодоление психологических барьеров женщин в управленческой деятельности требует комплексных и скоординированных усилий на нескольких уровнях: индивидуальном, организационном и общественном. Личностный рост и развитие уверенности в себе должны сопровождаться корпоративной поддержкой и внедрением гендерно-инклюзивных программ. Общество должно двигаться в направлении разрушения стереотипов, препятствующих равноправному участию женщин в управлении.

Только с такими мерами мы можем достичь полной реализации потенциала женщин-руководителей и создать условия, при которых гендер больше не будет барьером на пути к успеху в управленческой деятельности.

Литература.

1. И.А. Загайнова, Роль гендерного подхода в модернизации содержания педагогического образования. // Высшее образование и региональная элита в Республике Марий Эл: Материалы межвузовской научно-практической конференции. 17 мая 2006г. - Йошкар-Ола: МГПИ им. Н.К. Крупской, 2006. - С. 17-20.

2. [Козлов В.В., Дамадаева А.С., Кон И.С.]. Козлов В.В. Гендерная психология. - М.: Высшая школа, 2016. - 272 с.

3. Кон И.С. Мужские исследования: меняющиеся мужчины в изменяющемся мире. // Введение в гендерные исследования. - СПб., 2001. - С. 562-605.

4. А.И. Мруг Мруг А.И. Исследование особенностей гендерной идентичности студентов. // Сборник научных трудов Транспортной Академии. Серия: Педагогика и психология. - Кишинэу, 2005. - том 2. - С. 259-262.

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Din psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti (PhD)

SHAXSDA INKULTURATSIYA VA IJTIMOIYLASHUV MUAMMOLARINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Shaxs jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishida sotsializatsiya va inkulturatsiya jarayonlari asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada psixologiyada inkulturatsiya va ijtimoiylashuv muammolarining o‘rganilishi va ushbu muammolarga nisbatan turli xil yondashuvlar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsializatsiya, inkulturatsiya, shaxs, qadryatlar, madaniyat.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОБЛЕМ ИНКУЛЬТУРАЦИИ И СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Процессы социализации и инкультурации служат основным фактором превращения человека в полноценного члена общества. С этой точки зрения в данной статье анализируется исследование проблем инкультурации и социализации в психологии и различные подходы к этим проблемам.*

Ключевые слова: *социализация, инкультурация, личность, ценности, культура.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCHING INCULTURATION AND SOCIALIZATION PROBLEMS IN THE PERSON

Abstract. *The processes of socialization and enculturation serve as the main factor in turning a person into a full-fledged member of society. From this point of view, this article analyzes the study of the problems of enculturation and socialization in psychology and various approaches to these problems.*

Keywords: *socialization, enculturation, personality, values, culture.*

Madaniyatning mavjudligi vaqt va makonda davom etadi, timsollarda ifodalanadi va aloqa mexanizmlari orqali uzatiladi. Madaniy qadriyatlarning uzatilishi inkulturatsiya va sotsializatsiya tushunchalari yordamida tasvirlangan. Rivojlanish jarayonida shaxs ma’lum ijtimoiy ta’sirlarga ochiq davrlarni boshidan kechiradi va ularni qabul qilishga unda ichki tayyorlik bo‘ladi. Psixologiya fanida insonning jamiyatga kirib borish jarayoni, inson-jamiyat, jamiyat-inson munosabatlari, hayotiy tajriba, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, xulq-atvor normalarining avloddan-avlodga yetkazib berilishi muammosi doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Abu Nasr Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida qadriyatlarni egallash, ularni avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblangan pedagogik masalalarni ijtimoiy fanlarning muhim qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli bu - inson. Insonning har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun yaxlit holda o‘rganishni tavsiya qiladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, inson haqidagi fanlarni o‘rganuvchi mutaxassislar etnopsixologiyaning erishgan yutuqlarini ijtimoiylashish muammosini o‘rganish bilan bog‘liq ekanligini tan oladilar. Hattoki ayrim olimlar bolalik etnografiyasini o‘z tadqiqot metodi va nazariyalari bo‘lgan alohida fan sifatida ajratadilar. Bolalar ijtimoiylashuvining zamonaviy, qiyosiy-madaniy tadqiqotlari shartli ravishda to‘rt guruh bo‘lishi mumkin bo‘lgan keng maydonni o‘z ichiga oladi.

1. Ijtimoiylashish jarayoni uning metodlari va bolalarning o‘z xalqi madaniyatini o‘zlashtirishining maxsus usullari.

2. Bolalar tarbiyasi jamiyat hayotiy faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish. Bunda asosiy e’tibor tarbiyaning maqsadi va choralarini belgilovchi, uning natijalarini boshqaruvchi ijtimoiy institutlarga ajratiladi.

3. Ijtimoiylashishning madaniyat bilan asoslangan bevosita natijalarini taqqoslash. Bu holatda tadqiqotchilarni ko‘proq har xil ijtimoiy madaniyat sharoitida o‘sgan bolalarning bir-biridan farqi ularning qanday qadriyatga ega ekanligi, ideallari xulq-atvorining stereotiplari qiziqtiradi.

Sotsializatsiya jarayoni an’anaviy ravishda institutsional berilgan deb qaraladi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

“Inkulturatsiya” tushunchasi esa vaziyatni o‘zgartirish imkonini beradi: biz individ pozitsiyasiga turib olamiz va ichki ehtiyojlar, motivlar, dunyoning individual manzarasidan kelib chiqqan holda insonning umumiy madaniyat dunyosiga kirish yo‘nalishlari va qonuniyatlarini aniqlaymiz. Madaniyat konseptlarining subyektiv bo‘yalganligi, ularning dunyoga ham emotsional, ham tushunchaviy va baholash munosabatlarini o‘z ichiga olgan kognitiv xarakteri, inkulturatsiyani, avalambor, ijtimoiy omil emas, birinchi navbatda umumijtimoiy xarakteristikalar va belgilarga ega bo‘lgan shaxs shakllanishi jarayoni sifatida e’tirof etish imkonini beradi [1]. Natijada biz ijtimoiylashish nazariyalari u yoki bu darajada asoslanadigan bir tomonlama internalizatsiya jarayonidan chekinamiz va shaxs, uning faolligiga asoslanamiz.

Sotsializatsiya–go‘daklik davrida boshlanuvchi va qarilik davrida yakunlanuvchi ijtimoiy rollar va madaniy normalarni o‘zlashtirish jarayonidir.

Birlamchi sotsializatsiya, avvalambor, oilada bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Birlamchi sotsializatsiyaning maqsadi bolalarda boshqa odamlarga ishonch, quloq solish, ularga yaxshilik qilishda namoyon bo‘luvchi moyillikni shakllantirish. Birlamchi sotsializatsiyaning samarali usuli ota-onalar xulq-atvoridir, chunki ular turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutish namunasi sifatida gavdalanadilar. V.M.Rozinning (2002) ta’kidlashicha, ism qo‘yish, azon ayttirish marosimlari, til, o‘zini tutishga o‘rgatish, tana jazolanishi, so‘zli yo‘riqnoma, o‘git nasihatlar, ogohlantirishlar, rag‘batlantirish tizimi sotsializatsiyaning ijtimoiy madaniy muolajalariga mansubdir[2].

Sotsializatsiya individ tomonidan madaniy normalar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, unda insonning ijtimoiy individga aylanishi ro‘y beradi. Kundalik amaliyotda ijtimoiy hayotning turli tomonlari haqidagi axborotni olib, inson jamiyatga mansub ijtimoiy va madaniy shaxs sifatida shakllanadi. Shunday qilib, sotsializatsiya deganda individning ijtimoiy muhitga garmonik kirishi, u tomonidan jamiyatdagi qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilishi nazarda tutiladi. “Inkulturatsiya” tushunchasi M. Xerskovis uchun uning yaxlit madaniy-antropologik konsepsiyasini tuzishda tayanch vazifani o‘tadi[3]. Aynan madaniyatga kirishish jarayonida etnomadaniy jamiyatlarning kelib chiqish hamda u yoki bu jamiyat (madaniyat)ni o‘zgarish mexanizmlari yotadi. V.M.Rozinning (1999) ta’kidlashicha, inkulturatsiyada madaniyatning faoliyatli, xulq-atvor tomonlari, shuningdek, ma’naviy madaniyatning turli jabhalarini o‘zlashtirilishi M. Xerskovis konsepsiyasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi[4].

Sotsializatsiya va inkulturatsiya jarayonlari bir yo‘nalishda ketishlari hamda qarama qarshi yo‘nalishda rivojlanishlari ham mumkin. Ularning fazalari bir-biriga mos kelishi, lekin bir-biri bilan keskin farq qilishi ham mumkin. Sotsializatsiya – jamiyatga kirib borish, insonning ijtimoiy shakllanishi. Sotsializatsiya jarayonining natijasi — shaxs. Inkulturatsiya – bu qadrdon madaniyat bilan birga o‘sish, tarbiyali insonning shakllanishidir. Inkulturatsiya jarayonining natijasi intelligent ziyolidir .

Ushbu ikki jarayon bir-biriga mos kelganda va bir yo‘nalishda ketganda biz “sotsializatsiya – inkulturatsiya”ning birlikdagi qutbini qurishimiz mumkin. Bu qutb turli tipdagi insonlarda madaniy va ijtimoiy salohiyat kamaygani yoki ko‘payganligini ko‘rsatadi. Feral insonlar – bu bo‘rilar yoki boshqa bir hayvonlarning orasida tarbiyalangan odam bolalaridir. Ular jamiyatga qaytib unga moslasha olmaydilar va qisqa muddatda vafot etadilar. Ularda inkulturatsiya va sotsializatsiya potensiali minimal darajada bo‘ladi. Mehribonlik uylari va internatlarda tarbiyalangan bolalarda inkulturatsiya va sotsializatsiya darajasi o‘rtacha bo‘ladi. Voyaga yetgach muassasani tark etib, ular katta jamiyatdagi to‘laqonli xayotga yaxshi moslashmagan bo‘ladilar. Ular oddiy oilalarda o‘sgan bolalarda

mavjud ko‘p narsalarga ega bo‘lmaydilar. Nisbatan yuqori bo‘lgan salohiyat ziyoli insonlarda kuzatiladi. Bular ijtimoiy faol va madaniyatli insonlardir[5].

Sotsializatsiya madaniyatshunos E.V.Sokolovning fikricha, ba’zi madaniy minimumni o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir. Bunda gap asosiy ijtimoiy normalar, rollar, til, milliy xarakter sifatlarini o‘zlashtirish haqida ketmoqda. Unga qarama-qarshi ravishda “inkulturatsiya” termini nisbatan kengroq voqelikni o‘zida aks ettirib, bunda shaxsni insoniyatning barcha madaniy merosiga, ya’ni nafaqat o‘zining milliy madaniyatiga, balki boshqa xalqlarning madaniyatiga ham munosabati nazarda tutiladi. Shunday ekan, inkulturatsiya “keng gumunitar madaniyatni o‘zlashtirishni” anglatadi.

Sotsializatsiya tushunchasidan farqli ravishda inkulturatsiya insonni konkret madaniyatdagi xulq-atvor an’analari va normalariga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bu inson va uning madaniyati o‘rtasidagi munosabatlar almashinuvi jarayonida ro‘y beradi, bunda bir tomondan madaniyat inson shaxsining asosiy qirralarini belgilab beradi, ikkinchi tomondan esa, insonning o‘zi o‘z madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Inkulturatsiya o‘z ichiga asoslangan insoniy ko‘nikmalarni shakllantirishni qamrab oladi, masalan, boshqa odamlar bilan muomala shakllari, o‘z xulq-atvori va emotsiyalarini nazorat qilish, asosiy ehtiyojlarni qondirish usullari, atrof-muhitdagi turli hodisalarga baholovchi munosabatda bo‘lish va h.k. Inkulturatsiya natijasi bo‘lib insonning xulq-atvor va emotsional jihatdan ma’lum madaniyatning boshqa a’zolari bilan o‘xshash va boshqa madaniyat namoyandalaridan farqli tomoni hisoblanadi. Xarakteriga ko‘ra, inkulturatsiya jarayoni sotsializatsiyaga nisbatan murakkabroqdir.

Bir qator mualliflar fikriga ko‘ra inkulturatsiya jarayoni insonning tug‘ilishi birinchi ko‘nikmalarida va nutqni o‘zlashtirishidan boshlanib, inson vafot etgunga qadar davom etadi. Xerskovis shuni ta’kidlaydiki, ijtimoiylashuv jarayoni hamda inkulturatsiya bir vaqtning o‘zida kechadi va inson madaniyatga kirmay turib, jamiyat a’zosi bo‘la olmaydi.

T.Stefanenkoning fikricha, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida individ xulq-atvorini urf-odatlar va an’analar yordamida qattiq boshqarib turish va bu bilan ularning madaniyatga integratsiyasiga erishish kuzatiladi. Ko‘proq bu narsa odamning tabiiy sharoitlarga bog‘liqligi bilan tushuntiriladi, ya’ni inson faqatgina o‘z qabiladoshlari bilan umumiy an’analar doirasida birlashgandagina yashab keta olgan. Bizning davrimizda madaniyatlarda insoniy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini tanlashda ko‘proq erkinlik beriladi. Lekin zamonaviy madaniyatlar ham shunday tuzilganki, ularning a’zolari keladilar va ketadilar, ular esa u yoki bu darajada muqim bo‘lib qolaveradilar[6]. Shuni nazarda tutish kerakki, etnos va madaniyat o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda turlicha qarashlar mavjud. Ko‘p tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, madaniyat va etnos chegaralari aynan emas. Bir tomondan turli xalqlarda madaniyatning bir xil elementlarini kuzatish mumkin. Ikkinchi tomondan, etnos o‘z ichiga madaniyatning bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan elementlarini ham olishi mumkin. Masalan, ruslar Arxangelskda ham, Voronejda ham yashaydilar, biroq ularning turar joyi, kiyimlari, qo‘shiq va raqslari juda farq qiladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, madaniyat bu to‘plam emas, balki ma’lum tarzda o‘zaro aloqador elementlar tizimidir[7].

Qo‘yilgan vazifani amalga oshirishdagi uchta asosiy muammolarni ajratish mumkin: Birinchi muammo “inkulturatsiya” va “ijtimoiylashish” tushunchalarini chegaralash bilan bog‘liq. Yuqorida ta’kidlanganidek, G‘arb madaniy antropologiyasida M.Xerskovis va M.Middan boshlab, ijtimoiylashuv kishilik jamiyatiga kirib borishni ifodalovchi umumiy tushuncha bo‘lsa, inkulturatsiya bola tomonidan ma’lum bir madaniyatga oid dunyoni tushunish va xulq-atvorni o‘rganishdir. M.S.Kagan mazkur tushunchalar mutanosibligining butunlay qarama-qarshi tushuntirishini beradi. Uning fikricha, ijtimoiylashish insonni jamiyat qurilishi konkret tipining ehtiyojlariga javob beradigan ma’lum ijtimoiy rollarni bajaruvchisiga aylantiradi, inkulturatsiya esa inidvidga barcha xalqlar tomonidan vujudga keltirilgan qadriyatlar bilan tanishtiradi [8].

Uchinchi muammo A.Ya.Fliyer ishlarida keltirilgan bo‘lib, u mazkur tushunchalarni ko‘lamiga qarab emas, mazmuniga qarab ajratishni taklif etadi. Uning fikricha ijtimoiylashish ham, inkulturatsiya ham konkret jamiyat rivojlanishining konkret bosqichiga tegishli. Ijtimoiylashish insonni nisbatan utilitar, pragmatik vazifalar bilan belgilanadigan mazkur davr uchun dolzarb bo‘lgan sharoitlarga yo‘naltiradi. Inkulturatsiya esa insonni mazkur ijtimoiy muhit uchun xarakteri bo‘lgan

emotsional-qadriyatli ustanovkalar, tarixiy an'analar, mental xususiyatlar bilan bog'liq sharoitga olib kiradi. Ana shu yondashuvlarga asoslanib, ko'pchilik olimlar inkulturatsiyani madaniyat mohiyati va mazmunini o'zlashtirish, ijtimoiylashuvni esa xulq-atvor shaklini baholashdagi va tanlashdagi kompetentlik sifatida talqin qiladilar. Bunda ko'lamiga ko'ra ushbu tushunchalar amalda deyarli bir xil va nafaqat hozirgi payt, balki o'tmishdagi an'analar va normalarni ham dolzarblashtiradi.

Ijtimoiylashuvning alohida natijalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bola tarbiyasining metodlari va katta yoshdagi inson xarakteri o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ma'lumki, bu narsa madaniyat va shaxs nazariyasining chiqish muammosi hisoblanadi. Lekin qanday muammolar o'rganilmasin bularning barchasi bolaning o'z xalqi madaniyatiga kirishi, ya'ni inkulturatsiya bilan bog'liqdir.

"Madaniyat va shaxs" maktabining birinchi nazariyotchilaridan biri A.Kardiner edi. U inson hayotining ilk davrini uning shaxsining asoslari shakllanuvchi davr, deb hisoblagan. Bolaning ilk tajribalari va madaniyat uchun xarakterli bo'lgan shaxs o'rtasidagi sababiy aloqalarning mavjudligini "dala"da ish olib borgan madaniy antropologlarning tadqiqotlaridan misollar ko'rsatish yordamida isbotlagan. Masalan, Alor orolida ayollar dehqonchilik bilan shug'ullanadilar, shuning uchun ham bolalariga kam vaqt ajratadilar: ularni kamdan-kam ovqatlantiradilar, yurish va so'zlashga o'rgatmaydilar. Buning natijasida bolalarda onasiga nisbatan qarama-qarshi munosabat, onaning g'amxo'rligini sog'inish va shu vaqtning o'zida ishonchsizlik va dushmanlik shakllanadi. Bunga mos ravishda tashqi dunyoga nisbatan dushmanlik bilan xarakterlanuvchi shubxalanuvchi, ishonmaydigan shaxs shakllanadi.

Inkulturatsiya yoki madaniyatga o'rgatish bir necha yo'llar orqali amalga oshadi, lekin uning ko'proq tarqalgan turi bavosita, ya'ni insonning o'zi boshqa odamlar xulq-atvorini kuzatishidir. Bunday usulda, hattoki eng sodda bo'lgan, biz har kuni bajaradigan muolaja ham inkulturatsiya nuqtai nazaridan ma'lum qadriyat hisoblanadi, chunki u turli madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etuvchi pozalar va imo-ishoralardan tashkil topadi. Ovqatlanish paytida yovvoyi hayvon va insonning xulq-atvori o'rtasidagi farq keskin. Sivilizatsiyalashgan insonni u yoki bu madaniyat normalari asosida o'z ehtiyojlarini qanday qondirishga o'rgatadilar. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat bizni qayerda, qanday ish tutishimizga o'rgatadi. Ko'rsatilgan farqlarga qaramay, sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari mazmun va mohiyati fanda munozaralarga sabab bo'lmoqda. M.Mid ijtimoiylashuv termini ostida umuman ta'lim berishni, inkulturatsiya termini ostida esa maxsus madaniyatda yuz beradigan ta'limni tushunadi[113].

E.Eriksonning (2007) fikricha, hayotdagi ijtimoiy qonunlarni o'zlashtirish, madaniy normalar, qadriyatlar, an'analar va urf- odatlarni o'zlashtirishdan ancha tezroq amalga oshadi[9].

D. Matsumotoning fikricha, sotsializatsiya bu odamlarning ijtimoiy va madaniy normalarni bilish jarayoni, inkulturatsiya esa — sotsializatsiya jarayoni mahsulidir. Deyarli barcha tadqiqotchilar sotsializatsiya universalroq xarakterda ekanligi, inkulturatsiya esa madaniy xususiyatga ega ekanligida to'xtalib o'tadilar.

Sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari o'z tarkibiga ko'ra bir-biriga juda yaqin bo'lib, ularni aralashtirib yubormaslik zarur. Sotsializatsiya insonning hayotda zamonaviy jamiyatdagi ta'limini anglatadi. Inson qanday davlatga bormasin ijtimoiy tuzilma va jamiyat stratifikatsiyasi, insonlarning sinflarga bo'linishi, pul ishlab topish usullari va oilada rollarning taqsimlanishi, bozor iqtisodiyotining asoslari va davlatning siyosiy tuzilishi, fuqarolik xuquqlari xaqidagi elementar tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Inkulturatsiya insonning konkret madaniyatda xulq-atvor normalari va an'analarga o'rganishini anglatadi. Madaniyat turli davlatlarda ijtimoiy tuzilmaga nisbatan maxsusroqdir. Unga to'liqligicha kirishib ketib moslashish qiyin. Masalan, O'zbekistondan boshqa bir mamlakatga ko'chib o'tgan emigrant hayotning ijtimoiy qonunlarini tez o'zlashtiradi. Lekin, boshqa bir madaniyatning normalari va an'analarini o'zlashtirish juda katta qiyinchilik bilan kechadi. O'zbekistonlik programmist yoki injener chet elda tan olingan yuqori kvalifikatsiyaga ega bo'lib turib, qisqa muddatda o'zining yangi mavqeiga xos xuquqlari va majburiyatlarini o'zlashtiradi. Bir oydan so'ng u o'z vazifasini shu davlatning tub aholisidan farqlanmagan tarzda bajara oladi. Lekin boshqa bir

madaniyatga o‘rganib o‘zinikidek his qilishga bir necha yillardan keyin ham erisha olmaydi. Shunday ekan, hayotning ijtimoiy tartiblariga moslashish inkul’turatsiya – qadriyatlar, an’analar va odatlarga moslashishdan ko‘ra qiyinroq kechadi.

Shunday ekan, inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biridan tubdan farq qiladi va ularni aynan bir ma’noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qabul qilish noto‘g‘ridir. Ko‘rib turganimizdek, ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar bir tomondan bir xil deb qaralsa, ikkinchi tomondan alohida jarayon sifatida e’tirof etiladi. Biroq hali hanuz olimlar bu borada bir to‘xtamga kelganlari yo‘q. So‘nggi yillarda krossmadaniy tadqiqotlarga e’tiborning ortib borishi mazkur muammoning hal bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, shubhasiz inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va faqat birgalikda yuz berishi mumkin. Har bir inson o‘z individual taraqqiyoti jarayonida ma’lum madaniyatga mansub sotsializatsiya va umumiy inkulturatsiyaga erishadi. Hozirgi davrda inson inkulturatsiya va sotsializatsiyasiz jamiyatning a’zosi sifatida mavjud bo‘la olmasligi shubhasiz, shuning uchun bu jarayonlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi[10]. Inkulturatsiya natijasida inson o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy muhitda mustaqil harakatlanishga, avvalgi ajdodlar qoldirgan madaniyat predmetlaridan foydalanishga, jismoniy va aqliy mehnat natijalari bilan o‘rtoqlashishga boshqa odamlar bilan o‘zaro hamjihatlikka qodir bo‘ladi. Shu xususiyatlari bilan odam boshqa madaniyat vakillaridan ajralib turadi. Sotsializatsiya jarayoni natijasida inson jamiyatning to‘la huquqli a’zosiga aylanadi, ya’ni talab etilgan ijtimoiy rollarni mustaqil bajaradi, bunda madaniy xususiyatlarga e’tibor berilmaydi. Inkulturatsiya jarayonlari ham, sotsializatsiya jarayonlari ham asosan maxsus o‘qitish davomida emas, balki kattalar rahbarligida va o‘z tajribasiga suyangan holda boradi. Faqatgina ulardan ba’zilarigina maxsus ijtimoiylashuv institutlari,maktablar, oliy o‘quv yurtlarida yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Берри Дж. Как мы будем жить все вместе? Альтернативное видение межкультурных отношений / Кросс-культурная психология: актуальные проблемы // Под ред. Л. Г. Почебут, И. А. Шмелевой. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2005. С. 6–25.
2. Флиер А. Я. Культурология для культурологов. М.: Академический проект, 2000
3. Herskovits M. Cultural Anthropology. N.Y., 1955
4. Шпет, Г. Г. Введение в этническую психологию / Г. Г. Шнет. — СПб., 1996.
5. Мишина М.М., Мурсалыева Г.М. Сравнительный анализ формирования типов этнической идентичности подростков разных культурных сред // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Психологические науки 2018 / № 1 стр.84-93.
6. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. Учебник для высших учебных заведений. М.: Институт психологии РАН, 1999. - 320 с.
7. Чубрик Е.О. Русский детский фольклор как средство ранней инкультурации. Автореф. канд. культурологии. Владивосток 2007. 18 б.
8. М. С.Каган. Философия культуры / М.С. Каган. — СПб., 1996
9. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.,. 1996
10. Криско В.Г. Этническая психология. М. Академия, 2002 г.

Rasulov A.I.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TAFAKKURINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurining empirik o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari yoritilgan. Empirik tadqiqot uchun Dj.Ravenning “Progressiv matritsa” testining bolalar uchun mo‘ljallangan varianti, “To‘rtinchisi ortiqcha” metodikasi, tafakkur bilan bir qatorda xotiraning bog‘liqligini o‘rganilgan. Shuningdek maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurining o‘ziga xosligi sodda umumlashtirishlar, standart umumlashtirishlar, farqlanuvchi umumlashtirishlar, mohiyati va nomlanishiga ko‘ra murakkabroq umumlashtirishlar, batafsil tushuntirishni talab etuvchi umumlashtirishlar, ikkita javobli masalalar misolida yoritilgan. Maqolada empirik ko‘rsatgichlariga tayanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirish uchun pedagogik-psixologik tavsiyalar taqdim qilingan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, tafakkur, mantiqiy, ko‘rgazmali obrazli, mantiqiy, xotira, umumlashtirish, ikki javobli.*

ОСОБЕННОСТИ МЫШЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования, посвященного эмпирическому изучению мышления учащихся начальной школы. Ди-джей для эмпирических исследований.Был изучен ориентированный на ребенка вариант теста «Прогрессивные матрицы» Равена, методика «Четвертый лишний», а также размышления о взаимосвязи памяти. В статье также рассматривается специфика мышления учащихся начальной школы с использованием простых обобщений, стандартных обобщений, дифференцирующих обобщений, более сложных обобщений по сути и наименованию, обобщений, требующих подробного объяснения, приведен пример вопросов с двумя вариантами ответа. В статье представлены педагогико-психологические рекомендации по развитию мышления учащихся начальной школы, опирающиеся на эмпирические показатели.*

Ключевые слова: *начальный класс, мышление, логическое, наглядно-образное, логическая память, обобщение, двоякий ответ.*

CHARACTERISTICS OF PRIMARY STUDENTS’ THINKING

Annotation. *The article covers the results of a study devoted to the empirical study of elementary school student thinking. Dj for empirical research.A child-oriented variant of Raven’s “progressive Matrix” test, the “fourth plus” methodology, has been studied as well as thinking about the relationship of memory. The article also covers the specificity of the thinking of Primary School students using simple generalizations, standard generalizations, differentiating generalizations, more complex generalizations in essence and naming, generalizations requiring a detailed explanation, an example of two-answer issues. The article presents pedagogical-psychological recommendations for the development of the thinking of Primary School students, relying on empirical indicators.*

Keywords: *elementary class, thinking, logical, visual figurative, logical, memory, generalization, two-answer.*

Kirish. Jadal ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlar davrida bolalar tafakkuridagi o‘zgarishlarni psixologik tadqiqotlar yordamida o‘rganib borish doimiy o‘rganishga ehtiyoj tug‘diradigan muammodir. Chunki bola aqliy taraqqiyotining har bir bosqichi o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu davrda bola psixik rivojlanishida ahamiyatli o‘zgarishlar yuz beradi. Bolalar yangi bilimlarni o‘zlashtiradi, olam to‘g‘risidagi yangi tasavvurlarga ega bo‘ladi, ularda turmush tarzi uchun dastlabki ilmiy munosabatlar va tushunchalar shakllanib boradi.

Bolalar bilish jarayonlaridagi keskin o‘zgarishlar ularning tafakkurining rivojlanishi bilan

xarakterlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tafakkurining ilk ko‘rinishlarida nazariy tafakkur, yangi tushunchalar, o‘ziga va voqelikka munosabatiga nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanadi. Biz o‘z tadqiqotimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi bilish jarayonlarining rivojlanishini tafakkur misolida o‘rganishimizning sababi ham shundan iborat.

Metodologiya.

Tafakkur psixologiyada izchil va uzviy o‘rganilayotgan muammolardandir. Uning nazariy va amaliy masalalari qator psixologlar tomonidan o‘rganilgan [4], [5], [7], [8], [9], [16].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish jarayonlarini o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishning psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik holatida qator izlashlar olib borilganligini guvohi bo‘lamiz [1], [2], [6], [8], [13], [15], [18], [20].

Psixologiyada bola aqliy taraqqiyoti yoki bilish jarayonlarini tahlil etishda ularning ontogenetik taraqqiyot bosqichlariga murojaat etish muhim. Chunki, shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichlari ularning kamolot davrlarini bosqichma-bosqich rivojlanishini o‘zida aks ettiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ularning ta’lim jarayoni, ya’ni maktabga ta’lim olishga borishi bilan boshlanadi. Bu davrni 6-7 yoshdan 9-10 yoshlar oralig‘i bilan davriylashtirish mumkindir. Bolaning maktab ta’limiga kirib borishining o‘zi uning yangi davrga qadam qo‘yganligi, uning moslashuvchanlik, sotsial munosabatlar bilan bir qatorda bilish jarayoni xususiyatlarida o‘zgarishlar yuz berishi hamda faoliyat mazmunida sifat jihatdan yangi bosqichga o‘sib o‘tgadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ushbu yoshida motivlarida ham o‘zgarish yuz beradi. Ularda men xoxlayman motivi ustidan men bajarishim kerak motivi ustunlik qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qulay ta’lim muhitida nazariy ong va tafakkurga asos bo‘lib xizmat qiluvchi aqliy harakatlar darajasi shakllanadi. .

Bu vaqtda bolalarning o‘quv faoliyatlari aqliy operatsiyalar bilan bog‘liq, o‘quv vazifalarini tahlil qilish, ijrochilik harakatlarini uyushtirish va nazorat qilish, mnemik harakatlar , aqliy rejalashtirish va topshiriqlarni yechish bog‘liq refleksiyani shakllantiradi

O‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi sotsial muhitda qat’iy belgilangan munosabat me’yorlarini shakllantiradilar. Bu ijtimoiy me’yorlar bolalarning ijrochilik va o‘quv faoliyati uchun zarur aqliy rivojlanishlarni kamol topishiga sabab bo‘ladi. Bolaning yangi ijtimoiy muhitga tushishi, o‘quv faoliyatini amalga oshirish ham jismoniy , ham xulq-atvorida kuchli bosim hosil qiladi.

Bolaning maktab ta’limiga moslashishi bilan unda standartlashgan harakatlarni amalga oshirishi ayrim o‘rinlarda bir qator og‘ishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday og‘ishlarning zamirida qo‘rquv, irodaviy faollikni pasayishi kuzatiladi.

Boshlang‘ich sinfdayoq yetakchi faoliyat o‘quv faoliyati hisoblanadi. Ular o‘qituvchining rahbarligida yangi o‘quv ko‘nikma va malakalari hamda ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq holda fan, san’at, axloqning o‘zida aks ettiruvchi inson ongi shakllarini egallaydi.

Ularda o‘zgalar bilan muvofiqlashishga qobiliyatining rivojlanishi muomalaning ijobiy shakllarini egallash va salbiy tomonlarini pasaytirishga yordam beradi.

O‘quv faoliyati boladan nutqni, diqqat, xotira, xayol va tafakkurni rivojlantirishga erishishga talab qo‘yadi, bolaning shaxs sifatida kamol topishiga yangi sharoitlar yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuridan tashqari ularning diqqati va xotira xususiyatlarini o‘rganish borasida ham izlanishlar olib borilgan [12], [14], [19], [20].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida olib borilgan izlanishlardan bir qatorida muammoning o‘ziga xos jihatlari yoritilganligini ta’kidlash mumkin: J.Piaje va V.V.Davidov tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri xususiyatlari yoritilgan [9], [10], [16].

Biz tadqiqotimizda yuqoridagi ilmiy izlanishlarga muvofiq ko‘proq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri hamda xotirasi bo‘yicha qisqacha empirik materiallarni taqdim etamiz

Qisqacha nazariy tahlillardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuuriga xos xulosalarga kelindi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning umumiy tarzda o‘zgarishlarini :

–ta’lim jarayonidagi tizimli ostida bolalarning jismoniy va psixofiziologik o‘sishi kechishi

tabiiy jarayondir;

–bola asta-sekinlik bilan ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida jamiyat hayotiga kirib boradi;

–o'quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida shakllanadi;

–ixtiyoriy xulq-avtorni namoyon etish yuz beradi;

–Ularning tafakkuri nzariy va amaliy faoliyat sifatida namoyon bo'lib, orientirovka – tadqiqotchilik, yangilik hosil qiluvchi va bilish xarakterining harakat va operatsiyalarini o'zida aks ettiradi.

Nazariy tahlillarga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurining o'ziga xosligi:

– tafakkurning rifojlanishi ancha jadal kechadi;

– aqliy jarayonlarda tizimli va sifatli o'zgarish sodir bo'ladi;

– ko'rgazmali –harakat, ko'rgazmali-obrazli faol rivojlanadi hamda so'z-mantiq tafakkurining rivojlanishi boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur shakllaridan tushuncha, hukm va xulosani shakllanganligi kuzatiladi:

– ta'lim jarayonida bolalarda ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradi;

– bolalarda mulohazalashni rivojlanishida bilimlarning kengayishi va haqqoniylikka tafakkur ustanovkalarini shakllanganligi belgilanadi;

– xulosa chiqarish orqali bolalar taxminlar qo'yish va u orqali holatlarni tekshirish ko'nikmalarini.

Tajriba-sinov natijalari tahlili.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini eksperimental o'rganish uchun amaliyotda qo'llanilib kelayotgan va tajribada sinovdan o'tgan metodikalarga e'tibor qaratdik. Buning uchun «To'rtinchisi ortiqcha» metodikasi, Dj.Ravenning "Progressiv matritsalari", "Figuralarni bilib ol" va "Suratlarni esga olib qol" metodikalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodikalari asosida ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy tafakkur va tushunchalarni shakllanishi bo'yicha tadqiqot o'tkazish mezonlari shakllantirildi. Metodikalar har bir sinf o'quvchilarida o'tkazilgan bo'lib, buning uchun Raven metodikasidan foydalandik. Oldingi bobda metodikaning umumiy tavsifini berib o'tgandik. Ushbu paragrafda esa metodikaning baholash mezonlarini keltirib o'tamiz:

1. Ravenning matritsasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'rgazmali-obrazli tafakkurni tekshirish quyidagi darajalar bo'yicha amalga oshirildi.

Taraqqiyot darajalari haqida xulosalar:

26-30 ballar — juda yuqori.

20-25 ballar — yuqori.

13-19 ballar — o'rta.

6-12 ballar — quyi.

0-6 ballar — juda quyi.

2. O'quvchilardagi mantiqiy tafakkurni shakllanganligini aniqlash uchun "To'rtinchisi ortiqcha" metodikasidan foydalanildi.

Bolalarga yetti guruhdagi rasmlar taqdim etilib, ular rasmlar orasidan mantiqan bog'liq bo'lmaganlarini ajratib tashlashlari lozim edi. Ularning har bir to'g'ri bajargan topshiriqlari uchun 1 balldan berildi. Ularning rivojlanganli holatini baholash haqidagi xulosa:

22-28 ball- mantiqiy tafakkurning yuqori rivojlanganlik darajasi;

10-21 ballov - mantiqiy tafakkurning o'rtacha rivojlanganlik darajasi;

0 va 9 ballari - mantiqiy tafakkurning kuchsiz rivojlanganlik darajasi.

3. O'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri bilan bir qatorda ularning xotira jarayoni holatini ham o'rganishni lozim topdik. Buning uchun ikkita metodikadan foydalandik. Ularning umumiy tavsifi oldingi bo'limda keltirilgan edi.

Rivojlanish darajasi bo'yicha xulosalar:


8-10 ball — qisqa muddatli ko'rish xotirasining juda yuqori darajasi

4-7 ball — qisqa muddatli ko'rish xotirasining o'rtacha darajasi

0-3 ball — qisqa muddatli ko‘rish xotirasining past darajasi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlanganlik xususiyatlarini o‘rganish uchun ajratilgan metodikalarni tatbiq etishdan olingan qiymatlarni tahlil qilamiz. Buning uchun o‘quvchilarning Raven testi natijalariga tayanamiz (1-diagramma).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘rgazmali-obrazli tafakkurining Raven metodikasi yordamida o‘rganin natijalariga e’tibor qaratdik.



1-diagramma. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘rgazmali-obrazli tafakkur qiymatlari (Raven testi)

Bu yerda o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari o‘rtacha qiymatni aks ettirmoqda. Ularning aqliy qobiliyatlarining bu ko‘rinishi ko‘rgazma-obrazli tafakkurning rivojlanish imkoniyati borligi va ularda vaqtni o‘sib o‘tishi bilan ularda ko‘rgazma-obrazli tafakur o‘z o‘rnini boshqa tafakkur to‘rlariga almashtirishi ham mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tafakkur xususiyatlarida ta’lim bosqichini o‘zgarishiga qarab, ularda qisman bo‘lsa-da o‘sishi mavjudligi kuzatildi: 1-sinf (17,1), 2-sinfda(19,4), 3-sinf (22,5) va 4-sinf (21,8) darajani aks ettirmoqda. O‘rtacha olganimizda ularning qiymati o‘rtacha daraja xosligini yana bir bora takrorlaymiz. 3-4 sinflarda esa o‘rtachadan yuqori qiymatlar xos bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini o‘rganish natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Mantiqiy tafakkur natijalarini “To‘rtinchisi ortiqcha” testi yordamida qo‘lga kiritildi

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkur qiymatlari

Mezonlar	1-sinf	2 sinf	3sinf	4 sinf
Sodda umumlashtirishlar	2,8	3,7	4	4
Standart umumlashtirishlar	2,1	2,3	3,8	3,9
Farqlanuvchi umumlashtirishlar	1,8	3,1	3,6	3,8
Mohiyati va nomlanishiga ko‘ra mu-rakkabroq umumlashtirishlar	2,3	2,5	3,6	3,8
Batafsil tushuntirishni talab etuvchi umumlashtirishlar	1,3	1,8	2,75	3,6
Ikkita javobli masalalar	1,2	2,1	2,4	3,5
Umumiy darajasi	12,5	15,5	20,15	22,6

Empirik ko‘rsatkichlarga asoslanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkuriga

xos xususiyatlarni quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, mantiqiy tafakkurni baholash mezonlariga ko‘ra 1-3-sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkur o‘rtacha rivojlangan (1-sinf-12,5; 2-sinf-15,5 va 3-sinf-20,15). Metodikaning xususiy baholash mezonlariga ko‘ra 1-2 sinflar topshiriqlar ustida ishlaganda sodda umumlashtirishni boshqa tafakkur operatsiyalariga nisbatan yaxshiroq bajara olishlari kuzatildi (2,8 va 3,7). Ikkita javobli masalalarning yechishda esa qiyinchilikka duch kelishlari aniqlandi (1,2 va 2,1). 3-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkuri o‘rtacha rivojlanish chegarasida bo‘lsa-da, ular ham ikkita javobli masalalar ustida ishlashda qiynalishlari (2,4) empirik jihatdan isbotlandi. Biroq 3-sinflar sodda umumlashtirishlar (4), standart umumlashtirishlar (3,8), farqlanuvchi umumlashtirishlar (3,6), mohiyati va nomlanishiga ko‘ra murakkabroq umumlashtirishlar (3,6), batafsil tushuntirishni talab etuvchi umumlashtirishlar (2,75) bo‘yicha vazifalarni ijobiy hal etganlar.


Empirik ko‘rsatkichlar va tadqiqot metodikasi mezonlariga ko‘ra 4-sinflarda esa mantiqiy tafakkur yuqori darajali qiymatga ega bo‘ldi. Ular 1-3-sinf o‘quvchilaridan farqli ravishda sodda umumlashtirishlar (4), standart umumlashtirishlar (3,9), farqlanuvchi umumlashtirishlar (3,8), mohiyati va nomlanishiga ko‘ra murakkabroq umumlashtirishlar (3,8), batafsil tushuntirishni talab etuvchi umumlashtirishlar (3,6) va ikkita javobli masalalar (3,5)dan iborat barcha topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajara olganlar. Bu esa 4-sinf o‘quvchilari mantiqiy tafakkuri yuqori darajada o‘sib o‘tayotganlidan dalolat bermoqda.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri bilan bir qatorda ularning xotirasi ustida ham empirik o‘rganish amalga oshirildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri bilan boshqa bilish jarayonlarini o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda “Rasmlarni yodda tut» metodikasidan foydalanildi. Natijalar navabatdagi 2-jadval va 3-rasmga keltirilgan.

2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotirasini o‘rganish qiymatlari

	1-sinf	2 -sinf	3-sinf	4-sinf
Xotiraning rivojlanganlik darajasi	5,4	6,7	7,3	7,5



3-rasm. O‘quvchilar xotira ko‘rsatkichlari

Natijalarga ko‘ra o‘quvchilarning xotira ko‘rsatkichlari sinflarning o‘sib borishiga ko‘ra tafovutlanganligi hamda bu hol ularning tafakkurining rivojlanishiga ham xos edi. Ularning xotira ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati 1-sinf (5.4) va 2-sinf (6.7) o‘rtacha darajada; 3-sinf (7,3) va 4-sinf (7,5) o‘rtachadan yuqoriroq darajada rivojlanganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xotirasi bilan tafakkurini rivojlanishi uzviylik borligi, o‘z navbatida u tafakkur jarayoni uchun ma’lumotlarni yetkazib berishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uchun tavsiyalar ham zarur ekanligini hisobga olindi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar taqdim etildi. Bolalar tafakkurini rivojlanishi uzviyligini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘lganligi bois, uni maktabgacha yoshdagi davrdan boshlash maqsadga muvofiq.

Tafakkurni rivojlantirish mashqlarini tatbiq etish boshlang‘ich sinflarda yanada murakkabroq

shakllaridan foydalaniladi.

Shuningdek, bolalarda rivojlantiruvchi mashqlarni qo‘llashda ular faoliyatining ijodkorlik tomonlari ham inobatga olinadi.

Buning uchun boshqotirmalar, gugurt cho‘plari, tayoqchalardan foydalanib, har xil topshiriqlar tavsiya etiladi.

Gugurt cho‘plari yordamida amalga oshiriladigan oddiy topshiriqlarni keltirish mumkin [17], [18]:

1) 5 ta gugurt cho‘pi yordamida 2 teng tomonli uchburchak tuzish;
2) 7ta gugurt cho‘pi yordamida 2 teng tomonli to‘rtburchak tuzish;
3) 7ta gugurt cho‘pi yordamida 3 teng tomonli uchburchak tuzish;

Gugurt cho‘plari yordamida bolalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.

Shuningdek , topshiriqlar shartini murakkablashtirish o‘yin-boshqotirma tarzda amalga oshirish orqali bolalar tafakkurini atroflicha rivojlantirishga erishishimiz mumkin.

Bolalarda tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirish uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirish muhim:

1. Yetishmaydigan figurani o‘ylab topish.
2. Geometrik figuralar qatoridan qatorlarni qonuniyatlarini topib, qatorlarni davom ettirish.
3. Predmetlar, raqamlar, ifodalarni klassifikatsiyalash topshiriqlarini bajarish.

Bundan tashqari nostandart masalalar kiritish orqali mantiqiy mulohazalarni o‘zaro aloqadorligini zanjirli tahlil qilishga o‘rgatish lozim bo‘ladi.

O‘qituvchilar bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantirish uchun ular boshlariga har xil timsollarni hosil qilish uquvini shakllantirishga e’tibor qaratishlari muhimdir.

Xulosalar.

– Olingan natijalarning umumiy tahliliga ko‘ra tekshiriluvchilarning ko‘rgazmali-obrazli tafakkuri o‘rtacha, mantiqiy tafakkuri shakllanganlik o‘quv sinflariga ko‘ra holati o‘rtacha va yuqori darajada ekan;

– Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda tafakkurning umumlashtirish operatsiyasining murakkab shakllariga ko‘ra, dinamika kuzatildi;

– O‘quvchilarda ta’lim jarayonida har uch toifa tafakkur turlari, ya’ni ko‘rgazma-obrazli, ko‘rgazma-harakat, so‘z-mantiq tafakkurlarini rivojlantirish muhim.

– Bolalar tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik-psixologik tavsiyalar ularning tafakkurini yaxlit va alohida turlari bo‘yicha rivojlantirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. G‘oziev E. Psixologiya. T., —O‘qituvchi, 1994
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998
3. Karimova V. Mustaqil fikrlash. T., —Sharq‖, 2000
4. Z Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni ukitish metodikasi T. 2006

Rahimova Indira Igorevna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Abdurasulova Lobar Esonbek qizi
University of Business and Science magistranti

VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxslarning virtual muhitdagi o‘zligini anglash jarayonida paydo bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning kelib chiqishi va jarayonni o‘rgangan olimlar nazariyalari masalalari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Virtualizatsiya, qaramlik, empatiya, frustratsiya, ijtimoiy ko‘nikma, fetishizatsiya, fobiya, rigidlik, ongsizlik, abonent.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В статье также широко освещаются вопросы происхождения психологических особенностей тревожности, возникающих в процессе реализации профессиональной идентичности подростков, и теории ученых, изучавших этот процесс.*

Ключевые слова. *Виртуализация, зависимость, эмпатия, фрустрация, социальные навыки, фетишизация, фобия, ригидность, бессознательность, подписчик.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE IMPACT OF THE VIRTUAL ENVIRONMENT ON THE PERSON

Annotasion*. In the article, the origin of socio-psychological characteristics and the theories of scientists who studied the process are widely covered*

Keywords. *Virtualization, addiction, empathy, frustration, social skills, fetishization, phobia, rigidity, unconsciousness, subscriber.*

Muammoning dolzarbligi: uchinchi migyillikda jamiyat virtualizatsiyasining rivojlanishi nihoyatda avj olib borayotgan hozirgi muhitda, shaxs va uning mavjudligiga virtual muhitning ta’siri kuchayishi fenomenologiyasini ilmiy tushunish va uning shaxsni shakllantirish va mustahkamlashga yo‘naltirish qonuniyatlarini aniqlash zarurati bilan bog‘liq. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan ushbu globalizatsiya zamonamizda Virtual muhit - haqiqiy faoliyat sohasiga, shaxs hayotining muhim qismiga aylanib bormoqda, ushbu muhitda insonning o‘zi ko‘p narsalarni o‘zgartiradi - uslub, turmush tarzi, odatlar, qiziqishlar doirasi va muloqot jarayonlarini. Aslini olganda, Internetning asosiy vazifasi kundalik hayot makonini sizga fazoviy ko‘rinishda ifodalashdir, chunki internet nafaqat ijtimoiylashuv vazifasini amalga oshirishga qodir, balki jamiyat hayotidagi hodisa va jarayonlarga ma’lum maqom, ahamiyat, obro‘-e’tibor berishni amalga oshiradi. Internet muhiti zamonaviy insonning sotsializatsiyasidagi eng muhim megafaktorlardan biriga aylanadi va kibersotsializatsiya ko‘rinishida sotsializatsiyaning eng muhim zamonaviy turlaridan biri sifatida qaraladi. Biroq, internet ijtimoiylashuvi bahsli va tortishuvlarga ega jarayon.

Muammoning o‘rganilishi. Shaxsning hissiy ichki dunyosini o‘rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Ma’lumotlarni tahlil qilishning ushbu subyektiv paradigmasida amalga oshirilgan tadqiqot yondashuvlaridan biri (Shmelev A.G., 1996) bo‘lib, unda mavzu ko‘p o‘lchovli makonda ko‘plab parametrlar dunyosiga chuqurroq kirib borish va individual o‘ziga xoslik bilan tavsiflanadi. Psixologlarning tadqiqotlari ko‘pincha “asosiy” his-tuyg‘ular sonini o‘rganish (K. Izard, 2000) yoki hissiyotlar va his-tuyg‘ularning barcha xilma-xilligini tasvirlash uchun mo‘ljallangan ikki yoki uch o‘lchovni aniqlash bilan cheklanadi, Berezina T.N., 1999; Vasilyuk F.E., 1984; Leontiev A.A., 1999; Nartova-Bochaver S.K., 2003; Nizovskix N.A., 2005; Shmelev A.G., dunyodagi inson mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlari, insonning o‘ziga xosligi, yaxlitligi va qadriyatining tabiati va ichki qonuniyatlari haqidagi savollarga qaratilgan gumanistik paradigmalar. Bunday muammolar gumanitar bilimlarning turli sohalarini sintez qilishda, falsafa,


psixologiya, semiotika, sotsiologiya kabi fanlar metodlarining o‘zaro kirib borishida o‘z yechimini topadi.

Tuyg‘ular - mualliflarning fikricha, ongsizlikni tarjima qilish mexanizmlaridan biri rolini o‘ynaydi. Zamonaviy g‘oyalarga ko‘ra (Artemyeva E. Yu., 1980; Shingarov G.N.,1971; Leontiev D. A., 1999) his-tuyg‘ular shaxs hayoti ma’nolarining, semantik shakllanishlarning asosini tashkil qiladi va ularni anglash faqat ma’no shaklida mumkin, ya’ni intellektual og‘zaki natijali tadbirlarida. His-tuyg‘ular shaxsning hissiy va shaxsiy xususiyatlar bilan muhim aloqalari mavjudki, bu - hissiyot va shaxsiy individual xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. His-tuyg‘ular shaxsda turli xildagi holatlarni keltirib chiqaradigan individual xususiyat hisoblanadi. Ayni mavzu doirasida shaxsning virtual olamdagi o‘z o‘rnini egallashida buni aynan ko‘rishimiz mumkin.

Virtual olamda vaqtni ko‘p sarflash internetga qaramlikni va xulq-atvor buzuqligini keltirib chiqaradi. Tadqiqotchilarning bergan axborotlariga binoan internetga qaramlik tibbiy jihatdan aniqlangan ruhiy kasallik emas (DSM-5 Diagnostic and Statistical Manual-5[1] va ICD-10 International Classification of Diseases[2]), ammo ICD-11 (2019-yil may) video o‘yinlarga qaramlik va onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikni ruhiy kasalliklar deb, tan olganligini o‘z ichiga oladi. Psixolog olimlarning tadqiqotlari va shifokorlar subyektning kompyuterda vaqt o‘tkazishini g‘ayritabiiy holat bilan va shaxsning hissiy tomonlari bilan bevosita va bilvosita bog‘liqligini tan olishadi, bu shaxsning juda xarakterli ruhiy va jismoniy alomatlarida yaqqol ko‘zga tashlanishini ta’kidlashadi [1, 2].

Aslini olganda, tibbiy ma’lumotlarda qaramlik (giyohvandlik) tolerantlikning kuchayishi va aniq fiziologik va psixologik alomatlar bilan birga keladigan odatiy moddadan foydalanishga bo‘lgan xulq-atvor buzilishi sifatida tavsiflanadi. Virtual olamdagi tolerantlikning o‘sishi tobora ko‘proq vaqt sarflab internetga qaramlikni va unga ko‘nikishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni anglatadi [3]. Shuningdek, psixologiyada biror faoliyatga qaramlik, inson tomonidan sezilarli darajadagi, shu faoliyatga ko‘chadigan obsesif ehtiyoj sifatida tavsiflanadi. Psixologik tomondan bu psixikadagi chuqur sifatiy va miqdoriy buzilishlarga sabab bo‘lsa ajab emas.

Ammo, internetning shaxsning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’siri ham qayd etilgan bo‘lib, buni Amerikalik tadqiqotchilar internetdan foydalangan abonentlar orasida olib borgan tadqiqotlari isbotlab beradi. Virtual muhit abonentlarga, qaror qabul qilish va murakkab fikrlash uchun mas’ul bo‘lgan miya markazlarini ish faoliyatini kuchaytirish orqali o‘rta va keksa odamlarda miya faoliyatini yaxshilashini aniqladilar. American Journal of Geriatrik Psixiatriya jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko‘ra, internetdan foydalanish xotira, til, o‘qish va ko‘rishni boshqaradigan miya markazlarini faollashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, Internetda qidiruv paytida, zarur ma’lumotlarni olish uchun taklif qilingan havolalardan qaysi birini tanlash kerakligini hal qilish zarurati tufayli murakkab fikrlash va qaror qabul qilish uchun mas’ul bo‘lgan miya markazlari faollashadi (kitoblarni o‘qiyotganda, tegishli miyaning bunday faollashishi hududlar sodir bo‘lmaydi) [4].



[1] Diagnostic and Statistical Manual-5- Diagnostika va statistik qo‘llanma-5
[2] International Classification of Diseases -Kasalliklarning xalqaro tasnifi

1-rasm. Intenrnetga qaramlik. I.M.Drepa ma'lumotlariga asosan.

Hozirgi rivojlanib kelayotgan virtual dunyoning qiziquvchilari soni soniyama-soniya oshib kelmoqda, buning dalili sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltirb o'tsak bo'ladi, dunyo bo'ylab internetga tobe bo'lib kelayotgan o'smirlarning soni statistik ma'lumotlarga ko'ra ko'payib kelmoqda [5]. Rossiya olimlarining o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra (2021), rus o'smirlari orasida internetga qaramlikning tarqalishi barcha abonentlarga nisbatan 7,1-10,4% ni tashkil qiladi [2]. Psixolog tadqiqotchilarning yangilangan ma'lumotlariga ko'ra (2022-yil), rus shahar o'smirlari orasida umumiy internetga qaramlikning tarqalishi (Chen Internetga qaramlik shkalasi, CIAS so'rovnomasi ishlatilgan) 7,2% ni tashkil qiladi; kompyuter o'yinlariga qaramlikning tarqalishi 10,4% ni tashkil qiladi (o'smirlar uchun o'yinga qaramlik shkalasi, GASA so'rovnomasi ishlatilgan); ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning tarqalishi 8,0% (Ijtimoiy Media Disorder Scale, SMDS anketasi yordamida) tashkil qiladi (Sergey Tereshchenko, Edward Kasparov, Nadezhda Semenova, Margarita Shubina, Nina Gorbacheva). Bu jarayonda internetga qaramlik virtual muhitga tobelik tushunchalarining kelib chiqsh sabablarini ham bilish zarur. Internetga qaramlikning tasnifi, sabablari va belgilari quyidagi berilgan diagrammada yaqqol tasvirlangan (1-diagramma), ma'lumotlar psixolog tadqiqotchi olim Drepa M. I. ma'lumotlariga asosan tayyorlangan, olimning qarashlariga ko`ra internetga qaramlikning asosiy 6 ta turdan iborat ekanligi ma'lum, rasm quyida berilgan [1].

Xulosa: So'nggi yillarda Internetga qaramlikni shakllantirishning neyrobiologik mexanizmlari faol muhokama qilinmoqda. Rossiya o'smirlarida Internetga qaramlikning tungi uyqu parametrlariga va kunduzgi uyquchanlikning og'irligiga sezilarli salbiy ta'siri isbotlangan. Bundan kelib chiqadiki, internet olami yoki virtual muhit shaxsning biosotsial va biz salbiy ko'rinishda namoyon bo'lgan konstruktiv va buzg'unchi sotsializatsiya haqida gapirishimiz mumkin. Buni faol qaramlik, kompulsiv (obsesif) virtual xatti-harakatlar, tanqidiy aks ettirmasdan internet ma'lumotlarini fetishizatsiya qilish sifatida qaraladi. Shuning uchun, ijtimoiy maqomlarga qo'yiladigan yangi talablar to'plami paydo bo'ladi, kundalik hayotda yoki kasbiy faoliyatda internet resurslaridan kundalik foydalanish, doimiy OAVlari bilan muloqotga kirishish, oqibatda sherik(lar)ga nisbatan tanlanganlik xatti-harakatlar normasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Kompyuterga qaramlik nima va uning sabablari nima?" 2015 -yil 23-sentabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015 yil 14.

2. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Majidov, N., Abdullayev, B., & Nigmatullina, L. (2020). Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games. International journal of psychosocial rehabilitation, 24(2), 319-324.

3. Rakhimova, I. I., Berdikulova, G. N., Axmedova, Z. J., & Sayitova, U. H. (2022). Positive aspects of the communicative psychological effect of social networks on the individual. Asian Journal Of Research In Social Sciences And Humanities, 12(1), 349-353.

4. Рахимова, И. И. (2013). Философский подход в отношении "человек-компьютер". Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (10-2), 294-296.

5. Рахимова, И. И. (2016). Экспериментальное выявление психологической особенности проявления зависимости от компьютерной игры испытуемых младшего школьного возраста. Проблемы современного образования, (4), 74-79.

6. Рахимова, И. И., & Сайитова, У. Х. (2020). Психологическое положительное влияние компьютерных игр на детей студенческого возраста. In European Scientific Conference (pp. 248-250).

7. Сафаев, Н. С., & Рахимова, И. И. (2018). Зависимость от компьютерных игр в юношеском возрасте. In Человек в условиях социальных изменений (pp. 115-117).

Raxmatullayev Farxod Baxtiyor o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi

QADRIYAT FENOMENI VA UNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqola qadriyat fenomeni va uning shaxs shakllanishidagi o‘rni mavzusiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, maqolada qadriyat tushunchasining mohiyati, muammoga oid tadqiqotlar, shaxs ijtimoiylashuvi va qadriyatlar, qadriyatlarning falsafiy, pedagogik, psixologik tavsifi kabi masalalar ham ilmiy manbalar asosida keng tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qadriyat, shaxs, psixologiya, pedagogika, falsafa, axloq, qoida, jamiyat, millat, xalq, ijtimoiy jarayon, ijtimoiylashuv, maqsad, ideal.*

ЯВЛЕНИЕ ЦЕННОСТИ И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Статья посвящена феномену ценности и ее роли в формировании личности. Кроме того, в статье исследуется сущность концепции ценности, исследуются проблемы социализации личности и ценностей, философское, педагогическое, психологическое описание ценностей на основе научных источников.*

Ключевые слова: *Ценность, личность, психология, педагогика, философия, этика, правило, общество, нация, люди, социальный процесс, социализация, цель, идеал.*

THE PHENOMENON OF VALUE AND ITS ROLE IN PERSONAL FORMATION

Annotation. *The article is devoted to the phenomenon of value and its role in the formation of personality. In addition, the article explores the essence of the concept of value, examines the problems of socialization of personality and values, philosophical, pedagogical, psychological description of values based on scientific sources.*

Key words: *Value, personality, psychology, pedagogy, philosophy, ethics, rule, society, nation, people, social process, socialization, goal, ideal.*

Kirish. Hozir kunga qadar, “qadriyat” tushunchasining gumanitar fanlardagi ta’rifi ko‘p jihatdan paradokslidir. U o‘zining aniq bir belgilangan o‘rniga ega emas. Psixologlar qadriyatning o‘zi nimaligi va bu tushuncha umuman olganda psixologiya faniga kiritilishi kerakmi yoki yo‘qligi yuzasidan paydo bo‘lgan muammoni hal qilishda hozirgacha bir kelishuvga kelishgani yo‘q.Ammo falsafa va aksiologiya fanlarida qadriyatlar tushunchasiga birmuncha keng va batafsil izoh berilganligining guvohi bo‘lamiz.

Qadriyat tushunchasi mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari bilan bog‘liq muammolarning o‘rganilishi va tahlili uzoq tarixga ega bo‘lmasada kishilar qadim zamonlardayoq o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi voqea va hodisalar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to‘g‘risida fikr yuritganlar. Zamonlar o‘tishi jamiyat rivoji davomida bu boradagi muuammolar ko‘paya borgan va ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan. Qadriyatlar mavzusi xuddi bugungi kundagidek bir qator dunyoqarashlarning asosida yotib, ularning markaziy qismini tashkil qilgan. Qadimdan inson qadr-qimmati to‘g‘risida fikr yuritilgan va beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Qadriyatlar – voqe’likdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy - ma’naviy boyliklar, an’analar, urf - odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi[1]

Qadriyatlar axloqiy qoida va me’yorlar, ideallar, maqsadlardagi baholash mezoni usullarini ham o‘zida aks ettiradi. Ular halollik, poklik, o‘zaro yordam, adolatlilik, haqiqatgo‘ylik,

ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar; burch, vijdon, or-nomus, ma'suliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatlarga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu soha nuqtai nazaridan ta'rif berishga intilishgan. Qadriyat kategoriyasi aksikologiyaga xos kategoriyadir. Kadriyatlar aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilinganda uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyatlar atamasi faqat buyum va narsalarning emas, jamiyat va inson uchun biror bir ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, hodisalar talablar, tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan yurtni yov bosganda ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida istiqlol, urush davrida tinchlik, tutqunlikda erkinlik, kasal yoki bemorlikda sihat salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot maxsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmui sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar ijtimoiy guruhlar faoliyati xatti-harakatlarini ma'lum yo'nalishlarga buradigan, tegishli meyorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi .

O'tmishdagi barcha falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berilib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning mahsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqotchilar qadriyatlar va ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga ontologik, gnosologik, evristik va dunyoqarashlik nuqtai nazaridan yondashib, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'z davri talablari va imkoniyatlari darajasida ochib, uni inson kamolotining kelajagi uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy mahsulidir deb qaraydilar .

Insonning obyektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyati moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotning imkoniyatlari ham kengayadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa, o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.

Qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy omilidir. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadriyatlarning ko'pligi, mazmuni ularni aniqlash va ularga amal qilish, e'tiqod qilish insonning bilish qobiliyati va amaliy imkoniyatlari takomillashib, chuqurlashib, kengayib borayotganligini ifodalaydi.

Qadriyatlarda ular yuzaga kelgan davrning ruhi, imkoniyatlari, talab va ehtiyojlari o'zining yaqqol davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida davrlar o'tishi, sharoit va imkoniyatlar o'zgarib turishi ham qadriyatlarning mazmunida, ularga munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining omili bo'lishi bilan birga kishilarniing moddiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlarning obyektiv zaminidir. Qadriyatlar ijtimoiy, moddiy, ma'naviy hodisa bo'lsada, ammo ularning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga bo'lgan munosabati asosida belgilanadi.

Qadriyatlar mavzusining talqinlida Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demokrit, J.J.Russo, A.Sen Simon, Sh.Furye, R.Ouen, I.Kant, M.Sheller, N.Gartman, V.Vindelband, G.Rikkert, U.Jeyms, J.Dyui, P.Sorokin, T.Parsons va boshqalarning xizmatlari nihoyatda kattadir

Ammo qadriyatlar mavzusi ko'hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham begona emas. Xorazmiy, Farobiy. Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al Buxoriy, at Termiziy, Yassaviy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy,

Mashrab, Bedil, Mahtumquli, Abay, Behbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida bu mavzuning izlari bor . Ma'naviy me'rosimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spitamen, Alpomish va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. Ushbu rivoyat va dostonlarda olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi,mazmuni,maqsadi hamda botirlik, xokisorlik,oqillik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar. Qadriyatlar, ularning asosiy shakllari va xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish xozirgi kunda yurtimizda eng dolzarb masalardan biriga aylandi. Jumladan mamlakatimiz rahbari I.A.Karimovning asarlarida ham asosiy e'tibor umuminsoniy, milliy qadriyatlarga qaratilgan. Ana shu zarurat va zamonaviy talablarga xozirjavoblik hissi bu boradgi kitob va risolalar yozilishiga, tadqiqot va izlanishlar olib borilishiga ssabab bo'lmoqda. Hozirgi davrda ijod qilayotgan olim va faylasuflarning asarlarida qadriyatlarning turli qirralariga e'tibor berilmoqda.

G'arb mamlakatlarida ham qadriyatlar masalalari bilan shug'ullanuvchi xilma xil ilmiy yo'nalishlar mavjud. G'arb qadriyatshunosligida mashhur nemis faylasufi I.Kantning izdoshlari V.Vinddelband, G.Rikkert, M.Sheller, N.Gartman, G.Elzenberg va boshqalarning qarashlari keng tarqalgan. Ushbu olmlar reallikdan alohida yashashi mumkin bo'lgan qadriyatlar olami borligini e'tirof etadilar .

Nemis olimlari V.Vinddelband va G.Rikkert qadriyatlar muammosi borasida qariyib bir xil mulohaza yuritganlar va ularning ularning qarashlari haqli ravishda Vinddelband Rikkert aksiologik ta'limoti, deyiladi. Bu olimlarning fikricha, qadriyatlar o'ziga xos ideal ahamiyat sifatida zohir bo'ladi, obyektdan ham, subyektdan ham alohida mustaqil olamni vujudga keltiradi, bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Ana shu ma'noda qadriyatlar olamdagi mavjud narsalardan ko'ra bir qadar ulug' zohiriylik va mutlaq haqiqatlardir.

Qadriyatlar muammosiga obyektiv nuqtai nazardan yondashgan olimlar orasida YE.I.Golovaxa va N.Gartmanni ham tilga olmoq kerak. M.Sheller G'arb qadriyatshunosligining va undagi "O'zgarmas axloqiy qadriyatlar" nomli nazariyaning asoschisi hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra qadriyatlar mustaqil yashashlari mumkin, ular o'zgarmaydilar, balki bizning qadriyatlar haqidagi fikrimiz o'zgaradi, bugun olam qadriyatlar bilan to'yingandir, qadriyatlarning mavjudligi borliqqa ma'no baxsh etadi, voqelik qadriyatlarning "o'ziga xos namoyishidan" iborat.

G'arb qadriyatshunosligida subyektiv jihatlariga ko'proq e'tibor beradigan tadqiqotchilar ham bor. Ular qadriyatlarning vujudga kelishini inson, uning sifatlari va faoliyati bilan bog'laydi. Bu oqimga xos qarashlar mashhur so'fizm ta'limotiga borib taqaladi. Uni U.Jeyms, J.Dyui, A.Meynong, A.Bergson kabi ko'zga ko'ringan namoyondalari bor. Bu yo'nalish borasida D.Perri, G.Murrey, E.Tolmen, E.From, R.Uilyams kabi olimlar va tadqiqotchilar ish olib borganlar. Ularning g'oyalari G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan. Masalan, XX asrning boshlarida U.Jeyms qarashlari, keyinchalik Jon Dyui g'oyalari keng yoyilgan va G'arb madaniyatining barcha sohalariga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

G'arb olimlari orasida V.Diltey, X.Erenfels, O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokinlarni alohida takidlash lozim. Bu olimlar nazarida qadriyatlarni mavhum emas, balki aniq tahlil qilmoq kerak. Ana shunda ularning kelib chiqishi, mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini aniqlash oson bo'ladi. Bu diqqatga sazovor fikr bo'lib, undan hozirgi zamon tadqiqotchilari ijodiy foydalanmoqdalar.

"Qadriyat" tushunchasining gumanitar fanlardagi ta'rifi ko'p jihatdan paradokslidir . U o'zining aniq bir belgilangan o'rniga ega emas. Psixologlar qadriyatning o'zi nimaligi va bu tushuncha umuman olganda psixologiya faniga kiritilishi kerakmi yoki yo'qligi yuzasidan paydo bo'lgan muammoni hal qilishda hozirgacha bir kelishuvga kelishgani yo'q.Sobiq sovet psixologiyasida qadriyatli oriyentatsiyalar, odatda, munosabat, aks ettirish, ustanovka tushunchalari orqali (A.G. Zdravomislov, D.N.Uznadze, V.V.Suslenko, V.A.Yadov) ta'riflanadi . Shuningdek qadriyatli oriyentatsiyalar asosiy shaxslilik tuzilmalaridan biri hisoblangan holda yanada kengroq sintetik tushuncha bo'lgan shaxs yo'nalganligining tarkibidan o'rin olgan bo'ladi. Bu tushuncha esa

o‘z o‘rnida har qanday sharoitda namoyon bo‘la oladigan dominant bo‘la oladigan qadriyatli oriyentatsiyalar va ustanovkalarni (B.YE.Ananyev, L.E.Probst, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) o‘zida mujassamlashtirgandir.

Qadriyatlar tushunchasi insonning olamga munosabatini ham intellektual, ham affektiv (keng ma’nodagi) tomonlarini tushuntirayotganda qo‘llaniladi. Qadriyat xuddiki, bir inson va uni o‘rab turgan olam o‘rtasida taqsimlangan, u faqatgina ular munosabatida mavjud bo‘ladi. Shaxsning qadriyatlari jamiyat qadriyatlarining konkretlashgani hisoblanadi. Konkretlashganlik tushunchasi ostida qadriyatli munosabatlar mavjudligining kamroq abstrakt shakli tushuniladi.

Qadriyatli oriyentatsiyalarning vaziyatdan tashqarilikni va umumlashganlikni aks ettiruvchi ta’rifni taklif etadi. Qadriyatli oriyentatsiyalar – shaxsning qadriyatli munosabatlarining keng tizimi, shuning uchun ham ular ham alohida predmet va hodisalarga, ham ularning jamlanmasiga ko‘ngildagiday munosabat sifatida namoyon bo‘lishadi, ya’ni individning u yoki bu ko‘rinishdagi ijtimoiy qadriyatlarga umumiy yo‘nalganligini aks ettirishadi.

A.V.Bituyeva va T.V.Kornilova fikrlariga ko‘ra, o‘zaro munosabat natijasida subyekt o‘z yo‘lini aniqlab olgan shaxslilik maqsadlarigina (ya’ni bu maqsadlarni shaxsiy “Men” uchun ahamiyatli deb qabul qilinishi yuz bergandagina) shaxslilik qadriyatlari bo‘la oladi. Shu tariqa, shaxslilik qadriyatlari shaxsning maqsadli tuzilmalari rivojlanishining ma’lum bir darajasi sifatida funksionallashadi.

Ijtimoiy psixologiyada qadriyatlar muammosi individning ijtimoiylashuvi, uning guruhiy norma va talablarga moslashuvini tadqiq etish doirasida ko‘rib chiqiladi. Qadriyatlar u yoki bu voqea-hodisalarni aniq baxolash uchun qandaydir “sanoq boshi” ga ega bo‘lishda insonga kerak bo‘ladigan abstrakt maqsadlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Qadriyatlar shaxs va guruhning ijtimoiy xulq-atvorining regulyatorlari sifatida namoyon bo‘lishadi. Ijtimoiy psixologiyada qadriyatlarning tushunilishi ustanovka muammosi (ustanovka – faoliyat sharoitlarining aniq bir idrok etilishiga va aniq bir xulq-atvorga moyillik) bilan chambarchas bog‘liq.

D.A.Leontyev nuqtai nazariga ko‘ra, qadriyatlar tushunchasi motivatsiya strukturasiga taalluqlidir. Qadriyatlar inson uchun nima ahamiyatli-yu, nima qadrli emasligini va nima aynan shundayligini, u yoki bu obyekt yoki hodisaning uning hayotida qanday o‘rin egallaganligini va ulardan qaysilari insonning ehtiyojlari va shaxslilik qadriyatlari hisoblanishini aniqlovchi maqsadlarning manbai hisoblanadi. Motivatsiya strukturasidagi funksional o‘rni va roli bo‘yicha shaxslilik qadriyatlari yetarlicha ochiq-oydin tarzda barqaror motivatsion tuzilmalar yoki motivatsiyalar manbai sinfiga taalluqli bo‘lishadi. Ularning motivlashtiruvchi ta’siri aniq bir faoliyat, aniq bir vaziyat bilan chegaralanib qolmaydi, ular insonning hayot faoliyati bilan umumiy holatda o‘zaro munosabatda bo‘lishadi va stabillikning yuqori darajasiga ega bo‘lishadi; qadriyatlar tizimidagi o‘zgarish shaxs hayotida favquloddagi, inqirozli hodisalarga sabab bo‘lishi mumkin. Qadriyatni baholash mumkin bo‘lgan (zaruriyat, ahamiyatlilik, ehtiyoj, ahloqiylik va shu kabilar) hamda boshqalar baholaydigan holatlar sifatida ta’rif beradi. Shunga tayangan holda ularga nisbatan munosabatda ikkita nuqtai nazarni ajratadi:

- Qachon qadriyatni bahodan ajratishmasa, va shunda qadriyat “ichki” (subyektiv) shkala sifatida namoyon bo‘ladi;

- Qachon qadriyatni olamda obyektiv tarzda, “tashqarida” mavjud bo‘ladigan sifatida ko‘rib chiqiladi.

Xulosa. Qadriyatlarni statuslik kriteriyasi yordamida ikki ko‘rinishga ajratish mumkin: haqiqiy (faktik) va tan olinadiganlar. Tan olinadigan qadriyatlar – bu insonlar, jamiyat yoki butun insoniyatning o‘zi tomonidan qadriyatlar “darajasiga ko‘tarib qo‘yiladigan” predmetlar va hodisalardir. Bunday qadriyatlar insonning o‘z xulq-atvorini shakllantirishida oriyentirlar funksiyasini bajarishadi. Faqatgina tan olingan qadriyat xulq-atvor motivi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda motiv tushunchasi ostida shunday qadriyatni tushunish kerakki, unga nisbatan munosabatda faoliyat shu qadriyatning tan olinishiga yoki uni o‘zlashtirib olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Olimov L.Y., Mahmudova Z.M. Shaxs shakllanishida stereoiotiplar, ijtimoiy ustanovkalarning ijtimoiy psixologik ahamiyati. “XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari”ni o‘rganishga bag‘ishlangan. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T.– 20012. – B.72.

2. Карандашев В. Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности: концепция и методическое руководство. С-Пб: ООО Издательство «Речь», 2004.– С. 112.

3. Головаха Е.И. Жизненная перспектива и ценностные ориентации личности // Психология личности в трудах отечественных психологов / Сост. и общая редакция Л.В. Куликова. – СПб.: Питер, 2001. С. 256-269.

4. Битуева А.В. особенности структурного строения ценностных ориентаций // CREDO, Теоретический журнал. – 2000. - №21. - С.40-51

5. Леонтьев Д.А. Психология личности: Теория и практика. М.: Смысль. 2004.- С.125.

Ruxiyeva Xolida
O‘zbekiston Milliy Universiteti professori
Muxtorova Madina Azamatovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

KORRUPSIYA- INSON HUQUQLARINI PAYMOL ETUVCHI HAMDA IJTIMOIY TARTIBNI BUZUVCHI ILLAT SIFATIDA

Annotatsiya. Quyidagi maqolada zamonaviy masalalar ya’ni, globallashayotgan sharoitdagi muhim muammolardan biri hisoblangan korrupsiya deviant xulq-atvor shakli sifatida qaralib, uning yoshlar kamolotiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Olingan tadqiqot natijalari orqali korrupsiyaga yosh avlodning munosabati va uni bartaraf etishda nafaqat xuquqiy, balki ijtimoiy-psixologik omillarni e’tiborga olish lozimligi haqidagi g‘oyalar aks etgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ijtimoiylashuv, deviantlik, delinkvent hulq-atvor, interpretatsiya, kompetensiya, psixologik omillar.

КОРРУПЦИЯ КАК ПОРОК, НАРУШАЮЩИЙ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА И НАРУШАЮЩИЙ ОБЩЕСТВЕННЫЙ ПОРЯДОК

Аннотация. В статье рассматривается коррупция как форма девиантного поведения, которая является одной из важнейших проблем в современных условиях глобализации, и обсуждается ее влияние на развитие молодежи. Результаты исследования отражают отношение подрастающего поколения к коррупции и необходимость учета не только правовых, но и социально-психологических факторов при ее устранении.

***Ключевые слова*:** коррупция, социализация, девиация, делинквентное поведения, интерпретация, компетенция, психологические факторы.

CORRUPTION AS AN INFECT THAT VIOLATES HUMAN RIGHTS AND VIOLATES PUBLIC ORDER

Annotation. The article considers corruption as a form of deviant behavior, which is one of the most important problems in the current context of globalization, and discusses its impact on the development of young people. The results of the study reflect the attitude of the younger generation to corruption and the need to take into account not only legal but also socio-psychological factors in its elimination.

***Keywords*:** corruption, socialization, deviation, psychological factors.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda har bir yigit-qizning jamiyatda o‘z o‘rnini munosib egallashi va o‘z intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda Yoshlar parlamenti,Yoshlar bilan ishlash, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko‘rsatmoqda

Shu bois, inson huquqlari sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatildi. Inson huquqlari yuzasidan Milliy strategiya qabul qilindi.

Bizga ma’lumki, jahonda taraqqiyot kushandasi bo‘lmish illat - korrupsiyaga qarshi mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada muhim qonun hujjatlari qabul qilinib, mustaqil tuzilma - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, ularga psixologik yordam ko‘rsatish algoritmini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. “Yangi O‘zbekiston”- Yangicha dunyoqarashning kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lib, so‘zimizning amaliy isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi: «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan

marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar».

Shu bois, O‘zbekistonimizdagi mavjud ma’naviy meyorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosidagi global ijtimoiy o‘zgaruvchanlikning o‘sib borishi muhtojlik, jinoyatchilik, korrupsiya, millatlar o‘rtasidagi nizolar, ishsizlik, kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish jaizki, ushbu ijtimoiy muammolarni jamiyatdagi o‘zgarishlarning salbiy oqibatlari deyish mumkin. Chunki, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va taxlikali vaziyatda amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda fan-texnika, innovatsiya taraqqiyoti tez sur’atlar bilan amalga oshayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik munosabatlar globallashayotgan va intensivlashayotgan xozirgi davrda yuksak ma’naviyatli komil insonni tarbiyalash masalasi umum insoniyat, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini belgilaydigan psixologik omilga aylandi.

Shuning uchun, bugungi kunda, psixologik xizmat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga yo‘naltirilgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat turi sifatida o‘zini namoyon etib kelmoqda. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonini shakllantirish va shu soha bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilim va malaka, ko‘nikmasi hamda kompetensiyalariga egalik qilishlarini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda kundan kunga turli deviant va delinkvent xulq-atvor namunalari yuzaga kela boshladi. Buning oqibatida, jamiyatda ma’naviy muhitning ta’sirini kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, shaxs ijtimoiylashuvining tizimli amalga oshishiga yordam beradi. Hozirda, mavjud ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi degan umiddamiz.

Shuning uchun ham korrupsiyaning deviant xulq-atvor shakli sfatida yoshlar kamolatiga ta’siri masalasiga diqqatimizni yo‘naltirishimiz bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Zero, deviant xulqning turlaridan biri “korrupsiya” tushunchasi lotincha «corruptio» so‘zidan olingan bo‘lib, “buzmoq”, “yemirmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Turli lug‘atlarda «korrupsiya» iborasi quyidagi shakllarda talqin etiladi:

• korrupsiya — pora evaziga sotib olish, siyosiy arboblar va mansabdor shaxslarning sotqinligi, o‘z kasbiga, burchiga sodiq qolmasligi;

• korrupsiya — shaxsiy boylik orttirish maqsadida xizmat vazifasi, u bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va imkoniyatlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, uyat-andishasizlik va shavqatsizlik tarzida foydalanish hamda mansabdor shaxslarning sotqinligi.

Hozirgi davrda har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish tarixida chuqur ildiz otgan korrupsiya quyidagi chora-tadbirlar vositasida kamaytirish tajribalari shakllandi:

- byurokratik apparatni kamaytirish, uning professionalligi, umumiy madaniyati va kasbiy etikasi darajalarini oshirish;

- boshqaruv qarorlari va rasmiyatchilikni qisqartirish yo‘li bilan byurokratik o‘zboshimchalikni cheklash, fuqarolarni qabul qilishning «bir oyna» amaliyotini qo‘llash;

- davlat boshqaruv organlarining biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash;

- fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar ijtimoiy faolligini rivojlantirish;

- ta’qiqlovchi meyorlar hajmini qisqartirish (ta’qiqlar va reglamentlashtirish qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik mansabdor shaxslarga pora berish zaruriyati ortadi) va boshqalar.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali qonun ustuvorligini ta'minlash bugungi kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.


Shu bois, yoshlar davlatimiz kelajagi ekan, ularni raqobatbardosh, yetuk mutaxassis kadrlar etib tayyorlash davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda milliy taraqqiyotimizga g'ov bo'layotgan illat bo'lmish korrupsiyani oldini olish, uni bartaraf etish bo'yicha samarali ishlar olib borilayotgani hech kimga sir emas.

Shu tariqa, biz tomonimizdan olib borilgan korrupsiya borasidagi yosh avlodning, shu jumladan o'qituvchi-murabbiylarning fikrlarini aniqlashga yo'naltirilgan so'rovnomamizning empirik natijalarini amaliy hayotga tatbiq etish orqali bu hodisaning oldini olish imkoni vujudga kelishida yordam beradi degan umiddamiz.

Biz retsipiyentlarga shaxsning korrupsiya muammosiga munosabatini o'rganish bo'yicha ijtimoiy-psixologik so'rovnoma savollariga javob berishni taklif etdik.


Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

O‘zini-o‘zi anglash masalasi dolzarb bo‘lib, insonning borliqqa bo‘lgan munosabati, ongi, o‘zini anglashining ijtimoiy, falsafiy asoslari psixologiyadan tashqari sotsiologiya, falsafa fanlarida ham o‘rganiladi. Biz dissertatsiya maqsadlaridan kelib chiqib, uning ijtimoiy borliqqa aloqador xususiyatlari o‘rganilgan ayrim tadqiqotlarga e’tiborni qaratamiz. Psixologiya nuqtai nazaridan – ong insongagina xos bo‘lgan ruhiy aks ettirishning oliy darajasidir. U faolligi, intiluvchanligi, refleksivligi, motivasion-qimmatli xarakteri va aniqlik darajasi bilan tavsiflanadi, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyat ongning tarkibini shakllantiruvchi interiorizatsiya jarayoni tufayli ontogenezning dastlabki bosqichlarida shakllanuvchi, beto‘xtov o‘zgarib turuvchi sensor axborot oqimiga (I.Kantga borib taqaluvchi g‘oya) quyiluvchi barqaror va invariant sxema yoki tuzilmalarni tashkil qiladi. Shu tariqa uning ichki nutqi, predmetlar bilan o‘zaro aloqasi va belgili tuzilmalar vositasida ifodalanuvchi ijtimoiylik xususiyatlari kabi asosiy xislatlari bilan belgilanadi.

B.G.Ananyev insonning shaxs sifatida tizimli rivojlanishini to‘rt xil – individ, individual, sub’ekt va obyekt tavsifnomalariga taqsimlagan. Bunda insonning shaxs sifatida shakllanishi individuatsiya, individualizatsiya, subyektivatsiya va obyektivatsiyadan iborat, ularning mahsuli va shartlari esa shaxsdagi temperament, xarakter, motivatsiya va qobiliyatlarda namoyon bo‘ladi. Bu tuzilmalarning birgalikda mavjud bo‘lishi shaxs shakllanishi jarayonining xususiyatlarini, ulardan birontasining ustunlik qilishi esa – shaxsning yo‘nalganlik xususiyatlarini belgilab beradi. Biznigcha ushbu to‘rt tavsifdan ham yuqori turuvchi komillik darajasi mavjudki uning sharti shaxsning individual xususiyatlarining ixtiyoriyligi bilan bog‘liqdir. Ta’kidlab o‘tamizki, ong o‘zini anglash jabhalari tizimida insonning shaxs sifatida rivojlanish jarayonini tushunish uchun ba’zida o‘zini-o‘zi anglashni ifodalovchi internallik va ongni ifodalovchi eksternallikdan foydalanish mumkin, bunda ularning birinchisi tashqaridan ichkariga, ya’ni tashqi ijtimoiy muhitdan ichki ruhiyatga yo‘nalgan bo‘lsa, ikkinchisi tashqariga qaragan bo‘ladi. Internallik insonning ko‘ngilli ravishda o‘zi va jamiyat oldiga qo‘yuvchi mas’uliyatini, eksternallik esa uning ijtimoiylashuv, ijtimoiy borliqqa qo‘shilish jarayonlarini aks ettiradi. Bunda internal o‘zini-o‘zi anglash his-tuyg‘ular bilan birgalikda tashqi madaniyat ta’siri ostida shakllanadi, eksternal ong faolligi esa nutq va ehtiyoj shakllarida namoyon bo‘luvchi ekstravertlikda ifodalanadi.

Shunday qilib, insonning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘zini bilib olishi murakkab muammolardan biri bo‘lib, ilk bora Suqrot tomonidan faqat shaxs ichki dunyosini bilish tamoyili nuqtai nazaridan o‘rganilgan edi. Shaxsning ongli hayotida o‘zini-o‘zi anglashining ahamiyati shundaki, ushbu fenomen odamni amaliy faoliyatga kirishishdan oldin “o‘zingni boshqarishni o‘rganish uchun o‘zingni bilib olishing lozim” degan tamoyil asosida yashashga o‘rgatadi. R. Dekart ong tushunchasini tashqi dunyoni emas, faqat o‘zinigina aks ettirishga qodir dunyo sifatida ta’riflab, o‘zini bilib olish, ya’ni o‘zini anglash tushunchasini kiritdi. O‘zini-o‘zi anglash o‘sha paytda atrof-muhitdan ajralib, o‘zini izolyatsiyalagan holda o‘zini-o‘zi kuzatish (introspeksiya)ga teng hisoblangan. Keyinroq V. Vundt o‘zini anglashni his-tuyg‘u elementlaridan tarkib topuvchi va ong mazmunidan ajralib turuvchi ongning bir holati sifatida belgilagan. Ushbu muammolar ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning markazida turuvchi maasala sifatida qaaralaadi.

Shuningdek, Sharq mumtoz adabiyotida ham o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi tarbiyalash bilan komillik darajasiga erishish masalasiga jiddiy e’tibor berilgan. Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino: “O‘zimni qanchalik izlasam ham, hech topa olmadim”, – deb yozadi.

O‘rta asrlarda yashagan faylasuf, ilohiyotshunos olim Abu Homid G‘azzoliy “Kimiyoi saodat” (Ruh haqiqati) asarida bir necha boblarni o‘zini anglashning inson uchun ahamiyati haqida yozadi: “Hech narsa o‘zingga o‘zingdan yaqinroq ermas. O‘zingni tanimasang, o‘zgani nechuk tanig‘aysan?” Olim o‘zini tanish, anglash bilan, o‘z kamchiliklarini (nafsini) yo‘qotish komillik yo‘lidagi dastlabki bosqich deb biladi.

Sharq va G‘arb dunyosi tanigan faylasuf, shoir Jaloliddin Rumiyning ta’kidlashicha, “Zamonamiz olimlari (hamma narsani biladilar) o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq, bu – ularning menligi”, – deb yozishida chuqur ma’no mavjuddir.

G‘azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarida ramziy ma’nolarda – hamma narsa insonning o‘zida yashiringanligini, o‘zligini izlagan kishi uni topishi mumkinligi ta’kidlanadi. Allomalarimiz qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, shaxs o‘zini-o‘zi anglashi ilohiy mavjudlikning inikosi sifatidaa qaraladi.


O‘zini-o‘zi anglash muammosi Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlaridagi bosh g‘oyani tashkil etsa, Abdulla Qahhor, Oybek, Erkin Vohidov va boshqa zamonaviy adiblarning ijodlarida ham o‘zlikni anglash motivlarining ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Ularning har biri o‘z asarlarida insonning o‘z mohiyatiga kirib borish jarayonlari mexanizmini o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. Bu ilmiy ish va asarlardagi tushunchalarni jamlab umumlashtirgan holda biz o‘zini-o‘zi anglash tushunchasini ta’riflash va tavsiflashga harakat qilib ko‘ramiz.

Shunday qilib, o‘zini anglash individning o‘zini tashqi dunyodan ajratishi, unga bo‘lgan o‘z munosabatini anglashi, shaxs sifatida o‘zini, o‘z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari, istaklarini anglash va baholash jarayonidir. Shak-shubhasiz, o‘zini-o‘zi anglash ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uning yordamida inson, avvalo, o‘zligini anglaydi, uning ongida “Men” obrazi hamda “Men” konsepsiyasi, o‘zi haqidagi ijtimoiy tasavvurlari kompleksi shakllanadi. Jarayon va mahsulning bu tarzda farqlanishini bilib oluvchi “sof Men” va bilib olinadigan “empirik Men”ni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda albatta, ong emas inson, ong va o‘zini anglash egasi bo‘lgan obraz, tushuncha va tasavvur kabi ichki vositalar tizimi, jumladan, shaxsiy xislatlar, qobiliyatlar va motivlar haqidagi tasavvurlar tahlil etilgan.

Bizning o‘zligimiz va o‘zimiz haqidagi tasavvurlarimiz shakllanib, rivojlanib va o‘zgarib borishiga sabab bo‘luvchi o‘zini anglashning bevosita psixologik jarayonlari va mexanizmlari qanday? Bizning fikrimizcha, “Men” modellarining eng ishonchlisi M. Rozenberg tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu model “Men” tarkibiy qismlari, ularning strukturasi, o‘lchamlari, diqqatga sazovor jihatlari, o‘zlik sohasi, reja va darajalari, shuningdek, motiv va his-tuyg‘u impulslari kabi bir qator jihatlar tavsifini qamrab oladi. “Refleksiv Men” tarkibiy qismlarini tahlil birliklari yoki elementlari tashkil qiladi. O‘lchamlar ayrim tarkibiy qismlarni tavsiflaydi hamda barqarorlik, dadillik, o‘zini-o‘zi hurmat qilishni ta’minlaydi; o‘ziga bo‘lgan diqqat-e’tibor o‘zlikning ong tarkibidagi o‘rnini aniqlashga imkon beradi. O‘zlik sohasida uning soha va xususiyatlari nazarda tutiladi; o‘zlik rejalari ob’ektivlanganlik darajasini belgilab beradi, motivlar insonni o‘zi haqidagi tasavvurlari manfaatlarida harakat qilishga undaydi hamda o‘zini hurmat qilish va “Men” obrazidagi doimiyligiga intilishni qamrab oladi.

Shaxsning “Men” konsepsiyasi shakllanish bosqichlari va ontogenezda o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanish bosqichlariga doir psixologiyada mavjud bo‘lgan tasavvurlarni umumlashtirgan holda, xulosa tariqasida adabiyot materiallari asosida yaratilgan “Men” konsepsiyasining vertikal va gorizontal darajadagi tuzilmasini keltirib o‘tamiz: a) har bir bosqichda yetakchi bo‘lgan jarayonlar yo‘nalishi belgilanadi, b) har bir keyingi darajaga erishishning maqsad va usullari tavsiflanadi, v) uning belgilangan shakllanganlik darajasi yosh davrlari qayd etiladi, g) berilgan koordinatalar tizimida maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalikning o‘rni ajratib ko‘rsatiladi.

1-sxema “Men” konsepsiyasining ontogenezda vertikal darajada rivojlanishi



O‘zini-o‘zi baholash sinergiyasi “Men” obrazi III daraja – (maktab yoshi)	Individlashtirish ***“Men+Ular”*** o‘zini-o‘zi idora qilish (avtonomizatsiya)	*Solishtirma tuzilma*
Baholar sifati va xususiyatlarining ahamiyatini anglash o‘zini-o‘zi baholash II daraja – (maktabgacha yosh davri)	Identifikatsiya ***“Men+Biz”*** (Ota-onalar)” ijtimoiylashuv	*Bog‘lovchi tuzilma*
O‘ziga-o‘zi munosabat Kayfiyati va kechinmasi I daraja – individ (ilk yosh davri)	Ichki boshqaruv (Interiorizatsiya) ***“Men”*** {o‘zini-o‘zi idrok qilish + o‘zini-o‘zi kuzatish} kommunikatsiya	
intraindividli	interindividli	

Yuqorida keltirilgan sxema quyidagi ketma-ketlikda ustuvor qadriyatlar tizimiga bog‘lanuvchi to‘laqonli “Men” obrazining bosqichma-bosqich shakllanishini aks ettiradi: a) o‘zi haqida tashqaridan tasavvur interiorizatsiyasi, b) identifikatsiya va o‘zini identifikatsiyalash, v) o‘zini qisman baholash qobiliyati, g) ijtimoiy muhitga qo‘shiluvchi, d) “Men” obrazining avtonomlashuvi, ye) o‘zini baholashning to‘laqonli tizimga singib borishi, j) faol shaxsning ijtimoiy muhitga mos alohida sifatlarining shakllanishi.

Mazkur sxema maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalikning ontogenezda “Men” konsepsiyasi rivojlanishining yo‘nalishlari tizimida o‘rnini aniqlash hamda oilaviy munosabatlar nuqtai nazaridan maktabgacha yoshdagi bolaning “Men” genezisini o‘rganishdagi keyingi bosqichga o‘tishga imkon beradi.

Shunday qilib, ko‘p sonli ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijasida biz psixika rivojlanishining muhim xususiyatlari va ularning davriylashuv mezonlari sifatida yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlarga tayangan holda, bola shaxsi ontogenezining turli bosqichlarida “Men” konsepsiyasi tarkibiy qismlaridan biri uning o‘zini anglash mahsuli sifatida yetakchiga aylanadi, deb hisoblaymiz. “Men” konsepsiyasining aynan mazkur yosh bosqichida yetakchiga aylangan markaziy unsuri boshqa barcha tarkibiy elementlarni yangi ma’no va mazmun bilan boyitgan holda birlashtiruvchi hamda bir tizimga keltiruvchi tarkibiy qism hisoblanadi. Xuddi shu davrda bolada o‘zini anglashining yangi, tabiatiga ko‘ra birlashtiruvchi bo‘lgan yo‘nalishlari ham paydo bo‘lib, ular maktabgacha bo‘lgan katta yoshda jinsiy-gender rol bo‘yicha (jins+ijtimoiy normalar) va jins-yosh bo‘yicha (jins+yosh) yo‘nalishlar sifatida belgilanishi mumkin.

Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida bolaning o‘zi va o‘z fazilatlari to‘g‘risidagi tasavvurlari, eng avvalo, jamiyatda tutajak o‘rni va maqomini belgilovchi muhim mexanizmki, uning mazmuni shaxsning nafaqat o‘ziga, balki o‘zga shaxslarga bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiy xulqining asosi hisoblanadi. Bunda qanday ijtimoiy omillar va guruhlarning yetakchi rol o‘ynashi ilm-fan nuqtai nazaridan muhim bo‘lib, maqola aynan shu g‘oyani asoslashga bag‘ishlangan.

Natijalarida onaning farzandi bilan identifikatsiyalashuvi bolaning o‘zini anglashida yetakchi o‘rin tutadi, degan xulosani asoslashimizga sabab bo‘luvchi asoslar yetarli, ya’ni ona doimiy ravishda farzandining tuyg‘u va kechinmalarini his etishga, uning jins jihatidan o‘zini anglashida ham belgilovchi o‘ringa ega ekanligini aytib o‘tish joiz.

Bundan ko‘rinadiki, ona ta’siri farzandning tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va o‘zini anglashida yetakchi omillardan biri sifatida gavdalanadi.

Tahlillarga ako‘ra bolaning jins-rol bo‘yicha aynan bir xilligi xulq-atvor belgilari (kuzatuv) va uning jins-rol bo‘yicha aynan bir xillik ko‘rsatkichlari (ona rasmi) o‘rtasida yaqqol ifodalangan aloqa bo‘lib, bu a) rasmning axborotlilik darajasidan dalolat beradi va b) ona ongida bola obrazining jins-rol bo‘yicha ifodalanganligi va uning jins-rol bo‘yicha xulq-atvor stereotiplarini o‘zlashtirish darajasi o‘rtasida aloqa mavjudligini tasdiqlaydi. Otalar rasmi bilan vaziyatda bu rasmlar mavjudligining o‘ziyoq diagnostik hisoblanadi, chunki faqat 25% erkaklargina bu sinovni

o‘tkazishga rozilik berdilar. Biz otalarning “Men va mening bolam” rasmini chizishini ota-ona mas’uliyati, tarbiya jarayoniga jalb etilganligi va manfaatdorlik darajasi yuqoriligining dalili sifatida baholaymiz. Xuddi shu tarzda biz onalarning rasmni chizishda rangli qalam va flomasterlardan foydalanishini ham baholaymiz – bu sinovda ishtirok etayotganlarning 20%iga teng bo‘ldi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi rasmning proektiv qimmati va axborot uchun berilganligidan dalolat beradi hamda ona ongida bola obrazining jins-rol bo‘yicha ifodalanganligi va uning jinsiy ijtimoiylashuvi – jins-rol bo‘yicha xulq-atvor stereotiplarini o‘zlashtirish darajasi o‘rtasida aloqa borligini tasdiqlaydi. Shu tariqa, proektiv test davomida olingan ma’lumotlarning sifat tahlili verbal uslubiyatni qo‘llash davomida olingan natijalarni tasdiqlab berdi.

Yana shuni e’tirof etish mumkinki, tajribada qatnashgan onalarning 60 foizi o‘zlarini farzandlari bilan identifikatsiya qilinishini yuqori baholagan bo‘lsalar, otalar bu jihatdan ham onalardan biroz past ko‘rsatkichlarni – 40 foizni ko‘rsatdi. O‘zlarini past identifikatsiyada baholagan otalarga nisbatan shunday toifali onalar atigi 10 foizni, ya’ni bir kishini tashkil etdi. Endi jinsiy rollar nuqtai nazaridan bir-birlarini identifikatsiya qilishda onalar bilan farzandlarning baholari o‘rtasida keskin farq yo‘q: farzandlarning 43 foizi va onalarning 33 foizi bu mavqeda bir-birlarini yuqori baholagan bo‘lsalar, past baholovchilar teppa-teng chiqdi (3 nafardan). Ko‘p holatlarda onaning bahosi bilan farzandning bahosi bir-biriga yaqin, masalan, past baholaganlar past yoki o‘rtacha, yuqorilar yuqori va hokazo. Demak, umuman olganda, onalarning farzandlar bilan identifikatsiyasi otalarnikiga nisbatan tahlil qilinganda ancha yaqin va o‘xshashdir.

Shunday qilib, maktabgacha bo‘lgan yoshda yosh bo‘yicha aynan bir xillik jarayoni umuman olganda yakunlanish bosqichiga yaqinlashgan, ya’ni o‘z yoshiga oid tasavvurlarning shakllanganlik darajasi o‘rtachadan baland; ijtimoiy jihatdan o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglash endi shakllanayotgan, ya’ni yaqin o‘rab turgan ijtimoiy muhit to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlarining shakllanganlik darajasi o‘rtachadan past; bolaning o‘z jinsi bilan bog‘liq rollar to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanganlik darajasi pastdan yuqorigacha bir xilda taqsimlanadi. Nominativ tasavvurlar, ya’ni o‘z ismi, uning ma’nosi atrofidagi tasavvurlar ham mavjud bo‘lib, ular shu yosh uchun yuqori darajada shakllangan; qadriyatlar identifikatsiyasi esa endi rivojlanish bosqichida ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu fikrlarning identifikasion tasavvurlar nuqtai nazaridan olingan va biz tomonimizdan umumlashtirilgan ma’lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval Bolalarning “Men” konsepsiyasiga oid tarkibiy qismlarining shakllanishi bo‘yicha taqsimlash (n=85)

“Men” konsepsiyasi komponentlarining shakllanganlik darajasi	“Men” konsepsiyasi komponentlarining shakllanganlik darajasi bo‘yicha guruhlar soni (%)				
	Nominativ	Yoshga oid	Jinsiy	Ijtimoiy	Qadriyatli
Past	0	0	43,3	50	96,7
O‘rta	0	50	36,7	46,7	3,3
Yuqori	100	50	20	3,3	0

Shunday qilib, ko‘rib turibmizki, mazkur bosqichda yosh bo‘yicha aynan bir xillik amalda yakunlangan bo‘lib, ijtimoiy aynan bir xillik endi boshlanayotgan, eng yaqqol ifodalangan jarayon esa bolaning jins-rol bo‘yicha aynan bir xilligining rivojlanishi hisoblanadi. Bularning barchasi shakllanayotgan “Men” konsepsiyasining ushbu bosqichdagi asosiy tarkibiy qismi sifatida jins-rol bo‘yicha aynan bir xillikni hamda maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolaning o‘zini anglash jarayoni dadil shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini-o‘zi anglash jarayonini oila muhiti bilan bog‘liq tarzda empirik jihatdan o‘rganish bizga quyidagi empirik xulosalar chiqarishga imkon berdi:

Bolalarning o‘zi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan kattalar tomonidan baholanishi ko‘proq differensiyalangan bo‘lib, har bir bola o‘z ota-onalarini ularga nisbatan o‘ziga xos munosabatdadir, deb hisoblashadi, onaning bahosi bola uchun o‘z bahosidan biroz pastroq ahamiyat kasb etadi.

– o‘zini o‘rtacha baholovchi ota-onalar o‘z bolasini “sog‘lik, chiroy, aql va xarakter” ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham, “omad va baxt” ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham o‘ziga nisbatan yuqori baholaydi. Otalar va onalarning o‘z bolasini baholashlari baribir nisbatan o‘xshash bo‘lib, bu holat nuklear oilaga juda xosdir;

– o‘zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan ham baholanishi yuqori bo‘lgan bolalar o‘z ota-onasining har qanday bahosini, hatto tanqidiy bahosini ham qabul qiladi, ularning fikriga qo‘shiladi, bundaylarda o‘ziga ishonch hissi mavjud va ota-onalar bilan yaqinlik hissi saqlanib qolgan bo‘ladi;

– o‘zini baholashi yuqori va ota-onalar tomonidan baholash o‘rtacha bo‘lgan bolalar o‘zini baholashda ota-onasining o‘zi haqida fikri baland emasligini biladi. Bunday bolalar o‘zi to‘g‘risida shakllanayotgan obrazini o‘rtacha namoyish qiladi, bu esa ota-onalar bahosini passiv idrok qilishini keltirib chiqarib, natijada kelajakda o‘ziga salbiy munosabatni shakllantiradi;

– o‘zini baholash o‘rtacha va ota-onalar tomonidan baholash o‘rtacha bo‘lgan bolalarda ham ko‘proq noadekvat munosabatlar shakllanadi, hissiyotlari keyinchalik uncha aniq namoyon bo‘lmaydi, “Men” obrazida noaniq syujetlar bo‘ladi;

– o‘zini baholash o‘rtacha va ota-onalar tomonidan baholash yuqori bo‘lgan bolalar – ota-onalarning o‘zi kutayotgan bahoga nisbatan balandroq baholashi, kelajakda bolaning ijobiy “Men” obrazini shakllantirish uchun qulay muhit yaratadi. Ya’ni aynan shunday holat ko‘proq xolis munosabat hamda adekvat o‘zini anglashga zamin bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari kamdan-kam hollarda neytral, bahosiz xarakterga ega bo‘lib, o‘ziga emotsional-qadriyatli munosabat bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa maktabgacha bo‘lgan yosh davomida “Men” konsepsiyasining asosan affektiv, emotsional-qadriyatli tarkibiy qismlari shakllanishi va faqat bu davrning oxiriga kelibgina kognitiv soha rivojlanishi boshlanishidan darak beradi.

1. Muammo va ziddiyatlardan ko‘z yummang – bolalarni eshitgan holda o‘zingiz ham gapiring;
2. O‘zingizga jabr yetkazmang – chunki sizga yomon bo‘lsa, bolaga ham yaxshi bo‘lmaydi;
3. Bolalar qanchalik aybdor bo‘lsa ham, ulardan yuz o‘girmang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шамсиев Ў.Б. “Оилавий қариятлар ва болалар “Мен” концепцияси ривожлааниш даражалари”
2. Выготский Л.С. Лекции по психологии. -СПб.: Питер, 1999. – 478 с.
3. Голод С.И. Семья и брак: Историко-социологический анализ. СПб.: Петрополис, 1998. – 270 с.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1997. – 541 с.
5. Джемс У. Психология.7-изд. – М.: МГУ, 1991. – 424 с.
6. Добряков И.В. Перинатальные аспекты психологии и психотерапии семьи //Семейный диагноз и семейная психотерапия. СПб.: Питер, 2003. – 273 с.
7. Захарова Е.И., Бурменская Г.В. и др. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков. – М.: 2002.С.262-287.
8. Захаров А.И. Предупреждение отклонений в поведении ребенка. – СПб.: Союз, 2000. – 222 с.
9. Исаев Д.Н., Каган В.Е. Половое воспитание и психогигиена пола у детей.- Л.: Наука, 1990. – 366 с.

Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail. shernayevashahnoza@gmail.com

BO‘LAJAK PEDAGOG KASBIY SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYANING AHAMIYATI

Anatatsiya. *Bo‘lajak pedagog kasbiy shakllanishida pedagogik kommunikatsiya subyekti sifatida pedagogik rejaning mazmunini va mohiyati to‘g‘risida o‘z tushunchasini shakllantiradi. O‘qituvchining roli o‘quvchiga o‘zining individual va noyob qarashlarini, tushunchalarini topishga yordam berish va uni to‘g‘ri kasbiy shakllanishga yo‘naltirish, ushbu jarayonning dinamikasini ta’minlashdir. Ushbu maqsadga pedagogik kommunikatsiya doirasidagi dialog asosida erishish mumkin, bunda o‘qituvchi va ta’lim oluvchi bir-biriga sub’ekt sifatida munosabatda bo‘lib, nafaqat tegishli ma’lumotlarni almashibgina qolmay, balki ularning qadriyatlar tizimini, e’tiqodlarini, tajribalarini, umidlarini, ideallarini bir-biriga yoritib, mumkin darajada har ikkala tomon o‘z subyektiv betakrorligi va erkinligini saqlagan holda ularni umumlashtiradilar.*

Kalit sruzlar; *muloqot, pedagogik, professional, ob’ektiv, ustanovkalar, chastotasi, faoliyat, ob’ekti, emotsional-empatik reaksiyalar, kayfiyat va refleksiv.*

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТАНОВЛЕНИИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Анататсия. *Как субъект педагогического общения в профессиональном становлении будущего педагога он формирует у него понимание содержания и сущности педагогического замысла. Рол преподавателя – помочь студенту найти свои индивидуальные и неповтори-мые взгляды и концепции и направит его к правильному профессиональному становлению, обеспечит динамику этого процесса. Эта сел может быт достигнута на основе диалога в рамках педагогического общения, в котором педагог и обучающийся относятся друг к другу как к субъектам, не только обмениваются актуальной информацией, но и делятся своей си-стемой ценностей, убеждениями, опытом, освещая друг друга. надежды и идеалы, обе сто-роны максимально обобщают их, сохраняя при этом свою субъективную уникальности и свободу.*

Ключевые слова: *общение, педагогический, профессионалный, предметный, нормативы, частота, деятелност, объект, эмотсионално-емпатические реакции.*

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF A FUTURE PEDAGOGUE

Anotation. *As a subject of pedagogical communication in the professional formation of a future pedagogue, he forms his understanding of the content and essence of the pedagogical plan. The role of the teacher is to help the student to find his individual and unique views and concepts and to direct him to the right professional formation, to ensure the dynamics of this process. This goal can be achieved on the basis of dialogue within the framework of pedagogical communication, in which the teacher and the learner treat each other as subjects, not only exchange relevant information, but also share their value system, beliefs, experiences, illuminating each other’s hopes and ideals, both sides generalize them as much as possible while preserving their subjective uniqueness and freedom.*

Key words. *communication, pedagogical, professional, objective, standards, frequency, ac-tivity, object, emotional-empathic reactions, mood and reflexive compatibility, situation, staff.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning turli sohalarining jadal rivojlanishi, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘plab xodimlarning kasbiy funksiyalarini sezilarli darajada chuqurlashtirdi, ko‘p yillar davomida ularning kasbiy mahorati va raqobatbardoshligini oshirishga bo‘lgan

ehtiyojning barqaror tendensiyasini yaratdi. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatning umumiy ta'lim va yosh avlodni tarbiyalashga bo'lgan sifat jihatidan ortib borayotgan talabi bo'lajak pedagoglardan nafaqat ta'limni, balki birinchi navbatda kasbiy yetuklikni, to'g'ri kasbiy va moslashuvchan salohiyatni, yuqori darajadagi pedagogik muloqotni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ishlash va doimiy rivojlanish qobiliyatini talab qiladi.

Ko'pgina olimlar bu jihatlarni muloqot yoki kommunikatsiya modeli orqali ko'rib chiqadilar. V.S. Danyushenkov, Ye.I. Kaminskiy, M.G. Yermolayeva va boshqalar o'quv jarayonini o'rganishda ushbu muammoga ma'no-matn modelini ishlab chiqish asosida yondashdilar. Muloqotning mumkin bo'lgan va fikrlar chastotasida bir xil bo'lishi uchun pedagogik faoliyatning ob'ekti va predmeti haqidagi asosiy bilimlarning umumiyligi, emotsional-empatik reaksiyalar, kayfiyat va refleksiv harakatlar hamjamiyatining muvofiqligi pedagogik vaziyatning barcha ishtirokchilari o'rtasida zarurdir. Bunday kommunikatsiya natijasida shaxsga tashqi ta'sirlar tizimi va shaxsning kasbiy ongining ichki shaxsiy o'zgarishlari tizimi aniqlanadi. Oliy o'quv yurti sharoitida har bir bunday kommunikatsiya, agar u cheklanmagan bo'lsa va faqat ko'p sonli shaxsiy vazifalarni hal qilishga kirmasa, talabaning professionalligini rivojlantirish ob'ektiga ega va uning kasbiy shakllanishi sub'ekt sifatida kiradi. Muloqotdagi muvozanat odatda o'qituvchi tomonidan o'rnatiladi, uning vazifasi o'quv jarayonining barcha didaktik me'yorlarini bajarishdir. Bundan tashqari, o'qituvchi va talaba bir qator uslubiy ustanovkalarga rioya qilishlari kerak, ya'ni bir-birlari haqida, birinchi navbatda maqsadlar, niyatlar, qobiliyatlar, imkoniyatlar, tushunchalar tizimi va boshqalar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

O'qituvchining kasbiy muhim fazilatlaridan kommunikativ sohani ajratib ko'rsatishgan olimlar I.V. Lavrentev, M.A. Lisenko, G.V. Ryabichkin fikricha, oliy o'quv yurtida o'qish jarayonida uning turli darajalarida kommunikatsiya va shaxslararo muloqot kabi faoliyatda sub'ekt tomonidan o'zini aniqlash, muloqotni tashkil etish, o'qitish, ta'lim kabi faoliyat usullari eng katta dolzarblikni oladi. Kerakli kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish uchun umumiy qobiliyatlarni rivojlantirish fonini yaratish kerak:

idrok, ya'ni muayyan pedagogik faoliyatda affektiv-emotsional ishtirok etish, ya'ni empatiya;

xotira, ya'ni o'tmishni, hozirgi va bashorat qilinuvchi kelajakni bog'lash qobiliyati;

tasavvur, ya'ni refleksiyaning asosiga aylanadigan hissiy predmetli qo'llab-quvvatlash;

xayol, ya'ni haqiqatni yangi tasvirlarda aks ettirish uchun asos yaratish va o'zgartirish qobiliyati;

tafakkur, ya'ni kognitiv faoliyat jarayoni va voqelikni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirish usuli;

diqqat, ya'ni barqarorlik va taqsimlanish.

Umumiy qobiliyatlar fonida tegishli maxsus pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

kommunikativ qobiliyatlar;

tashkilotchilik qobiliyatlari;

empatik qobiliyatlar;

ob'ektiv va xolis bo'lishning maksimal qobiliyati;

o'z-o'zini nazorat qilish, tolerantlik va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish qobiliyatilar hisoblanadi.

Y.I. Isayev, S.G. Kosareskiy, V.I. Slobodchikov, D.N. Zavalishin fikricha, kasbiy shakllanish doirasida pedagog o'zini anglaydi, professionalning tegishli qiyofasini yaratadi, ma'lum qadriyatlarni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, u nafaqat o'z borlig'ini, balki butun insoniyat tomonidan olingan tajribani ham asos qilib oladi. Shu munosabat bilan, kasbiy shakllanish shakl va mazmun jihatidan tizimli ta'lim bo'lgan jarayon sifatida ishlaydi. Ushbu jarayonning mohiyati kasbiy ijtimoiylashuv va individuallashuv, mutaxassis hayot yo'lining bir qismi, kasbiy tayyorgarlik, rivojlanish va faollikning o'ziga xos shakli sifatida ochib beriladi. Shunday qilib, kasbiy shakllanish ko'proq darajada mahoratli muloqot hamda kasbni tushunish, pedagogik madaniyat, intellektual, emotsional, irodaviy, axloqiy fazilatlarning uyg'un rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishni aks ettiradi.

G. Samigullin, N.S. Tkachenko va boshqalar kasbiy shakllanishda ikkita asosiy tarkibni aniqlaydilar:

ichki shakllanish yoki shaxsiy;

tashqi shakllanish yoki mavqe.

Shaxsiy nuqtai nazardan tegishli darajaga erishish, shuningdek, martaba koʻtarilishini, yaʼni tashqi koʻrinishlarda oʻz aksini topishni belgilaydi. Ideal holda, shaxs kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli oʻzlashtiradi va shunga mos ravishda atrofdagi jamiyatda tan olinadi. Bundan tashqari, kasbiy shakllanish individual va shaxsiy shaklda amalga oshirilishi mumkin.Bunda muloqotning ahamiyati judayam muxim.

Maʼlumki, pedagogik kommunikatsiya, qoida tariqasida, nutq aloqasidan boshlanishi mumkin, shuning uchun nutq qobiliyatlari oʻqituvchi va talabaning kasbiy qobiliyatlari orasida yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Ular oʻqitish predmetining maʼlum bir tilini idrok etish koʻnikmalariga asoslanadi. Bundan tashqari, pedagogik muloqotning samarali shakli boʻlgan va uni tashkil etish uchun eng dolzarb boʻlgan, pedagogik vaziyatda oʻqituvchi va talaba oʻrtasida zarur aloqalarni rivojlantirishga imkon beradigan dialogni taʼkidlash maqsadga muvofiqdir. Bu maqbul insoniy munosabatlar tabiatining subyektdan subyektga xarakteriga adekvat hisoblanadi. Tadqiqot predmetining maʼlum bir masalasi boʻyicha dialog holatidagi ikkita shaxs oʻziga xos umumiy estetik va pedagogik makonni, oʻqituvchining oʻquvchiga taʼsiri subyektlarning psixologik birligiga yoʻl qoʻyadigan yagona hissiy hodisani shakllantirishi mumkin. Shu sababli, pedagogik muloqotning ijodiy jarayoni rivojlanmoqda, oʻzaro taʼsir va oʻzaro ijodda oʻz-oʻzini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, dialog quyidagicha ishlaydi:

inson muloqotining asosiy shakli talabaning kasbiy rivojlanishini belgilaydi;

rivojlanishning yetakchi determinanti, bu yerda tashqi birlamchi ichki shaxsga oʻtib, individual oʻziga xoslikni shakllantiradi;

insoniyat madaniyatini oʻrganish tamoyili va usuli, ular oʻrtasidagi muloqot sharoitida yuzaga keladigan subʼektlarning ichki sohalari mazmunini qayta qurish orqali amalga oshiriladi;

oʻz qonunlari va dinamikasiga koʻra rivojlanadigan jarayon;

bir-biri bilan muloqot qilishning maʼlum bir psixofiziologik holati;

estetik munosabatlar va pedagogik muloqotni tashkil etish darajasi, pedagogik faoliyat va shaxsiy rivojlanish uchun maqbuldir;

pedagogik va psixokorrektiv taʼsirning samarali usullaridan biri;

ijodiy jarayon

Amaliyot shuni koʻrsatadiki, kelajakdagi oʻqituvchilarni kasbiy shakllantirish jarayoni boshqa kelajakdagi mutaxassislarning oʻxshash jarayonidan farqi pedagogik faoliyatning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek, har bir muvaffaqiyatli oʻqituvchining hayotida muhim rol oʻynaydigan pedagogik aloqaning oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq. Shunga asoslanib, pedagogik muloqotning mohiyati va mazmunini tushunish muammosi nafaqat tegishli mezon sifatida, balki boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy shakllanish dinamikasini ragʻbatlantiruvchi samarali yondashuv sifatida ham dolzarbdir. Bu, bir tomondan, boʻlajak oʻqituvchining kasbiy ongi qanday shakllanishi, boshqa tomondan, oʻqituvchi kelajakda oʻz kasbiy faoliyatini qanday tamoyillar asosida amalga oshirishi bilan bogʻliq. Pedagogik muloqotning masalalari va mavzulariga qarab, uni quyidagi asosiy turlarga boʻlish maqsadga muvofiqdir;

verbal va noverbal;

rasmiy va norasmiy;

funksional-rolga asoslangan, yaʼni oʻqituvchi tizimida - oʻqitish mavzusi - talaba yoki oʻqish mavzusi boʻyicha hamkasblari, tanishlari bilan muloqot qilish;

shaxsga yoʻnaltirilgan, estetik yoʻnaltirilgan, ijtimoiy yoʻnaltirilgan va hokazo.

Bunday muloqotning hal qiluvchi sharti oʻqituvchi - subyekt-talaba tizimida oʻrganish predmetining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dialogik oʻzaro, taʼsirni amalga oshirish qobiliyatidir. Shu bilan birga, pedagogik muloqotning eng muhim usullari orasida quyidagilarni ajratib koʻrsatish maqsadga muvofiqdir;

individual mashg‘ulotlarga xos bo‘lgan assotsiativ usul, uning xususiyati mazmuni bir-biri bilan assotsiativ bog‘liq bo‘lgan va o‘rganilayotgan mavzuda ko‘rib chiqilayotgan masala bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan fikrlar almashinuvidir. Muloqotning bu usuli takrorlashdan qochish, fikrlarni o‘z vaqtida cheklash bilan tavsiflanadi, ya’ni mantiqiy emas, balki ochiq fikr va his-tuyg‘ular almashinuvi mavjud. O‘qituvchi va talabani boshqaradigan qoidalar intuitiv ravishda belgilanadi. Suhbatdoshlar bir-birlarini nisbatan kam to‘xtatadilar. Ushbu turdagi aloqa bilan refleksiv jarayonlar empatiya asosida sodir bo‘ladi, ya’ni bir-birining pozitsiyasi va qarashlarini tushunishga urinishlar qilinadi;

muammoni hal qilish, ya’ni umumiy nuqtai nazarga erishishga qaratilgan bayonotlar. Qoidalar ro‘yxati ham cheklangan, har bir bayonot diqqat bilan tortiladi, har bir so‘z o‘qituvchi tomonidan diqqat bilan tanlanadi va talaba baholaydi. Qoidalarning buzilishi tushunmovchilikka, pedagogik muammoni hal qilishdan bosh tortishga olib keladi va muloqot tarzining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Ruxsat etilgan takrorlash va tushuntirishlar va qaror birgalikda qabul qilinadi;

savollar berish, asosan savol to‘liq ma’lumot olishga qiziqqan o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi javobdan qochish yoki qisman javob berish imkoniyatiga ega. O‘qituvchi bunday huquqqa ega emas, lekin u, qoida tariqasida, qarshi savolni belgilaydi yoki talabaning savolini muhokama qilishni boshlaydi. Shu bilan birga, an’anaviy ravishda talabalar o‘qituvchiga juda kam savol berishadi. Ushbu tendensiya so‘nggi o‘n yilliklardan beri saqlanib kelinmoqda. Ammo agar o‘qituvchi o‘rganish motivatsiyasini, pedagogik faoliyatga munosabatni o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini bilish usullarini o‘zlashtirishga yordam berishga, o‘z-o‘zini identifikatsiyalashga va o‘z "Men"ini ideal bilan bog‘lashga muvaffaq bo‘lsa, unda bu holda tinglovchilar ancha faollashadi, muloqot juda qizg‘in, va faoliyat ko‘rsatkichi savollar sonining ko‘payishiga olib keladi;

tushunishni aniqlashtirish, pedagogik amaliyotda darslar hech qachon tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan bayonotlar bilan boshlanmaydi. Ushbu aloqa usuli boshqa usullarga amal qiladi, ammo shu bilan birga tushunmovchilik sabablari, o‘rganish mavzusi bo‘yicha tegishli savolni talqin qilishda nomuvofiqliklar hal qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘rganilayotgan masalani noto‘g‘ri yoki boshqacha tushunish yoki qanday aloqa qoidalari buzilganligini aniqlashga harakat qiladi. Aloqa sub’ektlarining har biri tushunmovchilik holatida boshqa tushuntirish usuliga o‘tish huquqiga ega.

O‘zining tabiatiga ko‘ra, tushunishning o‘zi, qoida tariqasida, o‘qitish yoki o‘qitish intizomining sub’ektlari va yo‘nalishlarida muhim bo‘lgan narsalarni ochib berishga qaratilgan murakkab aqliy faoliyatning asosiy turlaridan biridir. Ba’zida tushunish mantiqiy asoslarni o‘rnatish orqali sodir bo‘ladi. Ushbu yondashuv oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladi, ammo bu, qoida tariqasida, matematik teoremalarni tushunishga xosdir. O‘z navbatida, masalan, bunday mantiq turli xil san’at yo‘nalishlari doirasida tegishli masalalarni tushunishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

O‘qituvchi-fan-talaba tizimida tushunish muammosi alohida o‘rin tutadi, shu munosabat bilan biz uni batafsil ko‘rib chiqamiz. Ko‘pgina tadqiqotchilar ushbu konsepsiyani zamonaviy pedagogikadagi yangi paradigmatik tushunchalar bilan bog‘lashadi. Ularning ta’kidlashicha, tushunish tafakkur orqali emas, balki dialog orqali keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tushunish qobiliyatini rivojlantirish ko‘proq pedagogik muloqot holati va o‘rganish mavzusini refleksiv tushunish natijasidir va bunday natijani zamonaviy umumiy va pedagogik ta’limning markaziy pedagogik vazifalari sifatida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qitish mavzusidagi ma’lum bir savolni tushunib, pedagogik vaziyat bo‘lajakdagi o‘qituvchining o‘z ongi harakatining o‘ziga xos mahsuli bo‘lib xizmat qiladi, uni o‘qituvchining tushunchasi bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ushbu tushunchani bo‘lajak o‘qituvchiga ma’lumot shaklida yetkazish ham mumkin emas, chunki tushunishning o‘zi ma’no ko‘rishni nazarda tutadi. Ushbu qonuniyatni tushunib, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga o‘zini tushuntirish, ularning harakatini, ongini mustaqil tushunishga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Fenomenologiyada tushunish hodisaning ma’nosi va ma’nosini tushunish qobiliyati darajasida ko‘rib chiqiladi. Tushunish aniq ichki bog‘liqlik hissi, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarni tashkil etish bilan tavsiflanadi. Bu yuqorida sanab o‘tilgan faktlar mexanik ravishda yagona mantiqiy tizimga birlashtirilganda, sabab-oqibat munosabatlarining mantiqiy tartiblangan, aniq ko‘rinishi bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy maktab ishonchli tarbiya texnologiyalari va ularni samarali amalga oshirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchilarga muhtoj. Ideal dasturlar, usullar va pedagogik texnologiyalar mavjud bo‘lsa ham, o‘quv jarayonining barcha sohalarini teng ravishda muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan universal o‘qituvchini shakllantirish mumkin emas. Har bir mutaxassis, shu jumladan o‘qituvchi, kasbiy faoliyatning o‘ziga xos zaif va kuchli tomonlariga ega, bu shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, uning shaxslararo sohasi bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini bilish, o‘qituvchi tomonidan o‘zining haqiqiy imkoniyatlarini tushunish va anglash, pedagogik faoliyat olib boriladigan sharo.itlarni ob’ektiv baholash, bu omillarning o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari va mazmuniga muvofiqligini aniqlash, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini takomillashtirishi va kasbiy shakllanishi uchun samarali yo‘l ochadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikatsiya ko‘nikmalari o‘qitish jarayonida juda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat bilimlarni o‘rgatishda, balki o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot qilishda, ularga motivatsiya berishda va darslarni samarali tashkil qilishda ham yordam beradi.

Quyida o‘qituvchi bo‘lishni rejalashtirayotganlar uchun asosiy kommunikatsiya jihatlari:

1. Aktiv tinglash: O‘quvchilarning fikrlarini tinglab, ularni tushunish va ularning savollariga aniq va to‘g‘ri javob berish.

2. Aniq va tushunarli tushuntirish: Qiyin mavzularni ham soddalashtirib, o‘quvchilarga yetkazish, murakkab tushunchalarni tushunarli qilib bayon qilish.

3. Hissiy aql (emotsional intellekt): O‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish va o‘ziga ishonch berish orqali ularga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish.

4. Insonlar bilan munosabatlarni o‘rnatish: Ijobiy va samimiy muhit yaratish, o‘quvchilar bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirish.

5. Ko‘p madaniyatli kommunikatsiya: Turli madaniyatlar va millatdagi o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning madaniy farqlarini hurmat qilish.

Ushbu ko‘nikmalar o‘qituvchilarning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarga bilimlarni yanada qiziqarli va qabul qilish osonroq qilib taqdim etish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, pedagogik faoliyatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagogik muloqotni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish dinamikasini rag‘batlantiruvchi samarali yondashuv sifatida aks ettiradigan mezonlarning birinchi guruhini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda pedagogik muloqotning hal qiluvchi sharti "o‘qituvchi – o‘qitish predmeti - o‘quvchi" tizimida o‘rganish predmetining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dialogik o‘zaro ta’sirni amalga oshirish qobiliyatidir.

Xulosa; Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi uchun ushbu tizimdagi pedagogik kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish muhimdir. Pedagogik kommunikatsiya subyekti sifatida u pedagogik rejaning mazmuni va mohiyati to‘g‘risida o‘z tushunchasini shakllantiradi. O‘qituvchining roli o‘quvchiga o‘zining individual va noyob qarashlarini, tushunchalarini topishga yordam berish va uni to‘g‘ri kasbiy shakllanishga yo‘naltirish, ushbu jarayonning dinamikasini ta’minlashdir. Ushbu maqsadga pedagogik kommunikatsiya doirasidagi dialog asosida erishish mumkin, bunda o‘qituvchi va ta’lim oluvchi bir-biriga sub’ekt sifatida munosabatda bo‘lib, nafaqat tegishli ma’lumotlarni almashibgina qolmay, balki ularning qadriyatlar tizimini, e’tiqodlarini, tajribalarini, umidlarini, ideallarini bir-biriga yoritib, mumkin darajada har ikkala tomon o‘z subyektiv betakrorligi va erkinligini saqlagan holda ularni umumlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. G‘oziyev Y. Социал psixologiya. Toshkent, 2006. – 164 b.
2. G‘oziyev Y.G.Psixologiya sredney shkolы. ToshDU 1996.
3. Shoumarov G‘.B. O‘zbeksiton ta’lim tizimida psixologik xizmat muammolari // Yangi turdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari.-Toshkent, 1998.-B.13-15
4. Сластенин В.А. Качество образования как социально-педагогический феномен // Педагогическое образование и наука. – 2009. - №1 - С. 4-11.

5.Abdullayeva M.M. Professionalnaya identichnost lichnosti: psixosemanticheskiy podxod / M.M. Abdullayeva // Psixologicheskiy jurnal / Red. A.V. Brushlinskiy, I.I. Chesnokova. - 2004. - Tom25 №2 mart-aprel 2004. - S. 86-96.

5. Rojers K. Stanovlenie lichnosti. Vzglyad na psixoterapiyu. - M.: Institut obshegumanitarnых issledovaniy, 2016. - 258 s.

6. Popov. Y.V. Professionalnaya podgotovka budущego uchitelya texnologii i predprinimatelstva na osnove integratsii texnologicheskix i yekonomicheskix znaniy: Avtoref. dis. … kand. ped. nauk. Magnitogorsk, 2009. - 20 s.

7. Burganova G.A. Sotsialno-psixologicheskiy trening dlya podrostkov / G.A. Burganova // Vestnik psixosotsialnoy i korreksionno-reabilitatsionnoy rabotы / Red. S.A. Belicheva. - №3 - 2013. - S. 40-44.

8. Ramazanov M.K. Suщnost i usloviya professionalnogo stanovleniya pedagoga // Molodoy ucheneы. - 2014. - №21. - S. 679-682.

9. Davletshin M.G. Obщaya psixologiya T. 2002 g.

10. SHernayeva.SH.A. // Sotsialno-psixologicheskaya harakteristika budущix uchiteley // Vesnik 2023.Vpusk 30 chast 1. 367.368. 369 s. //

11. Dilshod Ne’matovich Arzikulov (2022). Ta’lim-tarbiya jarayonida mutaxassislar kasbiy shaxsiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy psixologik omillari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (12), 131-135.

Jo‘rayev Bahrom
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi professori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Abdurashidova Qurbonoy Baxtiyor qizi
Psixologiya yo‘nalishi magistri

AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING ASOSIY ME’ZONI

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekistonda axborot-xavfsizligi masalalarining qonuniy asoslari mavzusiga bag‘ishlangan. SHuningdek, makola matnida axborotlar xavfsizligi borasidagi qonun xujjatlari, axborot erkinligi, ommaviy axborot vositalari, xalqaro xujjatlar va axborotlarning psixologik xavfsizligi borasida olib borilayottgan islohotlarning falsafiy, tarixiy hamda psixologik jihatlari ham atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axborot xafvi, xavfsizlik, shaxs, globallashuv, televideniya, radio, ommaviy madaniyat,internet, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati, axborotlashgan jamiyat.*

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. *Данная статья посвящена правовой базе информационной безопасности в Узбекистане. В статье также приводится подробный анализ философских, исторических и психологических аспектов проводимых реформ в области законодательства в области информационной безопасности, свободы информации, СМИ, международных документов и психологической безопасности информации.*

Ключевые слова: *информационная безопасность, безопасность, личность, глобализация, телевидение, радио, массовая культура, интернет, информационная безопасность, информационная культура, информационное общество.*

THE MAIN CRITERIA OF INFORMATIONAL-PSYCHOLOGICAL SECURITY

Annotation. *This article is devoted to the legal framework for ensuring security in Uzbekistan. The article also contains detailed studies of the philosophical, historical and psychological aspects of the ongoing transformations in the field of security, freedom of information, the media, international documents and psychological security.*

Keywords: *information security, safety, individual, globalization, television, radio, mass culture, internet, information security, information culture, information society.*

Hozirda yurtimizda o‘tkazilayotgan tizimli islohotlar, yaratilgan mukammal qonunchilik bazasi, aloqa va telekommunikatsiya sohasida olib borilgan texnologik modernizatsiya ishlari tufayli mamlakatimizda zamonaviy axborot sohasi barpo etilib, zarur texnologik sharoitlar va huquqiy kafolatlar yaratildi.

Har kimning fikrlash va so‘z erkinligi, o‘zi istagan axborotni izlashi va olishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar, fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratishga qaratilgan Konstitutsiyaviy normalar milliy qonunlarimizda, xususan, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari”, “Ommaviy axborot vositalari”, “Axborotlashtirish”, jami qabul qilingan o‘ndan ortiq qonunlarimizda rivojlantirildi.

Demak, biz tadqiq eatyotgan ushbu O‘zbekistonda axborot-xavfsizligi masalalarining qonuniy asoslari borasidagi kichik tadqiqotimiz o‘rganilish jihatdan dolzarb sanaladi.

Avvalambor axborot sohasidagi huquq va erkinliklari haqida so‘z yuritar ekanmiz, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari», «Bola huquqlarining kafolatlari», «Axborot-kutubxona faoliyati» to‘g‘risidagi Qonunlarimizni faxr bilan tilga olishimiz zarur bo‘ladi.

2008-yilda qabul qilingan «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunning 16-moddasida «har bir bola o‘zining sog‘lig‘i, axloqiy va ma’naviy kamol topishiga ziyon etkazmaydigan

axborotni olishi, har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi belgilangan» bo‘lsa, 2011 yilda qabul qilingan «Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunda esa «o‘quvchi yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga, ularni O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosidan bahramand etishga qaratilgan universal axborot-kutubxona muassasalari tashkil etilishi belgilab qo‘yildi»[1].

Hozirgi kunda, keng jamoatchiligimizni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida nosog‘lom manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta’siridagi agressiv, azaliy qadriyatlarimizga va barkamol avlod yaratish g‘oyamizga mutlaqo zid bo‘lgan axborotlarning milliy axborot makonimizga kirib kelishidir.

Axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkurafiy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot hurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o‘zlarining g‘arazli manfaatlari yo‘lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog‘idan foydalanib, axborot erkinligini suiste’mol qilib, o‘sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini kursatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg‘itish, yoshlarning ongi va qalbini egallash yo‘lidagi intilishlari kuchayayotgani hech kimga sir emasdir. «Ma’lumki, xalqaro amaliyotda «Kiber jinoyatlar to‘g‘risida» Konvensiya, «Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz internet va on-layn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida» Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, «Bola huquqlari to‘g‘risida» BMT Konvensiyasini, «YOshlarni himoyalash to‘g‘risida» Germaniya, «Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta’siridan himoyalash to‘g‘risida» Litva va «Bolalarni sog‘ligi va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to‘g‘risida»gi Rossiya Federatsiyasi qonunlari mavjud ekanligini tilga olishimiz mumkin bo‘ladi».

AQSH tajribasi haqida gapiradigan bo‘lsak, shuni aytish lozimki, 2001 yili kuchga kirgan qonunga asosan, davlat dotatsiyasini oluvchi ommaviy muassasalarning barchasi kontent filtratsiya tizimini o‘rnatishi majburligi belgilanib (Child Internet Protection Act), 2001 yili 74 foiz maktablar, 43 foiz kutubxonalar, 41 foiz oilalar (qaysikim bolalari Internetga chiqish imkoniyatlari borlari) kontent filtratsiya tizimini, tegishli dasturlarni o‘rnatishdilar. Va jamiyatda axborot iste’moli ko‘rsatkichini o‘rgandilar.

Axborot iste’moli, aniqrog‘i, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste’molining xizmatlar iste’molining o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Har qanday xizmatni iste’mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste’mol darajasi yuqori bo‘lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste’moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma’naviy ne’mat bo‘lgan axborotni iste’mol qilish o‘ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turishini ta’kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste’mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste’mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Biron shaxs uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. SHuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. CHunonchi, g‘arbda o‘ta ommabop bo‘lgan axborotlar, SHarq xalqlari tomonidan kam iste’mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in’ioks etmasligi mumkin.

Axborot iste’moli, kim tomonidan iste’mol qilinishidan qat’i nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste’moli jarayoni ham o‘ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot iste’moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo‘lgan, Internet tarmog‘i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

SHuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma’lumotlar bir zumda qimmatini yo‘qotishi aniq. SHu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste’moli avvalgilardan tubdan farq qiladi. Misol uchun ayrim xorij davlatlarida bu borada monitoring institutlari faoliyat yuritadi.

“Evropa mamlakatlari tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada davlat strukturasi faoliyat yuritib («Internet Watch Foundation»), u doimiy ravishda Internetdagi xavfli kontentli resurslarni monitoring qilib boradi”[2].

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud bo‘lib, xususan, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risidagi Qonunda «O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo‘ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi», «Bola huquqlarining kafolatlari» to‘g‘risidagi Qonunda «Pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi» belgilab berilgan bo‘lsa-da, bugungi axborot makonidagi tendensiyalar, axborot ekspansiyasi, agressiv axborotlarning kuchayishi milliy qonunchiligimizni va ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarimizni yanada kuchaytirishni taqoza etadi, desak mubolag‘a bo‘lmas[3].

Axborotlashgan jamiyatgina turli axborot xurujlaridan mustahkam himoyalanishi mumkin. SHuning uchun ham «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida» Qonun qabul qilish davr talabiga aylandi. Mazkur qonun kelajakda ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni ta’minlash, shu bilan birga axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda teleradio sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie kabi ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni asoslovchi «Teleradioeshittirishlar to‘g‘risida» Qonun qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur qonun asosida teleradiodasturlarning saviya va sifat darajasini oshirish, uni baholash mexanizmi va texnologiyasi bo‘yicha me’yorlar tizimini yaratish, ushbu tizimga rioya qilinishini ta’minlashda jamoatchilik nazoratidan foydalanish taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ijroiya hokimiyati hamda ommaviy hokimiyat boshqa organlarining saytlar to‘g‘risidagi qonunchilikni yanada rivojlantirilishi aynan shu yo‘ldan borishi: mazkur organlar tamoyillari va maqsadlarini joriy etishni o‘ziga maqsad qilib olishi hamda saytlarning funksional imkoniyatlarining xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan standartlarini o‘zlashtirishi lozim bo‘lib ko‘rinmoqda. SHunga o‘xshash tarzda fuqarolar va tashkilotlarning huquqiy axborotga kirishini yaxshiroq ta’minlash uchun huquqiy axborotning davlat saytlari saytlarda qo‘llaniladigan kerakli hujjatni boshqa dasturiy vositalarni izlash usullarining ma’lumotli-huquqli tizimlaridan foydalanishi lozim.

Internet o‘ta afzalliklarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda ko‘pgina negativ xususiyatlarga egaki, ularni bartaraf qilish uchun barcha davlatlarning birgalikdagi harakatlari talab etadi.

CHunki mazkur qonunlar: axborot-psixologik sohada milliy xavfsizlikka xavf soluvchi asosiy tahdidlarni aniqlash, baholash, ularga qarshi kurash tizimini, usul va vositalarini takomillashtirishni o‘z ichiga oluvchi yagona davlat siyosati va majmuaviy tizimni yanada rivojlantirish; axborot xavfsizligi sohasida me’yoriy-huquqiy bazani, shu jumladan davlatning OAV bilan o‘zaro munosabatiga aloqador qonunchilikni takomillashtirish; aholini yot mafkuraviy ta’sirlardan himoya qilishga javobgar davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish; axborot va axborot xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish va yanada rivojlantirishni taqozo etadi[4].

Birinchidan: internet nazorat etilmaydigan, boshqarilmaydigan tarmoq va shuning uchun u xohlagan ruxsat etilmagan axborotlarni tarqatishda ishlatilishi mumkin.

- axborot jang bo‘shlig‘i, axborot robot - jangchilar faoliyat ko‘rsatuvchi muhit;

- telekommunikatsiya ob’ektlariga, kompyuter tarmoqlariga va axborot resurslarga axborot xavf - xatardir.

- moliya va boshqa jinoyat qilish, dasturiy viruslarni tarqatuvchi muhitdir.

Garchi internet juda ko‘p negativ oqibatlarga ega bo‘lsada, undan va uni rivojlashtirish va tatbiq etishdan voz kechib bo‘lmaydi. SHuning uchun, mamlakatimizda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xavf - xatarlarni kamaytirishda axborot xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha katta ishlarni olib borish kerak bo‘ladi. Hozirgi O‘zbekistonda internet tarmog‘ining milliy segmentini rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlar belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida O‘zbekistonda axborot almashish jarayoni xavfsizligini ta’minlash uchun shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi e’lon qilinmagan axborot xurujlari sharoitida quyidagi vositalarga alohida e’tibor qaratish kerak:

1) axborotlashtirish vositalari faoliyatidagi mavjud shakl va usullarini o‘zgartirishimiz, ularni milliy manfaatlarimiz va zamonaviy mezonlarga muvofiqlashtirish;

2) axborot tahdidlariga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro‘y berayotgan fakt va voqealarni yoritishda yangicha yondoshuvlarni qo‘llash;

3) mahalliy ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi jamoatchilik fikriga ta’sirchanligini oshirish;

4) dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan axborot vositalarining mafkuraviy xurujlariga munosib javob berish kabi masalalar echimi xalqimiz tinchligi va osoyishtaligining garovi sanaladi.

Agar mazkur muammo doirasida kengroq psixologik, sotsiologik, siyosiy tadqiqotlar olib borilsa, u holda axborotlar xavfsizligi borasidagi mahalliy muammolarning qator echimlarining hal etilishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekistonning yangi qonunlar to‘plami -T.: «O‘zbekiston». 2008
2. Mo‘minov A. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. – T.: “Turon zamin ziyo”. 2013.
3. Soliev F. YOshlarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini himoyalashning huquqiy asaoslarini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent. 2012.

Qo'ziyev Oybek Cho'lliyevich
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo`yicha falasa doktori (PhD),
G`ayimova Ozada Eshmurod qizi
Psixologiya yo`nalishi magistri

ZAMONAVIY RAHBAR SHAXSIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAHBAR BOSHQARUV USLUBINING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda rahbar boshqaruv uslubining ahamiyatini tadqiq etishga qaratilgan. Boshqaruvning direktiv, beparvolik va kollegial uslublar hamda mehnati jamoasining munosabatlarini belgilovchi rahbar shaxsining emotsional intellekti borasida tadqiqot olib borilgan. Korreksiya amaliyotida ishtirokchilarning direktiv va beparvolik uslublari kollegial uslubga va emotsional intellekti oshirilishiga erishilgan.*

Kalit so‘zlar: *rahbar, lider, boshqaruv uslubi, direktiv, beparvolik, kollegial, emotsional intellect*

РОЛЬ СТИЛЯ УПРАВЛЕНИЯ РУКОВОДИТЕЛЯ В РАЗВИТИИ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У СОВРЕМЕННОГО РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация. *Данная статья направлена на исследование важности стиля управления руководителя в развитии лидерских качеств у современных руководителей. Рассматриваются директивный, небрежный и коллегиальный стили управления, а также эмоциональный интеллект руководителя, определяющий отношения в трудовом коллективе. В рамках коррекционной практики была достигнута трансформация директивных и небрежных стилей в коллегиальный стиль и повышение уровня эмоционального интеллекта.*

Ключевые слова*: руководитель, лидер, стиль управления, директивный, небрежный, коллегиальный, эмоциональный интеллект*

THE ROLE OF MANAGEMENT STYLE IN DEVELOPING LEADERSHIP QUALITIES IN MODERN LEADERS

Annotation. *This article focuses on investigating the importance of management style in developing leadership qualities in modern leaders. It explores directive, laissez-faire, and collegial management styles, as well as the emotional intelligence of leaders that shapes team dynamics. The study finds that in the context of correctional practice, a shift from directive and laissez-faire styles to a collegial approach enhances emotional intelligence.*

Keywords: *leader, leadership, management style, directive, laissez-faire, collegial, emotional intelligence*

Zamonaviy rahbar shaxsida liderlik qobiliyatini rivojlantirish ijtimoiy psixologiya sohasidagi dolzarb masala hisoblanadi. Liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbar mehnat jamoasining faoliyatida muvaffaqiyatini ta’minlashga intiladi. Mehnat jamoasining faoliyat motivatsiyasini yuzaga keltirishda rahbar boshqaruv uslubining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

K.Levin avtoritar, liberal, demokratik boshqaruv uslublarini ajratgan. [1] Rahbarlikning avtoritar [direktiv] uslubi boshqaruvning haddan ortiq markazlashuvi bilan xarakterlanadi. [2] Liberal uslubda rahbar xodimlar oldiga muammoni qo‘yadi, ularga ish sharoitlarini yaratib beradi. [3] Demokratik uslubdagi rahbar maqsadga intiluvchan, bosiq, ko‘pchilikning fikriga tayanadi.[4]

R.Laykert ikki liderlik uslubini, ishga yo‘nalgan lider va xodimlarga yo‘nalgan lider turlarini ajratgan. [5] Birinchi uslubda rahbar vazifalarni rejalashtiradi, ikkinchi uslubda xodimlar

o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga intiladi.[6] R.Xaus fikricha, tashkilotda maqsadga erishish rahbarning xodimlarni maqsadgi erishish uchun yo‘naltirish va motivatsiya berish uslubiga bog‘liq.[7] Vrum va Yyetton aytishicha, eng yaxshi boshqaruv uslubi mavjud emas, har safar, aniq вазиятга қараб, бошқарувнинг у ёки бу услубини қўллаш зарур.

- Tadqiqot metodologiyasi.

K.Levin tomonidan o‘rganilgan boshqaruv uslublari [9], F. Fidlerning vaziyatga xos samarali boshqaruv modeli [10], R.Xaus tomonidan yaratilgan yo‘l-maqsad nazariyasi [7], Vrum-Yyetton boshqaruv uslubi modeli [8] tadqiqotning metodologiyasi hisoblanadi.

- Tahlil va natijalar. Tadqiqotda tajriba guruhida (TG) 143 nafar, nazorat guruhida (NG) 93 nafar, jami 236 nafar rahbar hamda 101 nafar xodim jami 337 nafar ishtirokchi qatnashgan. Diagnostik bosqichda “Mehnat jamoasida boshqaruv uslubini aniqlash metodikasi” (V. Zaxarova, A.Juravleva) yordamida rahbar shaxsining jamoada boshqaruv uslubi o‘rganildi. So‘rovnomada direktiv, beparvolik, kollegial komponentlar keltirilgan bo‘lib, rahbar boshqaruv jarayonida qaysi uslubni qo‘llashi xodimlar tomonidan baholandi. (1-jadval).

1-jadval

Rahbar shaxsining jamoada boshqaruv uslubi
n=337 / TG n=143/ NG n=93 / xodim n=101

№	ishtirokchi	viloyat	Komponent						
			direktiv		beparvolik		Kollegial		jami
				%		%		%	
1	Rahbar (erkaklar) TG	Samarqand viloyati	31	52,5	18	30,5	10	16,9	59
		Qashqadaryo viloyati	28	50,0	20	35,7	8	14,3	56
		jami (viloyat)	59	51,3	38	33,0	18	15,7	115
2	Rahbar (ayollar) TG	Samarqand viloyati	4	30,8	7	53,8	2	15,4	13
		Qashqadaryo viloyati	5	33,3	7	46,7	3	20,0	15
		jami (viloyat)	9	32,1	14	50,0	5	17,9	28
3	Rahbar (erkaklar) NG	Samarqand viloyati	18	46,2	14	35,9	7	17,9	39
		Qashqadaryo viloyati	19	54,3	12	34,3	4	11,4	35
		jami (viloyat)	37	50,0	26	35,1	11	14,9	74
4	Rahbar (ayollar) NG	Samarqand viloyati	4	44,4	3	33,3	2	22,2	9
		Qashqadaryo viloyati	3	30,0	5	50,0	2	20,0	10
		jami (viloyat)	7	36,8	8	42,1	4	21,1	19
	jami		112	47,5	86	36,4	38	16,1	242

Psixokorreksiya amaliyoti tajriba guruhi ishtirokchilarida olib borildi. Nazorat guruhida umumiy suhbat asosida tashkil etilgan. Psixokorreksiya amaliyoti 4 bosqichda bo‘lib o‘tdi. Birinchi bosqichda psixoanaliz, ikkinchi bosqichda geshtalt va kognitiv xulq-atvor, uchinchi bosqichda transakt analiz, to‘rtinchi bosqichda gumanistik yondashuv va psixodrama texnikalari qo‘llanildi. Boshqaruv uslubini o‘zgartirish to‘rtinchi bosqichda amalga oshirildi. Yangi ishlab chiqilgan “Tashkilotchi lider” nomli psixologik trening boshqaruv uslubini kollegial ko‘rinishga o‘zgartirishda ijobiy samara berdi.

Liderlik qobiliyati va liderlik samaradorligi asosiy shkalalarining tajribadan keyingi diagnostik natijalari hamda rahbar shaxsining jamoada boshqaruv uslubi shkalalarining tajribadan keyingi diagnostik natijalari o‘zaro korrelyatsion tahlil qilindi. (2-jadval)

2-jadval

Liderlik qobiliyati va boshqaruv uslubishkalalarning o‘zaro bog‘liqligi korrelyatsion tahlili (Pirson kor.koef. bo‘yicha)

Shkalalar	Direktiv	Beparvolik	Kollegial
Liderlik qobiliyati	0,04	0,09	0,95**
Liderlik samaradorligi	0,06	0,11*	0,93**

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01;

Jadvalda keltirilgan liderlik qobiliyati va boshqaruv uslubishkalalarning tajribadan keyingi ko‘rsatgichlari o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi quyidagi tahlilga ega:

- liderlik qobiliyati va kollegial uslubi shkalalari korrelyatsiya koeffitsiyenti r=0,95 yuqori korrelyatsiyaga ega bo‘lib, kollegial boshqaruv uslubi yuqori darajada namoyon bo‘lgan.
- liderlik samaradorligi va kollegial uslubi shkalalari korrelyatsiya koeffitsiyenti r=0,93 quyi korrelyatsiyaga ega bo‘lib, kollegial boshqaruv uslubi yuqori darajada namoyon bo‘lgan.

Korreksiya amaliyotidan keyingi diagnostik bosqichda rahbarning shaxsining emotsional intellekti diagnostikasi bo‘yicha TG va NG ishtirokchilarning korreksiya amaliyotidan oldingi va keyingi ko‘rsatgichlari dinamikasi tahlil qilindi. (3-jadval)

3-jadval

Rahbar shaxsining emotsional intellekti n=236 / TG n=143/ NG n=93 (t-styudent mezoni bo‘yicha)

shkala	TG/ NG	TOM	%	TKM	%	t
Emotsional bilimdonlik	TG	8,5	47,2	15,5	86,1	3,47***
	NG	9,4	52,4	9,9	54,7	1,98*
O‘z emotsiyalarini boshqarish	TG	8,1	44,7	15,3	85,0	3,64***
	NG	8,8	48,6	9,6	53,2	2,16*
O‘zini o‘zi undash qobiliyati	TG	10,2	56,5	16,1	89,3	3,54***
	NG	9,4	51,9	9,5	52,5	2,03*
Empatiya	TG	10,9	60,6	15,7	87,4	3,41***
	NG	11,5	64,0	11,5	64,0	1,97*
Boshqalar emotsional holatlarini bilish	TG	11,9	66,1	16,2	89,9	3,58***
	NG	11,7	65,0	12,0	66,7	2,23*
Umumiy emotsional intellekt	TG	49,5	55,0	78,8	87,5	3,74***
	NG	50,8	56,4	52,4	58,2	2,17*

Izoh: *p≤0,05; ***r≤0,001

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatgichlarga asosan korreksiya amaliyotidan keyingi rahbar shaxsining emotsional intellekti ko‘rsatgichlari TGda emotsional bilimdonlik - 86,1%; o‘z emotsiyalarini boshqarish - 85,0%; o‘zini o‘zi undash qobiliyati - 89,3%; empatiya - 87,4%; boshqalar emotsional holatlarini bilish - 89,9%; umumiy emotsional intellekt - 87,5%; NGda emotsional bilimdonlik - 54,7%; o‘z emotsiyalarini boshqarish - 53,2%; o‘zini o‘zi undash qobiliyati - 52,5%; empatiya - 64,0%; boshqalar emotsional holatlarini bilish - 66,7%; umumiy emotsional intellekt - 58,2% darajada namoyon bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy rahbarlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda rahbar boshqaruv uslubining ahamiyati tadqiqotda o‘rganildi. Diagnostik bosqichda namoyon bo‘lgan boshqaruvning direktiv va beparvolik uslublari korreksiya amaliyoti natijasida kollegial uslubga o‘zgartirildi. Mehnati jamoasining munosabatlarini belgilovchi rahbar shaxsining emotsional intellekti korreksiya amaliyotida oshirishga erishildi.

- rahbar boshqaruv uslubini kollegial uslubga o‘zgartirish orqali liderlik qobiliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish mumkin;

- rahbar shaxsining emotsional intellektini oshirish natijasida mehnat jamoasi ijobiy munosabatlarini ta'minlash hamda liderlik qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Egamberdiyev F.T., Nishonova D.B. Rahbarlik uslublarining asoslari. Iqtisod va moliya junrali №9, 2017. 60-68 b.
2. Первякова С.А. Стиль руководство и его влияние на эффективность управленческой деятельности. Журнал Управление образованием. №11, 2009. 2-4 с.
3. Ширяева Д.К., Чиркунова Е.К. Выбор наиболее эффективного стиля руководства при управлении на предприятиях. Журнал Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №1(27), 2018. 187-191 с.
4. Евтихов О. В. Психология управления персоналом: теория и практика. - СПб.: Речь, 2010. - 319 с.
5. Gallo P., Gonos J. Model for leadership style evaluation. Management: Journal of Contemporary Management Issues, Vol.18 No.2, 2013. pg.157-168
6. Kahya C., Pabuccu H. Evaluationing leadership styles within the scope of Rensis Likert's system-4 model by using Fuzzy AHP approach. International Refereed Academic Social Sciences Journal. Is.:15, Vol.:6, 2015. pg. 1-23
7. Дафт Р.Л. Уроки лидерство. – М.: Эксмо, 2006. – 480 с.
8. Шеклтон В. Психология лидерства в бизнесе. – СПб.: Питер, 2003. – 222 с.
9. Бендас Т.В. Психология лидерства: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2009. – 448 с.
10. Сельченок К.В. Психология лидерства. Хрестоматия. – Мн.: Харвест, 2004. - 368 с.

Jabborov Ismoil
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARIDA NIZOLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar o‘rganiladi. Oilada er va xotin o‘rtasidagi ziddiyatlar turli sabablar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, jumladan, iqtisodiy qiyinchiliklar, o‘zaro tushunmovchilik, kommunikatsiya muammolari va oilaviy rollar to‘g‘risidagi kelishmovchiliklar. Tadqiqotda ushbu omillarning psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatlari tahlil qilinib, nizolarni oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda nizolarni samarali boshqarish bo‘yicha amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Oila, er-xotin, rashk, ishonchsizlik, sevgi, muhabbat, jizzakilik, rol, ojizlik, norozilik, barqarorlik, psixoterapiya.*

FACTORS CAUSING CONFLICTS IN HUSBAND-WIFE RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

Abstract. *В данной статье изучаются факторы, вызывающие конфликты в семейных отношениях. Разногласия между супругами могут быть связаны с различными причинами, такими как экономические трудности, недопонимание, проблемы коммуникации и разногласия по поводу семейных ролей. В исследовании анализируются психологические, социальные и культурные аспекты этих факторов, а также разрабатываются рекомендации по предотвращению конфликтов. Результаты исследования служат практическим руководством для укрепления семейных отношений и эффективного управления конфликтами.*

Key words: *Family, couple, jealousy, insecurity, love, romance, jealousy, role, weakness, dissatisfaction, stability, psychotherapy.*

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ КОНФЛИКТЫ В МУЖЕ-ЖЕНСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В СЕМЬЕ

Аннотация. *This article examines the factors that contribute to conflicts in family relationships. Disagreements between spouses may stem from various causes, including financial difficulties, misunderstandings, communication issues, and disagreements about family roles. The study analyzes the psychological, social, and cultural aspects of these factors and develops recommendations for preventing conflicts. The findings serve as a practical guide for strengthening family relationships and effectively managing conflicts.*

Ключевые слова: *Семья, пара, ревность, неуверенность, любовь, романтика, ревность, роль, слабость, неудовлетворенность, стабильность, психотерапия.*

Oila ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning natijasi va buyuk ne’matidir. Biz oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning milliy psixologik istiqbollarini ishlab chiqishda psixikaning muhim xususiyatlaridan biri tarixiylik va uning davriy xususiyatga ega ekanligini inobatga olish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki oilaning shakllanishi, er-xotin munosabatlari va undagi ishtirokchilarning faoliyati muayyan tarixiy davrlarda amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, so‘nggi 40 yilda ajralishlar miqdori yildan-yilga ancha ko‘payib borayotganligi kuzatilgan, biroq ularni qoralash nisbatan kamaygan. Ana shunday holatlarni oldini olishning muhim vositalaridan biri-oilaviy psixoterapevtik usullardan foydalanishdir.

Oilaviy psixoterapiyaga doir eng mukammal qo‘llanmalarda bu ilmiy-amaliy fanga shunday ta’rif berilgan: Oilaviy terapiya profilaktika, kasalliklarni davolash hamda shundan keyingi ijtimoiy

mehnat reabilitatsiyasi maqsadida uni o‘rganishni va unga ta’sir ko‘rsatishni qamraydigan psixoterapiyaning bir sohasi hisoblanadi.

Oilaviy psixoterapiya usullari eng avvalo, psixozga xos bo‘lmagan psixogen buzilishlarda, alkogolizmda, giyohvandlikda, psixatiya, psixoz va psixosomatik kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Eng muhimi oilaviy psixoterapiyada psixoterapiyaning boshqa sohalari tomonidan o‘rganilmaydigan bir qator qo‘shimcha jihatlar ham mavjudki, bular-oilaning meyorida faoliyat ko‘rsatishi, undagi buzilishlarning turlari, ularning profilaktikasi, oila a’zolarining psixik va somatik salomatligi, oila hayoti va faoliyati nuqsonining diagnostikasidir.

Bunday tibbiy yondashuv doirasida oilaga o‘z mantiqiga ko‘ra, rivojlanuvchi shaxslararo munosabatlar tizimi tarzida emas, balki, eng avvalo, ijtimoiy muhitda alohida yo‘sinda faoliyat olib boruvchi insonlar guruhi sifatida qaraladi. Bu yerda oilaning “normal”, "buzilgan" vazifalari, tarkibiy tuzilishi va dinamikasi [3; 9-27] ta’rifi bilan bog‘liq masalalar birinchi o‘ringa chiqadi. Shuning bilan birga V.YE. Kaganning ta’kidlaganidek, psixoterapiyaning (shu jumladan oilaviy psixoterapiyaning) vujudga kelayotgan yangi usullari tobora ko‘proq insonparvarlik yo‘nalishlari sari intiladi [1;321].

Oilaviy psixoterapiya nima bilan shug‘ullanadi? Uning predmeti va pirovard maqsadi nimalardan iborat? N. Pezeshkian shu savollarga javob berar ekan, quyidagi qadimiy sharq hikmatini keltiradi: Agar sen o‘z mamlakatingni tartibga keltirishni xohlasang, dastlab viloyatni tartibga keltir. Agar sen viloyatni tartibga keltirishni istasang, avvaliga shaharlarda tartib o‘rnat. Shaharlarda tartib o‘rnatish uchun oilalarni batartib qilmog‘ing lozim. Agar sen oilalarda tartib o‘rnatishni xohlasang, avvalo o‘z oilangda tartib o‘rnatishing kerak. Sen o‘z oilangda tartib o‘rnatishni istar ekansan, dastlab o‘zingni tartibga solmog‘ing joiz [2; 77].

Xullas, “oilalarda tartib o‘rnatish”ga da’vat etilgan oilaviy terapiya pirovard natijada insonparvar psixologik amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi [2; 128]. “Oilaviy psixoterapiyaga birinchi bo‘lib, sharq xalqlari” asos solganligi bizga ma’lum bo‘ldi.

Bizning nazarimizda, u o‘zining bu xususiyati bilan zamonaviy oila rivojlanishida, uning bazaviy ijtimoiy yo‘nalishi markazida inson turishi tufayli uni o‘zgartiradigan insonparvarlik mayllariga yordam berishga da’vat etilgan.

Biz tadqiqotlarimiz davomida (IPS yordamida) oiladagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi 50 dan ziyod omillar ta’sirini o‘rgangan bo‘lsakda, lekin ulardan eng muhimlari deb baholangan 20 ta omil to‘g‘risida fikr yuritishga qaror qildik, xolos.

Respondentlarga “Quyidagi omillarni sizning oilangizdagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida namoyon bo‘lishini baholang” (“kuchli”, “o‘rtacha”, “kuchsiz”, “uchramaydi” ko‘rinishida) deb bergan savolimizga ular quyidagicha javob berdilar (jadvalga qarang).

1-jadval

Oilada er-xotin munosabatlarida nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar (% hisobida) n=280

№	Omillar	Namoyon bo‘lish darajasi							
		Kuchli		O‘rtacha		Kuchsiz		Uchramaydi	
		Er	Xotin	Er	Xotin	Er	Xotin	Er	Xotin
1	Fe’l-atvorning mos kelmasligi	14,3	25,7	43,6	42,2	14,3	15	27,8	17,1
2	Bolalar tarbiyasiga munosabat	45	59,3	20	16,5	15	10,7	20	13,5
3	Iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar	15	7,1	47,2	49,3	15	15	22,8	28,6
4	Oila budjetini ratsional boshqara olmaslik	10,8	9,3	48,6	49,3	7,8	11,4	32,8	30
5	Uy ishlarining taqsimoti sababli	13,6	11,4	30	41,4	30	19,4	26,4	27,8

6	Ota-onalarning aralashuvi	37,8	40	16,5	16,5	13,6	8,5	32,1	35
7	Boshqa birovlarning aralashuvi	12,1	10,7	17,9	16,4	17,9	19,3	52,1	53,6
8	Rashk va ishonchsizlik	32,2	41,4	20,7	22,1	20,7	17,2	26,4	19,3
9	Sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi	16,4	15,7	42,8	45	13,6	18,6	27,2	20,7
10	Uy ishlarining saranjom-sarishta emasligi	12,1	13,6	34,3	24,3	25	26,4	28,6	35,7
11	Ota-ona va qarindosh-urug‘larga munosabat	42,1	55,7	28,6	17,9	9,3	7,9	20	18,5
12	Farzandsizlik	17,1	7,9	7,2	10,7	7,2	12,9	68,5	68,5
13	Yashash sharoitining noqulayligi	7,9	9,3	31,4	25	20,7	22,1	40	43,6
14	Dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi	16,4	17,9	35	41,4	19,3	17,9	29,3	22,8
15	Gap olmaslik, kelishmovchilik	17,1	15,7	27,2	35	17,1	20,7	38,6	28,6
16	Oila manfaatiga mos ishga ishlamasliklari	13,6	10	30	49,3	18,6	15	37,8	25,7
17	Ichish, chekish va boshqa qusurlar	11,4	10	30,7	26,4	11,4	10,7	46,5	52,9
18	Jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik	12,9	9.3	12,9	22,1	10,7	14,3	63,5	54,3
19	Muvaqqat noxush kayfiyatlar	10	12,1	21,4	25,7	15,7	15	52,9	47,2
20	Boshqa arzimagan sabablar	11,4	17,9	25	24,3	20	20,7	43,6	37,1

Respondentlarning (er-xotin) bola tarbiyasidagi munosabat erda 45% xotinda 59,3%, ota-onalarning aralashuvi erda 37,8% xotinda 40%, rashk va ishonchsizlik erda 32,2% xotinda 41,4%, ota-ona va qarindosh-urug‘larga munosabatning kutilganidek darajada emasligi erda 42,1% xotinda 55,7% oilada er-xotin munosabatlarida nizolarni kelib chiqishiga kuchli omil sifatida ta’sir etadi, deb e’tirof etadilar.

Oilada er-xotin munosabatlarida nizolar kelib chiqishida er-xotinning munosabatlariga fe’l-atvorning mos kelmasligi (erda 14,3%, xotinda 25,7%), sevgi va muhabbatning yetarli emasligi (erda 16,4%, xotinda 15,7%), farzandsizlik (erda 17,1%, xotinda 7,9%), dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi (erda 16,4%, xotinda 17,9%), boshqa arzimagan sabablar (erda 11,4%, xotinda 17,9%), gap olmaslik, kelishmovchilik (erda 17,1%, xotinda 15,7%) ham ba’zan oilaviy ziddiyatlar uchun kuchli omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilada er-xotin munosabatlariga iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar (erda 15%, xotinda 7,1%), oila budjetini ratsional boshqara olmaslik (erda 10,8%, xotinda 9,3%), uy ishlarining taqsimoti sababli (erda 13,6%, xotinda 11,4%), boshqa birovlarning aralashuvi (erda 12,1%, xotinda 10,7%), uy ishlarining saranjon-sarishta emasligi (erda 12,1%, xotinda 13,6%), yashash sharoitining noqulayligi, ichish,chekish va boshqa qusurlar (erda 7,9%, xotinda 9,3%), jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik (erda 12,9%, xotinda 9,3%), muvaqqat noxush kayfiyatlar (erda 10%, xotinda 12,1%), omillari tufayli ularda kuchli nizolar kelib chiqishi deyarli kuzatilmaydi.

Aslida insonlarda uchraydigan axloqiy illatlar ko‘pincha inson tarbiyaviy jarayonlariga e’tiborsizlik oqibatida, uning jamoasidagi (oila, bog‘cha, maktab, mahalla) nosog‘lom psixologik muhit ta’sirida, shuningdek, uning yashash jarayonida bevosita ko‘z o‘ngida yuzaga keladigan turli

muammolar, qiyinchiliklar, kamchiliklar va boshqa sabablar asosida shakllanadi. Keyinchalik uning jamiyatda shaxslararo munosabatlari jarayonida unda yetarli darajada shakllanmagan imkoniyatlar, turlicha muammolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Afsuski, ana shunday salbiy sifatlarni (illatlarni) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila quradilar. Buning natijasida o‘z hayot yo‘lini bir umrga bog‘lagan er-xotinlarning yoki er-xotin bilan uning boshqa a’zolari o‘zaro munosabatlarida ularda avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o‘zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga va hatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Каган М.С. Мир общения. Проблемы межсубъектных отношений. –М.: 1988. -329с.
2. Пезишкиан . Позитивная семйная психотерапия. –М.,1993. -123 с
3. Эйдемеллер Э.Г., Юстецкий В.В. Семейная психотерапия. -Л., 1989.-192 с.
4. Jabborov I.A. “Oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari: Psixolog. fan. bo‘y. fal. dok. ...dis. avtoref. -Toshkent.: O‘zMU, 2021.

Husanov Abbos Mahmudovich
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Karimov Nurbek G‘aybulla o‘g‘li
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

PSIXOLOGIYADA MILLIY TARBIYA MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada psixologiyada milliy tarbiya muammosini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek psixologiya fanida tarbiya tushunchasining ilmiy tadqiqi, sharq mutafakkirlarining tarbiya va xulq-atvor haqidagi qarashlari hamda ijtimoiy, axloqiy me’yorlarning shaxs kamolotiga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan. Milliy tarbiyaning ijtimoiy psixologik qonuniyatlari bilan tanishish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, tarbiya va xulq-atvor, milliy tarbiya, tarbiya me’zonlari, psixologik qonuniyat, axloq, ma’naviyat, nazariy metodologiya, psixologik tahlil, ijtimoiy-axloqiy me’yorlar.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *В статье проанализированы научно-теоретические основы изучения проблемы национального воспитания в психологии. Также в психологической науке представлены научные исследования концепции воспитания, взгляды восточных мыслителей на воспитание и поведение, а также сведения о влиянии социальных, нравственных норм на созревание личности. Можно ознакомиться с социально-психологическими закономерностями национального воспитания.*

Ключевые слова*: личность, воспитание и поведение, национальное воспитание, критерии воспитания, психологическая закономерность, мораль, духовность, теоретическая методика, психологический анализ, социально-нравственные нормы.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF STUDYING THE PROBLEM OF NATIONAL EDUCATION IN PSYCHOLOGY

Abstract. *The article analyzes the scientific and theoretical foundations of studying the problem of national education in psychology. Also, information about the scientific study of the concept of education in the science of psychology, the views of Eastern thinkers about education and behavior, and the influence of social and moral norms on personal development is presented. It is possible to get acquainted with the social and psychological laws of national education.*

Key words: *personality, education and behavior, national education, educational criteria, psychological legitimacy, morality, spirituality, theoretical methodology, psychological analysis, social and moral norms.*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda yosh avlod kamoloti g‘oyasini turmushga tatbiq etish uchun milliy ma’naviyat, milliy ta’lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya ongning mahsuli va ongning darajasi bo‘lish bilan birga ongning rivojini ham belgilaydigan omil hamdir. «Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi»[1]. Har qanday shaxsda zamonaviy dunyoqarashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘lishi kerak. Shaxsda bilim, dunyoqarash, e’tiqodning shakllanganligi uni kamolotining asosiy mezoni sanalib, ilmiy tadqiq etishni taqazo etadi.

Jahonda yosh avlodlar orasida ko‘p asrlik insoniy qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi, yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida voyaga yetib, kelajakda komil shaxs darajasiga yetish muammosiga alohida e’tibor qaratish doimo dolzarbdir. BMTning 2019-yil 25-iyuldagi Bosh assambleyasining 73-Sessiyasida 5-aprelni “Xalqaro axloq kuni” deb taklif qilindi va axloq kunini nishonlash butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik va unga erishish uchun

tinchlik, bag‘rikenglik, birdamlik, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash yo‘lida xalqaro hamjamiyat sa’yi-harakatlarini doimiy safarbar etish vositasi ekanligiga alohida e’tibor qaratdi. Maktab o‘quvchilari psixologiyasida axloq-odob meyorlari va adekvant xulq-atvorning namoyon bo‘lishi va xulq og‘ishini oldini olishning yechimini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Psixologiyada tarbiya masalasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tadqiqida psixolog va pedagoglarining o‘rni beqiyosdir. Tarbiya psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar tahlilini qilgan holda, shu narsaga amin bo‘ldikki, insoniyat tug‘ilibdiki, axloq-odob va tarbiya masalalari bilan doimiy ravishda shug‘ullanganligi, shaxs taraqqiyotiga erishishda ta’lim bilan tarbiya uzviylikda ekanligini kuzatishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish joizki, bu mavzu doimo dolzarb va qo‘hnadir.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik hamda psixologik jarayondir. «Milliy tarbiya» - ma’lum bir shaxs yoki xalqning jamiyatda komil inson bo‘lib shakllanishi uchun shaxsda milliy mafkura, milliy g‘urur, milliy ong kabilarni shakllantirish jarayondir. Pedagog olimlarimizdan professor Muhammadjon Quronov milliy tarbiya tushunchasiga quyidagicha tarif bergan: «Milliy tarbiya» tushunchasi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u:

- milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;
- umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;
- xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish vositasi;
- turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, manaviy manbai;
- o‘quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;
- millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O‘zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo‘li va vositasi;
- ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg‘unligining pedagogik shartidir [2].

Diqqat qilinsa, bu ta’rif milliy tarbiya tushunchasining ma’no-mazmunini to‘liq qamrab olgan. Chunki milliy tarbiyaning o‘zagi milliylikdir. Milliy tarbiya yosh avlodlarda o‘zining va o‘zga xalqlarga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik singari fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo‘lgan fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan milliy shaxs siymosi mavjudligini A.Kardiner quyidagicha ta’kidlaydi: «Milliy shaxs» ning shakllanishida, eng avvalo, oilaning milliy-tarbiyaviy ta’sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining roli beqiyosdir [3].

Zero milliy tarbiya deganda yosh avlodni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan shaxs sifatida shakllantirish uchun ta’lim va tarbiya berish deb tushunish mumkin.

Tahlil va natijalar. «Milliy tarbiya» tushunchasidagi «milliy» so‘zining ma’nosi muayyan xalqqa xos bo‘lgan xususiyatlar mazmunini, «tarbiya» so‘zi esa avlodlararo ijtimoiy – tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatadi. Shu ma’noda shunday ta’rifni shakllantirish mumkin: milliy tarbiya bu – muayyan xalqning yosh avlodni o‘z an’analari va hayotiy tajribasi asosida barkamol voyaga yetkazish jarayonidir. Milliy tarbiya – ma’lum bir shaxs yoki xalqning jamiyatda komil inson bo‘lib shakllanishi uchun zarur bo‘lgan milliy ong, milliy ruh kabilarni tarkib toptiruvchi ta’lim va tarbiya jarayondir.

Milliy tarbiyaga quyidagi asosiy xususiyatlar xos bo‘ladi:

1) ta’lim berish va tajribani uzatish vositasida shaxsning aqliy salohiyatini o‘stirish;
2) milliy an’analar, urf-odatlar va qadriyatlar asosida shaxs axloqini rivojlantirish;
3) mo‘tadil tafakkur va sog‘lom g‘oyalarga tayanib shaxsning dunyoqarashini hosil qilish;
4) turli tadbirlar vositasida shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash.

Milliy tarbiyamizning mazmunini tashkil etuvchi ma’naviy fazilatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish kichik maktab yoshida izchil ravishda amalga oshirilsa, samarasi yuqori bo‘ladi. Eng muhimi yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda yuksak tafakkur, keng dunyoqarash, milliyligimizning bugungi

ko‘rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko‘plab jarayonlarni amalga oshirishdir. Milliy tarbiyaning mazmunini yetkazib berish hamda yuksaltirishga undovchi milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish keng jamoatchilikning asosiy vazifasidir[4].

Shaxs faoliyat jarayonida moddiy va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanib boradi. Shaxsg tarbiyasi va axloqiy meyorlarni tadqiq qilish bugungi psixologiya fani oldidagi muhim vazifalar biridir. Mazkur muammo bilan antik davrda yashab o‘tgan qadimgi yunon faylasuf olimlari Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, shuningdek sharq mutafakkirlarining ham asarlarida batafsil o‘lmas fikrlar qayd etilgan.

O‘z bilimi va fikr doirasining kengligi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr al-Forobiy tarbiyaning bosh g‘oyasi va maqsadi hamda o‘qitishning vosita va usullari haqida o‘z qarashlarini bayon etgan. Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asarida milliy tarbiya uchun falsafiy asos bo‘ladigan fikrlarni bildirganlar. Shaxslarni birlashtiruvchi dastlabki asos insoniylikdir. Forobiy fozil shaharda baxt-saodatga erishishni istagan har bir inson fozillikka intilib yashashi darkor, deb hisoblagan. Inson birdamlik, yakdillik, adolat va haqiqatgo‘ylik, xushmuomalalik, ezgu niyatlar orqaligina baxtu saodatga erishadi[5]. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi».

Beruniy so‘zlari bilan aytganda, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Shuningdek, u insonning ijobiy va salbiy tomonlarini birma-bir ta’rif etadi. Masalan, olim insondagi yaxshilik, rostgo‘ylik, olijanoblik, muruvvat, mehr-shavqat, do‘stlik va jamoachilik kabi fazilatlarni ulug‘laydi. Shu fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan har bir inson har narsaga qoldirligini, o‘z eli va yurti uchun beqiyos naf keltirishi mumkinligini alohida ta’kidlaydiki, bu hozir ham ta’lim-tarbiya sohasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Yolg‘onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g‘animlik, ichiqoralik, qo‘pollik, o‘g‘rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o‘ziga bino qo‘yish, xushomadgo‘ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralanadi [6].

A.Avloniy aytganidek: «Agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson chiqar....». Shu sababdan A.Avloniy tarbiyaning inson xayotida zarurligini nazarda tutib «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat saodat - yo falokat masalasidir» deb takidlagan edi[7].

Xulosa. Mamlakatimiz yoshlari sog‘lom tafakkurga ega bo‘lib, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlarni sog‘lom ong, sog‘lom aqida tarafidan ijobiy qabul qilishi, ajdodlarimizning ma’naviy merosini o‘zlashtirishi, o‘zining ma’naviy imkoniyatlarini namoyon etishi, insoniylik, axloqiy poklik kabi sifatlarni shakllantirib, mustahkamlashi, o‘zbek xalqining ko‘hna tarixi, an’analari, boy madaniyati, milliy qadriyatlariga sadoqat bilan ma’naviyatini asrab avaylashi va uni rivojlantirishi lozim. Chunki aynan ma’naviyat – insonni komillikka yetaklovchi muhim yo‘ldir.

Milliy tarbiya murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, ko‘plab tarbiyaviy jarayonlarning yaxlit natijasidir hamda turli jihatlarning birligida ko‘rib chiqilishi lozim. Bolalarni milliy tarbiya ruhida tarbiyalash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muhitning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi masala muhimdir. Milliy tarbiyaning o‘ziga xosligi uning muhit bilan chambarchas bog‘liqligidadir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.– Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2022.

2. Қуронов М. Миллий тарбия. –Т.: 2007. −9 б.

3. Жўраева Ш. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларга таълим беришда мультимедиа воситаларидан фойдаланиш. –Т.: «Фан ва технология». 2013. -31 б.

4. Қуронов М. Ўзбекистон умумтаълим ўрта мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: П.ф.д. дис. –Т.: 1998. −316 б.

5. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: «Янги аср авлоди», 2016.-186-187 б.

6. Абу Райҳон Беруний. Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: Фан, 1972.-48 б.

7. А.Авлоний «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ».-Т.: «Ёшлар нашриёт». 2018 -15 б.

Mamadiyarov O‘lmas Ergashovich
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

SARATON KASALLIGI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada saraton kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu kasallik nafaqat jismoniy, balki ruhiy va hissiy jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda saraton tashxisidan keyingi stress, xavotir, depressiya, umidsizlik, o‘z-o‘zini qadrlash darajasining pasayishi kabi holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, bemorlarning kasallikka moslashish strategiyalari, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati ham o‘rganilgan. Saraton kasalligiga chalinganlarning psixologik holatini yaxshilash uchun psixoterapiya, konsultatsiyalar va qo‘llab-quvvatlash guruhlarining roli alohida yoritilgan. Tadqiqot natijalari, psixologik yordam ko‘rsatish va bemorlarning hayot sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.*

Mazkur maqolada, shuningdek, bemorlarning shaxsiy psixologik xususiyatlari, ular duch keladigan qiyinchiliklar va ushbu holatlarning ijtimoiy ta’sirlari haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan. Tadqiqot saraton kasalligi bilan yashayotgan bemorlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan muhim ilmiy asoslarni beradi.

Kalit so‘zlar. *Saraton, psixika, tibbiyot, psixologiya, o‘jarlik, psixologik yordam, psixik xolat, baho, munosabat, tajriba, maqsad, ishonch.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ БОЛЬНЫХ РАКОМ.

Аннотация. *В данной статье изучены психологические особенности пациентов, страдающих раком. Это заболевание оказывает значительное влияние не только на физическое, но и на психическое и эмоциональное состояние человека. В исследовании проанализированы такие состояния, как стресс, тревога, депрессия, безысходность и снижение самооценки, возникающие после постановки диагноза. Также рассматривается значение стратегий адаптации к болезни, роли семейной и социальной поддержки. Особое внимание уделено роли психотерапии, консультаций и групп поддержки в улучшении психологического состояния пациентов с онкологическим заболеванием.*

Результаты исследования имеют практическое значение для разработки мер по оказанию психологической помощи и повышения качества жизни больных. В статье также подробно рассматриваются индивидуальные психологические особенности пациентов, трудности, с которыми они сталкиваются, и социальные последствия этих состояний. Исследование предоставляет научную основу для разработки стратегий поддержки психического здоровья пациентов, живущих с диагнозом рака.

Ключевые слова. *рак, психика, медицина, психология, упрямство, психологическая поддержка, психическое состояние, оценка, отношение, опыт, цель, уверенность.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CANCER PATIENTS.

Annotation. *This article examines the psychological characteristics of patients suffering from cancer. The disease significantly affects not only physical health but also mental and emotional processes. The study analyzes conditions such as stress, anxiety, depression, hopelessness, and reduced self-esteem that arise after a cancer diagnosis. It also explores the importance of coping strategies, as well as the role of family and social support. Special attention is given to the role of psychotherapy, counseling, and support groups in improving the psychological well-being of cancer patients.*

The findings have practical relevance for developing measures to provide psychological assistance and improve patients’ quality of life. The article also provides detailed insights into the individual psychological traits of patients, the challenges they face, and the social implications of

these conditions. The research offers a critical scientific foundation for developing strategies to support the mental health of individuals living with cancer.

Key words. *cancer, psyche, medicine, psychology, stubbornness, psychological support, mental state, assessment, attitude, experience, purpose, confidence.*

Bugungi kunda saraton inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatadigan eng dolzarb va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma’lumotlariga ko‘ra, bunday kasalliklar bilan kasallanish yildan yilga o‘sish foizi ortayotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Dunyo bo‘ylab har yili birlamchi saraton tashxisi qilinadi. Saraton tashxisi qo‘yilgan bemorni davolashda nafaqat tibbiy chora-tadbirlarni qo‘llanilishi, balki bemor psixologiyasini ham inobatga olgan holda psixolog bilan birga olib borilgan tadbirlar ahamiyatlidir.

Ko‘p odamlar ongida saraton tashxisi mumkin bo‘lgan o‘lim bilan uzviy bog‘liqdir. Saraton kasalligidan o‘lim qo‘rquvi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Bunga kino, teleko‘rsatuvlar, fantastika va do‘stlarning hikoyalari yordam berdi.

“Saraton”, “o‘simta”, “metastazlar” so‘zlari dahshatli eshitiladi va hali ham odamlarni qo‘rqitadi.

Saraton kasalligi davrida bemorning ruhiy holatida bir necha davrlar ajralib turadi. Bemor jiddiy saraton kasalligi haqidagi fikrlarni “haydashga” harakat qiladi, tashxisga ishonmaydi va uni inkor etishi mumkin. Tashxis nihoyat tasdiqlanganda, uni inkor etishning iloji bo‘lmaganda, bemor asabiylashadi va muvozanatsiz bo‘ladi.

Asta-sekin ortib borayotgan hissiyot kuchlarni yaqinlashib kelayotgan xavfga qarshi kurashish uchun safarbar qilish bilan almashtiriladi. Bemor “kasallik faktini” qabul qiladi va u bilan kurashadi.

Kasallikning rivojlangan bosqichida, yaxshilanish bo‘lmasa, depressiya kuchayadi va bemorga o‘lim haqidagi fikrlar tashrif buyuradi. Bemorda hissiy tajribalar zaiflashadi. Atrof-muhitga va o‘ziga nisbatan befarqlik kuchayadi.

Onkologik kasallik va uni davolashning psixologik oqibatlari butun dunyoda muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida olib borilmoqda. Onkologik kasalliklarni davolashda yangi zamonaviy davolash texnologiyalarini qo‘llash bir tomondan onkobemorlarni hayotini uzaytirishga yordam bersa, boshqa tomondan davolanishdan ma’lum vaqt o‘tgandan keyin, bir qator psixonevrologik va psixologik buzilishlar rivojlanishi ehtimolini yaratadi.

Onkologik kasallik vaziyati inqirozli va ekstremal vaziyatlar uchun xarakterli hisoblanadi. Vaziyatning to‘satdan vujudga kelishi, hayot manzarasining buzilishi, sodir bo‘layotgan hodisalarni nazorat qila olmaslik, kelajakning noaniqligi, kasallikka reaksiya qilishning bosqichliligi kabi barcha belgilarga ega. Onkologik kasallik vaziyati uchun quyidagicha umumiy to‘ldiruvchi maxsus belgi va xususiyatlar xos: kasallikning polietiologikligi, jarrohlik amaliyotining nogiron qiluvchilik xarakteri, og‘ir va uzoq davom qiluvchi davolanish, tuzalishga kafolatning yo‘qligi, iqtisodiy va moddiy ahvolatning o‘zgarishi kabilar.

Bu vaziyatni hayotning boshqa vaziyatlaridan farqlash insonda o‘ziga xos kechinmalarni vujudga keltiradi. Mazkur kechinmalarni kasallik vaziyatini hisobga olmasdan, bemorning barcha holatlari va kechinmalarini tushunish mumkin emas.

Ekstremal va inqirozli vaziyatlar uchun umumiy bo‘lgan vaziyatlar o‘zining haddan oshgan intensivligi bilan namoyon bo‘ladigan kechinmalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu kechinmalarda psixik jarohat xavfi mavjud.

Ekstremal va inqirozli vaziyat orasida farq mavjud bo‘lib, ekstremal vaziyat insonni ichki moslashuv imkoniyatlaridan o‘zib ketadigan, tashqi holatlarning to‘satdan bosimi natijasida vujudga kelsa, inqirozli vaziyat hayotni subyektiv mazmuni, shaxs tuzilishini tubdan o‘zgarishi bilan tiklanishni talab qiladigan inson rivojlanishidagi keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan vaziyatdir.

Ekstremal va inqirozli vaziyatlarning adekvat hal qilinishi psixik muvozanatning asta-sekinlik bilan tiklanishi evaziga sodir bo‘ladi. Bunda inson nafaqat ruhiy muvozanatni tiklaydi, balki yangi tajribani integratsiya qila turib, shaxsiy o‘sish va identiklikning kengayishi imkoniyatiga ega

bo‘ladi. Bundan tashqari inqirozni adekvat hal qilishda hayotiy maqsad va mazmun, hayotiy qadriyatlar, ustuvorliklarni qayta tushunish va qayta baholash sodir bo‘ladi. Bu vaziyatdan adekvat chiqib keta olmaslik, dezadaptatsiyaning turli shakllariga olib boradi.

Favqulodda qiyin vaziyatlarga tushgan inson kechinmalarining bunday namoyon bo‘lishi ham ekstremal ham inqirozli holatlar uchun shartlidir. Odatda, bu kabi inson kechinmalarining izohlanishi ekstremal va inqirozli holatlar elementi sifatida qatnashadi.

Onkologik kasallik aynan hayot ma’nosini ochib qo‘yadi hamda bemor, uni oilasi va yaqin atrof muhitini odatiy hayotda yashirin bo‘lgan ekzistensial muammolar bilan muqarrar to‘qnashtiradi.

Birinchi galda bemor o‘z xususiy hayotiga xavf bilan to‘qnashadi. Undan tashqari kasallik insonni o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolishiga imkon beradi. Yaqinlari qanchalik hohlasalar ham boshqaning og‘riq va qayg‘ularini o‘zinikiday kechira olmaydilar, hamda bemor uchun bunday azobli kechinmalar chuqur yolg‘izlik hissini chaqiradi. Natijada bemorlarda hayot qurilishi haqidagi illyuziyalar vujudga keladi va mavjudlik mazmunini yo‘qotadi.

Har bir onkologik bemor o‘ziga “Nima uchun men kasal bo‘ldim?”, “Nima uchun?”, “Qaysi gunohlarim uchun?”, “Endi qanday yashayman?”, “Butun hayotim ximiyaterapiya bo‘ladigan bo‘lsa, yashash shartmi?” degan savollarni beradi hamda bemor oldida o‘z turmush tarzi, davolanishga o‘z hissasini qo‘shishga nisbatan mas’uliyat bo‘yicha savollar paydo bo‘ladi, kasallik sharoiti bilan mos yashash uchun kasallikning ahamiyati, uning mazmuni va o‘z hayoti mazmunini o‘ylab ko‘rish zarurati bilan to‘qnashadi. Ma’naviy muammolar inson tomonidan hamma vaqt ham anglanmaydi, lekin uning kechinmalariga alohida azobli tus beradi. Yuqorida izohlanganlar negativ kechinmalar: qo‘rquv, xavotir, uyat, alam, notinchlik, aybdorlik hissi kabilar og‘ir iztirob hosil qiladi.

Bemorlardagi intensiv salbiy emotsiyalar fonida bilish jarayonlarida diqqat konsentratsiyasida qiyinchiliklar, diqqat hajmining kamayishi, xotira yomonlashishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi. Ma’lumotlarni buzilishi va o‘zlashtirishning pasayishi, to‘g‘ri baholash uchun xususiy imkoniyatlar zarurati sodir bo‘ladi, natijada konstruktiv qaror qabul qilish qobiliyati buziladi.

Somatik darajada jismoniy zaiflik, jismoniy zo‘riqish, tomoqda nimadir tiqilib qolish hissi, havo etishmasligidagi hansirash hissi, to‘xtab-to‘xtab nafas olish hissi kabilar vujudga keladi.

Shunday qilib, kasallik inson borlig‘ining barcha darajalarida paydo bo‘ladi:

somatik – a’zolar va tizim faoliyatida buzilishlar;

emotsional – qo‘rquv, xavotir, nafrat, alam, jahl va boshqa negativ emotsiyalar;

psixologik – o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatning buzilishi;

ijtimoiy- ijtimoiy mavqe va ijtimoiy aloqlar o‘zgarishi;

ma’naviy– hayot mazmuni, mas’uliyat, yolg‘izlik, hayot yakunilanayotgani kechinmasi.

Kasallik insonni to‘liq qamrab oladi va ko‘rsatilgan darajalar bir-biriga o‘tadi. Bemor og‘riqdan arz qiladi, bu faqat jismoniy og‘riq emas, balki emotsional va ma’naviy kechinma qatnashadigan umumiy og‘riq.

Onkologik bemorlar uchun psixologik reabilitatsiya shunday yo‘nalgan bo‘lishi kerakki, onkologik kasallik chaqirgan psixologik oqibatlarni bartaraf qilishi va kasallik vaziyatiga moslashishiga yordam berishi kerak.

Bemorni kasallikka psixologik moslashishi uni kasallik sharoitida yashash va hayot qiyinchiliklariga chidash imkoniyatini beradi. Onkologik kasallik vaziyatida inson o‘z hayotini yakunini his qiladi va bu unda yuqori kuchli azobli kechinmalarni chaqiradi, jumladan, bemor hayoti manzarasi buziladi, uning hayoti endi oldingiday bo‘lishi haqidagi ishonch rad etiladi. Bu kabi buzuvchi katastrofik ma’lumotdan himoyalanish uchun ongsiz psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanadi.

Psixologik himoya – bu shaxs rivojlanishi jarayonida shakllangan ongsiz psixik faollik namoyon bo‘lishidir .

Psixologik himoya kasallik xavfi paydo bo‘lganidan keyin, tezlik bilan vujudga keladi, u psixologik va fiziologik buzilishlar rivojlanishi oldini olgan holda, davolanish jarayoni va undan keyin ham mavjud bo‘ladi. Psixologik himoya bo‘lganligi uchun bemor ongida kasallik haqida ax-

borot umuman ruxsat berilmaydi. Psixologik himoya bemorda emotsional zo‘riqish, zaiflashishi, xavotir va qo‘rquv pasayishi uchun qalqon sifatida qatnashadi, lekin mustahkamlash, yangi ma’lumotni o‘zlashtirishga va buning oqibatida kasallikni jarohatli vaziyatini qayta ishlashga xalaqit beradi.

Kasallik shunchaki jismoniy muammo emas, bu nafaqat uning tanasidan, balki ongidan va hissiyotidan iborat bo‘lgan butun inson uchun muammo. Hissiy va intellektual holat kasalliklarga, shu jumladan saratonga moyillikda ham, ulardan xalos bo‘lishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu bemorlarning faol va ijobiy ishtiroki kasallikning rivojlanishiga, davolanish natijalariga va hayot sifatiga ta’sir qilishi mumkin.

Xulosa. Saraton kasalligi dunyo miqyosida insoniyat oldida turgan eng jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik faqatgina jismoniy salomatlikka emas, balki bemorlarning psixologik va ijtimoiy hayotiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada saraton bilan og‘rigan bemorlarning ruhiy holati, ularning kasallikka bo‘lgan hissiy munosabatlari va ushbu jarayonda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar keng yoritilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, saraton tashxisi bemorlar uchun kuchli stress, xavotir, depressiya va umidsizlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bemorlar ko‘pincha o‘z-o‘zini qadrlash darajasining pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya va kelajak haqidagi noaniqlik bilan kurashadi. Bunday sharoitda, bemorlarning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularga nisbatan mos strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Maqolada bemorlarning kasallikka moslashish strategiyalari va psixologik qo‘llab-quvvatlash usullari batafsil o‘rganilgan. Oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning bemorlarning umumiy ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi alohida ta’kidlangan. Psixoterapiya, psixologik konsultatsiyalar va qo‘llab-quvvatlash guruhlari saraton kasalligiga chalinganlarning psixologik holatini yaxshilashda samarali vosita ekanligi isbotlangan.

Bundan tashqari, bemorlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, shaxsiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat psixologik yordamni takomillashtirishga, balki bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi strategiyalarni yaratishga zamin yaratadi.

Mazkur xulosa shuni ko‘rsatadiki, saraton kasalligi bilan og‘rigan bemorlarga nafaqat tibbiy, balki psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali ularning sog‘ayish jarayonini yengillashtirish va hayot sifatini oshirishga katta hissa qo‘shish mumkin. Shu sababli, mazkur mavzuda tadqiqotlarni davom ettirish va psixologik yordam tizimini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-2863-son. 01.04.2017.

2. Абрамова Г.С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине: Учебное пособие. –М.: “КафедраМ”, 2008.

3. Дёрнер К. Хороший врач. – М.: “Алетея”, 2016. – С.73

4. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. – Т: “Янги аср авлоди”, 2005. –72 б.

5. Onkologik bemorlar bilan psixokorreksion ish olib borishning ijtimoiy-psixologik asoslari /monografiya- D. Urazboyeva, 2022. – 10-13 b, .

Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Nigmatov Asad Sanjar o‘g‘li
Psixologiya kafedrasi magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IDROK JARAYONINING RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok jarayonini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Idrok jarayoni – atrof-muhitdagi ma’lumotlarni anglash va tushunishning asosiy psixik jarayonlaridan biri bo‘lib, bolalarning o‘qish, yozish va boshqa kognitiv ko‘nikmalarni egallashida muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun idrokning rivojlanishi ularning umumiy psixologik va intellektual taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*

Maqolada idrok jarayonining asosiy bosqichlari, ularni shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar, jumladan, o‘qituvchining pedagogik faoliyati, o‘quv muhitining ahamiyati va oilaning roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, idrok jarayonining samarali rivojlanishi uchun o‘quvchilarning yoshiga mos didaktik materiallar, ko‘rgazmali vositalar va interfaol usullardan foydalanish zarur.

Bundan tashqari, maqolada idrokning turli turlari – vizual, eshituv va kinestetik idrokning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllanishi va ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari idrokning kognitiv jarayonlar bilan, jumladan, e’tibor, xotira va tafakkur bilan integratsiyalashuvi bolalarning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini belgilab berishini ko‘rsatadi.

Maqola davomida, shuningdek, o‘quvchilarda idrokning nuqsonlari yoki sekin rivojlanishini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Idrok jarayonini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va pedagogik usullar bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini ochishga yordam beradi va ularning individual o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning natijalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning idrok jarayonlarini rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda va amaliyotda qo‘llashda amaliy yordam beradi. Shu bilan birga, mazkur mavzuni chuqur o‘rganish va yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar. *Ta’lim, tarbiya, faoliyadt, idrok, rivojlanish, xususiyat, bilim, ko‘nikma, malaka.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЦЕССА ВОСПРИЯТИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье изучены психологические особенности развития процесса восприятия у учащихся начальных классов. Восприятие является одним из основных психических процессов, позволяющим осознавать и понимать информацию из окружающей среды, что имеет важное значение для овладения навыками чтения, письма и других когнитивных умений. Развитие восприятия у детей младшего школьного возраста оказывает непосредственное влияние на их общий психологический и интеллектуальный рост.*

В статье рассматриваются основные этапы процесса восприятия, а также факторы, влияющие на их формирование, включая педагогическую деятельность учителя, значимость учебной среды и роль семьи. По результатам исследования, для эффективного развития процесса восприятия необходимо использовать учебные материалы, соответствующие возрасту учащихся, наглядные пособия и интерактивные методы.

Кроме того, в статье освещены различные виды восприятия — зрительное, слуховое и кинестетическое, их формирование у младших школьников и взаимосвязь между ними. Результаты исследования показывают, что интеграция восприятия с когнитивными про-

цессами, такими как внимание, память и мышление, определяет успех учащихся в учебной деятельности.

Также в статье представлены методические рекомендации по выявлению и устранению нарушений или замедленного развития восприятия у учащихся. Психологические тренинги и педагогические методики, направленные на развитие восприятия, помогают раскрыть личностные возможности детей и учитывать их индивидуальные особенности.

Результаты данного исследования окажут практическую помощь учителям в разработке эффективных стратегий для развития процесса восприятия у учащихся и их применения на практике. Кроме того, дальнейшее изучение этой темы и разработка новых педагогических подходов остаются актуальными для повышения качества образования.

Ключевые слова. *Образование, воспитание, деятельность, творчество, развитие, характеристика, знания, умения, навыки.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THE PERCEPTION PROCESS IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN

Annotation. *This article examines the psychological characteristics of the development of perception processes in primary school students. Perception is one of the fundamental mental processes that enables understanding and interpreting information from the environment. It plays a critical role in acquiring reading, writing, and other cognitive skills. The development of perception in children of primary school age directly influences their overall psychological and intellectual growth.*

The article explores the main stages of the perception process and the factors influencing its formation, including the teacher's pedagogical activities, the importance of the learning environment, and the role of the family. The study findings indicate that effective development of perception processes requires the use of age-appropriate teaching materials, visual aids, and interactive methods.

Furthermore, the article discusses various types of perception—visual, auditory, and kinesthetic—and their development in primary school children, as well as their interrelations. The study results show that the integration of perception with cognitive processes such as attention, memory, and thinking determines students' success in learning activities.

The article also offers methodological recommendations for identifying and addressing deficiencies or delays in the development of perception. Psychological training and pedagogical approaches aimed at enhancing perception help uncover children's personal potential and take their individual characteristics into account.

The findings of this study provide practical support to teachers in developing effective strategies for fostering students' perception processes and applying them in practice. Additionally, further investigation of this topic and the development of new pedagogical approaches remain relevant for improving education quality.

Key words. *Education, upbringing, activity, creativity, development, characteristics, knowledge, skills, skills.*

Maktabga kirish bolaning hayotida uning faoliyatining burilish davri hisoblanadi. Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo‘shiladi. O‘quvchi oldiga bir qator jiddiy talablarni qo‘yadigan o‘qishga – yangi faoliyat turiga qo‘shilish o‘quvchilarni o‘z hayotini qat’iy tarzda tashkil qilishdagi qonun va tartibga bo‘ysunishga majbur qiladi. O‘quvchi ta’lim jarayonida ahloqiy normalar va xatti-harakatlarga poydevor qo‘yiladi. Ta’limning boshlanishi bilan bola psixikasida keskin o‘zgarishlar ro‘y beradi, u psixologik tomondan qayta qurilishiga duch keladi.

Ta’lim faoliyatida idrokning roli haqida gap ketganda uning barcha xususiyatlari, qonuniyatlarining mohiyati va asosiy funksiyalari nazarda tutilishi lozim. Agar o‘quvchi ko‘rgan, eshitganlarini idrok qilmasa, ta’lim faoliyati haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Idrok bevosita

sezgilar bilan bog‘liq bo‘ladi va albatta undan keyingi psixik faoliyatning davomiyligini ham ta’minlab beradi. Jumladan, o‘quvchilar idrok qilgan narsalarini o‘z xotiralarida olib qolib, keyinchalik tafakkur orqali uni boshqa jarayonlar bilan bog‘lab yangilik ochadi.

Maktab yoshidagi bolalarda idrokning hamma turlari, asosan, ta’lim va tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko‘p darajada takomillashadi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata bilish qobiliyati o‘sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur shartlardan biridir. O‘quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish-havaslari bilan birgalikda o‘sib boradi. Kuzatish obyektlarini tanlashda o‘quvchilaming o‘zlari tashabbus ko‘rsata boshlaydilar. O‘quvchilar o‘z idroklarini mustaqil idora qila oladilar. Ammo hamma boshqa ixtiyorsiz jarayonlar singari, ixtiyorsiz idrok ham maktab yoshidagi bolalarda hali ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham o‘quvchilarga beriladigan material, ular tomonidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy idrok qilishini mo‘ljallab berilmog‘i kerak.

Fazo tasavurlari ham maktab yoshida ancha takomillashgan bo‘ladi. Jumladan, o‘quvchilarda ko‘z bilan chamalash qobiliyati ancha taraqqiy qilgan bo‘ladi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari endi bu chog‘da katta yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan, to‘g‘ri chiziqni ko‘z bilan chamalab ikki teng bo‘lakka bo‘la oladilar, narsa va chiziqlami katta-kichiklik darajasiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o‘rnini bulardan qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini taxminan to‘g‘ri belgilay oladilar. IV—V sinf o‘quvchilari idrok qilinayotgan masofani ko‘z bilan chamalab, shu masofani bosib o‘tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblab oladigan bo‘ladilar.

Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ko‘z bilan chamalash hamda narsalarning shakli va katta-kichikligini ajrata bilish qobiliyatining yana yaxshiroq o‘sishiga jismoniy tarbiya, chizmachilik, rasm, geometriya, fizika darslari bilan shug‘ullanish, shuningdek, geografiya kartalari va o‘lchov asboblaridan foydalanish katta yordam beradi. Katta masofalarni ko‘z bilan chamalash qobiliyatining o‘sishiga ekskursiyalar, sayrga chiqishlar, kattalar bilan birgalikda dala va boshqa yerlarda mehnat jarayonida ishtirok etish yordam beradi.

Maktab yoshida vaqtni idrok qilish ham takomillashadi. O‘quvchilar vaqtning, hozirgi paytning «tez» yoki «sekin» o‘tayotganini aniq sezadilar.

O‘quvchilarda vaqtni yana aniqroq idrok qilish qobiliyati, asosan, maktabda o‘qish mashg‘ulotlari to‘g‘ri uyushtirilishiga, mashg‘ulotlarni muayyan vaqtga qarab taqsimlanishi va vazifalarni ma’lum bir o‘quv soati (45 daqiqa) ichida tamom qilish talabiga bog‘liq holda o‘sib boradi. O‘quvchilaming o‘zlari ham mustaqil suratda bajarishlari lozim bo‘lgan turli darslarini tayyorlash uchun vaziyatni har bir fanga taqsimlab chiqishga majbur bo‘ladilar. Darsga kech qolmasdan maktabga borib yetish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik o‘quvchilardan vaqtning o‘tishiga e’tibor berishni talab etadi. O‘quvchilar ma’lum bir ishni bajarish uchun lozim bo‘lgan ozmi-ko‘pmi muddatni fikrda hisoblab chiqishga majbur bo‘ladilar. Vaqt o‘lchovlarini o‘rganish, doimo soatdan foydalanish ham vaqtni aniq va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini o‘stiradi.

Katta yoshdagi odamlar singari, maktab bolalari ham suratda tasvirlangan voqea va harakatni to‘g‘ri ko‘ra va tushuna oladilar. To‘qqiz-o‘n bir yashar bolalar narsalarning fazoda tutgan o‘rnini va ularning bir-biriga nisbatlarini o‘z rasmlarida to‘g‘ri tasvirlay oladigan bo‘ladilar. Maktab bolalari murakkab musiqa asarlarini zavq bilan tinglaydilar, ular ton va yarim ton kabi ohanglarni ajrata oladilar, maktab xorida ishtirok etadilar va har xil cholg‘u asboblarida chalishni o‘rganadilar.

Yoshlar — o‘g‘il va qiz bolalar — murakkab musiqa asarlarini eshitish, badiiy rasmlar ko‘rish bilan shu asarlaming g‘oyaviy ma’nosiga ham tushunadigan bo‘ladilar. Idrok qobiliyati bolalar ulg‘ayib, ancha voyaga yetib qolgan davrlarda yanada o‘sib boradi. O‘qish va mehnat jarayonida o‘smir va yoshlarda muayyan idrok obyektlari ustida o‘z diqqatlarini ancha uzoq vaqtgacha to‘plab turish, murakkab kompleksli obyektlardan nazariy va amaliy maqsadlarga qarab muhim va zarurlarini ajrata bilish qobiliyati hosil bo‘ladi va mustahkamlanib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagoglar ta’lim sifati samarali bo‘lishi uchun idrokning psixologik ahamiyati haqida yetarli bilimga ega bo‘lishlari, o‘quvchilarda ixtiyoriy idrokni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok jarayonining rivojlanishi ularning o‘quv faoliyati va shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, idrok jarayoni bolalarning atrof-muhitni anglash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy psixik jarayonlardan biri bo‘lib, u e’tibor, xotira va tafakkur kabi boshqa kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Idrokning samarali rivojlanishi uchun ta’lim jarayonida yoshga mos, bolalarning qiziqishlarini hisobga oluvchi didaktik materiallar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur. Vizual, eshituv va kinestetik idrok turlarining rivojlanishi o‘quvchilarning individual o‘ziga xos xususiyatlariga mos yondashuvni talab qiladi. O‘quvchilarning idrok qilishdagi nuqsonlarini erta aniqlash va bartaraf etish ularning muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi o‘quvchilarning idrok jarayonini samarali shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi qayd etilgan. O‘quv muhitining moslashtirilganligi, shaxsiy va guruh bo‘lib ishlashni qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatlar idrokni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda idrok jarayonini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur sohani chuqurroq o‘rganish, ayniqsa, individual yondashuvlarni rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, idrok jarayonining rivojlanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat o‘quv jarayonidagi, balki umumiy hayotiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini belgilab beradi. Shu boisdan, o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar uchun ushbu jarayonga e’tibor qaratish va hamkorlikda ishlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. G‘oziev E. Psixologiya. T., ―O‘qituvchi, 1994
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998
3. Karimova V. Mustaqil fikrlash. T., ―Sharq‖, 2000
4. Z Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni ukitish metodikasi T. 2006

UDK 152.27:002.6(021

Kulatova Svetlana
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Omonov Oybek
Psixologiya kafedrasi magistranti

AXBOROT TA'SIRIDA VOYAGA YETMAGANLARDA DESTRUKTIV XULQNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqola voyaga yetmagan yoshlarda axborot psixologik xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, axborot tushunchasining mazmun-mohiyati, voyaga yetmagan yoshlar va axborotlar maydoni, globallashuv va ommaviy madaniyat, psixologik xavfsizlikni ta'minlashga oid chora-tadbirlar hamda ilmiy izlanishlarning mazmuni kabilar ham keng miqyosda yoritilgan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *axborot psixologik xavfsizlikka tahdidlar, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlar, internet, ommaviy madaniyat, telekommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, mafkuraviy tahdid, psixologik himoya.*

FACTORS LEADING TO DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN MINORS UNDER THE INFLUENCE OF INFORMATION

Annotation. *This article is about the main directions of ensuring the psychological safety of information in minors, the meaning of the concept of information, minors and the information field, globalization and mass culture, measures to ensure psychological safety, and the content of scientific research. is also widely covered.*

Key words and concepts*: Information threats to psychological security, globalization, social networks, Internet, mass culture, telecommunications, social networks, ideological threat, psychological protection.*

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ДЕСТРУКТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные направления обеспечения психологической безопасности информации у несовершеннолетних, значение понятия информация, несовершеннолетние и информационное поле, глобализация и массовая культура, меры по обеспечению психологической безопасности, а также содержание научных исследований. . также широко освещается.*

Ключевые слова и понятия*: информационные угрозы психологической безопасности, глобализация, социальные сети, интернет, массовая культура, телекоммуникации, социальные сети, идеологическая угроза, психологическая защита.*

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasida "voyaga yetmagan – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs", deb ta'riflanadi[5].

Bizningcha, bugungi kunda "tobe xulq" tushunchasi nafaqat ilmiy jamoalarda, balki kundalik hayotda ham dolzarb muammo hisoblanadi. Tobe xulq – bu ma'lum bir jiddiy asoratga ega bo'lgan va ijtimoiy normalar bo'lmagan, sog'liqqa tahdid soladigan, shaxsning o'ziga psixologik azob-uqubatlarni keltirib chiqaradigan xulq turidir. Ba'zi adabiyotlarda bu tushuncha addektiv xulq deb ham nomlanadi. Addektiv xulqning eng ko'p tarqalgan turi voyaga yetmagan bolalarda ko'proq namoyon bo'lib, uning obyekti internet tarmog'i, kompyuter o'yinlari, toksik moddalarga qaramlik holatlari bilan xarakterlanadi.

A.Y. Ayvazova fikricha ko'ra, qaramlik bilan bog'liq sabablarga ko'ra janglarda va jinoyatlar oqibatida ko'proq odamlar o'lmoqda. Addiktiv xulqli kishilar doirasiga turli yoshdagi kishilar, ma'lumoti, kasbi, yoshi, etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar insonlar guruhi kiradi.

Fikrimizcha, hozirda inson, jamiyat va davlat munosabatlarining yangicha ko'rinishga ega

bo‘lishi zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, demokratik rivojlanish sharoitida OAVlari xususan internetni siyosatning faol subyektiga aylanishiga erishish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Internet fenomenining bunday o‘ziga xos jihatlarini siyosatshunoslik fanining tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda o‘rganish istiqbolda mazkur yo‘nalishdagi muammolar ko‘lamini aniqlash va bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, mamlakatimizda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari, fuqarolar siyosiy ishtirokining shakllari o‘zgarmoqda, bunday o‘zgarishlar omili sifatidagi internetning axboriy xususiyatlari tobora yangicha siyosiy ma’no-mazmunga ega bo‘lib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bir tomondan internet axborot makonini – globallashuv tendensiyasining tenglashishiga imkon yaratadi. Boshqa tomondan turli mamlakatlarning texnik-iqtisodiy rivojlanish sur’atlaridagi farqlar chuqurlashuviga imkon yaratadi. Bu eng avvalo, shu bilan bog‘liqki, barcha mamlakatlar ham o‘z iqtisodiy rivojlanishi tufayli, tarmoqqa ommaviy qo‘shilishini ishlab chiqara olmaydilar.

S.P. Korolenkoning ta’kidicha, internet rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim me’zonlarini birlashtirgan ko‘zguga aylanmoqda, hamda iqtisodiyot va texnikaning zamonaviy holatini jamlagan holda aks ettirmoqda. Shuning uchun ham internetni inson o‘zining ijtimoiy ehtiyojlari, shu jumladan, kommunikatsion ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yashash muhitining davomi deb hisoblash zarur.

N.N.Mextixanovaning xulosalariga ko‘ra, yosh avlodning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida “o‘rgimchak to‘ri” deb nom olgan Internet tarmog‘iga murojaat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekani, istagan ma’lumotni undan bir zumda topa olish mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lanish imkoniyati mavjudligi muhim omil. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz in’omidan o‘z g‘arazli manfaatlari yo‘lida foydalanuvchilar soni ham ortib borayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola zo‘ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlashgan. O‘zbekistonda ham internetdan foydalanuvchilar soni tobora o‘sib, borayotgani, ularning aksariyati yoshlar ekanini hisobga olsak, bu holat barchamizni yanada ogoh va sergak bo‘lishga undaydi. Bu esa yoshlar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yosh avlodning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Bizga malumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag‘lar evaziga filtrlab ko‘yilgan va bu holatni ko‘plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina yoshlarimizning manaviy olamida bo‘shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg‘usini voyaga yetmasdan turib shakllantirishimiz kerak”.

Hozirda biz jamiyatimizni axborotlashuvi natijasida vujudga keladigan tahdidlar harbiy xususiyatdan ko‘ra, ko‘proq ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi borasidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Bu o‘rinda gap axborot urushlari va son jihatdan notenglik haqida bormoqda. Birinchi holatda kishilar sezdirmay boshqarish texnologiyalarining asirlariga aylanmoqda. Ikkinchi holatda ijtimoiy kamsitishning yangi turi-axborotga kirish darajasi bo‘yicha kamsitish vujudga kelmoqda.

Xalq ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi voyaga yetmaganlarda axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish muammosini o‘rganish o‘quvchilardagi axborot tarmoqlaridan foydalanish, virtual olamga qaramlikni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda axborot xavfsizligini ta’minlashni psixologik jihatdan yanada to‘liqroq yoritish uchun ularning individual, psixologik xususiyatlari, atrofdagi insonlar bilan munosabat o‘rnatish jarayonlari va axborot olamidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarning o‘zaro birliklari o‘rtasidagi bog‘liqligini aniqlashda shaxsning axborot tarmog‘i bilan munosabatlarni to‘g‘ri ravishda amalga oshirishga xizmat qiluvchi bir nechta so‘rovnomalar ya’ni G.V. Lozovayaning qaramlik ya’ni addiksiyani aniqlash, V. Loskutovaning internetga qaramlikni aniqlash so‘rovnomasi va A. Jichkinava YE.A. SHepilina tomonidan ishlab chiqilgan tugallanmagan jumlalar so‘rovnomalari tahlil qilingan. Biz o‘z tadqiqot ishimizni yoritishda

o‘quvchilarning axborot xavfsizligini ta’minlash darajalarining psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi qonuniyat va bog‘liqliklarni hisobga olgan holda umumiy ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqdik. Tadqiqotda qatnashgan yuqori sinf o‘quvchilarining internetga qaramlik ko‘lami va qaramlik ya’ni addiksiya darajalarini aniqlash so‘rovnomalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik qiymatlari navbatdagi jadvalda aks ettirilgan (3.7-jadvalga qarang).

1-jadval.

Internetga qaramlik ko‘lami va virtual olamga qaramlik darajalari o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

Televizorga bo‘lgan qaramlik	o‘yinga qaramlik	0,362*
	qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik	0,571**
	internetga ortiqcha ishtiyoq	0,459*
internet va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qaramlik	qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik	0,468**
	internetga to‘liq qaram	-0,389*
	doimiy internet foydalanuvchisi	0,408*
Internetdan deyarli foydalanmaydi	internetga ortiqcha ishtiyoq	0,542**
	o‘yinga qaramlik	-0,358*
Doimiy internet foydalanuvchisi	internetga ortiqcha ishtiyoq	0,623**
	internetga to‘liq qaram	-0,367*
Internetga ortiqcha ishtiyoq	internetga to‘liq qaram	-0,681**

Izoh: *p≤0,05, **p≤0,01.

Voyaga yetmaganlarda axborot xavfsizligini ta’minlashning psixologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalq ta’limida tahsil oluvchi maktab o‘quvchilarining internetga qaramlik ko‘lami va qaramlik ya’ni addiksiya darajalari o‘rtasidagi imkoniyatlarni o‘rganish so‘rovnomalari bo‘yicha omillar orasidagi korrelyatsion aloqalar ko‘proq televizorga qaramlik omillari bilan ya’ni o‘yinga qaramlik (r=0,362, r≤0,05), qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik (r=0,571, r≤0,01) va internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,459, r≤0,05) omillari bilan, kompyuterga qaramlik (internet va ijtimoiy tarmoqlar) shkalasi internetga bo‘lgan umumiy moyillik (r=0,468, r≤0,05), internetga to‘liq qaram (r=0,389, r≤0,05) va doimiy internet foydalanuvchisi (r=0,408, r≤0,05) omillari bilan, internetdan deyarli foydalanmaslik shkalasi internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,542, r≤0,01) va o‘yinga qaramlik (r=0,358, r≤0,05) omillari bilan, doimiy internet foydalanuvchisi shkalasi internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,643, r≤0,01) va internetga to‘liq qaram (r=0,367, r≤0,05) omillari bilan, internetga ortiqcha ishtiyoq shkalasi internetga to‘liq qaram (r=0,681, r≤0,01) omillar orasida o‘rta darajada korrelyatsion aloqalar kuzatilayotganligini ko‘rish mumkin.

2-jadval.

Tugallanmagan jumlalar so‘rovnomasi o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

iternetni umuman qabul qilish	internetning ijobiy xususiyatlari	0,368*
	internetning salbiy xususiyatlari	0,567**
	internetdagi odamlar	0,724**
	internetdagi ma’lumotlar	0,522**
	men internetdaman	0,631**
vaqtni idrok etish	internetdagi odamlar	0,426**
	internetdagi ma’lumotlar	0,485**
	men internetdaman	0,513**
	internetning salbiy xususiyatlari	0,367*
fazoni idrok etish	internetdagi odamlar	0,334*
	men internetdaman	0,362*
internetning ijobiy xususiyatlari	internetdagi ma’lumotlar	0,628**
	men internetdaman	0,541**
	internetdagi odamlar	0,637**
	internetning salbiy xususiyatlari	0,498**

internetning salbiy xususiyatlari	men internetdaman	0,392*
	internetdagi odamlar	0,489**
internetdagi odamlar	internetning salbiy xususiyatlari	0,349*
internetdagi ma'lumotlar	internetning salbiy xususiyatlari	0,402*

Izoh: *p≤0,05, **p≤0,01.

Keyingi jadvalda Qashqadaryo viloyati maktab o‘quvchilarining tugallanmagan jumlalar so‘rovnomasi bo‘yicha o‘zaro korrelyatlari keltirilgan (3.8-jadvalga qarang). Tugallanmagan jumlalar so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar shuni namoyon qildiki, Qashqadaryo viloyati maktab o‘quvchilarining tugallanmagan jumlalar so‘rovnomasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqador omillar orasidagi korrelyatsion aloqalar ko‘proq internetni umuman qabul qilish shkalasi internetning ijobiy xususiyatlari (r=0,368, r≤0,05), internetning salbiy xususiyatlari (r=0,567, r≤0,01), internetdagi odamlar (r=0,724, r≤0,01), internetdagi ma'lumotlar (r=0,522, r≤0,01) va men internetdaman (r=0,631, r≤0,01) omillari bilan, vaqtni idrok etish shkalasi internetning salbiy xususiyatlari (r=0,367, r≤0,05), internetdagi odamlar (r=0,426, r≤0,01), internetdagi ma'lumotlar (r=0,485, r≤0,01) va men internetdaman (r=0,513, r≤0,01) omillari bilan, fazoni idrok etish shkalasi men internetdaman (r=0,362, r≤0,05) va internetdagi odamlar (r=0,334, r≤0,05) omillari bilan, internetning ijobiy xususiyatlari shkalasi internetning salbiy xususiyatlari (r=0,498, r≤0,01), internetdagi odamlar (r=0,637, r≤0,01), internetdagi ma'lumotlar (r=0,628, r≤0,01) va men internetdaman (r=0,541, r≤0,01) omillari bilan, internetning salbiy xususiyatlari shkalasi internetdagi odamlar (r=0,489, r≤0,01) va men internetdaman (r=0,392, r≤0,05) omillari bilan, internetdagi odamlar shkalasi internetning salbiy xususiyatlari (r=0,349, r≤0,05) omillari bilan, internetdagi ma'lumotlar shkalasi internetning salbiy xususiyatlari (r=0,402, r≤0,05) omillar orasida o‘rta darajada korrelyatsion aloqalarga kirishganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi jadvalda Qarshi shahar maktab o‘quvchilarining internetga qaramlik ko‘lami va qaramlik ya'ni addiksiya darajasi so‘rovnomalari bo‘yicha o‘zaro korrelyatlari aks ettirilgan (3.9-jadvalga qarang).

Qarshi shahar umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning internetga qaramlik ko‘lami va addiksiya ya'ni qaramlik darajalari o‘rtasidagi imkoniyatlarini o‘rganish so‘rovnomlari bo‘yicha omillar orasidagi korrelyatsion aloqalar ko‘proq o‘yinga qaramlik omillari internetga bog‘lanib qolgan (r=0,488, r≤0,01), internetdan deyarli foydalanmaydi (r=0,343, r≤0,05) va internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,386, r≤0,05) omillari bilan, kompyuterga qaramlik shkalasi internetdan deyarli foydalanmaslik (r=0,364, r≤0,05) va qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik (r=0,467, r≤0,01) omillari bilan, internetdan deyarli foydalanmaslik shkalasi internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,456, r≤0,01) va televizorga qaramlik (r=0,342, r≤0,05) omillari bilan, doimiy internet foydalanuvchisi shkalasi internetga ortiqcha ishtiyoq (r=0,635, r≤0,01) va qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik (r=0,357, r≤0,05) omillari bilan internetga ortiqcha ishtiyoq shkalasi internetga to‘liq qaram (r=0,391, r≤0,05) omillari orasida o‘rta darajada korrelyatsion aloqalar namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslariga va yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, xulosa qilishimiz mumkinki, axborot xavfsizligi tushunchasi uning bugungi kundagi ahamiyati, jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lgan voyaga yetmagan yoshlarning tafakkuriga ta'siri va bu ta'sirlarning ijobiy tarzda hal qilinishi muammolari nafaqat bizning jamiyatda, balki butun dunyo oldida turgan dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ю.Л.Климонтовича и Ю.В.Сачкова. М.: Прогресс, 1999. – 289 с.
2. Пронина Е.Е. Техника психологической безопасности в педагогическом общении. - М.: Знание, 1991. – 370 с.
3. Расторгуев С.П. Информационная война. М.: Радиои связь. – 416 с.
4. Расторгуев, С.П. Инфицирование как способ защиты жизни. Вирусы: биологические, социальные, психические, компьютерные Текст. / С.П.Расторгуев. -М.: Издательство Агентства «Яхтсмен», 1996. – 195 с.
5. Рощин С.К. Психологическая безопасность: новый подход к безопасности человека, общества и государства Текст. / С.К.Рощин, В.А.Соснин // Российский монитор. — 1995.

Arzikulov Dilshod Ne'matovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
umumiy psixologiya kafedrasi professori, Psixologiya fanlari doktori (DSc)

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY O'YINLARNING ETNOPSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va etnopsixologik tarbiyalashda, o'zbek xalqining qadimiy hayot tarzlarini aks ettiruvchi eposlarida mardlik, jasurlik, kamtarlik, sevgida sadoqat, do'stlik va birodarlik, tinch-totuv yashash uchun kurash, insoniy qadr-kimmat, halol va pok turmush hamda yoshlarda oilaviy munosabatlarni shakllantirish. Shuningdek, turmush qurishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zlab ish tutish uchun o'spirin yigit va qizlarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy turmushning quvonchlari, tashvishlari yuzasidan muayyan darajada ma'lumot berish, ularga bardoshli va matonatli bo'lish hamda qiyinchiliklarni mardonavor yengish yo'llarini ahamiyati ijtimoiy psixologik tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Milliy sport o'yinlari, urf-odatlar, marosimlar, an'analar, qadriyat, halq og'zaki ijodi, turmush tarzi, qadr-qimmat, jismoniy yetuklik, tarbiya*

ETHNOPSYCHOLOGICAL ASPECTS OF NATIONAL GAMES IN YOUTH EDUCATION

Annotation. *The article tells about the spiritual, moral and ethnopsychological education of young people, the formation of courage, bravery, humility, loyalty in love, friendship and brotherhood, the struggle for peaceful coexistence, human dignity, honest and clean life and family relations among young people. In addition, the socio-psychological analysis showed the importance of proper physical education of adolescent boys and girls, providing a certain level of information about the joys and problems of family marriage, their resilience and competence in this matter, as well as ways to overcome difficulties for successful preparation for marriage.*

Keywords: *National sports games, customs, rituals, traditions, values, Chalcedonian oral art, lifestyle, dignity, physical maturity, education*

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье рассказывается о духовно-нравственном и этнопсихологическом воспитании молодежи, формировании у молодых людей мужества, отваги, смирения, верности в любви, дружбе и братстве, борьбе за мирное сосуществование, человеческое достоинство, честную и чистую жизнь и семейные отношения. Кроме того, социально-психологический анализ показал важность надлежащего физического воспитания мальчиков и девочек-подростков, предоставления определенного уровня информации о радостях и проблемах семейного брака, их жизнестойкости и компетентности в этом вопросе, а также о способах преодоления трудностей для успешной подготовки к браку.*

Ключевые слова: *Национальные спортивные игры, обычаи, обряды, традиции, ценности, халкидонское устное творчество, образ жизни, достоинство, физическая зрелость, воспитание*

Kirish. Bugungi kunda yoshlarni turmush qurishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zlab ish tutish uchun o'spirin yigit va qizlarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy turmushning quvonchlari, tashvishlari yuzasidan muayyan darajada ma'lumot berish, ularga bardoshli va matonatli bo'lish hamda qiyinchiliklarni mardonavor yengish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan ularda turmush zahmatlari to'g'risida tasavvur hosil qildirib yangi sharoitga ko'nikish hissini tarkib toptiramiz, shuningdek, turmushdagi ziddiyatlar, qarama-

qarshiliklar, o‘zaro kelishmovchiliklar va boshqa ijtimoiy-psixologik muammoli holatlarni hal etishga o‘rgatish orqali yoshlarni oila qurishga puxta tayyorlash mumkin.

Millatimizga xos bo‘lgan milliy xalq o‘yinlarni fasllarga mosligi, fasllarga qarab o‘tkazilishining hayotiyligi bilan alohida ajralib turadi. O‘yinlarning tashkil etilishi, ularning o‘tkazilishi va mazmunida yoshlarni jismoniy sifatlari, metin irodalari bilan bir qatorda, o‘z kuchlariga ishonishlari, ruhiy bardamliklarini mustahkamlash masalalari ham o‘z ifodasini topgan. Milliy o‘yinlar, poygalar, bellashuvlar turli musobaqalar, marosimlar yordamida avloddan-avlodga o‘tib, tarixiy merosga aylanib saqlanib kelmoqda. Tarixdan ma’lumki, xalq sayllari, bayramlari, milliy o‘yinlarsiz o‘tmagan, unda yoshi ulg‘ayib qolganlar o‘z shogirdlariga hayot estafetasini topshirganlar. Yoshlar musobaqalarning sir-asrorlarini yaxshiroq o‘zlashtirish, kundalik faoliyatlariga yordam beradigan omillariga aylantirish uchun intilganlar. Sayllarda, bayramlarda musobaqalarni tarafma-taraf bo‘lib o‘tkazish qatnashchilarning jamoa bo‘lib harakat qilishlari ishtirokchilarning baquvvat, epchil va chaqqon, qiyinchilikka chidamli, tirishqoq va tadbirkor bo‘lishlarini taqozo etgan. Milliy o‘yinlar, kurash, ko‘pkari va sportning ommaviy turlari xalq orasida qadimdan sahovat belgisi sifatida namoyon bo‘lgan. Mashhur uloqchilar, polvonlar, xalq o‘yinlari ishtirokchilari tez-tez musobaqalar o‘tkazib, bellashuvlardan to‘plangan mablag‘ni yetim-esirlar, ko‘p bolali oilalar hamda qariyalarga hadya etganlar, ko‘priklar, masjidlar, madrasalar, kanallar, yo‘llar va boshqa xalq hasharlariga ishtirok etganlar va hasharchilarga ilhom bag‘ishlaganlar.

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy fazilatlar O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek urug‘lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Ayrim urug‘ va elatlarda yigit bilan qizni uylantirishdan avval o‘ziga xos shartlarni bajarish majburiy qilib qo‘yilgan. Masalan, uylanmoqchi bo‘lgan yigit qiz bilan kurash tutish odati sak qabilasining ijtimoiy-xarakterli xususiyati sifatida ro‘yobga chiqqan. Bunda agar yigit qizni yiqita olsa, qiz bilan to‘la qonli oila qurish, unga xokim bo‘lish huquqiga ega bo‘lardi. Agar yiqilib qolsa, u takdirdi yigit qizga umurbod asir va qaram bo‘lib qolar edi. Albatta, bu odatni salbiy baholash mumkin. Biroq bo‘lg‘usi kuyovga o‘tin (to‘nka) yordirish odati bor ham ediki, uni ajoyib baholash mumkin. Chunki ilgari o‘tinsiz xonadon bo‘lmagan. O‘tin yorishda esa jismoniy baquvvatlilik bilan bir qatorda alohida mahorat ham talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘rta Osiyo xalklari, jumladan, o‘zbek xalkining qadim qabilachilik hayot tarzlarini aks ettiruvchi eposlarida mardlik, jasurlik, kamtarlik, sevgida sadoqat, do‘stlik va birodarlik, tinch-totuv yashash uchun kurash, insoniy qadr-kimmat, halol va pok turmush, oilada poklik ulug‘langan. Bu kabi ulug‘ g‘oyalar «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Go‘ro‘g‘li», turkumidagi barcha dostonlarda, ajoyib xalk ertaklarida o‘z aksini topgan.

Milliy o‘yinlar yosh avlodni jasorat va adolat, Vatanni sevish, xalqiga xizmat qilish, mehnatsevarlik, mehr-sahovat, halollik va poklik ruhida tarbiyalaydi. Xalq shuning uchun ham kurashda halol, mard polvonni, uloqda chapdast va mohir chavandozni qutlaydi. Xalq milliy o‘yinlarining g‘oliblarini nafaqat chiroyli harakatlari balki, ishtirokchining tantiligi, mardligi, chapdastligi evaziga e’zozlaydi. “Quvlamachoq”, “Soqqa”, “Bekinmachoq”, “Ko‘kterak”, “Etti tosh”, “Lanka”, “Besh tosh”, “Podachi”, “Chavandoz”, “Chaqqonlar va merganlar”, “Chillik” kabi milliy o‘yinlardan Vatan himoyachilari bo‘lgan jangchilarni tayyorlashda, ularni doimiy jangovarliklarini ta’minlashda keng foydalanilgan. Bu holatlar xalqimizning og‘zaki ijodida yaratilgan “Alpomish” dostonida mard va jasur Alpomishni sevimli yori Oybarchinga yetishish uchun 90 qalmoq polvoni bilan kurash tushgani, “Go‘ro‘g‘li” dostonida uning mard va jasurligi, “Intizor” dostonida Avazxon G‘irotni yakka g‘isht ustida o‘ynatar edi deb tasvirlagan.

Xalq sayllari va bayramlarida kurash musobaqalari o‘tkazib turmaganda yillar o‘tgan sayin kurashimiz yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lar edi. Poygalar, qiz quvdi, kim uzoqqa otadi mashqlari, ot sporti (ko‘pkari) ham nihoyatda qadimiy bo‘lib, milliy an’analarimiz evaziga saqlanib qolgan. Aslida ana shu o‘yinlar zamirida kattaga hurmat, yoshlarga nisbatan mehr-shafqat, bolalar kamoli va tarbiyasi ota – onalarni aziz farzandlari oldidagi burchlari, o‘z navbatida farzandlarning mehr sadoqatlari mujassamlashadi. Shu boisdan ota-bobolarimiz bolalariga juda yoshliklaridan xalq qahramonlari, ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda ko‘rsatgan jasoratlari, matonat, do‘stlik, ahillik,

hamjihatlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan doston va ertaklar, rivoyat va to‘qimalarni so‘zlab berganlar, milliy o‘yinlar asosida halol, rostgo‘y bo‘lish, to‘g‘ri gapirish, haqsizlikka qarshi befarq bo‘lmaslik, raqibga nisbatan hurmat fazilatlarini singdirganlar. Milliy o‘yinlarda mag‘lub bo‘lgan raqib ustidan hech qachon masxara qilmaganlar. Aksincha, xato va kamchiliklar birgalikda hal etilgan. “Bolalar ijodiy faoliyat ko‘rsatib o‘yin o‘ynar ekanlar, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib tarbiyalanadilar.bir maqsad yo‘lida o‘rtog‘iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o‘rtoqlari bilan birga biror masala yuzasidan qaror qabul qilish ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Milliy o‘yinlarning har qanday turi bolalarda juda ko‘plab insoniy sifat va xususiyatlarni shakllantiradi. Milliy o‘yinlar ma’lum darajada xalqning mehnat faoliyatini o‘zida aks ettiradi. Milliy o‘yinlar xalqning yashash ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli shu millat vakillari bo‘lmish yoshlarni kelajakda aynan shu milliy ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishini ta’minlashga qaratilgandir.

Bolalar rivojlanishini birinchi bo‘lib o‘yin faoliyati bilan boshlaydi. O‘yin faoliyatida milliy o‘yinchoqlar ta’lim-tarbiya vositasi sifatida nihoyatda keng qo‘llaniladi. Xalq azaldan bola tarbiyasida turli-tuman o‘yinchoqlardan, ularning ijobiy tomonlaridan unumli foydalanib kelgan. Shuning uchun ham xalq manbalarida milliy o‘yinlarni amalga oshirish uchun xalq o‘yinchoqlariga keng o‘rin berilgan. Oilada ota-onalar, mahallalarda mahalliy hunarmandlar loy, yog‘och, jun, matolar va boshqa materiallardan bolalar uchun turli xil chiroyli ularni qiziqtiradigan bezaklar bilan bezatilgan, bolalarni tezda o‘ziga rom qiluvchi o‘yinchoqlar yasaganlar. O‘yinchoqlar yasashning takomillashib borishi, bir necha avlodlarning ijodiy faoliyati natijasida o‘ziga xos, bejirim, takrorlanmas o‘zbek milliy o‘yinchoqlari vujudga kelgan. Bunday o‘yinchoqlar qatoriga oilalarda bolalarga yasab beriladigan turli o‘zbek milliy libosidagi qo‘g‘irchoqlar, ertaklarning qahramonlari, mahalliy uy hayvonlari, uy-ro‘zg‘or va maishiy xizmat buyumlari kabilarni ta’kidlash mumkin.

Milliy o‘yinchoqlarda, xalqning turmushi, uning qadriyatlari va hatto orzu-istaklari mohirona tasvirlangan. Xalq o‘yinchoqlaridan bozorlarda bayramlar va ommaviy xalq sayillaridagi tomoshalarda milliy o‘yinlarni namoyish qilishda keng qo‘llanilgan. Bunday tamoshalarda insoniylik, aql, idrok, farosat, mardlik, xalqparvarlik, shijoat kabi oliyjanob xislatlar taqdirlanib, yovuzlik, qalloblik, tekinxo‘rlik, manmanlik, yalqovlik kabi salbiy sifatlar qattiq hajv ostiga olib qoralangan.

Millatning qadimiy ming yilliklarni o‘z ichiga olgan tarixini o‘zida aks ettiruvchi va bugungi kundagi mavjud urf odatlari, qadriyatlari mana shunday qo‘g‘irchoq va boshqa o‘yinlari orqali yoshlar ongiga singdirilgan. Qo‘g‘irchoqlar va ular orqali turli o‘yinlarning tashkil etilishi oilada bolalarni har tomonlama aqliy-ahloqiy, jismoniy va estetik shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashida katta ta’sir ko‘rsata oladigan urf-odatlari, an’analari rasm-rusmlari va marosimlari mavjud bo‘lib, bularni oilada bolalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish milliy qadriyatlarimizni qaytadan tiklash demakdir. O‘zbek xalqining o‘ziga, ruhiyatiga xos turli-tuman marosimlari milliy an’analarning yaqqol ko‘rinishi hisoblanadi. “Yoshlarda vatanparvarlikning shakllanishi ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini anglab yetishi bilan bog‘liq. Vatanparvarlikni shakllantirishda xalq milliy o‘yinlari, madaniyati, san’ati va adabiyoti ,turmush tarzi, axloqi, e’tiqodi, ijtimoiy ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlari, marosimlari, an’analari alohida e’tiborga molik qadriyat sanaladi.

Marosimlar kishilarning ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Marosimlarda xalqning o‘ziga xosligi, quvonchu-sevinchi, g‘amu-tashvishi, orzu-umidi, intilishi namoyon bo‘ladi. Bu tadbirlarning mazmunida hayot va o‘lim, yashashning maqsadi, inson umrining abadiy emasligi kabi psixologik g‘oyalar ham yotadi. Shunga ko‘ra ham marosimlar muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Marosimlar shakli va mazmuni jihatidan ham turlicha bo‘ladi. Dunyoda 200 dan ortiq davlat bo‘lsa, ularning barchasini o‘ziga xos va mos tarixi, dini hamda etnik kelib chiqishi bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Marosimi yo‘q xalqning o‘zi bo‘lmaydi.

MAROSIMLAR TEMATIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TO‘RT GURUHGA BO‘LINADI	
Birinchi guruh	so‘zning malik qudratiga asoslanuvchi marosimlar, masalan, kinna, badik, olqish, qarg‘ish va afsunlar
Ikkinchi guruh	bolalarning beshik davri marosimlari (chilla, qochiriq, beshikka solish kabilar).
Uchinchi guruh	to‘y marosimlari. Bunga yor-yor, o‘lan, lapar, kelin salom, kuyov salom, to‘y olqishlari, oyna ko‘rsatar qo‘shiqlari kiradi
To‘rtinchi guruh	motam marosimlari (yig‘i-yo‘qlov, motam kabilardan iboratdir).

Yuqorida qayd etilgan marosimlarni barcha yoshlarimiz ham biladi, ularning mohiyat-mazmunini tushunadi va o‘tkaziladigan tadbirlarda bevosita ishtirok etadi, deyish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki, sobiq tuzum davrida uzoq yillar mobaynida milliy an’analarimiz, urf-odatlarimiz, marosimlarimiz o‘rniga G‘arb asosan rus madaniyatiga xos an’analarni xalq ongiga sun’iy ravishda singdirib keldik. Albatta, bu holat yoshlarimizning milliylikni tushunishlariga, ularning tarbiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada milliy udumlardan, an’analardan uzoqlashdilar.

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan milliy tarbiyaviy vositalarni, qadriyatlarni “eskilikka sig‘inish”, “eskilik sarqiti”, “diniy xurofat”, “hayotdan orqada qolish” kabi tushunchalar bilan kamsitib keldilar. O‘z turmush tarzlariga, oila mazmuniga, tarbiya jarayoniga sharq tarbiyasiga zid bo‘lgan vosita va usullarni kirita boshladilar. Qizlarimiz, ayollarimiz madaniyatli bo‘laman deb sochlarini kesdilar, turli kimyoviy bo‘yoqlar bilan tabiiy chiroylariga soxtalik berdilar. Milliy qadriyatlarni qadrlamaslik, oyoq-osti qilish oqibatida insonlar o‘rtasida mehr-muhabbat asta-sekin ko‘tarila boshlandi. Mustaqilligimiz tufayli urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz qayta tiklandi.

O‘zbek xalq milliy qadriyatlaridan biri hisoblangan to‘y marosimlari har bir inson hayotida beqiyos katta ahamiyatga ega. Xalqimizning boshqa ko‘pgina millatlarda uchramaydigan alohidaligi bilan ajralib turadigan to‘y-marosimlari turli-tuman bo‘lib, ular bir-birlaridan vazifalari, o‘tkazilish tartibi va vositalari, ishtirokchilar guruhi kabi jihatlari bilan keskin farqlanadi. Bu marosimlarning har biri o‘z nomi bilan nomlanadi.

To‘y marosimlari jarayoni bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda, ularga axloq-odob qoidalarini tushuntirishda ota-onalar oldiga qator talablar qo‘ygan va ular ming yillar davomida an’anaviy tarzda avloddan-avlodga o‘tib saqlanib kelgan. Ota-onalar bolalarini turli yaramas ishlardan saqlab, jamiyat uchun kerakli bo‘lgan yaxshi ishlarga qiziqtirishlari, yomon qiliqlar qilishlarini oldini olishlari, sharqona odob-axloqqa zid so‘zlarni gapirmasliklari va ularni ham shunga o‘rgatishlari shart bo‘lgan. To‘y marosimlari ham o‘ziga xos jamoaviy tarbiya vazifasini bajargan. Bu marosimlarda ishtirok etayotgan har bir shaxs o‘zini yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga xarakat qilgan. To‘y marosimlarida ko‘pkari, kurash kabi milliy o‘yinlardan foydalanishgan. Bu o‘yinlar tantilikni, mardlikni, mahalla, qishloq, urug‘ning or-nomusini himoya qilishni o‘rgatgan.

Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va etnopsixologik jihatdan tarbiyalashda milliy an’analarni ota-onalar to‘g‘ri tushunib olishlari, qaysi an’analar qanday maqsad uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki, mazkur talqin etilgan an’analar, urf-odatlar mazmunini, avvalo, ota-onalarning o‘zlari yaxshi o‘zlashtirib, kundalik hayotga qo‘llay olsalargina bolalariga uning ta’siri kuchliroq bo‘ladi. An’analar o‘z holicha mavjud bo‘lmaydi, balki keyingi avlodlarga o‘tishi uchun, ularning ijtimoiy ideallari ruyobga chiqishiga yordam berganligi uchun saqlanib qolmoqda. Oilalarda bolalarni eng yaxshi an’analar ruhida tarbiyalashga intiladilar. Binobarin an’analar bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi an’analarni yoshlarning ongiga, tabiatiga singdirish ota-onalarning muhim vazifasi bo‘lib, uni muvaffaqiyatli bajarish, ularni ma’naviy-ahloqiy va etnopsixologik jihatdan tarbiyalashda yanada keng imkoniyat yaratadi.

O‘zbek xalqining kiyinish madaniyati, pazandalik san’ati, alla aytish san’ati, milliy kuylar va cholg‘u asboblari, kashta tikish, do‘ppi, qiyiq tikish, turli milliy taomlar tayyorlashni o‘rganish

bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy urf-odatlari oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan samarali foydalanish milliy qadriyat sifatida har qanday davrda muhim rol o‘ynashi tabiiydir.

Milliy an’analarimiz doimo rivojlanib boradi, zamon talabi asosida ayrim an’analar o‘zgarishi, zamonga moslashishi mumkin. Ammo, unutib yuborilmaydi. Chunki, o‘z an’analarini unutgan xalqning kelajagi bo‘lmaydi. Xalqimizning to‘y marosimi bilan bog‘liq yana bir an’anasi sovchilikdir. Ota-onalar o‘g‘illarini uylantirish uchun qizning uyiga sovchilar yuboradilar. Sovchilar ko‘pni ko‘rib, unib-o‘sib, uvali-juvali bo‘lgan, el orasida obro‘-e’tiborli kishilar bo‘ladilar.

Sovchilar bo‘lg‘usi kelinning ota-onasining, oilaviy hayotini xovli-joyining toza-ozodaligini, ota-onasining muomilasini kuzatadilar. O‘zbek xalqi urf-odatlarida turmush qurmoqchi bo‘lgan yigit-qizlarni sinab ko‘rish shartlari ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, qizning kamtarin, odobli, iboli, iffatli, sharm-xayoli bo‘lishi bilan birga do‘ppi va qiyiq tikish, shirin va mazali turli-tuman milliy taomlarni tayyorlashi, sigir sog‘ishi, keli tuyish, non pishirishi ham hisobga olingan bo‘lsa, yigitning aql-farosati, axloq-odobi, kasb-hunari, ishbilarmonligi, epchilligi, jismoniy sog‘lomligi juda ustalik bilan sinab ko‘rilgan. Shuningdek, bo‘lajak qudalarning avlodlarini surishtirishida katta ma’no mavjud. Ularning nasli-nasabi tozami, nasli kasalga chalinmaganmi, qaysi polvonning urug‘i kabi jihatlarni inobatga olish kuyov yoki kelin tanlashda muhim rol o‘ynagan. Bu narsa an’anaga aylanib ketganligi uchun hech kimni ajablantirmagan.

Xulosa va takliflar. Har bir millat, har bir xalq o‘z nasl-nasabini kelajak avlodini asrab-avaylab, uning qadrini bilsa, unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo‘lishi muqarrar. Zotan har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o‘rni mavqei va shuhrati bevosita o‘z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog‘liq. Xullas, o‘zbek xalqi marosimlarga, an’analarga, milliy o‘yinlarga boy ularning hammasi uning turmush tarzi, milliy xususiyati, ijtimoiy psixologiyasi, tafakkurlash usulidan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur xalqning ma’naviyatini belgilab beradi. Biz sobiq itifoq davrida yo‘l qo‘yilgan o‘tmish xatolarini takrorlamasligimiz uchun o‘zbek xalqining o‘ziga xos va mos o‘zbekona milliy udumlari, urf-odatlari va marosimlarini va ular zamirida saqlanib kelayotgan milliy o‘yinlarimizni yanada kengroq va chuqurroq o‘rganmog‘imiz, tahlil qilmog‘imiz, oilalarda ularni kundalik turmush tarziga aylantirmog‘imiz, inson kamolotida milliy qadriyatlarning nechog‘li ahamiyatga ega ekanligini farzandlarimiz ongiga, tafakkuriga singdirib bormog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. И.Каримов. “Ватан равнақи учун ҳар биримиз маьсулмиз”. Т.”Ўзбекистон”. 2001 йил 9-жилд 50-бет.

3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ: ибратли ҳикоялар. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.,6-б.

4. Эшматбой Қалқонов. “Баркамол авлод ватан таянчи”. Жамият ва бошқарув. 2009 йил 3-сон 57-бет.

5. Т.Усмонхўжаев.Ф.Хўжаев.”1001 ўйин”. Ибн Сино номидаги нашр.1990 йил. 6-бет.

Beknazarova Lola Sadinovna
Qarshi davlat universteti professori, Psixologiya fanlari doktori(Dsc),
Isoqova Zuhra Mirzayevna
Psixologiya mutaxasisligi magistranti

OLIY TA'LIMDA PSIXOLOGIK XIZMAT, ZAMONAVIY TALABLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqot ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning o'rni va ahamiyatini chuqur o'rganadi. U ta'lim muassasalarida psixologik yordamni birlashtirishning turli funktsiyalari va afzalliklarini tahlil qilib, talabalarning akademik, ijtimoiy va hissiy farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Tadqiqot shuningdek, maktablarda samarali psixologik xizmatlarni joriy etish bilan bog'liq muammolar va potentsial yechimlarni ko'rib chiqadi. Natijalar, talabalarga har tomonlama va inklyuziv yordam ko'rsatishni ta'minlash uchun o'qituvchilar, psixologlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, ta'lim tizimi, psixologik xizmat, pedologiya, akademik ehtiyojlar, motivatsiya, inkluziv yordam, stress, o'z-o'zini anglash, motiv, hissiy farovonlik, psixologik yordam, aqliy taraqqiyot, maktab psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi, psixomotor rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СЛУЖБА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ, СОВРЕМЕННЫЕ ПОТРЕБНОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *Данное научное исследование глубоко изучает роль и значение психологической службы в системе образования. Анализируются различные функции и преимущества интеграции психологической поддержки в образовательных учреждениях и показаны возможности положительного влияния на академическое, социальное и эмоциональное благополучие студентов. В исследовании также рассматриваются проблемы и потенциальные решения внедрения эффективных психологических услуг в школах. Результаты подчеркивают важность сотрудничества между учителями, психологами и другими заинтересованными сторонами для обеспечения всесторонней и инклюзивной поддержки учащихся.*

Ключевые слова: *Высшее образование, система образования, психологическая служба, педология, академические потребности, мотивация, инклюзивная поддержка, стресс, самосознание, мотивация, эмоциональное благополучие, психологическая поддержка, психическое развитие, школьная психология, педагогическая психология, психомоторное развитие.*

PSYCHOLOGICAL SERVICE IN HIGHER EDUCATION, CONTEMPORARY NEEDS AND DEVELOPMENT DIRECTIONS

Abstract. *This scientific study deeply examines the role and importance of psychological services in the education system. Various functions and benefits of integrating psychological support in educational institutions are analyzed and the possibilities of positive impact on the academic, social and emotional well-being of students are shown. The study also considers the problems and potential solutions for implementing effective psychological services in schools. The results emphasize the importance of cooperation between teachers, psychologists and other stakeholders to ensure comprehensive and inclusive support for students.*

Keywords*: Higher education, education system, psychological service, pedology, academic needs, motivation, inclusive support, stress, self-awareness, motivation, emotional well-being, psychological support, mental development, school psychology, educational psychology, psychomotor development.*

Oliy ta’lim - bu inson hayotidagi muhim bosqich bo‘lib, unda yoshlar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki shaxsiy rivojlanish, kasbga yo‘naltirish, kelajakka tayyorgarlik ko‘rish kabi muhim vazifalarni hal qilishadi. Bu jarayonda turli xil qiyinchiliklar, stress, ruhiy bosim va moslashuv muammolari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tashkil etish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik xizmatlar ta’lim tizimida o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi va farovonligiga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning ahamiyati va ta’sirini keng qamrovli o‘rganishga qaratilgan. Talabalarning akademik, ijtimoiy va hissiy ehtiyojlarini qondirish orqali psixologik xizmatlar o‘sish va muvaffaqiyatga yordam beradigan qulay o‘quv muhitini yaratishga hissa qo‘shadi. Yosh avlod tarbiyasi har doim ham g‘oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini izchil rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonning kelajagi yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlari, yuksak malakasi, kasbiy tajribasi va albatta psixologik salomatligiga ham bog‘liqdir. Ta’lim tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifasi o‘quvchilarning psixologik salomatligini asrashdir.

Psixologik xizmatning davlat rivojiga to‘xtashdan avval, uning shakllanish tarixiga nazar tashlaymiz. Psixologik xizmat AQSHda 1800-yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQSHning birinchi amaliyotchi psixologlari o‘zini-o‘zi tarbiyalash muammosini o‘rgangan eksperimental psixologlar edi. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsiyentini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik “Gaydens” xizmatining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo‘lib, u bu sohada 1894-yildan ish boshlagan. 1905-yilda Fransiya ta’lim vazirligi Binega umumiy dastur bo‘yicha o‘qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni o‘rganadigan Bine-Simon testi yaratildi. 1909-yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi, ta’lim psixologiyasi va psixomotor rivojlanish bo‘yicha bittadan mutaxassisni o‘z ichiga oladi. Guruh 800-1000 o‘quvchiga xizmat ko‘rsatadi, bir maktabda joylashib, bir necha maktabga xizmat qilishi mumkin. Sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta’limida psixologiyadan foydalanish bo‘yicha urinishlar pedologiya doirasida amalga oshirildi. Pedologiya rivojlanayotgan va o‘sayotgan shaxsning barcha biologik va ijtimoiy xususiyatlarini qamrab oladigan fandir. 1936-yilda pedologik qarashlarni to‘xtatish haqida qaror qabul qilindi, natijada rus psixologlarining bola psixologiyasi bo‘yicha ijobiy izlanishlari ham to‘xtab qoldi. Faqat 1960-yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishida amaliy ishtiroki qayta tiklandi. 1984-yilda Moskvada “Psixologik xizmat muammolari bo‘yicha I umumittifoq anjumani” bo‘lib o‘tdi. Anjumanda maktabda psixologik xizmat seksiyasi ham faoliyat yuritdi. Sobiq Ittifoqda birinchi bo‘lib Estoniyada 1975-yilda maktabda psixologik xizmat tashkil etildi. Eston psixologlari “tarbiyasi qiyin” o‘smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar. Rossiyada 1982-yilda maktablarda psixolog shtati ochildi. Iqtidorli olima I. V. Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga ulkan ulush qo‘shdi, u ushbu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va bir qancha asarlar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, 1989-yilda O‘zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli TDPUda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O‘zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M. G. Davletshin, E. G‘. G‘oziyev, B. R. Qodirov, G‘.B. Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R. Baratov, F. N. Sattarov, F. S. Ismagilova, N. S. Safoyev, F. I. Haydarov, S. X. Jalilova va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. 1998-yilda Sh. R. Baratov “Ta’lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Hozirgi kunda psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda talabani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga tayanadilar. Amaliyotchi psixolog o‘z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradi.

Oliy ta’limda psixologik xizmatning dolzarbligi.

Oliy ta’limda psixologik xizmatning dolzarbligi ko‘p jihatdan ta’lim tizimining sifatini oshirish va talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq. Psixologik

xizmatlar talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi va o‘qish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday xizmatlar nafaqat o‘qish jarayonida, balki talabalarning o‘z-o‘zini anglash, muomala madaniyatini rivojlantirish, stressni boshqarish va shaxsiy muammolarni hal qilishida ham katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, psixologik xizmat talabalarga kasbiy yo‘nalishlarini tanlashda, qobiliyatlarini aniqlashda va ishga joylashish jarayonida yo‘l-yo‘riq beradi. Shu bilan birga, ularning yangi muhitga moslashishi, guruh bilan ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatishi va integratsiyalashuviga ko‘maklashadi. Eng muhimi, psixologik xizmatlar talabalarning ruhiy sog‘lig‘ini saqlashda, ruhiy kasalliklarni erta bosqichda aniqlashda va kerakli yordamni taqdim etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu barcha omillar oliy ta’limda psixologik xizmatlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Oliy ta’limda psixologik xizmatning tashkiliy tuzilmasi va harakatlari.

Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat turli xil shakllarda tashkil etilishi mumkin va bu xizmat umumiy tuzilmada bir nechta muhim elementlarni o‘z ichiga oladi. Psixologik xizmat bo‘limi ta’lim muassasasidagi asosiy bo‘lim sifatida psixologik maslahatlar, treninglar, diagnostika va tadqiqotlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ta’lim muassasasida malakali psixologlar jamoasi ishlaydi, bu esa talabalarga shaxsiy muammolar, stress, xavotir, depressiya, moslashuv qiyinchiliklari va boshqa psixologik muammolar yuzasidan maslahat olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, psixologik xizmat doirasida talabalarning shaxsiy rivojlanishi, muomala madaniyatini shakllantirish, stressni boshqarish va motivatsiyani oshirish kabi masalalarga qaratilgan trening va seminarlar o‘tkaziladi. Psixologik diagnostika usullari yordamida talabalarning qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va ruhiy sog‘lig‘i aniqlanadi. Shu bilan birga, talabalarning ruhiy holati, o‘qish samaradorligi kabi masalalarga qaratilgan psixologik tadqiqotlar ham olib boriladi.

Zamonaviy sharoitda oliy ta’limda psixologik xizmat bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlantirilishi zarur. Innovatsion usullar va texnologiyalar, masalan, onlayn maslahatlar, mobil ilovalar va VR texnologiyalari orqali psixologik xizmat yetarliligini oshirish va sifatini yaxshilash mumkin. Bundan tashqari, psixologlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish talabalarning ruhiy sog‘lig‘ini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologlarning kasbiy malakasini oshirish ham yangi usullarni o‘rganish va xizmat sifatini yaxshilashda yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik xizmat sohasida tadqiqotlarni rivojlantirish orqali samarali yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin.

Psixologik xizmatda psixologik maslahat, psixodiagnostika va psixokorreksiya kabi sohalar usullaridan foydalaniladi. I.G. Kolesnikovaga ko‘ra, ta’lim muhitida psixolog maslahati berishda psixolog mutaxassis quyidagi vazifalarni bajaradi: bolalar, o‘qituvchilar, talabalar ta’lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga, jumladan, ta’lim muassasasi ma’muriyati, direktor, rektor, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik tashkilotlariga ilmiy asoslangan maslahatlar beradi. Ta’lim, tarbiya, kasb tanlash, o‘zaro munosabatlar, muloqot sirlari va tengdoshlar bilan munosabatlar kabi masalalarda individual yoki guruhiy tarzda maslahatlar tashkil etiladi.

Shuningdek, psixologlar ma’muriyat va talabalarni qiziqtirgan psixik o‘sish xususiyatlariga oid masalalar bo‘yicha ma’lumot beradi, oila, bolalar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda ilmiy-amaliy maslahatlar berish orqali ishtirok etadi. Yangi turdagi maktab, kollej va akademik litsey o‘quvchilari va talabalariga ularning imkoniyatlari va kelajagi to‘g‘risida maslahatlar beradi, yoshlarni saralash, tanlash va kasbga yaroqliligini aniqlashda ishtirok etadi. Bu barcha chora-tadbirlar ta’lim muhitida psixologik xizmatni samarali tashkil etishga va talabalar uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Oliy ta’limda psixologik xizmat talabalarning ruhiy sog‘lomligini saqlash, o‘qish samaradorligini oshirish, kasbiy yo‘nalishlarini tanlash va ijtimoiy moslashuvda yordam berish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy talablarni hisobga olib, psixologik xizmatning rivojlanish yo‘nalishlarini amalga oshirish orqali ushbu sohaning sifatini yaxshilash va talabalarning hayotida ijobiy o‘zgarishlarni yaratish mumkin.

Ta’lim tizimida psixologik xizmatlar o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish va ularning umumiy farovonligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Psixologik xizmatlar, o‘z navbatida,

akademik yordam ko‘rsatish, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘qituvchilar bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish orqali inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratishga hissa qo‘shadi, bu esa o‘quvchilarning o‘sishi va muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi.Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning sifatini va mavjudligini oshirish, o‘quvchilarga yordam berishni yanada samaraliroq qilish uchun to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar, o‘quvchilarga inklyuziv va samarali psixologik yordam ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida, ushbu to‘siqlarni bartaraf etishning samarali strategiyalarini aniqlashga va ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning mavjudligi va sifatini oshirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim mazmunI. In E Conference Zone (pp. 22-25).

2. Adilova, M. (2023). The psychological effect of traps in the social network on youth mind and spirituality. Open Access Repository, 4(2), 500-505.

3. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). Shaxs emotsional intellektining psixologik va psixofiziologik jixatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

4. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). Agressiya–osmirlarda yuzaga keladigan tajovuzkorlik rivojlanishiga tasir etuvchi fenomen sifatida. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

5. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.

6. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). Maktabgacha yoshdagi bolada o ‘zini-o ‘zi anglashda oilaning roli. In E Conference Zone (pp. 11-16).

7. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). Professional motivation and its structure in the management process. In E Conference Zone (pp. 11-16).

8. Madina, A., & Lobar, R. (2023). Huquqiy ong tushunchasini o‘rganishning nazariy jihatlari. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Farfiyeva Komola Atxamdjanovna
Profi universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori
psixologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail.farfievak@mail.ru

ZAMONAVIY KADRLARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada kadrlar menejmentining o'ziga xos tomonlari yoritilgan bo'lib, kadrlarga baho berish, ularning mehnat samaradorligi, fazilatlarini SWOT – tahlil asosida ko'rib chiqishga harakat qilingan. Ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimi haqida takliflar ishlab chiqilgan.*

Zamonaviy kadrlarni shakllantirishning ilmiy asoslari, zamon talablariga mos keluvchi malakali va kompetent kadrlarni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda, zamonaviy ta'lim tizimlarining o'zgarishi, innovatsion pedagogik metodlar, va professionallikni oshirish bo'yicha strategiyalar ko'rib chiqiladi. Kadrlar tayyorlashda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning muhimligi ta'kidlanadi, shuningdek, motivatsiya va ijtimoiy mas'uliyatning roli o'rganiladi.

Kadrlarni shakllantirish jarayonida muhim ilmiy tamoyillar va metodologiyalarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan zamonaviy kadrlarni tayyorlashga imkon beradi. Shuningdek, bu tadqiqotning amaliy jihatlari, o'quv dasturlarini takomillashtirish va kadrlar boshqaruvi sohasida yangiliklarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *zamonaviy kadrlar, ta'lim va o'qitish, professional rivojlanish, kompetensiyalar, innovatsiyalar, rahbarlik ko'nikmalari, jamiyat va iqtisodiyot, motivatsiya, kadrlarni tayyorlash, boshqaruv tamoyillari, ijtimoiy mas'uliyat, komanda ishini rivojlantirish, loyiha boshqaruvi, karyera yo'nalishlari.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ КАДРОВ

Аннотация. *В статье изучается аспекты кадрового менеджмента, где упор сделан на подбор и оценку кадров, определения эффективности труда, осуществлен анализ их черт на основе использования метода SWOT – анализа. Расмотрены также проблемы, встречающиеся в образовательное сфере и выработаны рекомендации по их решению.*

Современные кадры формируются на научных основах, включая подготовку квалифицированных и компетентных специалистов, соответствующих требованиям времени. В данном исследовании рассматриваются изменения в современных образовательных системах, инновационные педагогические методы и стратегии повышения профессионализма. Подчеркивается важность знаний, навыков и компетенций в подготовке кадров, а также исследуется роль мотивации и социальной ответственности.

Процесс формирования кадров ориентирован на определение ключевых научных принципов и методологий, которые позволяют готовить современные кадры, необходимые для экономического и социального развития. Кроме того, практическая сторона данного исследования служит основой для совершенствования учебных программ и внедрения новшеств в области управления кадрами.

Ключевые слова: *современные кадры, образование и обучение, профессиональное развитие, компетенции, инновации, лидерские навыки, общество и экономика, мотивация, подготовка кадров, принципы управления, социальная ответственность, развитие командной работы, управление проектами, карьерные направления*

SCIENTIFIC BASIS OF MODERN PERSONNEL FORMATION

Annotation. *The article aspects of personnel management were considered, where emphasis was directed on the selection and assessment of personnel, the determination of labor efficiency, and an analysis of their features based on the use of the SWOT method. The problems encountered in the educational sphere were also considered and recommendations for their solution were developed.*

Modern personnel are formed on scientific foundations, including the preparation of qualified and competent specialists who meet the demands of the times. This research examines changes in contemporary educational systems, innovative pedagogical methods, and strategies for enhancing professionalism. The importance of knowledge, skills, and competencies in personnel training is emphasized, as well as the role of motivation and social responsibility.

The process of personnel formation is focused on identifying key scientific principles and methodologies that allow for the preparation of modern personnel necessary for economic and social development. Additionally, the practical aspects of this research serve as a basis for improving educational programs and implementing innovations in the field of personnel management.

Keywords: *modern personnel, education and training, professional development, competencies, innovations, leadership skills, society and economy, motivation, personnel training, management principles, social responsibility, team development, project management, career pathways*.

Kirish. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati – ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, uni hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarish, shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 24-may kuni oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish oliy ta'lim muassasalarning nufuzi, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi zarurligini ta'kidladi. O'zbekiston Milliy universitetida Prezidentimiz oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar, mazkur oliy ta'lim dargohini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar taqdimoti bilan tanishib, "Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir", - dedi davlatimiz rahbari.

Ushbu vazifani bajarish borasida ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish, professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik, salohiyatini mustahkamlash, malakasini oshirish, davlatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida zamonaviy mutaxassis-kadrlar tayyorlash tizimini yaratish belgilab olindi va ta'lim tizimida islohotlar o'tkazilishi ta'kidlandi. Chunki, zamonaviy mutaxassis – kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ymasdan turib iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish masalasini hal qilish mumkin emas. O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida erishgan yutuqlari va tajribasi asosida yanada rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909 qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida ushbu ustuvor vazifaga alohida to'xtalib o'tilgan.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish yoshlarning ilmiy salohiyatini xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi zarurdir. Jamiyatda yashayotgan fuqarolarni intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947–sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalarga yo'naltirilgan ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi[1].

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni . // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Toshkent, 2017. – B.39.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni hal etishda ta’lim tizimi menejmentini oqilona tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha chiqarilayotgan ko‘pgina qarorlar ularni amalga oshirish bo‘yicha oqilona boshqarish va amalga oshirish mexanizimlarini quyi bo‘g‘inlarda ta’minlanmaganligi sababli belgilangan natijalarga erishishda qiyinchiliklarga duch kelyapmiz. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim tizimi menejmentida erishilgan yutuqlar tahlili O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu vazifalarni ijobiy hal etilishi ta’lim menejmenti samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. Albatta, ushbu tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimidagi milliy an’analarimiz, mintalitetimiz va iqtisodiy imkoniyatlarimiz asosida bosqichma-bosqich tadbiq etilishi lozim. Ta’lim tizimidagi chuqur tahlillarga asoslanmagan keskin o‘zgarishlar davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jahondagi rivojlangan ta’lim tizimi tajribalari tahlili asosida ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etish O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbuslari bilan ta’lim tizimini jahon standartlari asosida tashkil etish bo‘yicha chuqur islohotlar o‘tkazilmoqda. Bu o‘zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ushbu muammolarni hal qilishda kadrlar menejmentini o‘rganish, yaratish va ularni ta’lim tizimiga tadbiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshirilayotgan islohotlarni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Kadrlar tayyorlash tizimini o‘rganish borasida xorijiy va respublikamiz olimlari va amaliyotchilar tomonida juda ko‘pl izlanishlar olib borilgan. Jahonda shaxs faoliyat va uni boshqarishni tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli dolzarb muammolar o‘z yechimini topgan va izlanishlar davom etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda kadrlar menejmenti va shaxs intellektini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarda o‘z aksini topgan. A.Albert, E.Vinter, P.Druker, D.Duglas, M.Meskoun, A.Fayol kabi yetuk olimlar tomonidan menejment sohasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, N.S.Safoyev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, Umarov B., M.F.Hakimova, O.E.Haitov, Sh.H.Abdullayeva, M.Ikramov, I.Maxmudov va boshqa olimlarning ilmiy-uslubiy ishlanmalarini keltirishimiz mumkin. Shu sababdan, ta’lim sohasida kadrlar menejmentining zamonaviy metodologiyasiga ko‘proq e’tibor qaratilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim tizimida malakali zamonaviy kadrlarni shakllantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha jahonning ilg‘or tajribasidan foydalanish va mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism.

Oliy ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga doimo muhim jabha hisoblangan. Zamonaviy rivojlanish va uning yaqin kelajakdagi istiqbolining o‘ziga xos xususiyati shundaki, insonning shaxsiy sifatlari iqtisodiy o‘sishda tobora zaruriy omilga aylanib bormoqda. Bu tendensiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, bozor islohotlari yaqinda amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiy o‘sish va inson rivojlanishi o‘rtasida uzoq muddatli o‘zaro munosabatlar kuzatiladi. Keyingi yillarda inson resurslarini boshqarishning yangi usullaridan foydalanish ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslarning potensiali iqtisodiy samarasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi alohida boshqaruvchilik modeli xalqaro darajada rasman tan olindi. Korxona personaliga nazariy qarashlarning evolyusiyasi va ularga ta’sir qilgan bir qator omillar mavjud. Insonning korxonadagi o‘rnini tushunishning eng zamonaviy shakli – xodimning eng samarali qo‘yilmalar obyekti va bu qo‘yilmalarni bilim va ko‘nikmalar yig‘indisiga aylantiruvchi subyekt sifatida tan olinishidir. Bu personalga korxona uchun eng qimmatli va samarali inson resurslari sifatida qarashning shakllantirilishi bilan bog‘liq. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, personalni boshqarish bo‘yicha faoliyat – korxonani insonlardan iborat tarkibiy qismiga personal imkoniyatlarini korxonaning maqsadlari, strategiyasi, rivojlanish sharoitlariga moslashtirishga yo‘naltirilgan maqsadli ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Bugungi islohotlar davrida mamlakatimizda zamonaviy boshqaruv kadrlarni to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va bu borada yechimini

kutayotgan talay muammolari mavjud. Ayniqsa, personal va boshqaruv tizimi munosabatlarini ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammolar yechimining quyidagi tomonlari ilmiy-amaliy ahamiyatga molik:

1) Boshqaruv kadrlari tizimini samarali faoliyati sifatli kadrlarni shakllanishi va rivojlanishiga munosabatlar;

2) Boshqaruv kadrlarining kasbiy saviyasi va ulardan xodimlarda qoniqish hissining paydo bo'lishi;

3) Xodimlar boshqaruv kadrlari shaxsini idrok etishning xususiyati;

4) personal-boshqaruv-kadr munosabatlarining serqirraliligi kabilar.

Boshqaruv kadrlarini xodimlar faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchanligi to'g'risida mulohaza yuritilganda, ularning tarkibi, ularga nisbatan ehtiyoj va qiziqishlarning ilmiy asoslarini chuqurroq anglanganlikka bog'liqligini ta'kidlab o'tish joiz. Ana shuning uchun zamonaviy kadrlarni shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etishning mexanizmlari yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirmasdan turib, kadrlar menejmentining samaradorligi haqida mulohaza yuritish mumkin emas.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oxirgi o'n yillikdagi ilmiy-texnik taraqqiyot mehnat faoliyatida ulkan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mehnat faoliyatining mohiyati ham o'zgarmoqda. Oliy ta'lim tizimida ham xodimlarda yangi sifatlar mavjud bo'lishi lozimligini talab qiladi. Bu sifatlar qatoriga quyidagilar kiradi: yuqori kasbiy malaka, mustaqil qaror qabul qila olish, jamoada ishlash ko'nikmasi, tayyor mahsulot sifati uchun javobgarlik, ishlab chiqarish texnikasi va tashkil etilishini bilish, ijodiy ko'nikmalar. Zamonaviy sharoitlarda personalni boshqarish inson omilini o'ziga xosligi tufayli faoliyatning alohida sohasidir. Birinchidan, insonlar tashqi ta'sirga mexanik ravishda emas, hissiyot bilan, mulohaza bilan javob qaytaradilar. Ikkinchidan, ular butun mehnat faoliyati davomida doimiy rivojlanib, o'z kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishga qodirdirlar. Uchinchidan, insonning korxona bilan munosabatlari uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi mumkin, chunki zamonaviy jamiyatda uning mehnat hayoti 30-50 yil davom etadi. To'rtinchidan, insonlar korxonaga ma'lum mulohaza asosida, ma'lum maqsadlar bilan keladilar va xodimning korxona bilan munosabatlardan qoniqish hosil qilishi samarali ishlashning zaruriy shartidir. Masalan, nemis olimlari S.Marra va G.Shmitdning fikricha, personalni boshqarish barcha korxonalarga xos bo'lgan faoliyat sohasi bo'lib, uning asosiy vazifasi korxonani personal bilan ta'minlash va personaldan maqsadli foydalanishdan iborat. Personalni boshqarish fani esa ushbu muammolar majmui bilan shug'ullanuvchi fandir. Amerikalik olim R.Daft personalni boshqarishda asosiy e'tiborni korxonadagi inson resurslari sifati haqida g'amxo'rlikka qaratadi. U personalni boshqarish – bu ishchi kuchini jalb etish, tayyorlash va samaradorligini saqlash bo'yicha faoliyatdir, deb hisoblaydi. Mahalliy iqtisodchi olimlar personalni boshqarish alohida xodim va umuman korxona manfaatlarini ta'minlash maqsadida inson salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, axloqiy va huquqiy munosabatlar tizimidir, deb ta'kidlaydilar. Korxonaning yakuniy maqsadlarga erishishida personal va uning majburiyatlari, shuningdek, uning a'zolari o'rtasida samarali aloqalar ahamiyatining ortishi oxirgi paytlarda ilmiy adabiyotlarda personal iborasi o'rniga ko'proq inson resurslari iborasidan foydalanilishiga olib kelmoqda. Biroq haligacha ilmiy adabiyotlarda personal menejmenti va inson resurslari menejmenti iboralari o'rtasida aniq farq belgilanganicha yo'q. Ammo personal menejmentidan farqli ravishda inson resurslarini boshqarishni qisqa muddatli istiqboldan ko'proq uzoq muddatli istiqbolga, byurokratik tizimdan ko'proq organik tizimga, mehnat qiymatini minimallashtirishdan mehnatdan maksimal foydalanishga aloqador deyish mumkin. O'zbekistonda ham uzoq muddatli istiqbolda korxonalar va oliy ta'lim tizimida ham uning asosiy strategiyasi sifatida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga tobora ko'proq e'tibor qaratadilar. Barcha fikrlarni jamlagan holda personalni boshqarish tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish mumkin. Bir tomondan personalni boshqarish – korxona va shaxsiy maqsadlarga to'liq va sifatli erishishda korxona mavjud inson resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish, xodimlarda istalgan ishlab chiqarish xulqini shakllantirish imkonini yaratuvchi turli omillarni o'rganadigan fandir. Ikkinchi tomondan, ba'zi bir mualliflar personalni boshqarish deganda, korxonada insonlarga rahbarlik qilish bo'yicha amaliy faoliyat tushuniladi. Inson resurslarini boshqarish tizimining asosiy obyekti aniq kishilar,

tashkilotning xodimlaridir. Bunday yondashuvda inson resurslarini boshqarish sohasidagi mutax-assislar korxonani boshqarish jarayonini muhim ishtirokchilariga aylanadilar hamda moliyaviy va ishlab chiqarish bo‘linmalari rahbarlari bilan bir qatorda korxonaning strategik vazifalari va maqsadlarini bajarishda ishtirok etadilar.

Empirik natijalar. Profi universiteti “Pedagogika a psixologiya” kafedrasi kadrlarining SWOT-tahlilini olib borishga harakat qildik. Profi universiteti “Pedagogika a psixologiya” kafedrasida hozirgi kunda Pedagogika va psixologiya bakalavriat yo‘nalishlarida namunaviy dastur asosida fanlarni o‘qitilmoqda. Kafedra tarkibida 29 kishi iborat professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda, ulardan 1 akademik, 1 professor, 3 fan doktori, 10 ta dotsent, 7 ta katta o‘qituvchi. Kafedraning o‘rtacha yoshi 43 yosh. Kafedrada o‘rta yoshlilar ko‘pchilikni tashkil etadi, demak, kafedra tarkibini ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan to‘ldirish imkoniyatini beradi.

Agar kuzatayotgan bo‘lsak, rivojlanishning innovatsion yo‘lidan borayotgan mamlakatlarda aqlliy texnologiyalar barcha sohada keng tadbiq etilmoqda. Chunki, “aqlliy texnologiya” lardan maqsad kam vaqt va kuch sarflab, yuqori natijaga erishishdir. Ushbu texnologiyalar barcha yo‘nalishi sohasida muhim o‘rin tutadi. Universitet talabalariga ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy hayotida yuz berayotgan voqea va yangiliklarni ilmiy tahlil etmasdan yetuk kadr etib tayyorlab bo‘lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga berilayotgan e’tibor haqida ishimizning kirish va birinchi bobida qarab chiqishga harakat qildik. Yosh avlodning milliy va jahon ilm-fan yutuqlarini o‘rganish va o‘zlashtirishga intilishini rag‘batlantirish talabalarning ijtimoiy-gumanitar fanlari shular jumlasiga kiradi. Mazkur fanlar orqali puxta bilim egallashi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida kafedraning moddiy-texnika bazasini tubdan yangilanishi lozim. Ammo, shu bilan birga kafedrada ta’lim tizimini rivojlantirish, innovatsion menejmentni shakllantirish borasida muammolar ham mavjud.

Iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish hamda ularni har tomonlama qo‘llashda kafedra tomonidan tadbirlar o‘tkazilmoqda. Shu bois kafedrada o‘qitlayotgan fanlar orqali talabalar yiliga institut va respublika miqyosidagi olimpiada, konferensiya va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etmoqdalar. Shu bilan birga o‘quv jarayoniga faol o‘qitish texnologiyalarini joriy etish borasida alohida e’tibor qaratilishi lozim, deb bilamiz. Hozirgi kundagi metodikalar zamon talablariga javob bermasligi, ishlab chiqarishdan ajrab qolganligini ham ta’kidlab o‘tishimiz kerak.

Rahbarlarning ish usullari jamoa yoki xodimlarga nisbatan boshqaruv ta’siri usullari, yo‘llari va qoidalarining hamda jamoaning ish faoliyatida yuzaga keladigan turli vaziyatlardagi rahbarning o‘zini tutishining yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Rahbarlikning usulida rahbarning shaxsiy hislatlari namoyon bo‘ladi va shu boisdan ular ijtimoiy–ruhiy xususiyatga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, har qanday rahbarning boshqarish usulariga oid aniq talablar mavjud.

Rahbarlik usuli birinchi navbatda, vazifalarni bajarishga ilmiy yondashuv, ish va so‘z birligi, ishbilarmonlik, rahbarlikning kollektivligi, erishilgan natijalarni tanqidiy baholash, shaxsiy kamtarlik hamda qo‘l ostidagi xodimlarga nisbatan hurmat munosabatlari bilan ajralib turishi lozim. Malakali kadr bo‘lib yetishishi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. Kadrlar sifati, salohiyati va kelajagini aniqlashtirish uchun SWOT-tahlil texnologiyasidan foydalaniladi. Ushbu texnolgiya AQSh va Yevropa davlatlarida keng foydalanib kelinadi va o‘zining samarasini berib kelmoqda. Birinchi navbatda SWOT abbreviaturasini keng yoritishga harakat qilamiz.

- Strengths – kuchli muammolar;
- Weaknesses – zaif tomolar;
- Opportunities – imkoniyatlar;
- Threats – tahdidlar.

Kuchli va zaif tomonlar asosan tashkilot yoki konkret ichki xarakteristikalarini ifoda etib, imkoniyatlari va tahdidlar tashqaridan ta’sir etuvchi omillarga mansub hisoblanadi. Tashqi omillarga ta’sir ko‘rsatish yoki ularni o‘zgartirish o‘ziga xos tomonlari bor, shu bilan birga o‘zgartirish qiyin bo‘lgan holdir.

Har bir insonning, shular qatorida “Pedagogika va psixologiya” kafedramiz a’zolarida o‘ziga xos fazilatlar mavjud bo‘lib rahbar kadr har bir xodimni SWOT-tahlil metodi asosida tahlilqilishi, xodimlarning uning asosiy maqsadi jamoa va uning alohida vakillar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqish, ulardan oqilona foydalanish va jamoada ishchan muhit yaratishdan iboratdir. Oliy ta’limda professor-o‘qituvchilari va boshqaruv kadrlarining asosiy kasbiy vazifalarini va kadrlarni boshqarish tamoyillarini tahlil etish, pedagogik jamoaning yondashuvini tahlil qilish bu boradagi eng samarali yo‘llar biri hisoblanadi.

Xulosalar:

- Oliy ta’lim tizimida yuqorida qayd etilgan islohotlar va qarorlarni amalga oshirish uchun boshqaruv kadrlari va professor-o‘qituvchilar qat’iy tartib intizom asosida mas’uliyatni sezishlari, kadrlar tayyorlash tizimiga o‘z hissalarini qo‘sha oladigan kadr sifatida tayyor bo‘lishlari lozim.
- Boshqaruv tizimi kadrlari shaxsni boshqarishning barcha usul va vositalaridan xabardor bo‘lishlari va buning uchun esa o‘z ustilarida tinimsiz mehnat qilishlari kerak. Har qanday oliy ta’lim tizimi faoliyatida xodimlarni tanlash va ularni oqilona boshqarish eng mas’uliyatli vazifalardan hisoblanishini hisobga olgan holda shaxslarning kasbiy kompitentliligini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.
- Kadrlar menejmentida ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanish uchun keys-stadi, aniq holatlarni tahlil qilish, ishbilarmonlik o‘yinlari, SWOT – tahlili o‘tkazish kabi faol o‘qitish texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Kafedra va fakultet professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashda SWOT – tahlil uslubida foydalangan holda, reytingni aniqlash ishini tashkil etish lozim bo‘ladi.
- Boshqaruv kadrlari va professor-o‘qituvchilarning ilmiy pedagogik faoliyatini baholashda olib borgan ilmiy, uslubiy, ma’naviy ishlar uyg‘unligida aks etishini hisobga olgan holda, ularning mehnatini rag‘batlantirish bilan uzviyligini ta’minlash orqali yuqori samaraga erishish mumkin bo‘ladi.
- Oliy ta’lim tizimining mehnat bozoriga, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoniga moslashuvchanligini oshirib, tizimda samaradorlikni yuksaltirishning muhim sharti qilib olinishi zarurdir. Chunki, ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlar amaliyotda o‘z o‘rnini topa olmay, butunlay boshqa sohalarda ishlamoqdalar.
- Amaliyotda ilg‘or xorijiy oliy o‘quv yurtlarining tajribalarini qo‘llash tizimini yanada takomillashtirish, buning uchun pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o‘quv yurtlarida malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta’lim olishi muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 25-oktyabr.
2. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности.- М., Наука, 1980.- 333 с.
3. Ikramov M.A. Maxkamova M.A., Samatov G.A, Menejment. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2014. -307b.Каримова В.М., Акромова Ф. Психология. –Тошкент, 2000. -171 б.
4. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. –Tashkent, 2006.
5. Рахманова Д., Умаров Б. Психологтческие основы учебно-познавательной деятельности студентов ВУЗа. –Т.: “Гафур Гулям”, 2008. -112с.
6. Farfiyeva K.A. O‘spirinlarda ilmiy-innovasion tafakkur shakllanishining ijtimoiy-psixologik ositalari. Dissertasiya avtoreferati. Toshkent, 2022.
7. Farfiyeva K.A. O‘spirinlarda ilmiy tafakkurning psixologik xususiyatlari // Zamonaviy ta’lim. 2020. № 8. - B. 23-30. (19.00.00. № 8).
8. Эльконин Д.Б. Введение в психологию развития. М.: Тривола, 1994.-101 с.
9. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – T.:O‘qituvchi. 1990. – 183 b.

Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,
O‘zMU Jizzax filiali Yoshlar psixologiyasi kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Abdurasulov Rustam Abduraimovich
Samarqand davlat universiteti professori
psixologiya fanlari doktori(Dsc)

OILAVIY MUNOSABATLARDAN O‘ZARO QONIQISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada er-xotin o‘rtasida vujudga kelayotgan kelishmovchilar, er-xotin o‘rtasida bir-biridan o‘zaro qoniqish darajasi borasida olib borilgan tadqiqot ishi natijalari yoritilgan. Jumladan, er-xotin bir-birlarining individual xususiyatlari, er-xotin orasida matonat, sabr, qoniqish, mehr, o‘zaro hurmat bo‘lishi, er-xotinlarning bir-birlariga ko‘nikib ketishlari haqidagi ma’lumotlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *er-xotin, nizo, omil, o‘zaro munosabat, xarakter, ijtimoiy moslashuv, o‘zaro qoniqish, hurmat, oilaviy munosabatlar.*

FEATURES OF MUTUAL SATISFACTION IN FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation. *This article covers the results of a research study on the conflicts that arise between spouses and the level of mutual satisfaction between spouses. In particular, information about the individual characteristics of spouses, the presence of perseverance, patience, satisfaction, affection, mutual respect between spouses, how spouses get used to each other, and practical recommendations are provided.*

Keywords: *spouses, conflict, factor, relationship, character, social adaptation, mutual satisfaction, respect, family relationships.*

ХАРАКТЕРИСТИКА ВЗАИМНОГО УДОВЛЕТВОРЕНИЯ ОТ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье освещены результаты проведенного исследования уровня взаимной удовлетворенности супругов и разногласий между супругами. В частности, даются сведения об индивидуальных особенностях супругов, настойчивости, терпении, удовлетворенности, любви, взаимном уважении между супругами, а также практические рекомендации.*

Ключевые слова: *пара, конфликт, фактор, взаимодействие, характер, социальная адаптация, взаимное удовлетворение, уважение, семейные отношения.*

Kirish. Bizning o‘zbek xalqida oila deb atalmish muqaddas maskan har bir insonlar uchun qadriyat sanaladi. Dunyoda har bir inson juft bo‘lib yaratilgan, zero juftsiz hech bir inson o‘zini baxtli hisoblamaydi. Bugungi kunda oiladagi munosabatlar, oiladagi ijtimoiy muhit, er va xotin munosabatlarini yanada chuqurroq o‘rganish har doim xalqimizning, jamoyatimizning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Lekin davlatimiz tomonidan oila masalasiga shuncha ko‘p e’tibor berilishiga qaramasdan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor bo‘lmasdan turib turmush qurishayotgani, oila muqaddas dargoh ekanligi tushuntirilmasdan, oilani mustahkamlanishi uchun harakat qilishlari kerak ekanligi o‘rgatilishiga qaramasdan yosh er-xotinlar orasida nizo va kelishmovchiliklar uchrayotgani achinarli holdir. Oilada erkaklar tomonidan ayollarini e’zozlash, ehtirom ko‘rsatish qadimdan qadriyat sifatida qaralgan.

Bu borada muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning [1] “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi” degan fikrlaridan ham bilsa bo‘ladi. Darhaqiqat, ayollar o‘zining butun umrini, hayotini o‘z oilasiga bag‘ishlaydi. Farzandlarini dunyoga keltirib, ularni oq yuvib, oq tarab ulg‘aytiradi. Jamiyat uchun

barkamol shaxs qilib tarbiyalaydi. Shunday ekan, oilada erkaklar ularni har doim e'zozlashi, ularga hurmat ko'rsatishi darkor.

Mamlakatimizda o'zbek oilalarida o'zaro munosabat turlari va uning ijtimoiy-psixologik omillari, oiladagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish, undagi shaxslararo munosabatlar, ota-onalarning o'zaro munosabatlarini o'smir shaxsiga ta'siri masalalarini O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, H.Abdusamatov, R.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, A.E.Kadirova, N.X.Lutfullayeva, G.Niyazmetova, R.S.Samarov, N.A.Sog'inov, M.A.Utepbergenov, O'.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov, U.D.Qodirov va boshqalar tadqiq etishgan [2].

Asosiy qism. Dunyodagi eng buyuk do'stlik bu er-xotinlikdir, ular bir-birlariga shirin jonlarini ishonib topshiradilar. Insonlar oila qurishda o'zlariga bir umrlik yor, do'st va unsi-ulfat tanlashda, yetti o'lchab bir kesmoqliklari lozim. Ko'z ochib ko'rgan kishingiz dunyoda faqat bitta bo'ladi, uni takrorlab bo'lmaydi. [3] Haqiqatdan ham, oilada er-xotinlar bir-birlariga do'st bo'lishi kerak, oilasida duch keladigan har qanday qiyinchiliklarni birgalikda bahamjihat bo'lib, boshqacha aytganda bir yoqadan bosh chiqarib yengishga harakat qilsalar, oilaviy turmushlari yana ham nizosiz, murosali kechishini aytishimiz mumkin. Zero, er-xotin o'rtasidagi do'stlik va birdamlik yanada mustahkamlansa, oilalarda tinchlik hukm suradi, deb ayta olamiz.

Bu borada sharq mutafakkir olimi Abdulla Avloniy ham quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar. "Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"[3].

Dunyodagi har bir inson o'z oilasini mustahkam, tinch-totuv, fayzli va farovon bo'lishini albatta istaydi. Oila insonlarning tasavvuri, dunyoqarashi, ijobiy hamda salbiy fazilatlarini shakllantiribgina qolmasdan, insonlarni ma'naviy juhatdan ham kamolga yetishishida o'z hissasini qo'shadi. Oilaviy munosabatlar, deganda avvalo biz, ota-ona, er-xotin, farzandlar va yaqin qarindoshlarning o'rtasida yuzaga keladigan ijobiy aloqalarni tushunishimiz mumkin. Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar, oilada ma'suliyat, intizom, tinchlik-totuvlik hukm surishi lozim. Ammo shunday oilalar borki, oilada qanoatsizlik, sabrsizlik tuyg'ulari kuchlilik qilib, natijada oilaviy hayotdan qoniqish ancha past ko'rsatkichda bo'ladi. Hayotda har bir inson mustaqil hayotga qadam quyayotganda baxt qo'rg'onini qurish uchun orzu –havaslarga beriladi. Yangi turmush qurgan kelin-kuyovlar bir-birlariga nisbatan samimiy, mehrli munosabatda bo'lishi kerak. Bir-biriga bo'lgan ishonch va samimiy munosabatlar ular o'rtasidagi munosabatni yanada mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi. Oila deb ataladigan dargohni bir me'yorda ushlab turish ularning zimmasidagi vazifalardan biridir. Turmushda er-xotin orasida matonat, sabr, qoniqish, mehr, o'zaro hurmat bo'lishi ularni hayotlari chiroyli kechishining garovi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Er-xotinlarning oilaviy hayotidan qoniqish his qilishlari uchun esa avvalo ular bir-birlariga ko'nikib ketishlari lozim bo'ladi. Har qanday oilaviy sharoitga, har qanday munosabatga ko'nikib yashash ularni munosabatlarini mustahkamlanishiga olib keladi.

Er-xotinlarning bir-birlariga ko'nikib ketishlarini bir nechta tarkibiy bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin.

1.Ruhiy ko'nikish (psixlologik moslashuv) – xarakter, shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqish – havaslari, dunyoqarashlari va boshqalar.

2.Qarindoshlik tufayli ko'nikish, ya'ni kelin-kuyovning qaynona, qaynisingillar, qaynilar va yangi oilaning boshqa yaqin kishilari bilan bo'lgan munosabati, ular bilan chiqishib ketish darajasi.

3.Uy-ro'zg'or ko'nikmasi – har bir oilada bo'lganidek, uy ishlarini bajarishga ko'nikishi, uddalash malakalarini shakllantirish.

4.Er-xotin bir-birlarining individual xususiyatlari, ehtiyojlari, imkoniyatlarini hisobga olgan holda bir-birlariga jinsiy moslashishlari [3].

Albatta er-xotinlar bir-birlariga ko'nikib ketishlarida ushbu bosqichlar katta ahamiyatiga ega. Bularning orasida eng avvalo er-xotinlar bir-birlariga psixologik jihatdan moslashib,

dunyoqarashlari, xarakterlari, qiziqish-havaslari, ehtiyojlari o‘zaro bir-biriga mos kelishi va ruhiy jihatdan bir-biriga ko‘nikishi juda muhim.

Er-xotinlarning oilasidan o‘zaro qoniqishi uchun ularning qarindoshlik tufayli ko‘nikish ham katta ahamiyat kasb etadi. Oilada qaynona, qaynota yoki boshqa oila a’zolari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi, ular bilan o‘zaro munosabatlari ijobiy tarzda bo‘lsa oiladan qoniqish ayol va erkaklarda yuqori bo‘lishini aytish mumkin.

Ayollarda uy-ro‘zg‘or ko‘nikmasining shakllanishi, uy ishlarini bajarishda chaqqonligi hamda har bir ishni uddalashi bu oilaviy munosabatlarni yaxshilashga, oila a’zolari bilan bo‘lishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

Oilada sabr-qanoatli bo‘lish har ayolning burchi hisoblanadi. Hayotda bo‘layotgan turli qiyinchiliklar, turli xil sinovlar har bir oilada uchrashi tabiiy hol. Bularning barchasiga sabr bardosh bilan turmush o‘rtog‘iga zarda yoki g‘azab qilmay, aksincha unga yelkadosh bo‘lib, buni bir sinov deb qabul qilib, bir-biriga ko‘makchi bo‘lib, birgalikda har qanday sinovni yengib o‘tsalar er-xotinlar orasida oilaviy hayotidan qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi. Oilaviy hayotga qoniqish nafaqat ayollarda balki erkaklarga ham taalluqlidir. Ayrim ayollar o‘zga ayollardagi ta’minotni misol qilib turmush o‘rtog‘idan ko‘p narsani talab qila boshlaydilar. Vaholanki, bunday vaziyatda erkaklar turli yo‘llar bilan oilasini ta’minlashni boshlaydi. Turmush o‘rtog‘ini ham qanoatga undash ayolning vazifasidir, bunda turli harom yo‘llardan ogohlantirib, uni bunday yo‘llardan saqlab turish lozim. Shundagina oilada sabr-qanoat, shukronalik tuyg‘usi shakllanib, oila yana ham mustahkam bo‘ladi deya olamiz. Sabr matonat borasida sharq mutafakkir allomalarimiz ham bir qancha fikr-mulohazalarni bildirib o‘tganlar. Abdulla Avloniy bu borada “Oilada sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g‘azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu’ga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetar”[3]. Darhaqiqat, ayol va erkaklarning har qanday qiyin yoki mushkul vaziyatda sabrli bo‘lish ayol va erkaklarni irodasini kuchli bo‘lishiga, turli yomonliklarni yaxshilikka aylantirishiga qodirdir.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ham bu borada shunday deganlar: “Sabr bilan ko‘p bog‘lig‘ ish ochilur, ishda oshiqqon ko‘p toyilur, toyilg‘on ko‘p yiqilur. Ishda oshiqmoq yosh o‘g‘lon ishidir, sabr bilan ish qilguvchi tajribalig‘ ulug‘ yoshlig‘ kishi ishidur” [3]. Haqiqatdan ham, inson sabrli bo‘lsa, har qanday boshlayotgan yoki boshlamoqchi bo‘lgan ishi jarayonida yo‘li ochilishi, sabrsizlik qilsa yiqilishi va ishlari o‘xshamasligi mumkin. Hozirgi kunda yoshlarda sabrsizlik hollari ko‘p uchraydi, sabr va matonatli bo‘lish yoshi kattalarga xos hislat. Yoshlar o‘zlaridan kattalardan o‘rnak olib, har qanday ishda sabr matonatli bo‘lsalar, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, biz ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida Jizzax va Samarqand viloyatlarida “Oilaviy hayotdan qoniqish” test so‘rovnomasidan foydalandik. Ushbu test so‘rovnomasi er-xotinlarning qanchalik darajada oilaviy hayotidan qoniqish hosil qilishi yoki qoniqmaslik darajasi qay darajada ekanligini aniqlashda foydalaniladi. O‘tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagi jadvalda berilgan.

1-jadval

Oilaviy hayotdan qoniqish so‘rovnomasi tadqiqot natijalari (V.Stolin, T.Romanov, G.Butenko)

№	Javob varianti	Jizzax		Samarqand	
		Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
1	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi juda past	-	-	-	-
2	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi past	-	-	-	-
3	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi o‘rtacha	-	-	-	-
4	Oilaviy hayotdan qoniqish daarajasi o‘rtachadan yuqori	-	-	29,57	30,3

5	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi yuqori	-	-	-	-
6	Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi juda yuqori	46,36	45,57	-	-

Tadqiqot natijalaridan quyidagicha fikr-mulohazalarni bildirish mumkin. Tadqiqotda ishtirok etgan Samarqand va Jizzax viloyatlarida istiqomat qiladigan er-xotin o‘rtasida oilaviy hayotdan qoniqish darajasini aniqlash jarayonida ular o‘rtasida tafovut borligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqot jarayonida foydalanilgan so‘rovnoma natijalaridan oilaviy hayotdan qoniqish darajasi qay darajada ekanligini belgilovchi holatlarga izoh berib o‘tishni lozim topdik. O‘tkazilgan test so‘rovnomamizda erkak va ayollarning javoblari solishtirilganda Jizzax viloyati erkak va ayollari oilaviy hayotdan qoniqish darajasi juda yuqori ekanligini jadvaldan ham ko‘rish mumkin. (Jizzax erkaklar -46,36, ayollar-45,57). Erkaklar va ayollar o‘rtasida tafovut aniqlanmadi.

Huddi shu savolga natijasi Samarqand er-xotinlarida esa oilaviy hayotdan qoniqish darajasi o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatib turibdi. (Samarqand erkaklar-29,57, ayollar-30.3). Samarqand viloyati er-xotinlari o‘tkazilgan so‘rovnomada tafovut aniqlanmadi. Lekin Jizzax va Samarqand viloyatlarida oilaviy hayotdan qoniqish darajasida tafovut aniqlandi.

Xulosa. Ushbu o‘tkazilgan tadqiqot ishi natijalaridan shuni aytish mumkinki, oilada er va xotinning o‘zlari bajarishi lozim bo‘lgan vazifa va majburiyatlari mavjud. Har kim o‘z vazifasini o‘z vaqtida o‘z joyida bajarish ham oilaning baxti sanaladi. Shu o‘rinda erkak kishining vazifalariga to‘xtalib o‘tsak. Erkak kishi uylangandan so‘ng, o‘z oilasini birinchi navbatda moliyaviy tomondan ta’minlashi, rafiqasiga nisbatan xushfe’l bo‘lishi, oilasiga ozor yetkazmasligi, rafiqasining injiqliklariga sabr qilishi, har qanday vaziyatda vazminlik bilan muloyim bo‘lishi, ayoli xatoliklarga yo‘l qo‘ysa uni kechirishi yoki tuzatishga yordam berishi lozim. Oilada nafaqat erkak kishining balki ayollarning ham o‘z vazifalari mavjud. Shu o‘rinda ayollarning ham oiladagi, turmush o‘rtog‘ining oldidagi vazifalari haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Ayol kishi oila qurgandan so‘ng, eng avvalo oilasiga itoatli ayol bo‘lishi lozim. Turmush o‘rtog‘iga itoat qilish, sabrli bo‘lish, boriga shukronalik qilib yashash oila mustahkamligining kaliti sanaladi. Ayol kishining yana bir vazifasi shundaki, har qanday oilasidan tashqarida bo‘lgan vazifalarga ruxsat so‘rab, bamaslaxat ish qilishidir. Buning afzalligi shundaki, erkak kishi tomonidan uning qadr-qimmatini asrab-avaylanishiga olib keladi. Oilada har kim o‘z vazifalarini o‘zi bilib o‘z vaqtida bajarsa, oilaviy hayotdan qoniqish darajasi ham juda yuqori darajada bo‘ladi deb ayta olamiz.

Er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda bir-birini tushunish o‘rni juda muhim. Ularning o‘rtasida nizo yoki kelishmovchiliklarni yuzaga kelmasligi uchun har qanday holatda ham er yoki xotin o‘z hissiyotlarni jilovlay olish kerak. Ushbu holatlarni oldini olish uchun quyidagi xulosa va takliflarni berishimiz mumkin:

1. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarida odatda ko‘z yoshi, arazlash, achchiqlanish holatlari uchrab turadi. Bunday holatda ular bir-birini hissiyotlarini tushuntirib, ularni qabul qilish va qadrlash juda muhimdir.

2. Oilada er-xotin har doim bir-birini eshita olishi va tushuna olishi lozim. Ular o‘zlarining hissiyotlarini ifodalash usullariga e’tibor berishi kerak.

3.Er-xotin oilada turli xil salbiy hissiyot va emotsiyalarga berilmasdan bir-biriga murojaat qilishi lozim, bu ularni o‘z muammolarini va istaklarini bartaraf bo‘lishiga va ularni tushunishiga yordam beradi.

4. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar odatda sabr va matonatni talab qiladi. Har bir holatda ham bir-biriga sabrli holatda yondoshsalar ular o‘rtasidagi munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va takliflarga har bir oilada er va xotin amal qilishsa, oilalarda nizolar soni kamayib, har bir oila mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O‘zbekiston” 2016. – B.12.

2. U.R.Ibaydullayeva. “O‘zbek oilalarida er va xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan nizoli munosabatlarda hissiyotlarning o‘rni” Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar respublika ilmiy-texnik anjuman 2024-yil 17-18-may B.227-230

3. Sh.T.Xalilova “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. -T.:2019. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. – B.5, B.7, B.15, B.24

4. Ибайдуллаева У., Тиркашева М. (2023). Oilaviy nizolar va ajrimlar-jamiyat zavoli. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 467-471.

5. Ibaydullayeva, U. (2022). The role of the family in preventing conflicts between adolescent. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 81-83.

6. У.Ибайдуллаева, М.Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса. Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-Ярославль, Россия. 2024.

7. У.Ибайдуллаева Причины конфликтов между супругами и способы их устранения Вестник интегративной психологии. Выпуск 30, Бухара-Ярославль, Россия. 2023.

8. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

Jabborov Xazrat Xusenovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

O‘SMIRDA MILLIY TARBIYA SHAKLLANGANLIGI BO‘YICHA EMPIRIK TAHLILLAR

Annotasiya. *Mazkur maqolada yoshlarda milliy tarbiya shakllanganligi bo‘yicha psixometrik metodikalarning empirik natijalari bo‘yicha ijtimoiy-psixologik tahlillar bilan tanishishingiz mumkin.*

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g‘oya, mafkura*

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье вы сможете ознакомиться с социально-психологическим анализом эмпирических результатов психометрических методов формирования национального воспитания молодежи.*

Основные понятия: *воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология*

EMPIRICAL ANALYSIS ON THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION IN ADOLESCENCE

Annotation. *In this article, you can familiarize yourself with socio-psychological analyses of the empirical results of psychometric methods on the formation of national education in young people.*

Basic concepts: *upbringing, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology*

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar o‘smirni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘smir tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda[1].

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini ıqrganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar o‘smir ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-o‘smirda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda[2].

Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, milliy va ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emaslini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish orqali oiladada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish/ko‘rsatish/o‘rgatish/namuna bo‘lish kabi ta’sirchan usullarni isloh qilish va shu orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi[3].

Yuqoridagi masalani nechog‘lik xavotirli va dolzarbligi to‘g‘risidagi mulohazalarni asoslashda biz tomonimizdan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusi bo‘yicha joylarda tekshiriluvchilar bilan suhbat, ekspert-intervyu, so‘rovlar (ijtimoiy-psixologik), kuzatish, kontent tahlil, modellashtirish, matematik statistika (spss dasturi), gipotetik-deduksiya, vizualizatsiya, longityud monitoring va ma’naviy marketing kabi metodlar orqali o‘rganishlar olib borildi va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi[4].

Tadqiqotimiz davomida tanlab olingan respondentlarimizning milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish maqsadida ota-onalar uchun maxsus “Siz va farzandingiz” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqdik. Bundan asosiy maqsad, o‘smir yoshidagi shaxslarning milliy tarbiyasiga ota-onalarning bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilishdir. Mazkur metodika 4 ta omildan iborat bo‘lib, har bir ma’lum ma’noda ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur so‘rovnomada 104 nafar ota-onalar ishtirok etishdi (1-jadval).

1-jadval

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar (n=104)

Omil	**Soni (erkak)**	**%**	**Soni (ayol)**	**%**
Loqayd	33	32	21	22
Zolim	30	29	42	43
O‘rtoq	15	14	14	13
Xizmatkor	26	25	27	26
Jami:	**104**	**100**	**104**	**100**

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko‘rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko‘chada mehnat faoliyati bilan band bo‘lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo‘lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo‘ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko‘radi, ehtiyojlarini bajarishga ko‘maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo‘lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg‘ayib o‘smir yoshga yetganda ham o‘z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, malum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o‘qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko‘proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan) omili bo‘yicha erkaklar 29% ni, ayollar esa 43%ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o‘z-o‘zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo‘lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko‘rishadi, his qilishadi va ma’lum o‘rinda xursand bo‘lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo‘llik, tanbeh berish manosida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo‘ladiki, farzand ulg‘aygan sari unga turli omillar ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko‘rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto‘g‘ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibsizlik yoki noo‘rin taassurotlar ota-onani, ko‘proq onani jazo qo‘llash yo‘li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko‘proq foydalanishadi.

3-omil «O‘rtoq» omili bo‘lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko‘rsatgichdan ma’lumki, farzand bilan do‘stona munosabatda bo‘lishda ota-onalar qisman teng o‘rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma’noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o‘g‘il bolalar bilan munosabat o‘rnatish va uni saqlab qolishda otaning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do‘stona munosabatlarni o‘rnata olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu o‘rinda ota-onaning roli beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg‘aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to‘g‘ri maslahat bera olish va yordam qo‘lini cho‘zish farzand va ota-ona o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko‘z yumadigan ota-ona timsoli) omili bo‘lib natijalarga ko‘ra erkaklar, yani ota obrazi 25% ni, ayol(ona)larimiz 26% ni egallashdi va erkaklardan ma’lum bir ustunlikni ko‘rsatishdi. Buni izohlash uchun so‘rovnomadan olingan natijalarga jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoya.

Ya’ni bola dunyoga keldiki, malum sabablarga ko‘ra otaga nisbatan ona uning yonida ko‘proq bo‘ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo‘ladi, mas’uliyat egasiga aylanadi. Otalar o‘z-o‘zidan mehnat faoliyati sababli biroz e’tiborsizdek namoyon bo‘lishadi. Bola ulg‘aygan sari injiqlik va kamchiliklari paydo bo‘lsa ham otaga nisbatan ona qattiqqo‘llik namoyon qilishadi.

Chunki ayollar bolasining tug‘ilgandan yo‘l-yo‘riqqa o‘rgatib kelganliklari sabab bolaning yillar davomidagi yosh xususiyatlari tashqi omil ta’sirlari ham onaga tashvishli vaziyat tug‘diradi. Shu bois tanbeh berish va jazolash usullarini ham qo‘llashlari mumkin. O‘rtoqdek munosabatlarda ham ota-ona birdek o‘rinli, ammo farzand ulg‘aydiki, otaning roli ham kuchaya boshlaydi. Ushbu ko‘rsatgichlardan kelib chiqib 4-omilda ham ayolning ustunligiga guvoh bo‘lishimiz tabiiy jarayon hisoblanadi.

Bolalikdan bolaning xurcandchiligiga guvoh bo‘lgan, kamchiliklariga ko‘z yumgan ona farzandi ulg‘aygandan so‘ng ham u uchun barcha aytganlariga rozi bo‘ladigan, kamchiliklarini unutadigan, nima desa ham ma’qullaydigan, ya’ni farzandga bo‘ysunadigan ayol(ona) timcoliga aylanib qoladi. Ammo onalar o‘zini bu timsolda shakllantirganini bilishmaydi, chunki doimo ularda ijobiy psixologik hislar ustunlik qiladi. Ko‘pgina ota-onalar bolada kuzatiladigan yosh xususiyatlaridan xabardor bo‘lmaganliklari bois hissiyotga tayanib bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota–onaning sa’y harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi.

2-jadval.

Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklik natijalari (Pirson mezoni asosida) (n=560)

Izoh:*-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

Omillar	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Raqobatga intilish	Maqsadga erishishga intilish
qaramlik	,105	-0,752**	,250
mustaqillik	,203	,304	0,647*
muloqotmandlik	0,921**	,118	,367
odamovilik	,313	-0,524*	,128
“kurash”ga tayyorlik	,215	0,832**	0,532*
“kurash”dan qochish	,392	-0,764**	,142

Biz tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqib o‘smirlar milliy tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqladik.

Dastlabki “qaramlik” omili “Raqobatga intilish” (-0,752; p<0,01) bilan manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochish tendensiyalarini bildiradi.

“Mustaqillik” omili “Maqsadga erishishga intilish” (0,647; p<0,01) bilan musbat darajadagi bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa o‘smirlarda guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirlik bilan xarakterlanadi. Mazkur toifadagi o‘smirlar o‘z oldiga qo’ygan maqsadlariga doimiy ravishda sobitqadamlik bilan harakat qilishadi.

“Muloqotmandlik” omili “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” **(**0,921**; p<0,00) bilan bog‘liqligi aniqlandi. Mazkur tendensiya shaxsning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilish, ijtimoiy munosabatlarda o‘z o‘rnini konkret belgidab olish hamda jamiyatda doimiy ravishda ijtimoiy nufuzga intilish bilan belgilanadi.

“Odamovilik” omili “Raqobatga intilish” (-0,524; p<0,05) bilan manfiy darajadagi korrelyatsiyasi mavjudligi aniqlandi. Demak, o‘smirlarda odamovilik sifatining yuqori bo‘lishi, ulardagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi, guruhdan ajralishga moyilligi hamda o‘z olidga qo‘ygan maqsadga intilishidagi ijtimoiy to‘siqlarga duch kelishi bilan xarakterlanadi.

“Kurash”ga tayyorlik omili “Raqobatga intilish” (0,832; p<0,00) va “Maqsadga erishishga intilish” (0,532; p<0,05) omillari bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Agar o‘smirlar qanchalik ijtimoiy munosabatlarda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri foydalangan holda xarakat qilishsa, ularning maqsadga erishish tendensiyasi ham shunchalik yuqori bo‘lar ekan.

So‘ngi omil “kurash”dan qochish tendensiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z-o‘zidan raqobatdan qochish, ijtimoiy ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolish kabi sifatlar yuqori bo‘lar ekan. Demak xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘smirlarni milliy tarbiyasiga ularni guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda maqsadga erishish darajasi bevosita ta’sir etar ekan (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

«Shaxsan ma’qul topilgan jihatlarni aniqlovchi so‘rovnoma» hamda MAS metodikasi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqliklik natijalari (Pirson mezoni asosida) (n=560)

Omillar	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Raqobatga intilish	Maqsadga erishishga intilish
Erishilgan yutuqlar	0,834**	0,693**	0,263

Tan olish	0,254	-0,542*	0,354
Tartib	0,410	0,103	0,207
Namoyishkoronalik	0,627*	0,233	0,567*
Avtonomiya	0,371	-0,712**	0,110
Affiliatsiya	0,737**	0,311	0,157
O‘zini bilib ish qilish	0,237	0,330	0,402
Ko‘makni qabul qilish	0,214	0,183	0,237
Ustunlik qilish	0,255	-0,546*	0,303
Bo‘ysunish	0,147	0,258	-0,603*
G‘amxo‘rlik ko‘rsatish	0,369	0,159	0,357
O‘zgaruvchanlik	0,157	0,325	0,386
Chidamlilik	0,371	0,143	0,805**
Geteroseksuallik	0,199	0,177	0,244
Agressiya	0,142	0,612*	0,399

Izoh:*-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

Demak “Erishilgan yutuqlar” omili “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” (0,834**; p<0,00) va “Raqobatga intilish” (0,693; p< 0,05) omillari orasida musbat korrelyatsiya aniqlandi. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin, ya’ni o‘smirlarda yutuqqa erishish istagi ularni raqoatga unday, shu bilan birga mazkur istak tagida doim o‘z guruxi orasida ma’lum darajadagi ijtimoiy nufuzga erishish istagi yotadi, shuning uchun ham mazkur omillar musbat bog‘landi va bir-birisiz rivojlanmaydi.

“Tan olish” omili bilan “Raqobatga intilish” (-0,542; p<0,05) manfiy korrelyatsiya aniqlandi. O‘smirlardagi tan olish, buysinish, bog‘lanish, tan berish, qo‘lla-quvatlash kabi jihatlar bilan farqlanid, bu sifatlar bilan o‘smirlar raqobatga kiri olmas ekanlar, shuning uchun ham mazkur omillar orasida manfiy bog‘lanishlar kuzatilgan.

O‘smirlarda “Namoyishkoronalik” omilini rivojlanishi Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish (0,627; p< 0,05) va “Maqsadga erishishga intilish” (0,567; p< 0,05) kabi omillar orasida musbat bog‘lanish kuzatildi. O‘smirlarni namayishkorligi doimo o‘zgalarning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ham o‘zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj silida, mazkur ehtiyojlar ma’lum darajada mavqega, nufuzga bo‘lishini va shu asosda maqsadga erishishini kuchaytirishi mumkin ekan.

“Avtonomiya” va “Raqobatga intilish” (-0,712; p<0,03) manfiy bog‘lanishni qayd qildi. Bunga sabab o‘smir barcha xatti-harakatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishga intilish, o‘zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga moyillik, konformizmni namoyon etadigan vaziyatlardan qochish, mas’uliyat va javobgarlikdan qochish kabi jihatlari ularni raqobatga kirishishini cheklaydi.

“Affiliatsiya” va “Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish” (0,737; p<0,03) orasida musbat bog‘liqlik kuzatildi. Mazkur holatni o‘smirni turli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, do‘stlar orttirish, ularning e’tiroflariga sazovor bo‘lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg‘izlikdan qochish ehtiyojilarini usutuvorligi bilan izohlash mumkin.

“Ustunlik qilish” va “Raqobatga intilish” (-0,546; p<0,05) orasida manfiy a’loqa aniqlandi. Ushbu holatni o‘smirda yetakchi bo‘lish, raqobatga inlishi ehtiyoji va o‘zgalar ham uni shunday qabul qilishlarini istash, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, uni o‘zgalarga ham o‘tkazishga moyillik, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaslik, o‘zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarni o‘z ortidan ergashishiga erishish istaglarini kuchayganligi va yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

“Bo‘ysunish” va “Maqsadga erishishga intilish” (-0,603; p<0,05) orasida ham manfiy loqadorlik aniqlandi. Mazkur holatni o‘smirdagi bo‘ysunish yoki aybdorlik hissi bilan yashash –

aybga iqror bo‘lish va xatolar uchun jazolanishga tayyorlik, noto‘g‘ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni o‘z bo‘yniga olish, o‘zini aybdor his qilish, o‘zini ko‘pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishg evaziga maqsadga erishishga intilishini pasayib borishi bilan izohlash mumkin.

“Chidamlilik” omili “Maqsadga erishishga intilish” (0,805; p<0,00) omili bilan musbat aloqaga kirishdi. Mazkur holatni o‘smirlardagi maqsad yo‘lidagi sobitlik – har qanday ishni oxiriga yetkazishga, muammoni yechimini topishga intilish, ishni bajarayotganda chalg‘imaslikka va faoliyatni to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi sifatlar ularni doimo maqsadga erishishini ta’minlovchi omil bo‘lganligi bilan izohlash mumkin.

“Agressiya” omili bilan “Raqobatga intilish” (0,612; p<0,05) orasida musbat bog‘lanish kuzatildi. Mazkur holatni o‘smirlardagi birovlarni ko‘pchilik ichida tanqid qilish, behurmat qilish, o‘z fikrlarini ochiq bayon etish, ustidan kulish, gunohkor etish, agar xatolik yuz bergan holatlarda o‘ch olishga moyilliklari evaziga raqobatna cho‘chimasliklari va unga inlishilarini ta’minlashi bilan izohlash mumkin.

Endi O‘quvchilar tarbiyasi darajasini diagnostikasi hamda rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi, lokus nazorat metodikalari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalar tahliliga o‘tamiz.

4-jadval.

O‘quvchilar tarbiyasi darajasining diagnostikasi hamda rejalashtirishda harakatning nazorat shkalasi, lokus nazorat metodikalari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=560)

Omillar	Holatga yo‘nalganlik	Harakatga yo‘nalganlik	Internal	Eksternal
Mehmondo‘stlik	0,147	0,039	0,142	0,110
Tinglovchanlik	0,647*	0,247	0,118	0,062
Muruvatlilik	0,118	0,128	0,434*	0,137
G‘amxo‘rlik	0,150	0,215	0,150	0,172
Hojatbarorlik	0,138	0,466*	0,120	-0,463*
Ahillik	0,042	0,198	0,225	0,238
Hurmatlilik	0,230	0,570*	0,921**	0,142

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilar tarbiyasi darajasi omillari bilan **r**ejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi hamda lokus nazorat metodikalari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘lanishlar tahlilini amalga oshirdik (3.24-jadvalga qarang).

«Tinglovchanlik» omili «Holatga yo‘nalganlik» (r=0,647*) bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, agar o‘quvchilar milliy tarbiya bilan bog‘liq ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish davomida qanchalik tinglovchan bo‘lsalar, ularda shu milliy o‘zlik bilan bog‘liq tasavvurlar rejalarini tuzish uchun asosan intilish orqali emas, balki, uni hayolida tuzish motivatsiyasi yuqori bo‘lishi kuzatildi.

«Hojatbarorlik» milliy fazilati «Harakatga yo‘nalganlik» (r=0,466*) omili bilan musbat bog‘liqligi kuzatildi. O‘quvchilar qanchalik boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishsa, ularni ehtiyojlarini qondirish uchun qo‘ldan kelgancha xarakat qilishsa, yordam berishsa ular o‘z maqsadlariga erishishda ham aniq xarakatlarni amalga oshirar ekanlar.

«Muruvatlilik» fazilati bilan «Internal» omili (r=0,466*) hamda «Hurmatlilik» fazilatlari orasida ham ijobiy bog‘liqlik aniqlandi. O‘quvchilar ijtimoiy munosabatlarda qanchalik muruvatli, hurmatli bo‘lishsa, ular o‘z hayotlariga nisbatan ham xuddi shunday bo‘lishadi. Hayotida uchraydigan barcha omadsizliklar, ko‘ngilsizliklarda ular boshqalardan emas, balki o‘zidan xatolarni qidirishga moyilligi bilan izohlanadi.

«Hojatbarorlik» milliy fazilati bilan «Eksternal» omili orasida teskari bog‘liqlik natijalari aniqlandi. O‘quvchilarda eksternallik sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, ularda hojatbarorlik omili shunchalik past bo‘lar ekan.

Tadqiqotimizda qo‘lga kiritilgan empiric natijalar asosida quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy-psixologik omillari va vositalarini tahlil qilish ta’lim tizimida o‘quvchilarni barkamol shahs etib tarbiyalash bilan bog‘liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Milliy tarbiya natijasida ijtimoiy taraqqiyotga erishish, madaniy qadriyatlar sintezi va milliy tarbiya asosida yosh avlodni zamonaviy sharoit va kelajakka mos ravishda tarbiyalash jarayoni amalga oshishi mumkin ekanligi tadqiqotda isbotlandi.

3. O‘smirlik davrida milliy tarbiyaning shakllanish jarayonini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu davrda yigit va qizlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarga nisbatan salbiy sifatlarga moyillik ortib borib, «aliyenasiya», «marginalizatsiya», «egotsenrizm», «eskapizm», «abuliya», «apatiya» kabi illatlar namoyon bo‘lishi, bu holatlarni ulardagi akseleratsiya va pubertatsiya jaroyonlari bilan izohlash mumkin bo‘ladi.

4. Ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirishni o‘rtoqlik (hamkorlik) omiliga bog‘liq ravishda kuchli namoyon bo‘lishi tufayli o‘smirlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi mustaqillik, muloqotmandlik, kurashga tayyorlik, jamoaviylik, affiliatsiya, tartib-intizom, ko‘makni qabul qilish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ustuvorlik qilishi aniqlandi.

5. Shaxs xususiyatlariga ko‘ra xalqimiz orasida ko‘proq milliylik kasb etgan va milliy qadriyatga aylangan «mehmondo‘stlik», «tinglovchanlik», «muruvvatlilik», «g‘amxo‘rlik», «hojatbarorlik», «ahillik» va «hurmatlilik» kabi fazilatlar xulqda ustuvor namoyon bo‘lishi sababli o‘smirlarda milliy tarbiyalanganlikni ta’minlovchi o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni ijobiyligi, o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini hurmat qilish, boshqalardan ijobiy munosabatni kutish va «Men»ni «Biz»ga proeksalanish kabi tayanch mezonlarni differensiatsiyalash zarur ekanligi isbotlandi.

6. O‘quvchilarda tarbiya darajasining namoyon bo‘lishi guruhni idrok qilishning individuallik tipi «ahillik», «g‘amxo‘rlik», «pragmatiklik»ning «muruvvatlilik» bilan teskari, jamoaviylikning «mehmondo‘silik», «hurmatlilik» bilan to‘g‘ri proporsional bog‘liqligi tufayli guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi rivojlanishiga identiv ekanligi dalillandi.

7. Yoshlar tarbiyasi darajasini diagnostikalash natijasida «mehmondo‘stlik», «tinglovchanlik», «xojatbarorlik», «g‘amxo‘rlik», «ahillik» milliy fazilatlarining ijtimoiy maydon ta’sirida namoyon bo‘lish tufayli ijtimoiy nufuz, raqobat, maqsadga erishishga intilish ustuvor omillar sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida pedagog, amaliyotchi psixolog, profilaktika noziri, mahalla mutaxassislari va ota-onalar uchun quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi «ijobiy taqlid», «ijobiy motiv», «o‘zini o‘zi nazorat qilish», «o‘zini o‘zi baholash» kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga alohida e’tibor qaratish maqsadlidir.

2. Yoshlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda yot, buzg‘unchi, va vayronkor odatlarga nisbatan fazilatlarni saralash, salbiy odatlarga nisbatan himoyalanish, soxta qadriyatlarga nisbatan kurash, o‘zini o‘zi boshqarish kabi yetakchi ijtimoiy-psixologik sifatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari kerak.

3. Yoshlarda milliy tarbiyani shakllanishiga salbiy ta’sir etuvchi «aliyenasiya», «marginalizatsiya», «egotsenrizm», «eskapizm», «abuliya», «apatiya» kabi illatlarga sezgir

bo‘lishlariga erishish zarurdir.

4. Yoshlarda milliy tarbiy shakllantirishda ota-onalar haddan tashqari gamxo‘rlik qilish, hamma narsaga ruhsat berish, kuchli hissiy reaksiya bildirish, muloqotdagi qat’iyatsizlik, rad etish, qarg‘ash usullaridan foydalanishi tarbiya ishlarini qiyinlashtirishiga olib kelishiga e’tibor qaratishlari kerak.

5. Yoshlarda milliy tarbiyalanganlik darajalarini aniqlovchi «Siz va farzandlaringiz» nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovdan foydalanishi va uning natijalari asosida ota-onalar bilan hamkorlikda maqsadli va manzilli chora-tadbirlar belgilab borish lozim.

6. Maktablarda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan «Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhit sog‘lomligi texnologiyasi» (TMIPMST), «Milliy tarbiya metodlari algoritmi» va «100 ijobiy fazilat» menyusidan foydalanishi tarbiya ishlari samaradorligini oshishiga olib kelishini bilish zarur bo‘ladi.

7. Ota-onalar va pedagoglar uchun bizni muallifligimizda asosidagi yaratilgan «Yosh ota-ona kitobi», «Baxtli bola ma’naviyati» va «Fazilatli avlod» nomli qo‘llanmalar, milliy tarbiyaga oid eng zamonaviy ilmiy tadqiqotlar xulosalariga asoslangan tarbiyaning milliy va zamonaviy metod, vosita va shakllaridan doimiy ravishda foydalanib borishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr 1059-sonli Qarori.

2.X.Jabborov. “Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob’ektiv jarayon sifatida”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. ISSN: 2181-1776. “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri http://bilig.academiascience.or. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118

3.M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma’naviyat» 2013. 320 b.

4. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

Kadirova Muhayyo Mavlanovna
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi. katta o‘qituvchisi

TALABALARDA IJTIMOIY INTELLEKT MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar orasida ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirishda psixologik xizmatning o‘rni o‘rganilgan. Yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ijtimoiy intellektning ahamiyati, uning muloqot, xulq-atvor va qaror qabul qilish jarayonlaridagi roli tahlil qilingan. Ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun psixologik xizmat ko‘rsatishning zarurati asoslangan bo‘lib, uning yo‘nalishlari, usullari va samarali amaliyotlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda ijtimoiy intellektni o‘rgatish jarayonlarida psixologlarning o‘quv dasturlariga kiritilganligi, turli treninglar va mahorat darslari orqali bu jarayonning samaradorligi ta’kidlangan. Maqolada ijtimoiy intellekt malakalarini mustahkamlashda muhim omillar sifatida kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish, empatiya va ijtimoiy mo‘’tadil o‘zini tutish kabi ko‘nikmalarning ahamiyati alohida qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy intellekt, yoshlar, psixologik xizmat, empatiya, muloqot qobiliyatlari, ijtimoiy o‘zini tutish, xulq-atvor, qaror qabul qilish, trening dasturlari, shaxsiy rivojlanish.*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У СТУДЕНТОВ

Annotatsiya. *В данной статье изучена роль психологической службы в формировании навыков социального интеллекта среди молодежи. Проанализировано значение социального интеллекта в личностном и социальном развитии молодежи, а также его роль в процессах коммуникации, поведения и принятия решений. Обоснована необходимость предоставления психологических услуг для развития социального интеллекта, рассмотрены его направления, методы и эффективные практики. В исследовании подчеркивается включение обучения социальному интеллекту в образовательные программы психологов, а также эффективность данного процесса через различные тренинги и мастер-классы. В статье особо отмечена важность таких навыков, как развитие коммуникативных способностей, эмпатия и социально адекватное поведение для укрепления навыков социального интеллекта.*

Ключевые слова: *социальный интеллект, молодежь, психологическая служба, эмпатия, коммуникативные навыки, социальное поведение, поведение, принятие решений, тренинговые программы, личностное развитие.*

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN FORMING SOCIAL INTELLECTUAL SKILLS IN STUDENTS

Annotation. *This article examines the role of psychological services in developing social intelligence skills among youth. It analyzes the importance of social intelligence in personal and social development of youth and its role in communication, behavior, and decision-making processes. The necessity of providing psychological services for social intelligence development is substantiated, and its directions, methods, and effective practices are reviewed. The study highlights the inclusion of social intelligence training in psychologists’ educational programs and the effectiveness of this process through various training sessions and workshops. The article emphasizes the importance of skills such as communication abilities, empathy, and socially appropriate behavior in strengthening social intelligence skills.*

Key words: *social intelligence, youth, psychological service, empathy, communication skills, social behavior, behavior, decision-making, training programs, personal development.*

Kirish. Bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirish jamiyat taraqqiyoti va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy rivoji uchun alohida ahamiyat kasb

etmoqda. Ijtimoiy intellekt nafaqat shaxsning boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga javob berish qobiliyatini, balki murakkab ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Bu malaka yoshlarning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishida, konfliktlarni samarali hal qilishida, jamoaviy faoliyatlarda faol bo‘lishida, shuningdek, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmatning o‘rni yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirishda beqiyosdir. Psixologik xizmatlar yoshlarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarni tushunish, empatiya ko‘rsatish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Bundan tashqari, psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlar o‘zlarini jamiyatda erkin va faol his qilishlari, o‘zaro munosabatlarni yaxshilashlari, turli xil muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish ko‘nikmalarini egallashlari mumkin.

Ushbu mavzuda tadqiqot olib borish, yoshlarda ijtimoiy intellektning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va psixologik xizmatlarning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlar psixologiyasini chuqur o‘rganish va ijtimoiy intellektni rivojlantirish borasidagi izlanishlar jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga, shuningdek, barqaror va madaniyatli ijtimoiy muhitni yaratishga hissa qo‘shadi.

Yoshlarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda muvaffaqiyat qozonish uchun maktab va oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning samarali faoliyatini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Psixologlar tomonidan olib boriladigan turli treninglar, maslahatlar va psixodiagnostika tadbirlari yoshlarning o‘z-o‘zini anglashiga, ijtimoiy muammolarni tushunishiga va ularga yechim topishiga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan psixologik dasturlar orqali yoshlar ijtimoiy intellektni shakllantirishda faol qatnashishga undaladi.

Yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini rivojlantirish faqat ta’lim tizimi bilan cheklanmasligi kerak. Oila, mahalla va keng jamoatchilikning ham bu jarayonga qo‘shadigan hissasi katta. Oilada bolaning o‘zini anglashini va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish uchun ota-onalarning psixologik bilim va ko‘nikmalari muhimdir. Mahallalarda esa yoshlar uchun ijtimoiy faoliyatlar va loyihalar tashkil etish orqali ularning jamoaviy ishlar va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishlari rag‘batlantiriladi. Shu tarzda, barcha tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari yoshlar ijtimoiy intellektining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Konfutsiy - Ijtimoiy intellektga ahloqiy tarbiya va insonlar bilan hurmat bilan munosabatda bo‘lish asosida yondashib, o‘zaro munosabatlarni yaxshilash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni ta’kidlagan.

Al-Farobiy - Ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun insonning aqliy qobiliyatlari va ijtimoiy qadriyatlarini o‘zaro birlashtirish kerakligini aytgan. U ijtimoiy jarayonlarda jamoaviy hamkorlikning ahamiyatini alohida urg‘ulagan.

Rumi - Inson o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan o‘zaro aloqa orqali ichki uyg‘unlikka erishishini va bu jarayonda empatiya muhim ahamiyat kasb etishini tushuntirgan.

Ibn Sino - Ijtimoiy intellektni rivojlantirishda insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish orqali boshqalar bilan uyg‘unlikda yashash qobiliyatini oshirish muhimligini aytgan.

Laozi - Ijtimoiy intellektni rivojlantirishda kamtarona bo‘lish, ichki tinchlikni saqlash va boshqalar bilan uyg‘unlikda bo‘lish tamoyillarini ilgari surgan.

Howard Gardner - Ko‘p intellektlar nazariyasi asosida ijtimoiy intellektni insonning boshqa odamlarni tushunish va ularga moslashish qobiliyati deb izohlab, bu intellekt turi insonning shaxsiy va kasbiy hayotidagi muvaffaqiyatini belgilaydi deb hisoblagan.

Daniel Goleman - Emotsional intellekt konsepsiyasini ishlab chiqib, ijtimoiy intellektning boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqotda bo‘lish, empatiya va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish bilan bog‘liqligini ta’kidlagan.

Lev Vygotsky - Insonning ijtimoiy muhit bilan aloqasi orqali intellektual rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, ijtimoiy ta’sirlarning bolaning psixologik rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan.

Jean Piaget - Ijtimoiy intellektni rivojlantirishda ijtimoiy tajribaning va turli rollar bajarish orqali o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlagan. U ijtimoiy qobiliyatlarning bolalikda rivojlanishini izohlagan.

Erik Erikson - Ijtimoiy intellektni shakllantirish uchun insonning turli rivojlanish bosqichlarida boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatish muhimligini va bu jarayonning shaxsiy identifikatsiya va o‘zini anglash bilan bog‘liqligini tahlil qilgan.

Ushbu olimlarning nazariyalari yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirishda muhim nazariy asos va yo‘nalishlarni taqdim etadi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirish bo‘yicha tahlil natijalarini olish uchun bir qator metodlardan foydalanish mumkin. Quyida tavsiya etilgan metodlar va ular yordamida amalga oshirilgan tahlil natijalarini jadval ko‘rinishida keltiramiz:

№	Metod	Maqsad	Tahlil natijalari
1	Intervyu	Yoshlarning ijtimoiy intellekt darajasini aniqlash	Yoshlar orasida empatiya va tushunish qobiliyatlari darajasi belgilandi. Intervyu orqali yoshlarning o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va boshqalarning holatini tushunish qobiliyatlari haqida batafsil ma’lumot olindi. Ushbu metod yoshlarning kommunikativ ko‘nikmalarini chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.
2	So‘rovnoma	Ijtimoiy qobiliyatlar darajasini o‘lchash	So‘rovnoma yordamida yoshlarning o‘zaro munosabatlarga tayyorligi, hamkorlik qilish istagi va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari baholandi. Bu metod yoshlarning ijtimoiy muhitga moslashish darajasi va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarini o‘lchashda samarali usuldir.
3	Kuzatish	Yoshlarning jamoaviy faoliyatda o‘zini tutishi	Kuzatish usuli orqali yoshlarning jamoaviy ishlar va hamkorlikdagi faoliyati kuzatildi. Jamoada o‘zini qanday tutishi, liderlikka intilishi va boshqa ishtirokchilar bilan qanday munosabatda bo‘lishi tahlil qilindi. Bu metod orqali yoshlarning ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishi va jamoaviy ishlarda faol ishtirok etishi bo‘yicha aniq ma’lumotlar olindi.
4	Eksperimental metod	Psixologik treninglar samaradorligini baholash	Eksperimentlar yordamida yoshlar bilan olib borilgan psixologik treninglarning samaradorligi baholandi. Treninglar orqali yoshlarning o‘z-o‘zini anglash, stressni boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlari oshgani kuzatildi. Bu metod yoshlarning psixologik o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.
5	Psixodiagnostika	Psixologik xususiyatlarni tahlil qilish	Psixodiagnostika orqali yoshlarning o‘zini qadrlash darajasi, emotsional boshqaruv va shaxsiy xususiyatlari baholandi. Ushbu metod yoshlarning o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. Natijalar yoshlarning ijtimoiy intellekt darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashda yordam berdi.
6	Testlar	Ijtimoiy intellekt komponentlarini o‘lchash	Testlar yordamida yoshlarning liderlik qobiliyatlari, empatiya darajasi va boshqa ijtimoiy intellekt komponentlari o‘lchandi. Natijalar yoshlar orasida liderlik qobiliyatlari va empatiya ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatilganligini ko‘rsatdi. Ushbu metod yoshlarning ijtimoiy qobiliyatlarini o‘lchash va rivojlanishini kuzatish uchun muhimdir.
7	Ekspert bahosi	Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatlarning ta’siri	Ekspertlar tomonidan ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning ta’siri baholandi. Ushbu baholash natijalari ta’lim muassasalarida psixologik qo‘llab-quvvatlashning yoshlarning ijtimoiy intellektiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ekspert bahosi orqali psixologik xizmatlarning amaliy samaradorligi tahlil qilindi.

8	Matn tahlili	Yozma bayonotlar orqali ijtimoiy intel-lektni baholash	Yozma topshiriqlar va bayonotlar tahlili orqali yoshlarning fikr yuritish qobiliyati, hissiy reaktsiyalari va boshqalarga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Bu metod yoshlarning o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.
9	Rol o‘ynash usuli	Ijtimoiy vaziyatlarda yoshlarning reak-tsiyalarini kuzatish	Rol o‘ynash usuli yordamida yoshlar ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi va boshqalarga yordam berish qobili-yatlari tahlil qilindi. Ushbu metod orqali yoshlarning ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi faolligi va empatiya ko‘rsatish darajasi aniqlandi.
10	Statistika tahlili	Ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish	Statistika tahlili yordamida eksperimental va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi. Natijalarga ko‘ra, eksperi-mental guruhda ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlarida sezilarli oshish kuzatildi. Bu metod yoshlar bilan olib borilgan tad-birlarning samaradorligini baholashda va xulosalar chiqarishda muhimdir.

Bu tahlillar natijasida olingan ma’lumotlar psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirish va yoshlarning ijtimoiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun muhimdir. Shu bilan birga, bu natijalar ta’lim muassasalari, psixologlar va ota-onalar uchun yoshlarga qanday yondashish va ular-ga qanday qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish kerakligini aniqlashda asosiy ko‘rsatma bo‘lib xizmat qi-ladi. Shu sababli, har bir metoddan olingan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida ta’lim va psixologik dasturlarni moslashtirish orqali yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini samarali shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Yoshlarda ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda ta’lim, oila va jamoatchilikning roli katta. Psixologik xizmatlarning samarali faoliyati orqali yoshlar o‘z-o‘zini anglash, boshqalarni tushunish, empatiya ko‘rsatish va ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Bunda mak-tab va oliy ta’lim muassasalari, psixologlar, ota-onalar va keng jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatlari muhimdir.

Quyidagi tavsiyalar yoshlarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun yordam beradi:

1. **Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni rivojlantirish**: Maktab va universi-tetlarda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, trening va maslahatlarni ko‘paytirish yoshlarda ijtimoiy intellektni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

2. **Oila bilan hamkorlikni mustahkamlash**: Ota-onalar uchun psixologik trening va masla-hatlar tashkil etish, bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish uchun ularning rolini kuchaytirish zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘grisida»gi 2016-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Qonun. -Toshkent O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y.

2. Baer J. Domain specificity and the limits of creativity theory // Journal of Creative Behav-ior, 2012. – 46 (1). – pp. 16-29.12

3. SharipovaSh.S. Innovatsionta’lim muhitIda rivojlantiruvchi treninglar orqali ixtisoslik fani o‘qituvchisining kasbiykompetentligin oshirish // Pedagogikafanlaribo‘yichafalsafadoktori (RhD) dissertatsiyasiavtoreferati– Toshkent, 2020. – 50 b.

4. Taydjanova M.M. Katta maktabgacha yoshda emotsional buzilishlarning psixologik xususiyatlari. // avtoreferat diss. T.: 2022 y.

Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna
Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

O‘SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVIGA BULLINGNING TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlar o‘rtasidagi bullingning ularning ijtimoiylashuvga ta’sirini va bu jarayonda yuzaga keladigan psixologik mexanizmlarini o‘rganishga oid ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bullingning turli shakllari, o‘smir ijtimoiylashuviga ta’siri va o‘smirlarning psixikasiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. O‘smirlarning ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan va yordam beradigan omillar bilan bir qatorda bunga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bullingning oqibatlari haqida fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari ijtimoiylashuvdagi muammolar tufayli o‘smir psixikasida yuzaga keladigan depressiya, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetishmasligi, tortinchoqlik va shaxslararo munosabatlardagi to‘siqlar uning shaxs sifatidagi taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri alohida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: bulling, o‘smir, ijtimoiylashuv, jamoa, shaxsiy tajriba, jamoa, qurbonlar, kuzatuvchilar, guvoxlar, ota-ona, o‘ziga ishonmaslik.*

ВЛИЯНИЕ БУЛЛИНГА НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье приведены сведения об исследовании влияния буллинга среди подростков на их социализацию и психологических механизмов, возникающих при этом процессе, а также анализируются различные формы буллинга, их влияние на социализацию подростков, а также влияние на психику подростков. Обсуждаются факторы, которые положительно влияют и облегчают социализацию подростков, а также негативные последствия буллинга. Кроме того, выделено влияние депрессии, неуверенности в себе, застенчивости, препятствий в межличностных отношениях на развитие личности как следствие проблем социализации.*

Ключевые слова*: буллинг, подросток, социализация, сообщество, личный опыт, сообщество, жертвы, наблюдатели, свидетели, родители, неуверенность в себе.*

THE IMPACT OF BULLYING ON THE SOCIALIZATION OF TEENAGERS

Annotation. *The article provides information about the study of the influence of bullying among adolescents on their socialization and the psychological mechanisms that arise during this process, and also analyzes various forms of bullying, their impact on the socialization of adolescents, as well as the impact on the psyche of adolescents. Factors that positively influence and facilitate the socialization of adolescents, as well as the negative consequences of bullying, are discussed. In addition, the influence of depression, self-doubt, shyness, and obstacles in interpersonal relationships on personality development as a consequence of socialization problems is highlighted.*

Key words: *bullying, teenager, socialization, community, personal experience, community, victims, observers, witnesses, parents, self-doubt.*

Kirish. Ijtimoiylashuv-bu shaxsning o‘z jamiyatida qabul qilingan qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib bu turli yosh davrlarida o‘ziga hos darajada ifodalanadi. Ijtimoiylashuv insonning o‘zining kimligini, jamiyatdagi o‘rnini va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, ushbu jarayonda o‘smirlarning bir-birlari bilan munosabatga kirishishlari hamda o‘zlarini ijtimoiy muhitda qanday tutishlari bevosita ularning ijtimoiylashuviga ham bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda o‘smirlar jamoasi orasida uchrab turadigan bulling hodisasi ularning ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtiradi, chunki bu o‘smirlarning o‘z-o‘zini baholashini va o‘zaro aloqalarini yomonlashtiradi. O‘smirlik davri insonning shaxsiyati shakllanayotgan, o‘zini anglash va jamiyatga moslashish jarayonlari faol davom etadigan murakkab davr bo‘lganligi hamda bu davrda o‘smirlar o‘zlarini kattalar dunyosiga kiritishga harakat qilib, o‘rnini topishga harakat

qilishayotganligi sababli bu davrda bulling xodisasining turlli rollardagi ishtirokchilariga aylanish o‘smirlarning ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Asosiy qism. Ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar juda ko‘p bo‘lib ulardan biri bulling hisoblanadi. Ko‘pgina tadqiqotlarning asosini tashkil etuvchi «bulling» hodisini o‘rganish bo‘yicha yirik tadqiqotlar dastlab G‘arb mamlakatlarda norvegiyalik olimlar: D. Olveus, A. Pekass va P. Xayneman tomonidan olib borilgan. Maktab hayotida uchrab turadigan turli travmalar haqidagi birinchi maqolalar 1969-yili P. Xayneman tomonidan yozilgan bo‘lib, «Mobbing deb nomlangan birinchi kitob yaralishiga turtki bo‘lgan. P. Xayneman tomonidan 1972-yilda nashr qilingan “Bolalar va kattalar o‘rtasidagi guruhiy zo‘ravonlik» maqolasi keyinchalik tadqiqotchilarning «bulling» hodisasini o‘rganish doirasini kengaytirish va chuqurroq o‘rganish uchun izlanishlar olib borishiga sabab bo‘ldi.

Chet el va mahalliy olimlarning ishlarini tahlil qilish bullingning ikki turini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy va bilvosita, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy agressiya. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy bulling asosan bolalar uchun xos bo‘lsa, bilvosita va ijtimoiy mahrumlik qizlar uchun xosdir. Bolalar qizlarga qaraganda bullingga ko‘proq qatnashadilar [4]. Bolalar uchun ta’qib ko‘pincha hokimiyat uchun kurash bilan bog‘liq ijtimoiy o‘zaro harakatlashuvning bir qismi bo‘lsa, qizlar uchun agressiv harakatlarning manbai ko‘pincha muhabbat munosabatlari hisoblanadi [5].

O‘smirlar jamoasida bulling, ya’ni o‘zaro kuch ishlatish, jiddiy ijtimoiy muammo sifatida keng tarqalgan. Bulling nafaqat shaxsiy tajribalarni, balki ijtimoiy aloqalar va jamoaviy dinamikalarga ham ta’sir qiladi. Ushbu holat, o‘smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularning o‘z-o‘zini baholashini pasaytirishi va ruhiy salomatliklariga jiddiy shikast yetkazadi. O‘smirlarda, bu davrda, identiklik shakllantirayotganlari sababli, jamoa ichida qabul qilinish va qo‘llab-quvvatlanish ular uchun juda muhim sanaladi. O‘smirlar jamoasida bullingning yuzaga kelishi bir qator omillarga bog‘liq.

O‘smirlarning o‘rtoqlari o‘rtasidagi ijtimoiy maqomi, va do‘stlarining u bilan munosabatlari jarayonida ham bullingni keltirib chiqarishi mumkin. O‘smirlar o‘z ijtimoiy maqomini anglab yetishi jarayonida, ularning kimligi shakllanadi. Ijtimoiy maqom (masalan, oilaviy, iqtisodiy, madaniy) o‘smirning o‘zini his qilishini va jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi. O‘smirlar ko‘pincha o‘z maqomlarini tengdoshlari bilan solishtiradilar. Guruhdagi ijtimoiy maqomlar o‘rtadagi munosabatlarga va o‘ziga bo‘lgan ishonchga ta’sir qilgani sababli, ularning psixologiyasida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy maqomga ega bo‘lish yoki undan mahrum bo‘lish, o‘smirning emosional holatiga ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, ijtimoiy manfaatlardan mahrum bo‘lgan o‘smirlarda depressiya yoki nizo holatlari kuzatilishi mumkin. Ijtimoiy maqom o‘zgarganida, o‘smirlar uni qabul qilish yoki rad etish jarayonini boshdan kechirishlari mumkin. Bu jarayon ularning psixologiyasida ko‘p o‘zgarishlarga olib kelishi, motivatsiya va maqsadlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin.Shu bois, ijtimoiy maqomning o‘smir psixologiyasiga ta’siri albatta muhim va e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan masala sanaladi.

O‘smirlar o‘rtasidagi raqobat, masalan, akademik muvaffaqiyat, sport yoki ijtimoiy maqom ham bullingga olib kelishi mumkin. O‘smirlar orasidagi raqobat, ayniqsa, ijtimoiy maqom, faoliyat yoki maqsadlar bo‘yicha bo‘lgan tarzda bo‘lsa, ba’zi o‘smirlarda o‘zini boshqalar bilan solishtirish, chegaralarni buzish yoki sinfdoshlarga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirishga olib kelishi mumkin. Raqobat tufayli, ayrim o‘smirlar boshqalarni past statusda deb hisoblab, ularga qarshi salbiy munosabatda bo‘ladilar.

Turli guruhlar o‘rtasida kamsitish, irqiy yoki jinsiy diskriminatsiya bullingning asosiy sabablari bo‘lishi mumkin. Agar biror o‘smir ijtimoiy tarmoqda yoki guruhda kamsitilsa, bu uning shunchaki maqomini pasaytirishi, yoki qurbon sifatida aziyat chekishiga ham olib keladi. Natijada diskriminatsiyaga duchor bo‘lgan o‘smirlarda o‘zini yomon xis qilish, e’tiqodsizlik va depressiya paydo bo‘ladi. Bu holatlar, o‘z navbatida, bulling hodisalarini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari ota-onalarning o‘smirga bergan tarbiyasi va uyda mavjud muhitning sog‘lom emasligi ham bullingga ta’sir ko‘rsatib, ota-onalarning o‘z farzandlariga qo‘pol muomala qilishlari,

empatiya va hurmatni o‘rsatmasliklari ham bullingni paydo qiladi, ba’zi o‘smirlar o‘zlarini oilada va jamiyatda noqulay yoki izolyasiyalangan his qilishlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kamsituvchi kontentlarning ta’siri, shuningdek maktabda o‘qituvchilarning bullingga qarshi kurashishga nisbatan beparvoligi tufayli ham bunday holat yuzaga kelishi mumkin.

Bullingning yuzaga kelishini oldini olish uchun jamoalarda ijobiy muhit yaratish, ta’lim berish va o‘zaro hurmatni oshirish muhimdir. O‘smirlar jamoasidagi bulling turli shakllarda namoyon bo‘lishi bilan namoyon bo‘lib ular fiziologik emotsional, va ijtimoiy shakllarga ega hamda har bir bulling turining o‘ziga xos oqibatlari bo‘lib , ular o‘smirlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bullingning oqibatida amalga oshiriladigan tayziqlar va tahqirlashlar boshqalarning his-tuyg‘ularini salbiy ko‘rsatib ularning psixik muvozanatini izdan chiqaradi. Natija bulling qurboni bo‘lgan bir necha o‘smirlar ko‘pincha o‘zlarini past baholaydilar, bu esa ularning ijtimoiy maqomini pasaytirishi tufayli o‘qishga, o‘rganishga va do‘stlashishga bo‘lgan qobiliyatlarini pasaytiradi. Ular ijtimoiy muhitda o‘zini ishonchsiz his qilishadi.

O‘smirlar jamoasida jismoniy kuch ishlatish sababli amalga oshiriladigan bulling tufayli shaxslararo munosabatlar ham o‘zgaradi. Natijada bullerlar o‘zlarini kuchli his qiladilar, boshqalar esa ijtimoiy iyerarxiyada pastga tushishadi. Buning oqibati esa qurbonlarning psixikasida depressiya, tashvish va stressga ko‘proq duchor bo‘lish extimolini oshirib, ularning ijtimoiylashuv jarayonini yanada murakkablashtiradi. Chunki bulling, o‘smirlarning ijtimoiy aloqalarini buzib yuboruvchi kuch sifatida o‘smirlar o‘rtasidagi do‘stlik, ishonch va qo‘llab-quvvatlash kamaytiradi hamda ushbu vaziyat tufayli ijtimoiy izolyasiya ham paydo bo‘ladi. Bullingni o‘smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1.O‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi: Bullingga uchragan o‘smirlar o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishi, ijtimoiy vaziyatlarda qo‘rqinch va noqulaylik his qilishlari mumkin.

2.Ijtimoiy izolyasiya: Bulling qurbonlari ko‘pincha do‘stlari tomonidan kamsitiladi yoki izolyasiyalanadi, bu esa ularning ijtimoiy maqomini tushirib ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

3.Qiyinchiliklar bilan bog‘liq munosabatlar: Bullingdan zarar ko‘rgan o‘smirlar ijtimoiy aloqalar o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa do‘stlik va hamkorlik tuyg‘usini pasaytiradi.

4.Ruhiy salomatlik muammolari: Bulling ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi, depressiya, tashvish va stress kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatlar o‘smirlarning ijtimoiy hayotini yanada murakkablashtiradi.

5.Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi to‘siqlar: O‘smirlar bulling tufayli ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantira olmasliklari, muammolarni hal qilish yoki jamoaviy ishda qatnashish bo‘yicha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.


Metodika.D.Olveusning "Bulling"so‘rovnomasi orqali ta’lim jarayonida bullingning tarqalishi va o‘ziga xosligini aniqlash maqsadida 8 sinf o‘quvchilarining 35 nafaridan surovnomaga javob berishlari so‘raldi va olingan natijalar taxlil qilindi.

Qabul qilingan ballar kalitga asoslanib, guruhlanadi va har bir shkala bo‘yicha ballar soni hisoblanadi. Umumiy ballar shkaladagi savollar soniga bo‘linib quyidagicha natijalar kuzatildi. Aksariyat o‘quvchilarda bullingning ifodalanganlik darajasi o‘rtacha chiqdi. Garchi bu vaziyatda sinovimizda ishtirok etgan o‘quvchilarning 2 nafari buller sifatida namoyon bo‘layotgan bo‘lsa 23 nafari ushbu jarayonda kuzatuvchi, yoki guvoh rolida ishtirok etayotganlarining guvohi bo‘ldik.

Bullingning ifodalanishi

Ifodalanganlik darajasi		
Quyi	O‘rtacha	Yuqori
10	23	2

Natijalarning diagramma ko‘rinishida ifodalanishi



Xulosa. Bullingda ishtirok etuvchilarning shaxsiy-psixologik xususiyatlari ta’qib vaziyatdagi rol yoki pozisiyasiga qarab farq qilishi mumkin. Ko‘plab mualliflar bolaning mazkur rollardan birini faolroq o‘zlashtirishiga yordam beradigan ichki omillar mavjudligi haqida gapiradilar. Masalan, bulling qurbonlarida "o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatning pasayishi, o‘z-o‘ziga rahm-shafqatning pasayishi, o‘z-o‘zini qabul qilishning pasayishi va o‘z-o‘zini ayblashning oshishi; shaxsiy shaxsiyat, maktab, tengdoshlar, ota-ona uyi, kelajak sohasidagi muammoli hissiyotlarning mavjudligi; ... o‘z-o‘zini va boshqalarni qabul qilmaslik, emosional noqulaylik, o‘z-o‘ziga chekinib qolish va tashqi nazoratni kutish; ... nisbatan yuqori darajadagi dushmanlik; yuqori darajadagi emosionallik va shaxsiy asabiy-ruhiy barqarorlikning pasayishi; yuqori stressga moyillik" bilan tavsiflanadi [7].

Olingan natijalarni taxliliga qaraydigan bo‘lsak bugungi kunda maktablarimizda bunday salbiy vaziyatlar uchrab turipti. Hamda buni oldini olmaslik, bulling xodasisi tufayli o‘smirda ijtimoiylashuv bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi, ularning psixikasida depressiya, xavotirlanish, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, ruhiy buzilishlarni paydo qilishi mumkinligini unutmaslik kerak. Odatda bunday vaziyatda o‘smirlar o‘zlarini jamiyatdan ajratilgan, yolg‘iz his qilishadi, boshqa odamlar bilan muloqot qilishdan qo‘rqishadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchilikka duch kelishadi, jamoada o‘zlarini noqulay his qilishadi.Buning natijasida ta’lim olishda ham muammolari bo‘lishi mumkin, chunki ular sinfdoshlari bilan munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchilikka duch kelishadi.

Keyinchalik esa ijtimoiylashmagan insonlarda jinoyatchilikka moyillik kuzatilishi mumkin. Ular jamiyat qoidalariga rioya qilmaydi, o‘zlarini jamiyatdan ajratilgan his qilib, qoidalarni buzishga moyil bo‘lishadi. Bunday salbiy sifatlar bevosita rivojlanayotgan o‘smirning muammolari qatoriga kirib, oila a’zolari bilan munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchilikka duch kelishiga, oilaviy mas’uliyatlarni bajarishda muammolarga sabab bo‘ladi.

Shu sababli, bullingga qarshi kurashish va o‘smirlarni qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir, chunki bu ularning ijtimoiy hayotini, ruhiy salomatligini va kelajakdagi munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu salbiy xodisaga qarshi kurashishda maktab, ota-onalar birgalikda bullingni profilaktika qilish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirishlari kerak. Ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni bulling haqida xabardor qilishlari, maktablarda bullingga qarshi aniq qoidalar va siyosatlar o‘rnatilishi kerak. Bullingdan aziyat chekayotgan o‘quvchilar uchun qo‘llab-quvvatlash tizimi tashkil etilib, psixologik yordam va maslahat berish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan doimiy muloqot va hamkorlik, bolalarning uy sharoitida ham qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аверьянов А. И. Буллинг как вызов современной школе // Педагогика, психология и социология. – 2013. – № 18. – С.45-50.
2. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Буллинг как объект исследования и культурный феномен. – Журнал высшей школы экономики. Психология., 2013, т. 10, №3, с. 149- 159.
3. «Буллинг – что это такое, и когда он появился?» С.С. Попов.
4. Smith P. K., Brain P. Bullying in schools: Lessons from two decades of research //Aggressive Behavior: Official Journal of the International Society for Research on Aggression. – 2000. – Т. 26. – №. 1. – С. 1-9.
5. *Лэйн Д.* Школьная травля (буллинг).Детская и подростковая психотерапия / Под ред.Дэвида Лейна и Эндрю Миллера.СПб.: Питер, 2001.С.240—274.
6. Whitted K. S., Dupper D. R. Best practices for preventing or reducing bullying in schools //Children & Schools. – 2005. – Т. 27. – №. 3. – С. 167-175.
7. Farrington, D. P. (1993). Understanding and preventing bullying. *Crime and justice*, *17*, 381-458.

Qarshiyeva Dilafro‘z Suyunovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti professori
psixologiya fanlari doktori (Dsc)

KASBIY STRESSNI PEDAGOGLAR FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI VA O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada pedagogik faoliyatda kasbiy stress uning xususiyatlari hamda reprizintatsiyasi psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy asoslari hamda unga ta’sir qiluvchi omillarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek pedagoglarda kasbiy stress reprezentatsiyasining ish stajiga bog‘liq jihatlari bayon etilish bilan bir qatorda uning ta’sir darajasini kamaytirishgan qaratilgan psixoterapevtik usullarning metodologik tamoyillari ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *stress, kasbiy stress, ijtimoiy, kompetensiya, sotsial-psixologik kompetentlik, refleksiya.*

ВЛИЯНИЕ И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕДАГОГА

Аннотация. *В данной научной статье раскрываются роль и значение профессионального стресса в педагогической деятельности, его характеристики и проявления, психологические особенности, научно-теоретические основы и факторы, влияющие на него. Также представлены методические основы психотерапевтических методов, направленных на снижение уровня его влияния, а также описание аспектов репрезентации профессионального стресса у педагогов, связанных со стажем работы.*

Ключевые слова: *стресс, профессиональный стресс, социальный, компетентность, социально-психологическая компетентность, рефлексия.*

THE IMPACT AND ROLE OF OCCUPATIONAL STRESS ON THE EFFICIENCY OF TEACHERS

Abstract. *This scientific article reveals the role and significance of professional stress in teaching activities, its characteristics and manifestations, psychological characteristics, scientific and theoretical foundations and factors influencing it. Also presented are the methodological foundations of psychotherapeutic methods aimed at reducing the level of its influence, as well as a description of aspects of the representation of professional stress among teachers associated with work experience.*

Key words: *stress, professional stress, social, competence, socio-psychological competence, reflection.*

Kirish. Jahonda stress muammosi bugungi kundagi «asr kasalligi» deb e’tirof etilib, incon salomatligiga rahna soluvshi xavfli kasalliklarning 65%ini1 stressogen vaziyat sabab etib ko‘psatilishi mazkup muammoni chuqup va atpoflicha o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi hamda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada stressning inson salomatligiga ta’sir etuvchi stressogen omillarni ilmiy tadqiq etishda turli ekstpemal vaziyatlarning inobatga olinishi, stressni boshqarish, shaxs ruhiy va jismoniy salomatligiga ta’sirini pasaytirishda psixik ta’sir usullarini qo‘llash masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jahon ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlarida pedagog xodimlarning professional omillari hamda psixologik asoslarini o‘rganish, ularni tizimlashtirish orqali psixologik mezonlarni ishlab shiqish masalalari ilmiy tadqiq etilmoqda. Bu borada stressga barqarorlikni rivojlantirish modelini yaratish va takomillashtirishga mo‘ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab shiqish bo‘yisha izlanishlarni olib borish va ularning psixoemosional barqaporligini ta’minlovshi mexanizmlarini yaratishga alohida e’tibor ko‘rsatish zarurati ko‘rilmoqda.

Metodologiya. Kasbiy stress, emotsional xulq determinasiyasi shaxs axloqiy rivojlanishining murakkab fenomeni sifatida turli ilmiy-nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan turlisha tushuntiriladi. Shunday ekan, ushbu rsixologik hodisani empirik o‘pganishimiz uchun tadqiqot yo‘nalishining tanlanishi aynan qanday metodologik qarashlarga asoslanishini aniq ko‘rsatib o‘tishni lozim tordik. Determinizm (lot. Determinare – belgilab berish, taqozo etish) tamoyili moddiy va ma’naviy olam hodisalarining ob’ektiv qonuniy ravishda o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini taqozolanishini nazarda tutadi. Ushbu tamoyil asosida sababiyat haqidagi g‘oya-turli hodisalar o‘rtasida shunday aloqadorlik mavjudki, bunday munosabat vaziyatida tegishli shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda, qandaydir hodisa doimiy ravishda boshqa qandaydir hodisani yuzaga keltiradi degan g‘oya tashkil etadi . Psixologiyada determinizm tamoyili barsha rsixik hodisalar determinasiyalashganini, ya’ni qandaydir ichki yoki tashqi omillar bilan sababiy bog‘lanishni bildipadi. Determinizm tamoyili ilmiy tadqiqotning qoidasi, o‘ziga xos yo‘riqnomasi sifatida tadqiqotchini hodisalar o‘rtasidagi sababiy aloqadorlikni aniqlashga yo‘naltiradi. Determinizm tamoyilining tadqiqotimizda ro‘yobga chiqarilishi Kasbiy stressning o‘ziga xos mexanizm asosida vujudga kelishi va muayyan shaklda rerpezentasiyalanishi (namoyon bo‘lishi) doim qandaydir ijtimoiy, kognitiv va affektogen omillarning ma’lum darajadagi ta’siri oqibati ekanini taxmin qilib, ilmiy izlanishni ushbu omillarning mazmuni hamda ta’sir xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilishi orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqotning metodologik tamoyili sifatida tizimlilik tamoyili tadqiq etiladigan narsa-hodisalarni tizim sifatida o‘rganishni, bu narsa hodisalarning xususiyatlarini ularni tashkil etgan elementlarning o‘zaro munosabatlariga xos xususiyatlar bilan tushuntirishni talab qiladi. Ushbu tamoyil ilmiy tadqiqot rredmetini tahlil qilishda tizim sifatida uni tashkil etuvchi elementlarni va ular o‘rtasidagi tizimli funksional aloqalarni ajratish, tizimning darajalarini va tizimini hosil qiluvchi omillarni asoslab berishni taqozo etadi. Tadqiqot ishimizda shaxs nuqtai nazaridan yondashish tamoyilining qoidalari va tashqi xulq-atvorda muayyan tarzda ifodalanishidagi psixologik tafovutlar odam individual-psixologik sifatlari, xususan, subyektiv lokal nazorat, empatiya, emotsional intellekt hamda shaxs xususiyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar tomonidan bog‘lanishi nuqtai nazaridan o‘rganish orqali ro‘yobga chiqarilishi ko‘zda tutiladi. Bunda pedagogning individual-psixologik xucuciyatlari emotsiogen, psixologik omillarning namoyon bo‘lishiga ta’cir etuvchi faktor ekanligini taxmin qilish va ularning o‘rtacidagi oraliq omillar cifatidagi o‘rni nimada ekanini aniqlashga intilish aniq maqcad etib belgilanadi. Tadqiqot ishimizning metodologik acoclaridan biri bo‘lgan Yu.Kulning nazariyaciga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish negizida harakatlarni nazorat qiluvchi subtizimlar o‘ptacida mutlaqo boshqa aloqalap yotadi. «O‘zini o‘zi boshqapish» tizimining ishi demokpatik tamoyil acocida amalga oshadi, camapali boshqapuv tizimining bapcha tapkibiy qicmlapi o‘ptacidagi hamkoplikka bog‘liq va doimo shaxc «Men»ining nazopat qiluvchi ta’cipiga ehtiyoj cezadi. Yu. Kul tomonidan olib bopilgan tadqiqotlap natijacida maqcadga epishishni ta’minlaydigan bip qancha mexanizmlap aniqlandi. Bu mexanizmlap ko‘pincha anglanmagan dapajada amalga oshishi, ctpategiya shaklida qo‘llanilishi mumkinligi ko‘pcatib bepiladi. Yu.Kul o‘zini o‘zi nazopat qilishning quyidagi tapkibiy qicmlapini ajpatib ko‘pcatdi: 1. Motivasion nazopat. Bunday nazopatda motivasion omillap ta’cipini kuchaytipuvchi ctpategiya acociy o‘pin egallaydi. Motivasion nazopat faoliyatni amalga oshipish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tashqi ctimullap va cub’ektning diqqat mapkazini ijobiy ko‘pinishlapga qapatuvchi 78 motivasion japayonni yangilash hicobiga amalga oshadi. Shu tapiqa hapakatlapni nazopat qilish tizimi ko‘zlangan maqcad capi intilishni kuchaytipuvchi motivasion boshqapuvni «qo‘llab quvvatlaydi». 2. Diqqat nazopati. Bunday nazopat mexanizm diqqatning maqcadni amalga oshipishga taalluqli bo‘lgan axbopotlapga yo‘naltipilishini ta’minlaydi. Ushbu nazopat maqcad bilan bog‘liq ob’ektni yo‘qotib qo‘yish xavfi tug‘ilgan vaziyatda ayniqca muhimdip. 3. Pepseptiv nazopat. Bunday nazopat dactlabki tacavvup bocqichlapidan boshlab o‘ziga xoc «intension» filtp vazifacini o‘taydi. Pepseptiv tizim ko‘zlangan maqcad bilan bog‘liq pavishda qabul qilingan axbopotlap tavcifnomaciga nicbatan ta’cipchandip. Pepseptiv kategopiya ko‘zlangan maqcad bilan bog‘liq bo‘lib, katta «tayyopgaplik»ni, ulapni qayta ishlashga kam vaqtni talab qiladi va hapakatlapni boshqapuvchi tizimlapga boshqalapdan avvalpoq kipishadi. 4. Emotsional nazopat. Bunday nazopat cub’ektning ko‘zlangan maqcadni amalga

oshipish uchun to‘cqinlik qiluvchi yoki imkoniyat yapatib bepuvchi emotsional holatlap haqidagi «bilim»lapiga acoclanadi. Agap emotsional nazopat maqcadga epishishni qiyinlashtipca, hapakatlapni nazopat qiluvchi tizim ulapni o‘zgaptipishga hapakat qiladi. 5. Kuchlapni faollashtipuvchi nazopat. Bunday nazopatda ko‘zlangan maqcadni amalga oshipishdagi omadcizlik va uning emotsional oqibatlapi qo‘shimcha kuchlapning mobilizasiyaciga yoki akcincha, noqulay shapoitlap kuchning kamayishiga olib keladi. 6. Kodlashtipilgan va opepativ xotipa nazopati. Bunday nazopatda maqcad bilan bog‘liq axbopotlap tejamkop (kuch va vaqtning capflanishi nuqtai nazapidan) ctpategiya bo‘yicha qayta ishlanishi kuzatiladi. Maqcad bilan bog‘liq bo‘lgan hapakatlapga nicbatan qicqa yo‘l ochiladi. Agap hapakatlap qandaydip cabablapga ko‘pa, optga cupilca, ko‘zlangan maqcad haqidagi ma’lumotlap opepativ xotipada «faollashtipilgan» ko‘pinishda 79 caqlanib qoladi. Muallif o‘zini o‘zi nazopat qilishni ipodaviy boshqapuv doipacida ko‘pib chiqib, uning ichki tuzilmalapi, pcixologik mexanizmlapini ochib bepishga hapakat qiladi. Ayniqca, o‘zini o‘zi nazopat qilish va o‘zini o‘zi boshqapishning o‘zapo aloqadopligini bapcha japayonlapda namoyon bo‘lish mexanizmlapini acoclab bepadi

Tadqiqotimizning metodologik acoclapidan yana bipi P.Lazapucning icmi bilan bog‘liqdip. U pcixologik stress namoyon bo‘lganda stress peaksiyacini muayyan vaziyatda cub’ekt o‘ziga o‘zi talablap qo‘yishi natijaci va cub’ektiv tapzda idpok etilayotgan tahdidni camapali baptapaf etish imkoniyati cifatida tushunish kepakligini ta’kidlagan. Ushbu yondashuvga stress pivojlanishining acociy bocqichlapini vaziyatni 80 cub’ektiv idpok etishni, uni kognitiv baholash va koping-ctpategiya shakllanishini ta’minlaydigan pcixologik opepasiyalap bloklapi bilan o‘zapo colishtipish bilan tavciflanadi. Biz tadqiqot ishimizda yuqopida keltipilgan yo‘nalishlapni metodologik acoc qilib oldik va bu ilmiy ishimizning ctpategik maqcadini ochishga kumak bepadi.

Biz tadqiqotimizda pedagoglapda Kasbiy stress shakllanishiga ta’cip etuvchi pcixologik omillapni aniqlash hamda ulapni baptapaf etishning ucullapini ishlab chiqishni tadqiqot maqcadi etib belgilagan edik. Tadqiqotda belgilangan maqcadga muvofiq uni empipik tekshipish uchun quyidagi algopitm acocida ilmiy tekshipish ishi tashkil qilindi:

1) pecpondentlapda Kasbiy stressga moyillik dapajaci tekshipildi;

2) pecpondentlapda pcixik va emotsional co‘nish, jamoadagi ijtimoiy pcixologik muhit, pedagoglapning Kasbiy faoliyatga tayyoplik dapajalapi bo‘yicha ko‘pcatkichlap aniqlandi;

3) pepondentlapning Kasbiy stress va pcixik, emotsional co‘nish, jamoadagi ijtimoiy pcixologik muhit, pedagoglapning kasbiy faoliyatga tayyoplik dapajalapi o‘ptacidagi koppelyatsion aloqadoplik jihatlapi ko‘pcatkichlapi hicoblab chiqildi (K.Pipconning r-chiziqli koppelyatsiya koeffisientini hicoblash metodikaci);

Pedagoglapdagi Kasbiy stressning pcixologik mexanizmlapi tahlil qilindi. Mazkup algopitm acocida ilmiy izlanish olib bopishda bizlap quyidagi metodlapdan foydalandik:

1. Kuzatish metodi. Individual kuzatish metodi yopdamida pedagoglapda bip qancha dapclapda cictemali pavishda maxcuc dactup acocida kuzatildi va bu ma’lumotlap maxcuc kundalikka qayd qilindi. Kuzatuv maxcuc dactup acocida olib bopildi. Kuzatish uchun biz Kasbiy stressni aniqlash uchun pedagoglapda quyidagilapni aniqlashga hapakat qildik: I. Umumiy ma’lumotlap (Pecpondentlapning yoshi, pedagogik ctaji, ma’lumoti, dapc bepadigan fani haqida ma’lumot to‘planadi). 81 II. Pedagoglapning Kasbiy stress to‘g‘picidagi fikplapi: Stressli vaziyatda o‘zini tutishi; Stress holatiga tushganda yuzaga keladigan fiziologik holatlapi; Stress holatida o‘z emotsiyalapini qay tapzda namoyon qilishi; Jamoadagi ijtimoiy pcixologik muhit; Pedagogning o‘z kacbiga munocabati; Pedagogika cohacidagi yangiliklapni tez o‘zlashtipishi va amalga tatbiq etish bilan bog‘liq vaziyatlapda xulq-atvop peaksiyalapi; Pahbapiyat tomonidan bepilgan topshipiqlapni bajapishdagi muctaqilligi va boshqalap xucucidagi ma’lumotlap mazkup kuzatuv acocida yig‘ildi.

2. Cuhbat metodi. Tadqiqotning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda maqcadli cuhbatlap uyushtipildi.

3. Co‘pov metodlapi: a) Kasbiy stress shkalaci (D.Fontan tomonidan ishlab chiqilgan).

Avvalo shuni ta’kidlab o‘tish joizki, biz tadqiqotda ta’lim tizimidagi pedagoglapda Kasbiy stress namoyon bo‘lishiga ta’cip etuvchi pcixologik omillapni aniqlashga hapakat qilamiz. Shuning uchun biz umumta’lim maktablapi hamda oliy ta’lim muaccacalapida faoliyat yupitayotgan

pedagoglapda tadqiqot o‘tkazishni maqcad qilib oldik. Ta’lim tizimi pedagoglapi faoliyat yupitayotgan muaccacalapda Kasbiy stressning namoyon bo‘lishi tupli cabablapga, pcixologik stressoplapga, vaziyatlapga bog‘liq bo‘lishi cip emac albatta. Aynan bu ikki bo‘g‘in vakillapida stress omillapining fapqini hamda ulap o‘ptacidagi tafavvutlapni matematik ctatictik yo‘llap bilan izohlashni lozim topdik. Vaholanki, Kasbiy stress nomayon bo‘lishida aynan qayci tizim pedagogida ya’ni oliy ta’lim muaccacaci yoki umumo‘pta ta’lim muaccaca vakillapining Kasbiy stressga bapdoshlilgini aniqlash tadqiqotimizning vazifalapida bipidip. Biz dactlab, cinaluvchilapimizni ekcpepimental va nazopat gupuhlapiga ajpatib olish maqcadida D.Fontan tomonidan ishlab chiqilgan «Kasbiy stress shkalaci»ni umumta’lim maktablapi pedagoglapi hamda oliy ta’lim muacaca pedagoglapida o‘tkazib oldik. Umuman olganda Kasbiy stressga moyillikning yuqopi dapajada aniqlanishi ko‘pgina omillap bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Pcixologik tadqiqotlapda pedagoglapda Kasbiy stress shakllanishiga ta’cip etuvchi qatop omillap o‘pganilgan

Xulosa. Yuqopidagi fikplapga acoclanib quyidagilapni huloca qilish mumkin:

Pedagogik faoliyat ham intellektual, ham ijtimoiy, ham jicmoniy faollikni talab qiladigan, pedagogdan tinimciz pavishda axbopotlapni qabul qilish, ulapni qayta ishlab, auditopiyaga uzatish bilan 96 shug‘ullanishni va tupli dapajadagi shaxclap bilan ijtimoiy munocabatlapga kipishishda pcixologik to‘ciqlapni yengib o‘tishni talab etadigan hamda jamoat ishlapiga jalb qilinadigan «hap tomonlama faol» kacb egaci bo‘lganligi boic doim stressogen omillap qupshovida bo‘ladi. Tadqiqot natajalapidan shu napca aniq bo‘ldiki, aynan umumo‘pta ta’lim maktab pedagoglapida Kasbiy stressning namoyon bo‘lishini yuqopi dapajacini ko‘pishimiz mumkin. Ulapda Kasbiy stress nomayon bo‘lishi oliy ta’lim muaccaca pedagoglapiga nicbatan yuqopi ko‘pcatgichni ko‘pcatdi. Buni biz qo‘yidagicha izoo‘lashimiz mumkin. Demak, umumo‘pta ta’lim pedagoglapi 3ta bo‘g‘in ya’ni, o‘quvchilap ulapning ota –onalapi hamda maktab pahbapiyati bilan faoliyat olib bopishadi.Bu eca katta kantengentni tashkil etadi. Shu bilan bipgalikda aynan maktab o‘quvchilapini katta foizi pubeptant davpida ekanligini hicoyuga olcak albatta bu ko‘pcatgichlapning cababini anglashimiz mumkin. Bizga ma’lumki, aynan o‘cmiplik davpini inqipoz davpi deyish bejizga aytilmagan. Bu davpda bola hulqida katta o‘zgapishlap po‘y bepadi. Ko‘pincha bolalapda agpeccivlik namoyon bo‘ladi. Pedagog eca shu o‘quvchilapga ta’lim va tapbiya bepadi,ulapni ota onalapi bilan ishlaydi va albatta pahbapiyat tomonidan bepilgan topshipiqlapni bajapadi. Bu eca unda pcixoemosianal toliqishga ob kelishi mumkin. Bu eca o‘z navbatida Kasbiy stress vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги № 472-сонли “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори / http://lex.uz.

2. Багнетова Е.А Образ жизни и прфессиональнве фактори риска здоровье педагога.РИО Сур ГПУ, 2017. - 6 с.

3. Барабанщикова В.В. Профессиональные деформации в профессиях инновационной сферы / автор. Дис док. Психол н., М., 2016.- 36 с.

4. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. - 136 с.

5. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с.

6. Ломов Б.Ф. О системном подходе в психологии // Вопросы психологии.- Москва, 1975. −№2−С.31-45

Ruziqulova Amina Totliboyevna
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OLIY TA’LIMDA BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI: JAMOA RUHINI SHAKLLANTIRISH VA MOTIVATSIYANI KUCHAYTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida boshqaruvning psixologik mexanizmlarini, xususan, jamoa ruhini shakllantirish va talabalarning motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlarni tahlil qiladi. Tadqiqot transformatsion, demokratik va motivatsion boshqaruv strategiyalarining talabalarning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’siri haqida nazariy va amaliy ma’lumotlar beradi. O‘qituvchilar va talabalarning boshqaruvga bo‘lgan munosabati, orqaga aloqa, sog‘lom raqobat muhiti va individual yondashuvlar motivatsiyani oshirishda muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv funksiyalari, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, rahbarlik, ijtimoiy intellekt, kommunikativ ko‘nikmalar, ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ФОРМИРОВАНИЕ КОМАНДНОГО ДУХА И УСИЛЕНИЕ МОТИВАЦИИ

Аннотация. *Данная статья анализирует психологические механизмы управления в высших учебных заведениях, в частности, подходы, направленные на формирование командного духа и повышение мотивации студентов. Исследование предоставляет теоретическую и практическую информацию о положительном влиянии трансформационного, демократического и мотивационного управленческих стратегий на учебный процесс студентов. Отношение преподавателей и студентов к управлению, обратная связь, здоровая конкурентная среда и индивидуальный подход показаны как важные факторы для повышения мотивации.*

Ключевые слова: *управленческие функции, психологические механизмы, мотивация, лидерство, социальный интеллект, коммуникативные навыки, повышение качества образования, инновационный подход.*

PSYCHOLOGICAL MANAGEMENT MECHANISMS IN HIGHER EDUCATION: BUILDING TEAM SPIRIT AND ENHANCING MOTIVATION

Annotation. *This article analyzes the psychological management mechanisms in higher education institutions, specifically the approaches aimed at building team spirit and enhancing student motivation. The study provides theoretical and practical insights into the positive impact of transformational, democratic, and motivational management strategies on students’ learning processes. Teachers’ and students’ attitudes toward management, feedback, a healthy competitive environment, and individual approaches are highlighted as crucial factors in increasing motivation.*

Keywords*: management functions, psychological mechanisms, motivation, leadership, social intelligence, communication skills, improving education quality, innovative approach.*

Kirish. Boshqaruv jarayonlarining samaradorligi, rahbar kadrlarning ijtimoiy va emotsional kompetensiyalari, shuningdek, psixologik metodlar va yondashuvlarning qo‘llanilishi oliy ta’lim muassasalarining muvaffaqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jamoa ruhini shakllantirish va motivatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: Oliy ta’limda o‘qituvchilar va talabalarning jamoa ruhini shakllantirishga, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish uchun so‘nggi yillarda qator statistik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, talaba motivatsiyasini oshirishda samaradorlikni baholash uchun tashkil etilgan tadqiqotlar ko‘rsatayaptiki, jamoaviy muhitni yaratish motivatsiyani o‘rtacha 30-40 foizga kuchaytiradi (SurveyMonkey, 2023).

Shu o‘rinda suzish sportining ijtimoiy va psixologik jihatlari borasida ham so‘z yuritib, bu jihatlar uning jismoniy foydalaridan hech kam emasligini alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq hamda o‘zining ko‘p qirrali tabiatiga ko‘ra, sportchining nafaqat jismoniy salohiyatini, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Suzish sporti, o‘zining keng qamrovli tabiati tufayli, barcha yoshdagi va ijtimoiy guruhlar vakillari uchun mos keladi. Bu sport turi o‘quvchilarga jismoniy va ma’naviy integratsiyani ta’minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Suzishdagi individual yutuqlarni boshqalar bilan taqqoslash va jamoaviy muvaffaqiyatlarni erishish sportchilarni ijtimoiy integratsiya jarayonlarida qo‘llab-quvvatlaydi. Suzish sporti stressni kamaytirish va psixologik salomatlikni yaxshilashda juda samarali. Harakatlar va nafas olishning to‘g‘ri boshqarilishi orqali, sportchilar jismoniy va ruhiy salomatlikni oshiradilar. Bu sport turi shuningdek, sportchilarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni kamaytiradi, xususan, xavotir, depressiya va psixologik og‘irliklar bilan kurashishda yordam beradi. Suzishning nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarligi ham muhimdir. Sportchilarda yuqori darajadagi irodani rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va ichki ishonchni mustahkamlash suzishning muhim psixologik jihatlarini tashkil etadi. Suzish musobaqalaridagi o‘z-o‘zini boshqarish va diqqatni jamlash qobiliyati sportchilarning psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va quyidagi bir nechta tamoyillarga tayanadi:

Individuallik tamoyili. Har bir sportchi o‘ziga xos jismoniy, fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega. Suzish murabbiyi ushbu individual farqlarni hisobga olgan holda, har bir sportchi uchun shaxsiylashtirilgan mashg‘ulot rejasini tuzishi zarur. Bu reja sportchining yoshi, tajribasi, mahorat darajasi, jismoniy tayyorgarligi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Masalan, ba’zi sportchilar anaerobik kuchga, boshqalari esa aerobik chidamlilikka ega bo‘lishlari mumkin. Murabbiy ushbu farqlarni hisobga olgan holda, har bir sportchi uchun optimal yuklamani tanlashi va mashg‘ulotlarni individualizatsiya qilishi lozim.

Izchillik va tizimli yondashuv tamoyili. Suzishdagi muvaffaqiyat izchillik va tizimli yondashuvga bog‘liq. Mashg‘ulotlar muntazam va rejalashtirilgan tarzda o‘tkazilishi, har bir mashg‘ulotning aniq maqsad va vazifalari belgilangan bo‘lishi kerak. Trening jarayoni sportchining rivojlanish darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tuzilishi lozim. Bu tamol sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligini bir xil darajada rivojlantirishni ta’minlaydi. Mashg‘ulotlarni tizimli o‘tkazish orqali sportchi mustahkam asosga ega bo‘lib, yuqori natijalarga erishadi.

Uyg‘unlik va komplekslik tamoyili. Suzish texnikasi, jismoniy tayyorgarlik va taktik tayyorgarlikning uyg‘un rivojlanishi muhimdir. Mashg‘ulotlar suzish texnikasi, kuch, chidamlilik, tezkorlik va moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, shuningdek suv muhitida samarali harakat qilish strategiyasini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat bitta tomonga e’tibor qaratib o‘qitish samaradorlikni pasaytiradi.

Ona tilida tushuntirish tamoyili. Murabbiy sportchiga o‘rgatish jarayonida ona tilida tushunarli tarzda tushuntirishi zarur. Texnik harakatlarning tushuntirilishi sodda va aniq bo‘lishi kerak. Murabbiy sportchining tuyg‘ularini hisobga olishi va ularni rag‘batlantirish usullarini qo‘llashi lozim.

Boshqarish va nazorat tamoyili. Suzish murabbiyi sportchining rivojlanishini muntazam ravishda nazorat qilib turishi, uning yutuqlari va kamchiliklarini aniqlashi kerak. Nazorat natijalari asosida mashg‘ulot rejalari tuzatiladi va yangi vazifalar belgilanadi. Murabbiy sportchiga maslahat berishi, uning psixologik holatini nazarda tutishi va zarur bo‘lganda yordam ko‘rsatishi zarur.

Davriylik va bosqichlilik tamoyili. Suzish mashg‘ulotlari ma’lum bir davriylikka asoslangan bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotlar tayyorgarlik davrlariga bo‘linadi: tayyorgarlik, raqobat va tiklanish davrlari. Har bir davr o‘ziga xos yuklama va maqsadlarga ega. Bu tamol sportchining ortig‘icha toliqishining oldini oladi va uning samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Aks-ta’sir va takrorlash tamoyili. Suzish texnikasini o‘rgatishda aks-ta’sir va takrorlash juda muhim ahamiyatga ega. Sportchi harakatlarni bir necha bor takrorlash orqali ularni avtomatlashtiradi va mukammallashtiradi. Murabbiy sportchiga to‘g‘ri texnikani namoyish qilishi va uning harakatlarini tuzatish orqali yordam berishi kerak. Video tahlil va boshqa zamonaviy texnologiyalar ham bu jarayonga yordam beradi.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish tamoyili. Suzish murabbiyi sportchiga sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli dam olish va gigiena qoidalariga rioya qilish muhimligini tushuntirishi kerak. Sportchining salomatligi uning yuqori natijalarga erishishining asosiy shartidir.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan pedagogik tamoyillar suzish sportida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Murabbiylar ushbu tamoyillarga amal qilib, sportchilarni samarali tarbiyalash va ularning yuqori natijalarga erishishlariga yordam berishlari mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va sport psixologiyasi prinsiplarini hisobga olish trening jarayonini yanada samarali qiladi. Suzish sportida o‘quv jarayoni faqat jismoniy tayyorgarlikka emas, balki sportchining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga ham qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 . O.A.Sobirova. Bolalarga suzishni o‘rgatish. Toshkent. «Medisina» nashriyoti.
2. O.A.Sobirova. «Sog‘lom bo‘lay desang». Toshkent. «Medisina» nashriyoti.
3. O.A.Sobirova. «Suzish san’atini o‘rganing». Toshkent. «Medisina» nashriyoti.
4. I. Tangirov, A.A.Lepiskiy. «Suzish». Toshkent. «Medisina» nashriyoti.
5. V.Z.Afanasova, A.R.Voronsova, A.J.Bulgakova. «Teoriya i metodika plavaniya». Moskva.
6. O.A.Sobirova. «Suzish». Toshkent. «Ibn Sino» nashriyoti.
9. O.A.Sobirova. «Suzish hayotiy zaruriy malaka va chiniqtirish omilidir». Toshkent. «Ibn Sino» nashriyoti.
10. A.Rixsiyeva, X.To‘rayev. «Sport medisinasi asoslari». Toshkent. «Medisina» nashriyoti.
11. O.A.Sobirova. «Suzish». Toshkent. «Ibn Sino» nashriyoti. 1993 yil

Salomova Nargiza Sattorovna
Buxoro pedagogika kolleji o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIK OMILLARINI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantirishrga ta’sir qiluvchti pedagogik -pesixologik omillarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni ilmiy asoslari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, muloqotchanlik, kasbiy bilim, empatiya, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy muhit, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy etiket, assertiv xulq, guruhiy ta’sirlashuv, optimmallashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik.*

ЭМПИРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФАКТОРОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются факторы профессиональной компетентности учителей начальных классов. Подчеркивается роль и значение педагогических и психологических факторов, влияющих на развитие. Также раскрыты научные основы психологических механизмов, обеспечивающих эффективность работы учителей начальных классов.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, общение, профессиональные знания, эмпатия, социально-психологические факторы, социальная среда, саморазвитие, профессиональный этикет, ассертивное поведение, групповое влияние, оптимизация, социально-психологическая компетентность.*

EMPIRICAL BASIS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE FACTORS IN PRIMARY TEACHERS

Abstract. *The article examines the factors of professional competence of primary school teachers. The role and importance of pedagogical and psychological factors influencing development are emphasized. The scientific foundations of psychological mechanisms that ensure the effectiveness of primary school teachers are also revealed.*

Key words: *professional competence, communication, professional knowledge, empathy, socio-psychological factors, social environment, self-development, professional etiquette, assertive behavior, group influence, optimization, socio-psychological competence.*

Kirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim sifati avvalambor, kadrlarning kasbiy mahorati, intellektual salohiyati va kasbiy tashabbuskorlik kabi xususiyatlarining shakllanganlik darajasi bilan belgilanmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment [1]) tadqiqotlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning malakasini oshirish o‘quvchilarning matematik va savodxonlik ko‘nikmalaridagi yutuqlarini 25% gacha yaxshilashiga, Harvard Graduate School of Education [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish ehtimolini 50% ga oshirishi aniqlangan. Yuqoridagi statistik raqamlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish va bu jarayonning pedagogik-psixologik determinantlari ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilar uchun yanada yaxshi natijalarga erishish yo‘lidagi muhim omillar ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu mavzu nafaqat ta’lim jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari uchun, balki jamiyatdagi umumiy ta’lim sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html
[2] https://summer.harvard.edu/

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida «Pew research center[1]» agentligining 2021 yilgi bergan ma'lumotiga ko'ra, sohalararo kasbiy mahoratlilik sifatlari bank-moliya xodimlarida 84%, axborot texnologiyalari xodimlarida 84%, pedagog xodimlarda 59%, texnik soha xodimlarida 59%, harbiy xizmatchilarda 46%, tibbiyot xodimlarida 33%, san'at xodimlarida 23%, qishloq xo'jaligi xodimlarida esa 22% ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlangan. Shuning uchun ham, ushbu xususiyatni ertaroq, oliy ma'lumot olish davridan boshlab o'rganish, shaxsda kasbiy mahorat rivojlanishining psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash kabilar, dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tarbiyasi va uni psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish shu sohaga daxldor barcha sohalar tizimlariga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o'sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb ma'suliyat hissiga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–iqtisodiy talablari asosida to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa, Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun [2] » ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Aynan ushbu shaxs sifatlarini rivojlantirish va to'g'ri yo'naltirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Metodologiya. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy mahoratni rivojlantirish ishlari o'ta murakkab jarayon sanalib, hozirgi kunda uni shora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan ko'plab psixologik-pedagogik shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mahalliy muhitda ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish ishlari hozirga qadar ilg'or psixologik tadqiqotlarga zarurat sezmoqda. Chunki, kasbiy mahorat shunchaki ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shakllanib qolmaydi balki, unda o'qituvchi shaxsiga xos qadriyatlar tizimi, hissiy-irodaviy soha mazmuni, kognitiv sohani rivoji, kasbiy muvaffaqiyatni ta'minlovshi puxta o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik kabi sifatlarni rivojlantirish ishlari nazarda tutiladi. Bizningsha, oliy ta'lim sharoitida o'quv mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli darajada tashkil etish kasbiy mahoratni rivojlantirishning dastlabki bosqichi sanaladi.

A.K.Markovaning fikricha, kasbiy mahoratning namoyon bo'lishi bu professionalikka o'tish sanalib, u quyidagi xususiyatlar orqali tushuntiriladi:

1. Professional ishlash xususiyatlari – yuqori mahsuldorlik va samaradorlik;
2. Faoliyat subyektining bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari –kasbiy mahorat, fikrlash uslubi, intuitsiya darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqillik, yuqori darajadagi malakalar va kasbiy kompetensiyalar;
3. Faoliyat subyektining individual psixologik fazilatlari – shaxs sifatida mehnat munosabatlarini rivojlantirish imkoniyati, ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi;
4. Kasbiy yo'nalish orqali o'zini o'zi o'zgartirish – kasbiy faoliyat talablari, kasbiy etikaviy normalar, axloqiy me'yorlar kabilarni o'zlashtirish;
5. O'zini kasbga va kasbni o'ziga moslashtira olish ko'nikmasi, hamkorlik qilishga qobiliyat;
6. Shaxs holatini tavsiflovshi belgilarga ega bo'lish – ijobiy o'z-o'zini anglash, o'z qadr-qimmatini bilish: ijobiy kayfiyatning ustunligi, o'z kasbidan qoniqish, o'zini mutaxassis sifatida qabul qilish, kasbiy motivatsiyaning barqarorligi, tajribaga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

V.I.Slobodshikovning aytishicha, o'qituvchi shaxsida shakllanadigan kasbiy faoliyatga xos shaxslilik sifatlari, o'z mazmunida mas'uliyatlilik xususiyatini aks ettirib, bu muvaffaqiyatli o'qituvchilar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi [130]. Kasbiy faoliyat boshlang'ich sinf o'qituvchilarilardan ma'lum bir shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar majmuini talab etib, u orqali isonning kelajakdagi imkoniyatlari baholanadi. Soha uchun kerakli bo'lgan nazariy va amaliy

[1] https://www.pewresearch.org/
[2] https://lex.uz/docs/-5013007

bilimlarni o‘zlashitirib borish ta’sirida shaxsda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim sifatlar ko‘rina boshlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy mahoratni shakllantirish dinamik xarakterdagi hodisa bo‘lib, u domiy ravishda faollikni talab etadi. Ya’ni muvaffaqiyatli talabalarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish o‘ta ahamiyatli sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida javobgarlik hissi namoyon bo‘lishini ta’minlovchi ichki imkoniyatlar – ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, kasbiy motivatsiya darajasi, dunyoqarash, kasbiy tafakkur va boshqalar.

N.V.Korepanova o‘qituvchi shaxsida javobgarlik hissi namoyon bo‘lishini ta’minlovchi boshqa bir jihat mavjudligini qayd etadi. Muallifning fikriga ko‘ra, innovatsion kompetentlik subyektning javobgarlik kompetensiyalarini oshirib, u quyidagilarga asoslangan holda aniqlanadi:

–O‘z innovatsiyalarini va umuman yangiliklarni yoki kashfiyotlarni his qilish qobiliyati;

–Yangi elementlarni ko‘rish qobiliyati;

–Muammoning yangi yechim ini taklif qila olish qobiliyati.

Bizningsha, «mahorat» fenomeni bu – shaxsning ijtimoiy yetukligini tavsiflovchi murakkab hodisadir. Ya’ni, bu inson hayoti va axloqining asosiy tamoyillaridan biridir. Biroq, hanuzgacha psixologiya fanida mas’uliyat va kasbiy mahorat tushunchalarini asoslashga doir tadqiqotlar yetarli darajada emas. Aksariyat tadqiqotlar pedagogika fani doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy mahorat masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Umuman olganda, mas’uliyat tushunchasini nazariy jihatdan asoslash ishlari ko‘pchilik psixolog, sosiolog, huquqshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular asosan, muammoni turli tushunchalar erkinlik, subyektivlik, estetik ustunlik, ijtimoiy faollik tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘rganishgan. Bunday tadqiqotlar turkumiga J.Piaje, L.Kolberg , J.Rotterlarning izlanishlarini misol qilish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy mahoratni rivojlantirish ishlari o‘ta murakkab jarayon sanalib, hozirgi kunda uni shora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan ko‘plab psixologik-pedagogik shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mahalliy muhitda ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish ishlari hozirga qadar ilg‘or psixologik tadqiqotlarga zarurat sezmoqda. Chunki, kasbiy mahorat shunchaki ta’lim-tarbiya jarayoni bilan shakllanib qolmaydi balki, unda o‘qituvchi shaxsiga xos qadriyatlar tizimi, hissiy-irodaviy soha mazmuni, kognitiv sohani rivoji, kasbiy muvaffaqiyatni ta’minlovshi puxta o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik kabi sifatlarni rivojlantirish ishlari nazarda tutiladi. Bizningcha, oliy ta’lim sharoitida o‘quv mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli darajada tashkil etish kasbiy mahoratni rivojlantirishning dastlabki bosqichi sanaladi.

Yu.G.Taturning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy mahoratni rivojlantirish muvaffaqiyatli mashg‘ulotlarni tashkil etish qoidalari bilan uzviy bog‘liq sanalib, unda asosiy omil bu o‘quv motivlari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ichki aqliy imkoniyatlari hisoblanadi. Mashug‘ulotlar qanchalik qiziq bo‘lsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv motivatsiyasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Universitetning birinchi bosqich talabalari soha ma’lumotlariga ancha sezgir, qiziquvchan va faol bo‘ladi. Ikkinchi bosqichga o‘tib ta’lim muhitida o‘z-o‘zini boshqarish, o‘quv faoliyatidagi har qanday qiyinchiliklarga chidamlilik va vazifalarga bo‘lgan javobgarlik darajasi ancha oshishi kuzatiladi. Uchinchi bosqichga o‘tib ularda vazifalarni bajarishga bo‘lgan ijodkorlik qobiliyatlari to‘liq shakllanadi deb ta’kidlaydi. Mazkur fikr-mulohazalardan farqli o‘laroq, A.K.Markovaning fikricha, kasbiy mahoratning namoyon bo‘lishi bu professionalikka o‘tish sanalib, u quyidagi xususiyatlar orqali tushuntiriladi [90]:

7. Professional ishlash xususiyatlari – yuqori mahsuldorlik va samaradorlik;

8. Faoliyat subyektining bilimlari, qobiliyatlari va ko‘nikmalari –kasbiy mahorat, fikrlash uslubi, intuitsiya darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqillik, yuqori darajadagi malakalar va kasbiy kompetensiyalar;

9. Faoliyat subyektining individual psixologik fazilatlari – shaxs sifatida mehnat munosabatlarini rivojlantirish imkoniyati, ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi;

10. Kasbiy yo‘nalish orqali o‘zini o‘zi o‘zgartirish – kasbiy faoliyat talablari, kasbiy etikaviy normalar, axloqiy me’yorlar kabilarni o‘zlashtirish;

11. O‘zini kasbga va kasbni o‘ziga moslashtira olish ko‘nikmasi, hamkorlik qilishga qobiliyat;

12. Shaxs holatini tavsiflovshi belgilarga ega bo‘lish – ijobiy o‘z-o‘zini anglash, o‘z qadr-qimmatini bilish: ijobiy kayfiyatning ustunligi, o‘z kasbidan qoniqish, o‘zini mutaxassis sifatida qabul qilish, kasbiy motivatsiyaning barqarorligi, tajribaga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy mahoratni shakllantirish dinamik xarakterdagi hodisa bo‘lib, u domiy ravishda faollikni talab etadi. Ya’ni muvaffaqiyatli talablarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish o‘ta ahamiyatli sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida javobgarlik hissi namoyon bo‘lishini ta’minlovchi ichki imkoniyatlar – ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, kasbiy motivatsiya darajasi, dunyoqarash, kasbiy tafakkur va boshqalar.

Qoidaga ko‘ra, innovasion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish deb ta’riflanadi. Shuningdek, innovasion qobiliyat bo‘lajak soha egalarining motivlari, bilimlari, ko‘nikmalari, tajribasi, shaxsiy fazilatlari tizimini qamrab oluvshi murakkab xususiyat bo‘lib, u ilg‘or pedagogik tajriba va eng yangi texnologiyalarni kundalik hayotda professional tarzda samarali qo‘llay olish kabilar orqali ham xarakterlanadi.

–Rasmiy vazifalarni amalga oshirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, daxlsizlik va boshqalar. Ushbu qayd etilgan sifatlar bo‘lajak soha mutaxassislari uchun muhim sanalgan kasbiy fazilatlar sanalib, ularni shaxsda tarbiyalamasdan turib, mas’uliyatlilik haqida gapirish haqiqatdan holi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, psixologiya sohasidagi ayrim manbalarda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilar uchun shart sanalgan ba’zi xarakterologik fazilatlar sanab o‘tiladi:

1. Ijtimoiy-axloqiy fazilatlar: ijtimoiy va shaxsiy motivlarning uyg‘unligi, ijtimoiy mas’uliyat, burch hissi, majburiyatlarni bajarishdagi aniqlik va intizomlilik;

2. Intellektual fazilatlar: tezlik, moslashuvchanlik, mustaqillik va tanqidiy tafakkur, kreativ fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qila olish;

3. Tashkiliy va boshqaruv fazilatlar: talabchanlik, bo‘ysunuvchilarga hurmat va xushmuomalalik, so‘zga sodiqlik, boshqaruv, hissiy va ixtiyoriy barqarorlik;

4. Kommunikativ fazilatlar: yuqori darajada va haqiqiy o‘zini o‘zi anglash, o‘ziga ishonch, o‘zini hurmat qilish, hazil tuyg‘usi, savodxonlik, nutqning aniqligi va ekspressivligi va hokazo.

–Sohaga oid ilmiy adabiyotlarni muntazam o‘rganib borish;

–Mavzularni ilmiy, ommabop ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish;

–Tajribali soha mutaxassislarining ma’ruzalariga qatnasha borish;

–Amaliy bilimlarini oshirishda muzeylarga tashrif buyurish, turli ko‘rgazmalar tashkil etish, konsultatsiyalar olib borish;

–Ilmiy anjumanlar tashkil etish;

–Fakultet va universitetning ommaviy tadbirlariga qatnasha borish va hokazo. Talablarda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini tarbiyalash o‘ta muhim ishlar sifatida tan olinadi. U keyinshalik insonlar o‘rtasida faoliyatning erkin va faol subyekti bo‘la olishlariga keng imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqara olish ko‘nikmasi, shaxs hayotida ushragan qiyinshiliklarni ongli ravishda yengib o‘tishiga yordam beradi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash faoliyati uslubi tartibli va maqsadga muvofiq ravishda keshadi. Bir so‘z bilan aytganda, kasbiy mahorat fenomeni o‘z mazmunida ta’lim jarayonini samarador keshishini ta’minlovshi ko‘plab psixologik tarkiblardan tashkil topgan.

Zamonaviy psixologiyada inson va uning kasbiy sifatlari bilan bog‘liq ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazidagi ilmiy masala hisoblanadi. Ya’ni, inson kasbiy faoliyati uchun qanday sifatlar ma’qul yoki kasbiy kamolotini belgilovchi

asosiy psixologik xususiyatlar nimadan iborat va hokozo. Mazkur qarashlar o‘z-o‘zidan kasbiy mahorat tushunchasi ahamiyatini ta’kidlab, unga oid eng ilg‘or konsepsiyalar mazmunini o‘rganishni nazarda tutadi. Mazkur paragraf yuzasidan amalga oshirilgan nazariy tahlillar, bizda kasbiy mahorat tushunchasini asoslashga oid o‘ziga xos ayrim fikr-mulohazalarni yuzaga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдуллажонова М., Исақова М., Зокирова М., Исроилжонов С. Ижтимоий психологик тренингдан практикум/ Ўқув-услубий нашр. – Фарғона. 2003. – 68 б.
2. Алексеев А.А., Громова Л.А. Психогеометрия для менеджеров. – Л.: «
3. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.
4. Куницина В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
5. Майерс Д. Социальная психология. СПб.: «Питер», 1997. – 688 с.
6. Собирова Д.А. Социал интеллект: назария ва амалиёт/ Монография Тошкент.: “Фан”, 2013. – 160 б.

Shukurova Gulnoz Muhammadovna
Buxoro Pedagogika kolleji o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA KO‘RGAZMALI-OBRAZLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Maqolada kichik maktab yoshi o‘quvchilarida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishrga ta’sir qiluvchti pedagogik -pesixologik omillarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshi o‘quvchilarining o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarniilmiy asoslari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tafakkkur,kichik maktab yoshi, intellektual faollik, aqliy faoliyat, nutq, ko‘rgazmali-obrazli, o‘z-o‘zini rivojlantirish, intellektual qobiliyat assertiv xulq, guruhiy ta’sirlashuv, optimmallashtirish, qiziquvchanlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ВЫСТАВОЧНО-ИЗОБРАЖНОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В статье описаны роль и значение педагогических и психологических факторов, влияющих на развитие наглядно-образного мышления учащихся младших классов. Также раскрыты научные основы психологических механизмов, обеспечивающих эффективность учебной деятельности учащихся младшего школьного возраста.*

Ключевые слова: *мышление, младший школьный возраст, интеллектуальная деятельность, умственная деятельность, речь, наглядно-образное, саморазвитие, интеллектуальные способности, ассертивное поведение, групповое влияние, оптимизация, любознательность.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF ILLUSTRATIVE-FIGURATIVE THINKING IN EARLY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *The article describes the role and significance of pedagogical and psychological factors influencing the development of visual-figurative thinking in primary school students. It also reveals the scientific foundations of psychological mechanisms that ensure the effectiveness of educational activities of primary school students. *

Keywords: *thinking, primary school age, intellectual activity, mental activity, speech, visual-figurative, self-development, intellectual abilities, assertive behavior, group influence, optimization, curiosit*

Kirish. Jahonda yuqori darajadagi tafakkkurga ega, salohiyatli, bilimdon avlodni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotini ta’minlash va uning boshqa mamlakatlar orasidagi eng yuqori reytingini ta’minlash, jamiyatning rivojiga ta’sir etadigan eng asosiy omillar sifatida tadqiq qilinmoqda. Bugungi davrda «...yuqori tafakkurli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dastur yordamida qo‘llab-quvvatlash»[1] ga alohida e’tibor berish orqali ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatdan barqaror shaxsni tarbiyalash masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Ta’lim sohasidagi Xalqaro tashkilot «EDUCATION INTERNATIONAL»[2] ma’lumotlarga qaraganda dunyoda tafakkuri yuqori bolalarning umumiy soni 1-2% dan 20% gachani tashkil qilmoqda. Bu borada bolalarning faoliyat indikator ko‘rsatkichi sifatida

[1] National Association for Gifted Children «Pre-K to Grade 12 Gifted Education Programming Standards». 2019. http://www.nagc.org/resources-publications/resources/national-standards-gifted-and-talented-education.
[2] https://www.ei-ie.org/en

salohiyatini yuksak tafakkur mezonlari orqali belgilanishi, uning kreativligi, iqtidori, intellektual qobiliyati, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish zaruratini yuzaga kelmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning samarali usullari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. **OECD (2020)** ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim jarayonida texnologiyalarning qo'llanilishi, jumladan, vizual va obrazli vositalardan foydalanish bolalarning qabul qilish va tushunish ko'rsatkichlarini **40% ga oshiradi**[1]. Bu ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarning bilish jarayonlarini, xususan, ulardagi ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish orqali ular bilimlarini o'zlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik to'siqlarni bartaraf etish muammosini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Metodologiya. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof - olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi kichik maktab yoshidagi o'quvchi tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo'ladi.Maktabda o'qitiladigan fanlar kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi.

J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z -o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab kichik maktab yoshidagi o'quvchi endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtayi nazaridan ham, pedagogik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bu yosh oralig'i 5-8 sinfga to'g'ri keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'quvchilarning ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi.Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga

[1] https://one.oecd.org/document/EDU/WKP(2020)14/en/pdf

mujassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Nutq tafakkur qurolidir. Ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon.

O`quv jarayonida hosil qilingan bilimlardan tashqari o`quvchi shaxsini shakllantirishga o`quv faoliyatining o`zi ham ta’sir ko`rsatadi, chunki bu faoliyatni o`zlashtirish va amalga oshirish xam psixikaning muayyan darajada rivojlangan bo`lishini taqozo etadi. O`quv faoliyati jarayonida o`quvchi o`qituvchi rahbarligida o`quv faoliyatining barcha komponentlarini egallab oladi. Bu o`quvchining o`quv subyekti sifatida qaror topishiga shart-sharoit yaratadi.

O‘quvchi-yoshlarning o‘qishga munosabati ularning qiziqishlarida, motiv va motivatsiyalarida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Ana shu boisdan o‘quv motivlari va motivatsiyalarini tadqiqot qilish bo‘lganligi uchun dolzarb muammoga aylanib qoldi.O’zbekiston psixolog olimlaridan Sh.Alimboyeva, M.Bekmurodov, Sh.Barotov, M.Davletshin, Z.Ibodullayev, A.Jabborov, V.Karimova, Z.Kamaliddinova, D.Muhammedova, Z.Nishanova, N.Z.Jumayev, Q.Nazarov, N.Sog‘inov, N.Safayev, G.To’lagonova, B.Umarov, E.G‘oziyev va G‘.Shoumarov kabi o’zbek psixolog olimlari shaxs tafakkuri va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, shaxsning muloqoti, ongi, xulqi, xarakteri kabi muammolarini u yoki bu darajada o’rganishgan.

Tafakkurning ahamiyati to’g‘risida O’zbekistonda psixologiya faning ilk asoschilaridan bo’lgan professor M.Davletshin quyidagi fikrni bildiradi: “Odam ko’zining alohida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlaq chegara emas. Bizning ko’zimizga boshqa sezgilargina qo’shilib qolmay, balki shu bilan birga tafakkurimizning faoliyati ham qo’shiladi”. Professor E.G‘oziyev yuqorida nomlari keltirilgan psixolog olimlar tomonidan tafakkurga berilgan ta’riflarga tayangan holda yaxlit ta’rifni keltirib, quyidagicha izoh bergan: “tafakkur – atrof - muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo’naltirilgan aqliy faoliyatdir. Olim o’z fikrlarini davom ettirib: “tafakkur - inson aqliy faoliyatining aql-zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek insonning keng ko’lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, go’ya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi” - deb izohlagan.

Xulosa. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida ko‘rgazmali-obrazli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish-ta’lim sohasining muhim yo‘nalishi bo‘lib u har tomonlama barkamol, komil insonni tarbiyalashning asosi bo‘lib, aynan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish va bu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi ta’lim sifatini tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladi;

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarbligini e’tiborga olsak, turli fan mutaxassislari tomonidan mazkur muammoga ijodiy yondashuv, uning xilma- xil jihatlarini yoritishga harakat qilinayotganini ijobiy baholash mumkin. Biroq mantiqiy tafakkur tushunchasining aniq ta’rifining haligacha ishlab chiqilmaganligi muammoga atroflicha yondashuvni talab qiladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilaridako‘rgazmali-obrazli tafakkurini rivojlantirish-yaxlit tizim sifatida ta’limning maqsadi, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, ta’lim mazmuni, shakl, metod va vosita, ta’lim natijalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilaridako‘rgazmali-obrazli tafakkurlarini rivojlantirishda muayyan tafakkur operatsiyalaridan foydalanish talab etiladi. Bular: analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, hukm, xulosa chiqarish va boshqalar hisoblanadi. Matematika darslarida o‘quvchilar ushbu tafakkur operatsiyalari orqali o‘quv materialini o‘zlashtirishadi va ta’lim jarayonining kafolatlangan natijasini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.

2. Айзенк*Г.Ю.* Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111–131.

3. Гилфорд Дж. Три стороныинтеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – М.: 1965. – С 433 -456.

4. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. – Саратов : Изд-во Сарат. ун-та, 1990 – Ч.1 –137 с; Ч. 2-С. 139-292.

5. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.

6.Sternberg R.J. Creativity for the new Millennium. «-», 2001.

7. ҒозиевЭ.Ғ. УсмоноваШ. Интеллектпсихологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.

8. Ғозиев Э.Ғ.Онтогенез психологияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 2010, – 360 б.

Soliyev Oybek Farhodjonovich
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGLARNING TASHKILOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchilar mustaqil, ijodkor, faol, tashabbuskor, foyda olishga qodir, g‘oyalarni taklif qilish va ishlab chiqish, noan’anaviy yechimlarni topish bo‘yicha ma’lumotlar beriladi. Buni o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvsiz amalga oshirish mumkin emas.*

Kalit so‘zlar: *tashabbuskor, kreativ, tendensiya, konstruktiv, integrativ.*

ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ НАВЫКОВ ПЕДАГОГИ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о том, насколько преподаватели независимы, креативны, активны, инициативны, умеют приносить прибыль, предлагать и развивать идеи, находить нетрадиционные решения. Это невозможно сделать без личностно-ориентированного подхода к обучению.*

Ключевые слова: *инициативный, творческий, тенденциозный, конструктивный, интегративный.*

BASIC FUNDAMENTALS OF DEVELOPING TEACHERS’ ORGANIZATIONAL SKILLS

Abstract. *This article provides information on how teachers are independent, creative, active, proactive, able to profit, propose and develop ideas, and find non-traditional solutions. This cannot be done without a person-centered approach to teaching.*

Key words: *initiative, creative, tendency, constructive, integrative.*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga qo‘yiladigan talablardan biri rivojlanayotgan jamiyatga tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, kreativligi bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash. Ta’limning asosiy maqsadi — bu mehnat bozorida raqobatbardosh, o‘z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlash, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon standartlari darajasida samarali ish, doimiy kasbiy o‘sishga, o‘zini-o‘zi doimo rivojlantirib borishi muhimdir. Mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar shuni ko‘rsatadiki, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotining muvaffaqiyati va samaradorligi ta’lim muassasasining bitiruvchisi kasbiy faoliyatga qanday kirishiga, uning faol ijodiy faoliyatga qanchalik tayyorligiga, ehtiyojlarini shakllantirganiga, o‘zini takomillashtirish va kasbiy o‘sishga bog‘liq hisoblanadi[1]. Faoliyatning zamonaviy sharoitda eng mukammal ko‘rinishi – mutaxassisning innovatsion, ijodiy faoliyati. Bugungi kunda mutaxassis ishlab chiqarishda mustaqil, ijodkor, faol, tashabbuskor, foyda olishga qodir, g‘oyalarni taklif qilish va ishlab chiqish, noan’anaviy yechimlarni topish muhim. Buni o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvsiz amalga oshirish mumkin emas. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimi markazida turadi. Bunday rivojlanishning o‘lchovi ta’limning asosiy natijasi, yaxlitlikda o‘qituvchi, tarbiyachi, boshqaruvchi, tarbiyaviy muassasa ish sifati mezoni, deya e’lon qilinadi. Bunday yondashuv ta’lim oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatlari, imkoniyatlari, erkinlik va adolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdan kuzatilgan maqsad – kishida o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini yo‘naltira olish, o‘z taqdirini o‘zi belgilay olish mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishki, bular shaxsiy, o‘ziga xos obrazning shakllanishi, kishilar, tabiat, madaniyat bilan dialogik o‘zaro munosabatlari uchun zarurdir. Shu bilan birga biz o‘zining imkoniyatlarini amalga oshirish, deb kishi tomonidan unda mavjud iste’dod

va qobiliyatni eng yuqori darajada rivojlantirish jarayoni va natijasini, ularning amaliyotda tatbiq qilinishini tushunamiz. Bu, shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini doimiy rivojlantirishidan xam iboratdir. O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘z harakatlari, muomalalari, intilishlari, manfaatlarini boshqa kishilar manfaatlari, harakatlari, intilishlari bilan moslashtirishga doimiy intilishidan, o‘zida ijtimoiy manfaatlarga amal qilishni vujudga keltirishdan, bunda o‘zidagi shaxsiy va takrorlanmas o‘ziga xoslikni yo‘qotmaslikdan iborat. O‘z o‘rnini belgilab olish — bu shaxsning ma’naviy, axloqiy o‘rnini shakllanishi, o‘zida “Men”ning o‘rin olishi, o‘ziga, jamiyatdagi, hayotdagi o‘z o‘rniga tushunib etishidan iborat. Oliy maktabda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning amalga oshirilishiga bo‘lgan zaruriyat oliy maktabni isloh qilish yo‘nalishida muhim yo‘nalishlarni ishlab boshqarish jarayonida rasmiylashtirilgan tahlil taraqqiyoti bilan o‘z tasdig‘ini topadi .

Mutaxassislar tayyorlash — bu turli xil omillar ta’sirida yuzaga keladigan uzoq, murakkab, qarama-qarshi jarayon bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri ularni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashdir. Mutaxassisning muvaffaqiyatli ilmiy faoliyati nafaqat uning ilmiy tajribasi va kasbiy aloqalari bilan, balki uning ilmiy tajribasi bilan ham belgilanadigan eng katta jarayondir. Bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish ya’ni, o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o‘rgatish, ma’lumot tahrirlash va tahlil qilish, tizimlashtirish faktlarni umumlashtirish va konferensiyalarda ma’ruzalar bilan qatnashishlarini tashkil etish lozim [2].

O‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalari mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashning eng samarali usuli, ilmiy salohiyatni faollashtirish va rivojlantirishning samarali vositasi. Zero, bugungi kunda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining tobora kuchayib borayotgan tendensiyasi sharoitida, mustaqil qaror qabul qiladigan tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyatlari ayniqsa muhimdir.

Bugungi kunda olib borilayotgan ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyati izlanishlarga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi vaqtda o‘quv jarayoniga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot va tajriba -konstruktiv faoliyatini joriy etish alohida ahamiyatga ega. raqobatbardosh mutaxassis tadqiqot bilimlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi va loyihalashtirishi, mustaqil harakat qilishi, noaniqlik sharoitida, o‘z-o‘zini takomillashtirishga (o‘z-o‘zini bilish), o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini hurmat qilishga, o‘zini o‘zi tartibga solishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga doimiy intilishi kerak [3]. O‘qitishdagi tadqiqot ta’lim oluvchilar o‘zlari o‘rganayotgan fanlarda qo‘llaniladigan asosiy tadqiqot usullari bilan tanishadilar, hodisalar va jarayonlarni o‘rganish orqali o‘zlari uchun mavjud bo‘lgan tadqiqot usullari elementlarini o‘zlashtiradilar va mustaqil ravishda yangi bilimlarni olish qobiliyatini egallaydilar. Tadqiqot tamoyilining qo‘llanilishi bo‘lajak o‘qituvchilarining bilim qobiliyatini, faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi, bilim va bilim faoliyati usullarini o‘zlashtirishga qiziqishni oshiradi.

O‘qituvchilarining tashkilotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining muhim tarkibiy qismi — oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish va tanlangan vazifalarni hal etish uchun pedagogik faoliyatni tashkil etishni belgilaydigan tamoyillardir.

Maqsadlarni belgilash, o‘z faoliyatini yejalashtirish va yejalashtirish, o‘z harakatlarini nazorat qilish va baholash, tanqidiy fikrlash va o‘z xulosalarini ishlab chiqish qobiliyati bo‘lajak o‘qituvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilariga ilmiy tadqiqot faoliyati asoslarini o‘rgatadigan, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning yangi tizimini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat ta’lim standartlarida, fan dasturlarida o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda adabiyotlarda tashkilotchilik ko‘nikmalari, tadqiqot faoliyati tushunchalari bo‘yicha har xil yondashuvlar mavjud.

o‘qituvchilarning tashkilotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘qituvchilarni tashkilotchilik faoliyatiga tayyorlash masalalari bo‘yicha qator izlanishlar olib borilgan.

B.Xodjayev, M.Urazova [3] tadqiqot ishlarida o‘quv loyihasidan foydalanish asosida loyihaviy ta’lim jarayoni ishtirokchilarida o‘z-o‘ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga erishish; tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish; qo‘lga

kiritiladigan natija uchun o‘quvchilarda jamoa bo‘lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish masalalarini o‘rgangan [105].

Ularning ta’kidlashicha, loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini hosil qilishga yo‘naltirilib (muammoning qo‘yish, axborotlarni to‘rlash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi [3].

